

88.56

A 12

**Dilbar Abdullayeva**



**DARSLIK**

# **OILA PSIXOLOGİYASI VA PSIXOTERAPIYASI**

88.56  
A 12

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Dilbar Abdullayeva**

**OILA PSIXOLOGIYASI  
VA PSIXOTERAPIYASI**

*(darslik)*

NIZOMIY NOMIDAGI  
TDPU  
AXBOROT-RESURS  
MARKAZI

932457

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»  
TOSHKENT - 2022**

UDK: 10.62.124(8)  
127(6O')12  
R 8

**Dilbar Abdullayeva**  
**Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi [Darslik] / – Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2022. -244 b**

#### ANNOTASIYA

Ushbu darslik DTS talablari asosida Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari, shuningdek amaliyotchi psixologlar uchun mo'ljallangan.

Oila psixologiyasi zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barqarorlik uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning o'z faoliyatlarida oilaviy hayot va undagi murakkab o'zaro munosabatlarning qonuniyatlari, mexanizmlari va oilaga psixologik xizmat ko'rsatish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Zero, oila psixologiyasi fan tarmog'i sifatida bo'lg'usi pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi ularning professional mahoratlarini o'stirish, mustaqil oilaviy hayotga tayyor bo'lishlari va fuqarolik jamiyatining yoshlarini oilani muqaddas bilishga o'rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

#### АННОТАЦИЯ

Психология семьи является одним из новых научных направлений и имеет практическую пользу в духовном обновлении и стабилизации общества. На сегодняшний день изучение психологических механизмов брачно-семейных отношений, закономерностей их протекания в реальной семейной жизни, формирование соответствующих навыков у студентов-бакалавров в деле организации различных психологических служб для семьи является весьма актуальной. Формирование знаний, умений и навыков у будущих педагогов, повышения их мастерства и компетентности по семейной психологии не только способствует подготовки их самих к семейной жизни, но и вооружит их навыками использования этих знаний в воспитании будущего поколения в духе уважения духовных ценностей народа, в том числе и семьи как важнейшего института гражданского общества.

#### ANNATATION

Psychological diagnostics is one of new scientific directions and has practical advantage to a society. For today use of methods of psychological diagnostics in educational process is an actual problem. Because by means of psycho diagnostics it is possible to reveal intellectual and personal abilities of the person, and also influence socially-psychological factors on it and, to that the husband very powerful preventive tool. The main objective of the given grant is to teach students the basic directions of psychology and use scientifically research methods in practical activities. Not looking at that given manual has practical character of application, theoretical knowledge in it is enough.

**Taqrizchilar:** Z.Nishonova - psixologiya fanlari doktori, professor  
N.Lutfullayeva - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-4821-6-6

© Dilbar Abdullayeva  
© «Ilm ziyo zakovat» 2022

## KIRISH

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog', omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

O'zbekiston aholisining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi - ya'ni, yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlardagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. Shu ma'noda oila - inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makon sanaladi.

Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi bo'lib, biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Xuddi shunday, mamlakatimizda ham oila va uning mustahkamligi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, uning asosiy yo'nalishlari sifatida oilaning tarbiyaviy-talimiy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-ahloqiy muhitni yaxshilash masalalari belgilangan<sup>1</sup>. Mazkur

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-3808-son. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2018 yil 27 iyun/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,

hujjatda oilalarda shaxsiy munosabatlarni yaxshilash alohida vazifa sifatida ko'rsatilgan. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Oila - jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo'ladigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanar ekan, jismonan sog'lom, ma'nan kuchli, e'tiqodi mustahkam, aqlan yetuk, yangicha fikrleydigan, ijod qiladigan barkamol avlodni yaratish uning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Oila psixologiyasi zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barqarorlik uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Shunday ekan, bo'lajak psixologlarning o'z faoliyatlarida oilaviy hayot va undagi murakkab o'zaro munosabatlarning qonuniyatlari, mexanizmlari va oilaga psixologik xizmat ko'rsatish masalalari to'g'risida bilim, malakaga ega bo'lishi muhim sanaladi. Mazkur qo'llanmada keltirilgan masalalarni bo'lajak psixologlar tomonidan o'zlashtirilishi ularning professional mahoratlarini o'stirish, mustaqil oilaviy hayotga tayyor bo'lishlari va fuqarolik jamiyatining yoshlarini oilani muqaddas bilishga o'rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

## I-BOB. OILA PSIXOLOGIYASI FAN SIFATIDA

### Reja:

1. Psixologik bilimlar tizimida oila psixologiyasining o'rnini
2. Oila psixologiyasining ilmiy fan sifatida shakllanishi
3. Oila psixologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari
4. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari

*Tayanch tushunchalar: nikoh, oila, oilaviy munosabatlar, oila psixologiyasi, nikoh tendensiyalari, ijtimoiy institut, qarindoshlik rishtalari, tadqiqot metodlari, kuzatish, suhbat, eksperiment, so'rov metodi*

### 1.1. Psixologik bilimlar tizimida oila psixologiyasining o'rnini

Oila psixologiyasini o'rganishdagi mashhur psixologlarning yondashuvlari, nikoh va oilaning konseptual modeli spektrini yuzaga keltiruvchi ko'plab nazariy farazlar psixologik bilim tizimida oila psixologiyasi o'rnini anglashning muhimligidan dalolat bermoqda.

Zamonaviy nikoh va oilaning muammolarini aniqlash, ularni tushunish va o'rganishning psixologik asoslarini belgilash zamonaviy oila tadqiqotlari va shu bilan bog'liq ravishda psixoterapevtik vazifalarning yetishmasligi sababli muhim hisoblanadi. Aksariyat psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy stereotiplar, ijtimoiy mafkura, tarkibiy qismlarga ajralish (dezintegratsiya), oilaning, asosan ko'p bolali oilaning ijtimoiy-psixologik maqomi o'zgarishi tahlil qilinadi. Ba'zi hollarda jamiyat hayoti modeli, xarakteri, ishlab chiqilgan diniy marosimlar, kundalik muloqot amaliyotining keskin o'zgarishi natijasida oilaviy qadriyatlarining deformatsiyasi, noaniqlik va hatto qisman yo'qotish kuzatiladi.

Oila psixologiyasi oilaviy munosabatlarda muvaffaqiyat va barqarorlikka, shuningdek ilmiy izlanishlarda evristik maqsadlarni amalga oshirishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Insoniyatning kelib chiqishiga bo'lgan qiziqish oila psixologiyasiga ilmiy qarashning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Oila psixologiyasi oilaning obektiv

qonuniyatlari, nikoh-oila va qarindoshlik munosabatlari mexanizmlarining paydo bo'lishini o'rganadigan fan sifatida yuzaga keldi. Oila psixologlari nikoh qonuniyatlari va e'tiqodlari, bo'ysunish va mustaqillik, muhabbat va nafrat, rolli o'zaro ta'sir va intim muloqot, ota-ona va bola munosabati va oilaning hayot sikli kabilarni o'rganadi. Oila psixologiyasi – insonlar qay tarzda nikoh juftliklari sifatida birlashishi va birgalikdagi faoliyatini qanday yo'lga qo'yishini o'rganish haqidagi fandır.

Bugungi kunda oila va nikohni o'rganuvchi butun fanlar kompleksi – oila sotsiologiyasi, oila psixologiyasi, oila pedagogikasi, oila psixoterapiyasi va oila konsultatsiyasi fanlari keng e'tirof etilmoqda. Ilmiy bilimning mazkur sohalarida tadqiqot predmetining murakkabligi va masalaning turli-tumanligi kabi metodologik va metodik birlik mavjud emas. Oilaviy hayot odamlar tomonidan ham obektiv vaziyat qoidalari bo'yicha, ham o'zlarining talqini muvofiq tarzda tashkillashtiriladi va o'zgartiriladi.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon bo'ldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog'i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bo'lib, uning shakllanishi yangi davrga to'g'ri keladi.

## **1.2. Oila psixologiyasining ilmiy fan sifatida shakllanishi**

Oila psixologiyasiga doir ilk qarashlarni oilani talqin qiluvchi mifologik va pandnoma tarzidagi tarixiy manbalarda uchratish mumkin. Muhabbat va nikoh-oila munosabatlari hamon faylasuflarni o'ylantirmoqda. Agar oilaviy munosabatlarni inson va uning oila tarixi borasidagi tug'ma mental refleksiya tushunchasi sifatida talqin qiladigan bo'lsak, uning manbalari Platon (“Davlat”, “Qonunlar”, “Ziyofat” dialoglari), Aristotel (“Siyosat”), Plutarx (“Kelin-kuyovlarga nasihat”), M.Monten (“Tajribalar”), I.Kant (“Fe'l-atvor metafizikasi”), G.Gegel (“Din falsafasi”, “Qonun falsafasi”), N.G.Chernishevskiy (Rendez-vous da rus kishisi), A.Shopengauer (“Turmush donishmandligiga oid aforizmlar”), P.A.Florenskiy (“Haqiqat ustuni va

tasdig'i"), V.V.Rozanov ("Rossiyada oilaviy masala") ning faylasufiy asarlarida uchraydi.

Asta-sekin faylasufiy tadqiqotlar o'rniga oilaning kelib chiqishi va rivojlanishiga doir etnografik va tarixiy tadqiqotlar keladi, keyinchalik hozirgi va kelajak oilalariga murojaat qiladigan psixologik tadqiqotlar siklida rivojlanadi. Zamonaviy fanda oiladagi patologik hodisalar va ularni bartaraf etishni tavsiflovchi juda ko'p manbalar to'plangan. Biroq ishlab chiqilgan va yetarli darajada tugallangan gnoseologik soha yo'q, chunki obektivlikning norasmiy munosabatlari, subektivizm, emotsional yaqinlik, muhabbat, simpatiya doim bu jarayondan chetlashtirilgan, "er-xotinlik rishtalari" va umuman oila, nikoh psixologik fenomenga aylandi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda oilaviy muammolarni o'ranishning quyidagi umumilmiy yo'nalishlarini ajratish mumkin: evolyusion, funksional, etologik, empirik va ilmiy.

**Evoluyusion yo'nalish.** Oilaviy munosabatlarning tarixiy qayta ishlashiga shveysariyalik tarixchi I.Y.Baxovenning 1861 yilda chiqargan "Onalik huquqi. Qadim davrlarda ginekokratiya tadqiqi va uning diniy va huquqiy tabiati" asari, shuningdek, shotland yuristi Dj.F.Maklennanning 1865 yilda nashr etilgan "Qadimgi nikoh" asarlari katta hissa bo'lib qo'shildi. Ikkala muallif ham nikoh shakllarining o'zgaruvchan ekanligini ta'kidlaydi.

Qadimgi davrlardanoq oilaviy tartibning "patriarxal"ligi haqida, shuningdek, "promiskuitet" nomini olgan betartib jinsiy aloqa haqida tasavvurlar mavjud bo'lgan. Inson tabiatiga javob beradigan va davlatning muvofiq bir bo'lagini shakllantiruvchi patriarxat g'oyalarini izchillik bilan rivojlantirgan Plattoni "Patriarxal nazariya" otasi deb atashadi. O'rta asrlarda patriarxal nazariya hukmronlik qilgan. Guruhiy nikoh g'oyalari Gerodotning "Tarix" kitobida qayd etilgan bo'lib, unda bir qator xalqlarda xotinning umumiyliigi ko'rsatiladi.

I.Y.Baxoven tomonidan ishlab chiqilgan geterizm konsepsiyasiga ko'ra barcha xalqlar onalik huquqi va jamiyatda ayolning yuqori mavqeiga ("ginekokratiya") asoslangan monogam nikoh va oila yo'nalishini bosib o'tadi.

Dj.Lebbok, I.Koler, M.M.Kovalevskiy, L.Shternberg, L.G.Morganlar tomonidan matriarxat g'oyasi va oilaning tarixiy rivojlanishiga urg'u berildi.

Tadqiqotchilar fikricha, naslning birinchi shakli jamoaviy xo'jalik va kuzatilgan juftliklardagi ekzogam-endogam nikoh munosabatlariga asoslangan onalik nasli hisoblanadi.

Onalikdan otalik nasliga o'tishi va monogam oilaning paydo bo'lishi bilan bog'liq oilaviy munosabatlar o'zgaruvchanligining asosiy sababi sifatida jamoaviy mulkning parchalanishi, xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lishi va xususiy mulk hamda vorislikning yuzaga kelganligida deb ko'rsatiladi.

Evolyusion yondashuv ekzogam onalik naslini almashtiruvchi dastlabki promiskuitet nazariyasidan kelib chiqadi. Keyinroq ekzogam tur nazariyasi ikki ekzogam qabilalarning birlashuvi yo'lida hosil bo'luvchi dual-genetik g'oyalari bilan to'ldiriladi.

P.A.Sorokinning ko'rsatishicha, evolyusion yondashuvning asosiy holatlari quyidagilardir:

1. deyarli barcha xalqlarda onalik qarindoshligi bo'yicha hisoblash otalik qarindoshligi hisobidan ustun bo'lgan;
2. jinsiy munosabatlarning dastlabki darajasida vaqtinchalik monogamik munosabatlar bilan bir qatorda nikoh munosabatlarining erkinligi hukmronlik qilgan;
3. nikoh evolyusiyasi jinsiy hayot erkinligini sekin-asta taqiqlashdan iborat bo'lgan;
4. nikoh evolyusiyasi guruhniy nikohdan monogam nikohga o'tish bilan yakunlangan.

Evolyusion yondashuvga muvofiq oilaviy munosabatlar progressiv yo'nalishda rivojlanadi: quyi shakllardan yuqoriga, bunda tarixiy oldindan belgilanganligi va oila hayot faoliyati hamda qarindoshlik tizimida ularning ijtimoiy asoslanganligi ta'kidlanadi. Shveysar psixologi A.Guggenbyul-Kreyg nikohga arxetipik ibtido(boshlanma)ning ifodalanishi sifatida qaraydi.

**Funksional yo'nalish.** Funksional yondashuvga muvofiq oilaviy munosabatlar oila hayot tarzi va oila tartibi oilaning ijtimoiy-madaniy funksiyasi bilan asoslanadi, nikoh, qarindoshlik va ota-onalik bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy rollar tizimida quriladi. Oilani o'rganishning strukturaviy-funksional yo'nalishi asoschisi E.Dyurkgeym oila butunligi, oila hayotida har bir oila a'zosining roli, ajrim va o'z joniga suiqasd mexanizmlarini ilmiy o'rganishga kuchini sarflagan. Olim bir qator oilaviy funksiyalar o'zgarishi va hatto urbanizatsiya ta'sirida yo'q bo'lib ketishiga e'tiborini qaratgan.

Funksional yondashuv faqat homila paydo bo'lgach va bola tug'ilgandagina nikoh munosabatlarini tan oladi. Oilaning tarixiy shakllari o'zgarishi, ekzogamiyaning paydo bo'lishi tabu inestetidan(yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo'lishini taqiqlash) kelib chiqadi. Tabu oilaviy munosabatlarning funksional integratsiyasi vositasi sifatida qaralgan. Nikoh ixtiyoriyligining (otonalarning kelishuvidagi nikoh o'rniga) uning o'zgaruvchanligiga, zamonaviy oila oila birdamligi miqdoriga kamayishi ta'siri ta'kidlanadi (E.Dyurkgeym).

Funksional yondashuvda oila funksiyalarining boshqa ijtimoiy institutlarga tarixiy o'tishining tahliliga katta e'tibor qaratiladi. U.Ogborn nomini asosida shaxslararo munosabatlar, ya'ni "oila-instituti"dan "oila-o'rtoqlik"ka (yoki er-xotinlik-sheriklik) o'tishi yotadigan ijtimoiy-madaniy ko'rsatmalar, oila kuzatuvlariga asoslangan oilaga o'tish fenomenining o'rnatilishi bilan bog'lashadi. Rossiyalik sotsiologlar A.I.Antonov va V.M.Medkov mazkur masalani oilani tugatish yoki saqlab qolishning asosiy motivlarini qaytadan ko'rib chiqish sifatida muhokama qilishadi.

Funksional yondashuvda mas'uliyatlilik masalasi kalit nuqta sifatida yuzaga chiqadi, tor ma'noda – ichki oilaviy munosabatlar, keng ma'noda esa – ijtimoiy munosabatlar mazmuni tushuniladi. Mas'uliyatlilik darajasi oilaviy munosabatlar dinamikasini yaratish qobiliyatiga ega.

**Etologik yo'nalish.** Bu yo'nalish manbalarini CH.Darvinning "Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish" kitobining yaratilishi bilan bog'lash mumkin.

Bu yo'nalish vakillari aasariyat hollarda qiyosiy etologiya metodlarini qo'llashadi. Etologlar nikoh munosabatlarining dastlabki shakli sifatidagi promiskuitetni rad etishadi, chunki u bolaning ota-onaga ega bo'lish va kattalarning onalik (ota-onalik) instinktiga bo'lgan instinktiv ehtiyojiga qarshi hisoblanadi.

Etologik yondashuvga muvofiq tarixiy davrda insoniyat nikoh munosabatlarining to'rt tizimini kuzatish mumkin: guruhiy nikoh, poliginiya (bir erkak va bir nechta ayollar), poliandriya (bitta ayol va bir nechta erkak) va monogamiya (bir ayol va bir erkak). Etologlar barcha sanab o'tilgan nikoh-oila munosabatlari shakllari va ularning o'zgaruvchanligining tabiiy xususiyatini ta'kidlashadi. Biologik nuqtai nazardan nikoh-oila munosabatlarining turli-tumanligi – ajablanarli fakt, chunki nikoh tizimi – tasviriy belgi va u doimiydir.

Etologik nuqtai nazarning g'ayrioddiyligi shundaki, u odam ajdodlarining azaldan monogamligi, so'ng evolyusiyaning qaysidir bosqichida guruhiy nikohga o'tib ketganligi borasidagi qarashlarni ilgari suradi. Monogam va guruhiy nikoh dasturlari uzoq muddat davom etgan. Keyinchalik odamlar hayot tarzining o'zgarishi bilan turli nikoh munosabatlariga osonlikcha o'tilgan. Masalan, Yevropada dehqonlarga ko'proq monogamiya, chorvador-ko'chmanchilarga esa poliginiya mos tushgan.

Etologik yondashuv doirasida jinslarning nikoh axloqi biologik motivlarida kardinal farqlar, nikoh munosabatlari davrida inversiya hodisasining ustunligi, ortiqcha giperseksuallik kuzatiladi.

Etologlarning fikricha, monogamiya – tabiiy tanlov nuqtai nazaridan ideal emas. Biologik evolyusiyaning eng qizg'in paytida inson tabiiy tanlovdan chiqib ketganligining sababi shundaki, muvaffaqiyatning asosiy sharti genetik uzatiladigan ma'lumot emas, balki nogenetik uzatiladigan bilimlar, ijtimoiylashuvga ehtiyojmandlikdir.

**Empirik yo'nalish.** Empirizmga muvofiq oila o'zining paydo bo'lishi, mavjud bo'lishi va parchalanishi tarixiga ega bo'lgan kichik ijtimoiy guruh sifatida o'rganiladi. Oilaviy munosabatlar oila a'zolarining emotsional yaqinligi, ularning ehtiyojlari va qiziqishlari asosida quriladi.

F.Le Ple empirik yo'nalishning asoschisi hisoblanadi. Le Ple empirik tadqiqot sifatida ichki oilaviy funksiya va oila mikromuhiti turli-tumanligining miqdoriy ifodalanishi tarzida oila byudjeti tahlilini keng qo'llagan. Le Ple oilaviy munosabatlarning o'zgaruvchan xususiyatini ta'kidlagan.

**Ilmiy yo'nalish.** U.Djems, CH.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freydlar Oilani o'rganishda ushbu yo'nalish asoschilari va tarafdorlaridir. Bu yondashuvda oilaviy munosabatlar shaxs va jamiyat o'zaro munosabatida o'rganiladi.

Shaxslararo munosabatlar, Men va Boshqa, yaqin munosabatlarning ahamiyatli xususiyati, oila "o'zaro munosabatdagi shaxslarning birligi", oila funksiyasining buzilishi, er-xotin kelishuvi, oilaviy qadriyatlarining muvofiqligi, oilaning strukturaviy tashkillashtirilishi, oila tizimining ishlashi-bularning barchasi ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi nazariyaning muhim bo'g'inlaridir.

Amerikalik sotsiolog R.Xill oilani o'rganishda nazariy sxema va konsepsiyalarning taxliliga katta hissa qo'shdi. R.Xillga muvofiq, oilani o'rganishdagi dastlabki 5 yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Institutsional-tarixiy yondashuv (evolyutsionizm);
2. Struktur-funksional yondashuv;
3. Interaksionistik-rolli tahlil, ramziy interaksionizm;
4. Vaziyatli-psixologik yondashuv;
5. Developmentalistik yondashuv (oilaning hayot sikli rivojiga asoslangan).

Dastlabki ikki yondashuv oilaning jamiyatda bajaradigan rol va funksiyalari, shuningdek, oilaviy struktura dinamikasi va ularning ijtimoiy oqibatlari bo'yicha o'rganishga yo'nalgan. So'nggi uchtasi shaxs va guruhning ijtimoiy xulqi nazariyasiga kiradi.

Oila psixologiyasi oldida turgan vazifalar yetarli darajada murakkab, masalan, hissiyotlarni baholash, nikoh qurishning u yoki bu motivlarini aniqlash, oilaviy muvaffaqiyatsizlikning sabablarini belgilash, oilaning ichki vaziyatiga inson qay darajada moslasha olishi yoki o'zgara olishini aniqlash kabilardan iborat.

**Oila psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.** Oila kichik guruh, ahamiyatli emotsional munosabatlar tizimi, ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi hamda sotsiologiya fanlarida o'rganiladi. Ota-ona va bola munosabatlari, tarbiya usullari, oilada bola rivojlanishi yosh va pedagogik psixologiyaning asosiy predmeti hisoblanadi. Oilaviy nizolar konfliktologiyada sinchiklab tekshirilgan va tasniflangan. Oila funksiyasining buzilishi psixik jarohat, oilaviy rollar patologizatsiyasi manbai sifatida klinik psixolog va terapevtlarning e'tiborini jalb qiladi. Shu bilan birga, oila psixologiyasi boshqa psixologik fanlar bilan chambarchas bog'liq. Biroq umumiy qiziqishlar bilan bir qatorda, oila psixologiyasining boshqa psixologik fanlardan farqli xususiyatlari mavjud. Agar sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar katta va kichik guruhlarini o'rgansa, oila psixologiyasi – o'ziga xos butun tuzilmani tashkil etadigan oilaga kiruvchi individlarni o'rganadi. Oiladagi aloqalar boshqa har qanday guruhdan farqli ravishda o'ziga xos – qarindoshlikka asoslangan bo'ladi. Sotsiolog er-xotin munosabatlarini o'rganar ekan, uning diqqat markazida nikoh, ajrim, oila siyosati tahlili turadi, oila psixologi esa muayyan kishilar nima uchun bir-birini o'ziga jalb qiladi, qanday qilib o'zaro murosaga kelishini tadqiq qiladi, ijtimoiy psixologni individning shaxsiy hayoti oila psixologidan ko'ra kamroq qiziqtiradi. Shaxs tadqiqi bilan shug'ullanuvchi psixologlar individlarning individual ichki mexanizmlari va farqlariga qaratadi. Oila psixologlari esa oilada tarbiya topgan individlarga o'z e'tiborini qaratadi. Klinik psixologiyadan farqli ravishda oila psixologiyasini meyordagi oilalar qiziqtiradi. Yosh va pedagogik psixologiyadan farqli ravishda oila psixologlari shaxs rivojlanishi va tarbiyasida oilaning o'rniga ahamiyat qaratadilar.

Bundan tashqari, umumiy tadqiqot metodlariga ega bo'lish bilan bir qatorda, oila psixologiyasi ularni qo'llashning o'ziga xos etik prinsiplari mavjud (maxfiylik, anonimlik, insonning shaxsiy hayotiga hurmat). Oila psixologiyasi bo'yicha eksperimentlarda u yoki bu omilni keng ko'lamda boshqarish uchun psixolog erkin harakat qila olmaydi. Shuningdek, individ uchun oila hayotining yuqori darajadagi emotsional mazmunga boyligi va ahamiyatligi tadqiqotchilardan ikki hissa ko'proq ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi.

Shunday qilib, oila psixologiyasi - nisbatan qisqa tarixga ega bo'lgan psixologik bilimning yosh tarmog'i hisoblanadi. Ilmiy masalaning yoshligi shundaki, dastlab amaliy talab yuzaga keldi, so'ng esa bu sohada ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi va amalga oshirildi. Oila psixologiyasi masalalariga nisbatan "noilmiy" yoki "yarimilmiy" degan munosabatlar ham uchragan. Fundamental fan uchun oila va nikoh tadqiqotlari bilan shug'ullanish jiddiy bo'lmagan. Bu esa oilada sodir bo'ladigan hodisalarga nisbatan ko'pincha mistik xususiyat kuzatiladi/

Oila psixologiyasini ilmiy o'rganishda bir qator obektiv va subektiv qiyinchiliklar kuzatiladi. Ulardan biri oson bo'lib tuyulayotgan uning predmeti, ochiq va tushunarli bilgan bog'liq. Umumiy, ijtimoiy, yosh psixologiyasi va shaxs psixologiyasida buyuk nazariyalar yaratildi, XX asrning birinchi yarmi mobaynida asosiy psixologik maktablar yuzaga keldi, oila psixologiyasida kichik masshtabdagi konsepsiyalar ishlab chiqildi.

Farqlarga qaramasdan, oila psixologiyasi va psixologik bilimning aralash sohalari oila rivojlanishi va ishlashining umumiy rasmini shakllantirish uchun bir-birini to'ldirib borishi zarur. Oila va nikoh tabiatiga nisbatan ko'plab nuqtai nazarlar mavjud, ularning har biri o'zining savol va javobiga ega. Bu qarashlar bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va bir-biriga zid bo'lmaydigan qarashlardir. Oila psixologiyasi – bu bir (lekin yagona emas) yo'nalish bo'lib, uning doirasida nikoh va oila qonuniyatlari hamda xususiyatlari borasidagi ilmiy bilimning shakllanishi yuz beradi.

Oilani kichik guruh sifatida ijtimoiy psixologiya, jiddiy hissiy munosabatlar tizimi sifatida shaxs psixologiyasi va ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy psixologiya fanlari tadqiq etadi. Ota – ona va bola munosabatlari, tarbiya uslublari yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning e'tibor bilan o'rganuvchi predmetlari hisoblanadi. Oilaviy nizolar konfliktologiyada puxta ishlangan va tasniflangan. Oila faoliyatining buzilishi psixik jaraohatlar, oilaviy rollar patologizatsiyasi sifatida klinik psixologlar va psixoterapevtlar e'tiborini o'ziga tortadi. Xuddi shu jihatdan oila psixologiyasi boshqa psixologik fanlar bilan chambarchas aloqaga ega. Ammo umumiy qiziqishlar bilan birga oila psixologiyasini unga o'xshash psixologik bilim

sohalaridan farqlab turuvchi o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Agar sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar guruhlarini (katta - kichik) o'rgansa, oila psixologiyasi oila kabi noyob yaxlit birikmaga kiruvchi individlarni tadqiq etadi. Bunga oilaning o'z a'zolari rivojiga, individning esa oila rivoji va hayotiga ta'sirini o'rganish ham kiradi. Oiladagi aloqalar boshqa har qanday guruhdan farq qiluvchi maxsus – qarindoshlik aloqalaridir. Turmush o'rtog'lar o'zaro munosabatlarini o'rganar ekan, sotsiolog o'z diqqat e'tiborini nikohlar, ajralishlar tensiyalari, oilaviy siyosat tahliliga qaratsa, oilaviy psixolog nima uchun muayyan insonlar bir – birini yoqtirishini, qay tarzda ular bir – biri bilan chiqishib ketishini tadqiq qilishi mumkin. Ijtimoiy psixologiya individning shaxsiy hayotiga oilaviy psixologga qaraganda kamroq qiziqishi mumkin.

Shaxs tadqiqoti bilan shug'ullanuvchi psixologlar individlar farqlari va individual ichki mexanizmlariga e'tibor qaratishsa, oilaviy psixologlar oilaviy tizim bilan aralashib birikib ketgan individga diqqatlarini jamlashadi. Klinik psixologiyadan farqli tarzda oila psixologiyasi normal faoliyat yuritayotgan farovon oila bilan ham qiziqadi. Yosh va pedagogik psixologiyadan farqli ravishda oila psixologiyasi kuchlari individ rivoji va tarbiyasining oilaviy kontekstiga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, oila psixologiyasi tadqiqotning umumiy metodlariga egalik qilish bilan birga ularni qo'llashda o'zining qat'iy axloqiy tamoyillariga (konfidensiallik, anonimlik, inson shaxsiy hayotini hurmat qilish) ega. Oila psixologiyasida eksperimentlarda psixologning u yoki bu omilni keng masshtabda manipulyatsiya qilish maqsadida faol aralashishi mumkin emas. Bundan tashqari oilaviy hayotning individ uchun nihoyatda hissiyotlarga boyligi va muhimligi tadqiqotchilardan ikki karra ehtiyotkorlikni talab etadi. Oilaviy tematika bo'yicha tadqiqotlarda muntazam tarzda ongli verbalizatsiya imkoni bo'lmagan "yopiq" zonalar uchrab turadi.

Nihoyat, oila psixologiyasi – psixologik bilimlarning nisbatan qisqa tarixga ega bo'lgan yosh sohasi hisoblanadi. Ilmiy problematika yoshligiga shu sababki, dastlab amaliy talab shakllangan, so'ngra esa ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar paydo bo'lgan

va kirib kelgan. Ko'pgina hollarda oila psixologiyasiga nisbatan "noilmiy" soha sifatida munosabatda bo'lingan. Fundamental fanlar oila va nikoh muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy qarashmagan. Bu shu bilan izohlanadiki, oilada yuz berayotgan hodisalarga ko'pgina hollarda mistik xarakter beriladi.

**Oilaga nisbatan eng katta umumiy yo'nalishga tayanadigan bo'lsak, ya'ni uni ijtimoiy institut va kichik guruh sifatida o'rganadigan bo'lsak, ta'kidlash joizki oila to'g'risidagi tasavvur jamiyat tomonidan topshirilgan qat'iy tan olingan funksiyalardan uzoqlashib, funksiyasi, roli va qadriyatlariga unga tegishli bo'lgan shaxslarga bog'liq bo'ladigan kichik guruh sifatidagi oila obraziga yaqinlashib borayotganini payqash mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, oila talqinida oila hosil qiladigan ehtiyojlardan uzoqlashish mumkin. Har bir oilaga xos bo'lgan xususiyatlar, avvalo, jamiyatning doimiy ta'sirida bo'lgan hayot faoliyatining asosiy sohalariga xos bo'ladi. O'z navbatida, ular oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Oilada turli shaxslararo aloqalarning in'ikosi sifatida nikoh-oila munosabatlari shakllanadi va rivojlanadi.**

Oilaga nisbatan bunday nuqtai nazar A.I.Zaxarova tomonidan ifodalangan: "Ijtimoiy psixologiyada "dastlabki guruh" tushunchasi mavjud. Bu guruhdagi aloqalar bevosita munosabatlarda, qatnashuvchilarning yuqori darajadagi o'xshashligi va qo'shib ketishini ta'minlovchi uning a'zolarini guruh ishlariga emotsional jalb qilish asosida o'rnatiladi. Bunday dastlabki guruh – yangi a'zolari "chetdan" "qabul qilish" evaziga emas, balki farzandlarning tug'ilishi munosabati bilan ko'payuvchi va kengayuvchi yagona guruh oila hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada hamkorlikda faoliyat yuritayotgan kishilarga kichik guruh deyiladi. Kichik guruh nafaqat jamiyatning individgata'siri sifatida emas, balki shaxsning jamiyatga, ya'ni o'zlashtirgan ijtimoiy g'oyalarini amalga oshiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Kichik guruh, xususan, oila – bu nafaqat kishilar o'rtasidagi har qanday oddiy aloqa emas, balki unda muayyan ijtimoiy aloqalar va bu kishilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshidagina aloqalardir.

Oila – kichik ijtimoiy guruh sifatida faqat o‘zigagina xos bo‘lgan bir qator psixologik xususiyatlarga ega:

- oila rivojlanishi jarayonida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan bir emas, balki bir nechta umumoilaviy maqsadlarning mavjudligi;
- oila a‘zolari qiziqishlari va maqsadlaridagi qisman farqlar;
- er-xtin juftligi, oiladagi o‘zaro ta’sirlar xarakterini belgilovchi o‘zaro munosabatlarning mavjudligi;
- unda turli avlod vakillarining mavjudligi va boshqa guruhlardan nisbatan a‘zolari o‘rtasidagi yaqin tanishuvning katta muddati;
- oila boshqa guruhlardagi kabi hamkorlik faoliyati bilan bog‘lanmagan<sup>1</sup>;
- oilaviy munosabatlarning ko‘p qirraliligi va ahamiyatligi;
- oida a‘zolarining o‘ziga xos ochiqligi va ularning o‘zaro bog‘langanligi.

### **1.3. Oila psixologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari**

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a‘zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog‘i sifatida u nikohga oid ustanovkalarini, oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g‘amxo‘rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo‘ysunish, yetakchilik kabi o‘ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va o‘zaro ta’siming jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi hissiy-emotsional bog‘liqlikni, oilaviy ro‘zg‘or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o‘rganadi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Торохтий В.С. Основы психолого-педагогического обеспечения социальной работы с семьей. М., 2000.

<sup>2</sup> Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T. 2008. -152 b.

## Oila psixologiyasi

*fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obyektiv qonuniyatlarini, oila - nikoh hamda qarindosh - urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi.*

«Oila psixologiyasi» fanining maqsadi — oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar, ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir.

«Oila psixologiyasi» fanining predmeti oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini tashkil etadi

Oila psixologiyasi fanining vazifalari:

- oilali shaxsning shakllanishidagi roli haqida yoshlarga tasavvur shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda kuzatiladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda bo'ladigan muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy tasavvurlar bilan tarbiyalash, ularni bu jarayonlarga tayyorlash;
- yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilardan saqlanishga o'rgatish;
- yoshlarning o'zlariga turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlash malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash;
- yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatishdan iborat.
- yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini o'rgatish;

## OILA PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

### "Oila psixologiyasi" fanining vazifalari

Oilani shaxsning shakllanishidagi roli haqida yoshlarda tassavurni shakllantirish

Yoshlarni oilaviy hayotda kuzatiladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish

Yoshlarni oilaviy hayotda bo'ladigan muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy tasavvurlar bilan tarbiyalash, ularni bu jarayonlarga tayyorlash

Yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilaridan saqlanishga o'rgatish

Yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini o'rgatish

Yoshlarning o'zlariga turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlash malakalarini shakllantirish

Yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash

Yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish

Yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash

Yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish

#### 1.4. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari

Hozirgi vaqtda ko'plab oila psixologiyasining yuqori darajada ishonchli o'rganish imkonini beruvchi verbal va noverbal metodlari ishlab chiqilgan.

Oila psixologiyasining asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- **Kuzatish metodi.** Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy vaziyatlarda

odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish hamda muntazam ravishda qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi. Bunda tadqiqot o'tkazayotgan psixologning kuzatayotganligini oila a'zolari sezmasliklari lozim. Psixolog kuzatilayotgan oila a'zolarining harakatlariga aralashmaydi. Kuzatuv natijalarini qayd etish, ko'rganlarini qanday bo'lsa shundayligicha yozib borish yoki esda saqlab qolib, keyin hech qanday subektiv xulosa, talqin yoki tahlilsiz daftariga belgilab borish tarzida kechadi.

- **Muayyan vaziyatlar tahlili metodi.** Muayyan oila muhiti yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga atroflicha kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs test o'tkazishi, oila a'zolarining tarjimai holini o'rganishi, biografik ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.
- **So'rov metodi.** Tadqiqot o'tkazish uchun psixolog oilaga borib, birdan hamma bilan birdan so'rov o'tkaza olmaydi, shuning uchun u kim bilan, qachon va qanday maqsadda so'rov o'tkazishi kerakligini aniqlab olishi, borishdan avval tanlovni belgilab qo'yishi lozim. Respondentlarni sinchiklab tanlashdan tashqari savollarni tuzishga, so'rovnoma kiritilgan har bir savolning ifodalanishiga e'tiborni qaratish zarur. Chunki bir shaxsga juda oson tuyulgan savol boshqa bir shaxs uchun qiyinchilik tug'dirishi, mavhum bo'lib tuyulishi mumkin. So'rov odatda bevosita yuzma-yuz ko'rishib bevosita yoki telefon orqali, yozma savolnoma tarzida o'tkazilishi mumkin. So'rov natijalarini haqqoniy va sinchkovlik bilan o'rganish talab etiladi. Oila psixologiyasida so'rovnoma orqali odamlarning fikrlari, munosabatlarini o'rganish keng tarqalgan.
- **Eksperiment.** Bu metod - bir omil ta'sirining boshqa bir omilning hosil qilishiga turtki bo'lishini aniqlash imkonini beruvchi yagona metoddir. Odatda oiladagi o'zaro munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu hodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda eksperiment metodi foydalaniladi. Eksperiment o'tkazishda eksperimental va nazorat guruhlarini tashkil qilish shart. Masalan bir necha xonadon eksperimental, ya'ni sinov o'tkazilayotgan guruh hisoblansa, boshqalari nazorat guruhi sifatida tadqiqotda qatnashadi,

eksperimentdan so'ng, olingan natijalar ikkala guruh misolida qiyoslanadi. Chunki bunday taqqoslash o'tkazilmasa, eksperiment o'tkazilgan guruhdagi o'zgarishlarning salmog'ini qayd etish mushkul bo'ladi.

- **Statistik metodlar.** Tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida matematik statistika metodlari qo'llaniladi. Ayniqsa, bir hodisa yoki holatning boshqa bir holat yoki hodisaning oqibati, sababi ekanligini isbot etish uchun statistik metodlarni qo'llash barcha tadqiqotlarning talablaridan biridir.

**Oilaviy munosabatlarni o'rganishdagi murakkabliklar.** Oila psixologiyasini ilmiy o'rganishda bir qator obektiv va subektiv qiyinchiliklar kuzatiladi. Ulardan biri oson bo'lib tuyulayotgan uning predmeti, ochiq va tushunarli bilgan bilan bog'liq. Umumiy, ijtimoiy, yosh psixologiyasi va shaxs psixologiyasida buyuk nazariyalar yaratildi, XX asrning birinchi yarmi mobaynida asosiy psixologik maktablar yuzaga keldi, oila psixologiyasida kichik masshtabdagi konsepsiyalar ishlab chiqildi.

Farqlarga qaramasdan, oila psixologiyasi va psixologik bilimning aralash sohalari oila rivojlanishi va ishlashining umumiy rasmni shakllantirish uchun bir-birini to'ldirib borishi zarur. Oila va nikoh tabiatiga nisbatan ko'plab nuqtai nazarlar mavjud, ularning har biri o'zining savol va javobiga ega. Bu qarashlar bir-birini o'zaro to'ldiruvchi va bir-biriga zid bo'lmaydigan qarashlardir. Oila psixologiyasi – bu bir (lekin yagona emas) yo'nalish bo'lib, uning doirasida nikoh va oila qonuniyatlari hamda xususiyatlari borasidagi ilmiy bilimning shakllanishi yuz beradi.

Oila psixologiyasidagi bilimlar obektivizatsiyasi funksional-rolli tahlil, oila a'zolarining bir-biri bilan emotsional munosabatlari tahlili hamda oila hayot siklining turli bosqichlarida oilaviy munosabatlar rivojlanish jarayoni tahlili orqali yuz berishi. Oila psixologiyasini mukammal o'rganish unga ta'sir qiluvchi turli sabab va omillar fonida ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Oila psixologiyasi nimani o'rganadi?
2. Oila psixologiyasi fanining predmeti nima?
3. Oila psixologiyasining vazifalari nimalardan iborat?
4. Oila psixologiyasining qanday metodlarini bilasiz?
5. Oila psixologiyasi qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?

**Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. **Oila psixologiyasi fanining predmeti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
  - a) Oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari
  - b) yoshlarni hayotga ilmiy asosda tayyorlash
  - c) yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash
  - d) yoshlarni oilani rejalatirishga o'rgatish

2. **Barcha zamon va makonlarda patriarxal oila ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo'ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo'lgan»,- degan fikrni ilgari surgan olimni toping**

- a) Platon;
- b) Aristotel;
- c) Z. Freyd;
- d) Demokrit

3. **Oila psixologiyasi fan sifatida nimani o'rganadi?**

- a) Oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obektiv qonuniyatlarini;
- b) erkaklarga nisbatan tanlab munosabatda bo'lish qonuniyatlarini;
- c) marosimlarni, urf odatlarni;
- d) muomala madaniyatini

4. **Qachondan boshlab oila psixologiyasi fan sifatida shakllangan?**

- a) XX asrning oxirlarida;

- b) XX asrning o'rtalarida;
- c) XX asrning boshlarida;
- d) XIX asrning boshlarida

5. Oila psixologiyasining asosiy tadqiqot metodlari qaysi javobda to'liq keltirilgan?

- a) Kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, so'rov, statistik metodlar;
- b) laboratoriya, intervyu, kontent analiz metodlari;
- c) kuzatuvchanlik, matematik statistika, so'rov metodlari
- d) test, intervyu, konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodlari

**Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar**

**"T-jadval" asosida oilani o'rganishda qo'llanadigan metodlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlang.**

1)

Oila muammolarini o'rganishda kuzatish metodining afzalliklari	Oila muammolarini o'rganishda kuzatish metodining kamchiliklari

2)

Oila muammolarini o'rganishda eksperiment metodining afzalliklari	Oila muammolarini o'rganishda eksperiment metodining kamchiliklari

## II BOB. OILA VA OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI QARASHLAR

### Reja:

1. Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi
2. Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an'analar
3. Oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar

*Tayanch tushunchalar: Ota avtoriteti, oila va nikoh muammosi, subektiv xulosa, biografik ma'lumotlar, so'rovnoma, ota-onalar universitetlari, oilaviy ustanovkalari, guruhiy oila, juftlik oila, yolg'iz onalar.*

### 2.1. Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi

Bugungi kunda nikohga kirishish va oila qurish shunchalik oddiy hodisaki, har doim shunday bo'lgandek taassurot qoldiradi. Bir nikohli oilaning paydo bo'lishi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumida promiskuitet, ya'ni tartibga solinmagan jinsiy aloqalar mavjud bo'lgan. Ibtidoiy tuzumdagi ayollarning umumiyligi va tartibsiz jinsiy aloqa mavjud bo'lganligi yangilik emas, biroq umuman boshqarilmaydigan jinsiy aloqalar bo'lganligi ehtimoldan xoli.

Promiskuitetga bo'lgan e'tiroz nikoh-oila munosabatlari evolyusiyasini aniqlashtirishga doir ma'lumotlarni beradi. Vireyning fikricha: "Agar qachonlardir bu kabi ayollar va mulk umumiyligi bo'lgan bo'lsa, bu faqat yovvoyilardek yashagan vaqtlar bo'lishi mumkin. O'sha paytda ayollar umumiyligi bo'lgan bo'lsa, o'zining ekanligiga to'la amin bo'lmagan qaysi bir erkak brolaga g'amxo'rlik qilishni o'z bo'yniga olishni istaydi. Ayol esa bolasini o'zi boqa olmaydi, bu holatda insoniyat mavjud bo'la olmas edi".

Urug'larning paydo bo'lishi bilan jinsiy aloqalar tartibga solingan, biroq bu vaqtni nikoh munosabatlari o'rnatildi deyish noto'g'ri bo'ladi. Jinsiy aloqalar nikohdan olin ham, undan tashqarida ham mavjud bo'lgan; axir nikoh jamiyat tomonidan qabul qilingan muayyan qoida va majburiyatlarni o'zida jamlaydi. Dastlab bunday majburiyatlar jinsiy munosabatlarni ta'minlaydigan ikki urug'ning

bitimini o'zida namoyon etadigan guruhiy nikoh paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Avvalo, guruhiy nikohda bolalarning moddiy ta'minoti va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan qoida va majburiyatlar yuzaga kelgan. Barcha bolalar ayollar guruhida bo'lgan, voyaga yetgach, o'g'il bolalar erkaklar guruhiga o'tgan; ayol asosiy rolga ega bo'ldi, ya'ni matriarxat asri kirib keldi.

Aksariyat xalqlarda barcha oilaviy huquqlar asosida otaning emas, ona nasli yetakchilik qilganligi oldindan ma'lum. Bunga misol tariqasida onaning akasi yoki ukasi o'zining bolalaridan tashqari jiyanini ham merosxo'r qilishini keltirish mumkin. Shu va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlar asosida dastlab matriarxat mavjud bo'lgan degan xulosaga kelingan. U ayolning boshchilik qilishida emas, balki ayolning ko'pfunksionalligiga asoslangan.

Ayollar guruhi va erkaklar guruhi yonma-yon yashagan, birga xo'jalik yuritishgan. Dastlab nikoh, oila bo'lmagan, faqat urug' bitimlari mavjud bo'lgan, ularda "kommunal nikoh" hukmronlik qilgan. Kichik bir guruh a'zosi bo'lgan har bir erkak o'zini o'sha guruhdagi barcha ayollarning eri deb hisoblagan. Ibtidoiy xalqlardagi bu kabi jinsiy aloqalar geterizm deb ataladi. Insoniyatning ibtidoiy davrida quyidagi nikoh-oila munosabatlari mavjud bo'lgan:

1. Qarindoshlardan tashkil topgan ajralmas oila; ayol va bolalar muayyan er va otaga ega bo'lmagan, ular guruhning barcha erkaklariga tegishli bo'lgan.

2. Segmentar oila: oila boshlig'i alohida ayolga ega bo'lgan, aka-ukalarda – umumiy ayollar, barcha opa-singillarda bir nechta umumiy er mavjud bo'lgan.

3. Individual oila: ayollar umumiyliги yo'q qilingan, har bir erkak bir yoki bir nechta ayolga ega bo'lgan (monoginiya, poliginiya) yoki ayol Shu tariqa, monogam oilaga bo'lgan yo'l uzoq va murakkab bo'lgan. Jinslar o'rtasidagi munosabatlar doim xiyonatni boshidan kechirgan. U hozirda ham yuz bermoqda: erkak va ayollarning jinsiy-rolli xulqqa nisbatan qarashlari, oila funksiyalari o'zgarmoqda.

Qadimgi dunyoda nikoh. Shahar sivilizatsiyasining yuzaga kelishi, yozuv va o'qish ko'nikmalarining rivojlanishi Qadimgi Vavilonda yuzaga kelgan nikoh to'g'risidagi dastlabki yozma qonunlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'sha vaqtlarda nikoh iqtisodiy bitim ham hisoblangan: bo'lajak er qizni otasiga pul to'lab

olishi lozim bo'lgan. Barcha qadimgi madaniyatda nikoh-bitimi va nikoh-kelishuvi odatiy hodisa bo'lgan.

Qadimgi Misrda nikohga iqtisodiy va siyosiy asoslarga ko'ra ham kirishilgan. Meros yer yoki oiladan meros qolayotgan davlat lavozimlarini bo'lishmaslik uchun ko'p hollarda aka va singillar nikoh qurishgan. Monogamiyaning dastlabki tarixiy shakli – patriarxal oila ota tomonidan boshqariladi.

Matriarxat davrida meros doim ayol qarindoshlari tomoniga berilgan, nikoh bitimlarida erning mulki ko'pincha kelinning ixtiyoriga topshirilgan. Shu bilan bog'liq ravishda aksariyat fir'avnlr o'z singillari hatto qizlariga uylanishgan, bu esa ularga taxt, sulola va merosni saqlab qolishga yordam bergan.

Kleopatra (er.avv.69-30) dastlab o'z akasi, uning o'limidan so'ng kichik ukasiga turmushga chiqqan. Bunday har bir nikoh er-xotinga Misrni boshqarish huquqini saqlashga yordam bergan.

Qadimgi gretsiyada quldorlik davrida ayollarning 4 turi ajratilgan:

1. matronlar – hurmatli, turmushga chiqqan ayollar, bolalarning onasi;
2. geterlar – ma'lumotli va iqtidorli ayollar;
3. plebeylarga jazman hisoblangan qullar;
4. kohinlar – turli kultlar xizmatkorlari.

Qadimgi Spartada spartanlar ayoliga undan ijozat so'ragan har qanday erkak bilan jinsiy aloqaga ruxsat bergan. Bunda ayol boshqa erkakda ko'rgan bolasi bilan birga erining uyida qolgan (agar u sog'lom, tetik o'g'il bola bo'lsa). Buni holatni spartanliklarning nikohdan yagona maqsadi faqatgina bola tug'ilishi deb bilganliklari bilan izohlash mumkin.

Ibtidoiy xalqlarda poligamiyaning mavjudligini ikki sabab bilan bog'lashadi:

1. Ularda "yakka xudolik" mavjud bo'lmagan – xudolarning panteoni mavjud bo'lgan: katta va bo'ysunuvchi;
2. Askezaning mavjud emasligi.

Poligamiya asosan dini islom hukmron bo'lgan davlatlarda o'rnatilgan, u yerda o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ko'proq tug'ilgan, bundan tashqari uzluksiz janglar tufayli bu holat yanada ko'paygan. Shariat qoidalariga ko'ra

musulmon kishi 4 tagacha xotinga ega bo'lishi mumkin, jazmanlar soni cheklanmagan. Poligam munosabatlar muhabbatni umuman rad etishmaydi, biroq monogam oilalarda har doim ham muhabbat uchrayvermaydi.

Birinchidan, poliandriya ayol o'z didiga mos erni tanlagan vaqtlar, ya'ni matriarxat davrida oqibatida yuzaga kelgan; ikkinchidan, ba'zi xalqlarda kelin uchun juda katta qalin puli solishgan, shuning uchun ota-onalar bir nechta aka-ukalarga bitta xotin "sotib olish"ga majbur bo'lishgan; uchinchidan, nikoh yoshida erkaklarga nisbatan ayollarning soni ahamiyatli darajada oshib ketganligi<sup>1</sup>.

Nikoh munosabatlari rivojlanishining keyingi bosqichi hozirgi ko'rinishdagi monogam nikohdir. Xususiy mulk va ayirboshlash savdning paydo bo'lishi bilan sekin-asta erkak kishi asosiy o'ringa chiqa boshladi. Agar juftlik oilada erkak ham, ayol ham moddiy va kundalik manfaatlar uchun o'z imkoniyatlari darajasida ishtirok etishgan bo'lsa, endilikda ayol tobora o'z mavqeini yo'qotib boradi va er boshqaruvni o'z qo'liga ola boshladi. Ayollarning vazifasi otasiga merosxo'r bo'ladigan farzand dunyoga keltirishdan iborat bo'lib qoldi. Er-xotin sadoqati asosiy o'ringa chiqa boshladi. Onalik sadoqati shubhasiz aniq, otalik sadoqati esa yo'q. Erning o'z shaxsiy bolasini merosxo'r qilishininig yagona "ishonchli" usuli – ayolni qattiq nazorat ostida tutish va cheklovlar qo'yishdir. Patriarxat o'z psixologik mohiyatiga ko'ra er hukmronligini emas, balki ota hukmronligini ifodalaydi, chunki u meros huquqi bilan bog'liq. Shu ma'noda, monogam ittifoqni bir tomonlama-juftlik aloqasi sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi: ayol monogamiyaga o'tdi, erkak esa yo'q.

Yangi eramizga qadar bir necha mingyilliklarda Vavilon shohi Xammurapi qonunlarida er-xotin tengsizligi qayd etilgan – kodeks monogamiyani tan oladi, biroq erga jazman olishga ruxsat beradi, xiyonat uchun ayolni qattiq jazolaydi. Qadimgi va O'rta asrlarda bunga o'xshash qonunlar barcha davlatlarda tarqalgan edi.

---

<sup>1</sup> Куприянич Л. Л. Психология любви. Донецк, 1998.

Biroq ko‘pincha erkak va ayollarning uchrashuvi tanlov xususiyatiga ega bo‘la boshladi, bu tobora tanlov asosidagi er-xotinlik sifatida mustahkamlandi. Ehtimol, bunda ayol katta rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Ayolni cheklab, uy ishlariga “bog‘lab”, erning ixtiyoriga merosxo‘rni parvarishlovchi sifatida topshirishar ekan, u “sevimli” er bo‘lishi lozim. Monogamiya tobora yetakchilik rolidan yetakchi qadriyat xarakteriga ega bo‘la boshladi. Monogam juftliklarda tanlov katta ahamiyatga ega, oilalar sevgi asosida quriladi, er-xotin sadoqati qadrlanadi.

Tarixda birinchi marotaba 1793 yil Fransiya revolyusiyasi qonun oldida er va xotin tengligini e‘lon qildi. Bu oila a‘zolarida hatto do‘stona munosabatlarni ham ko‘rish mushkul. Bu insonlar bir-biri bilan faqat majburiyat asosida yashayotgandek tuyuladi. Bunday oilalarda yumor kinoya, piching hatto masxaraga aylanadi. Kattalar bolalariga va bir-biriga nima qilish-qilmaslik to‘g‘risida nihoyasiz gapirishadi, ularda quvnoq muloqot uchun imkoniyat ham qolmaydi.

## **2.2. Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an‘analar**

Bir qarashda yangicha tuyulgan monogam oiladagi o‘zgarishlar XX asrning boshlaridayoq kuzatila boshlangan. Olimlarning ta‘kidlashicha, oila institutining o‘zi tabiati nuqtai nazaridan ancha konservativ, ya‘ni o‘zgarimas, turg‘un tizim bo‘lgani bois, jamiyat miqyosida ro‘y beradigan o‘zgarishlar oila doirasida taxminan 10-30-yillardan keyingina aks eta boshlaydi. Bundan tashqari, rus sotsiologi *S.Golodning* yozishicha, Yevropa xalqlari hayotida, oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan barcha ijobiy jarayonlar monogam, patriarxal oilaning saqlanib qolingani sababli ro‘y bergan bo‘lsa, qolgan barcha salbiy holatlar aksincha, oilada ro‘y berayotgan salbiy, yomon jarayonlardan kelib chiqadi. Bu kabi talqinlar tabiiyki, ko‘plab tadqiqotchilarga oila va uning istiqbolini tushunishga, mazkur yo‘nalishda jiddiy tadqiqotlar olib borishga xalaqit beradi.

Shunga qaramay, oila institutida kuzatilayotgan har qanday o‘zgarishlari odatda eng avvalo, ayolning - xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o‘zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog‘onalarida erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi

bilan izohlanadi. Qayd etilgan holat bevosita oila hayotida ro'y berayotgan turli xil o'zgarishlarga, ham salbiy, ham ijobiy hodisalarga sabab bo'lmoqda.

Ikkala jins vakillari xaq-huquqlarining amalda tenglashib borayotganligi xotinqizlarning erkaklar – yigitlar oldida o'zini tutishi va o'z navbatida yigitlarning qizlarga, erkaklarning ayoliga bo'lgan munosabatlari, xushomad qilishlarida o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, Yevropa xalqlarida nikoh oldi sovchilik instituti yo'qolib, uning o'rniga o'z xohishi bilan o'ziga nikoh sheriginini tanlashi an'anasi barqarorlashdi. Lekin ayni holat saqlanib qolgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda oila institutiga munosabat boshqacharoq, ya'ni an'analarga sodiqlik saqlanib qolgan. Sovchilikning ahamiyati shundaki, bunda o'rtada turganlar, kelinkuyov oilasini tanigan, bilgan, surishtirgan odamlar bo'lgani sababli ham ular yosh oilaning mustahkam bo'lishidan juda manfaatdordirlar, shuning uchun haqiqiy o'zbekona mezonlar, "teng-tengi bilan" tamoyili asosida, sovchilar yordamida qurilgan nikohlar aksariyat holatlarda mustahkam bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir davrda bo'lgani kabi hozir ham yoshlarning o'z ixtiyori bilan, bir-birlarini yoqtirib qolishlari oqibatida paydo bo'lgan oilalar mavjud. Yoshlarning ayrimlari o'z ixtiyori bilan qalliq tanlashni, yoqtirib, sevib turmush qurishni oldindan niyat qiladi. Shunisi borki, o'z ixtiyori bilan turmush o'rtog'i tanlashda ota-ona va oilasi manfaatlari, ularning istak-xohishlari deyarli inobatga olinmaydi. Odatda bu kabi yoshlar nikoh oldidan ota-otasining roziligini olmaydi, shu sababli, ko'pincha, bunday nikoh yengil-yelpi qarorlar oqibati bo'lib, uzoqqa bormasligi mumkin.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi tufayli XX asrga kelib ayolning oila va jamiyatda tutgan o'rni va maqomi keskin o'zgardi. Oxirgi paytlarda butun dunyoda matriarxat davridagi kabi oilaning yetakchisi, boshlig'i roliga ko'pincha ayol da'vogarlik qila boshlashi kuzatildi. Buning oqibatida erkak kishining oiladagi yetakchilik roli, oilada resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish va farzandlarni jamiyat hayotiga jalb etishdagi maqomi sezilarli darajada pastladi.

Ikkinchi tomondan, ayol-onaning oilasi va bola tarbiyasi uchun bo'sh vaqtining kamayib borayotganligi, reproduktiv mas'uliyatning jamiyatda lavozimlar

pogʻonasida yuqoriroq oʻrin egallash istagiga nisbatan pastlab borayotganligi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Shu sababli sanoati rivojlangan mamlakatlarda tugʻilishlar sonining kamayib borayotganligi, oqibatda aholi sonining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Afsuski, bunday holatlar Oʻzbekistonning shahar hududlarida ham kuzatilmoqda.

Oilaning tarbiyalovchi vazifasi oila aʼzolaridan tashqari boshqa insonlarga, muassasalarga – enaga va gubernantkalariga, yoki davlat tomonidan toʻla muhofazaga olingan tashkilotlar – Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari va boshqalar zimmasiga yuklatilmoqda. Sobiq totalitar tuzum davrida ushbu vazifaning davlat zimmasida ekanligi, individual, oilaviy tarbiyaning gruppaviy tarbiya bilan, tarbiyalanuvchi shaxsiga eʼtiborning keskin kamayishi bilan oʻzgartirildi. Oqibatda hech kimga tegishli boʻlmagan, psixik va aqliy rivojlanishi oʻrtamiyona boʻlgan bolalar paydo boʻldi. Bu ochiq yoki yashirin onalik *deprivatsiyasini* keltirib chiqardi.

Yaʼni, XX asr oʻrtalariga kelib, monogam oilada oʻzgacha uygʻunlik kashf etgan, yaxlit guruhday tasavvur etilgan oilaning vazifalari – nikohga kirish, jinsiy hayotni taʼminlash va oʻzidan nasl qoldirish – reproduksiya bir-biri bilan bogʻlanmagan vazifalar tarzida ayrocha, alohida funksiyalarday tasavvur etila boshlandi. Agar XIX asr oxirlarigacha oila paydo boʻlishi bilan unda farzandlar tugʻilishini kutish odatga aylangan boʻlsa, yangi davrga kelib, qachon tashkil boʻlganligiga qaramay, bola tugʻilishini rejalashtirmaydigan oilalar hamda boshqa tomondan, oilasiz, nikohsiz ham tugʻiladigan bolalar koʻpaydi. Ochiqroq aytadigan boʻlsak, turmushga chiqmasa-da, bola tugʻadigan yolgʻiz onalar ham paydo boʻldi. Shu tariqa nikoh bilan oilaning reproduktiv vazifasi oʻrtasida tafovut paydo boʻldi.

Jinsiy hayot borasida sodir boʻlgan oʻzgarishlar shuki, agar ilgari bunday munosabat oiladan tashqarida roʻy bersa, jamiyat ham, din ham uni qoralari edi. Soʻnggi oʻn yilliklarda dunyo miqyosida erkaklar ham, ayollar ham erkin jinsiy hayotga oddiy munosabat sifatida qaraydigan boʻlishdi. Maʼnaviy inqiroz hisoblanmish bunday munosabatlarga jamiyatning befarqligi ilgʻor fikrlovchi insonlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Buning asosiy sababi jamiyatda maʼnaviy

qadriyatlar inqirozga yuz tutgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunga ayollar o'rtasida kontratseptiv vositalardan foydalanishning urf bo'lishi va ular o'zlariga berilgan ijtimoiy erkinliklarni noto'g'ri idrok etishlari, ommaviy axborot vositalari orqali u yoki bu xalq mentalitetiga mos kelmaydigan axborotlarning keng tarqalishi sabab bo'layotir.

Eng achinarlisi, ayrim yoshlar va ularning ota-onalari uchun "nikoh" va "ajrim" tushunchalari oddiy narsaday, ziddiyatsiz qabul qilinadigan bo'ldi. Ular o'z shaxsiy mas'uliyatini his etmayptilar. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda 51 foizgacha bo'lgan nikohlar muayyan muddatdan so'ng barbod bo'layotganligi odatiy holday qabul qilinadi. Chet el axborot vositalarining ba'zi taniqli shaxs, aktyor yoki millionerning har 3-4 yilda almashinib turiladigan nikohlari to'g'risida yozilayotgan maqolalari eng o'qimishli, qiziqarli axborotday talqin etilmoqda. Tabiiyki, bu ularni o'qiyotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday holatlarda ajrimlarning tashabbuskorlari ko'pincha ayollar bo'lib, bu o'z navbatida oila ajrimlari sonining ortib borishiga, farzandlarning aybsiz aybdorlarday noto'liq oilalarda tarbiyalanishiga olib keladi.

**Oila kichik guruh sifatida.** Oilaga nisbatan eng katta umumiy yo'nalishga tayanadigan bo'lsak, ya'ni uni ijtimoiy institut va kichik guruh sifatida o'rganadigan bo'lsak, ta'kidlash joizki oila to'g'risidagi tasavvur jamiyat tomonidan topshirilgan qat'iy tan olingan funksiyalardan uzoqlashib, funksiyasi, roli va qadriyatlari unga tegishli bo'lgan shaxslarga bog'liq bo'ladigan kichik guruh sifatidagi oila obraziga yaqinlashib borayotganini payqash mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, oila talqinida oila hosil qiladigan ehtiyojlardan uzoqlashish mumkin. Har bir oilaga xos bo'lgan xususiyatlar, avvalo, jamiyatning doimiy ta'sirida bo'lgan hayot faoliyatining asosiy sohalariga xos bo'ladi. O'z navbatida, ular oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Oilada turli shaxslararo aloqalarning in'ikosi sifatida nikoh-oila munosabatlari shakllanadi va rivojlanadi.

Oilaga nisbatan bunday nuqtai nazar A.I.Zaxarova tomonidan ifodalangan: "Ijtimoiy psixologiyada "dastlabki guruh" tushunchasi mavjud. Bu guruhdagi aloqalar bevosita munosabatlarda, qatnashuvchilarning yuqori darajadagi

o'xshashligi va qo'shib ketishini ta'minlovchi uning a'zolarini guruh ishlariga emotsional jalb qilish asosida o'rnatiladi. Bunday dastlabki guruh – yangi a'zolari "chetdan" "qabul qilish" evaziga emas, balki farzandlarning tug'ilishi munosabati bilan ko'payuvchi va kengayuvchi yagona guruh oila hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada hamkorlikda faoliyat yuritayotgan kishilarga kichik guruh deyiladi. Kichik guruh nafaqat jamiyatning individgata'siri sifatida emas, balki shaxsning jamiyatga, ya'ni o'zlashtirgan ijtimoiy g'oyalarni amalga oshiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Kichik guruh, xususan, oila – bu nafaqat kishilar o'rtasidagi har qanday oddiy aloqa emas, balki unda muayyan ijtimoiy aloqalar va bu kishilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshidagina aloqalardir.

Oila – kichik ijtimoiy guruh sifatida faqat o'zigagina xos bo'lgan bir qator psixologik xususiyatlarga ega:

- oila rivojlanishi jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lgan bir emas, balki bir nechta umumoilaviy maqsadlarning mavjudligi;
- oila a'zolari qiziqishlari va maqsadlaridagi qisman farqliklar;
- er-xtin juftligi, oiladagi o'zaro ta'sirlar xarakterini belgilovchi o'zaro munosabatlarning mavjudligi;
- unda turli avlod vakillarining mavjudligi va boshqa guruhlardan nisbatan a'zolari o'rtasidagi yaqin tanishuvning katta muddati;
- oila boshqa guruhlardagi kabi hamkorlik faoliyati bilan bog'lanmagan<sup>1</sup>;
- oilaviy munosabatlarning ko'p qirraliligi va ahamiyatligi;
- oida a'zolarining o'ziga xos ochiqligi va ularning o'zaro bog'langanligi.

### **2.3. Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar**

Ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o'rinda turgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlilik qat'iyman man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham

---

<sup>1</sup> Торохтий В. С. Основы психолого-педагогического обеспечения социальной работы с семьей. М., 2000.

qoralangan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o'ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o'tilgan.

Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi aytib o'tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo'lishi ma'qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilingan.

Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deyдилar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammo va kelishmovchilik (jumladan, oilada) bo'lmasligiga ishora qiladi.

Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga yetishdagi ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik va yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda, farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchramiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir" "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rta kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi", "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi. Oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud." Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlarida bayon etilgan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritgan ekan, avvalo oila boshlig'i erining oldidagi mas'uliyatli vazifalariga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakning yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlariga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlarini haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlarini bayon qilindi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi

lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil". 6;38 b.).

Shuningdek, Ibn Sino "Kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ham ko'rsatib o'tgan. Bularga:

1. Er va xotinlikdan farzand dunyoga kelmagan bo'lsa;
2. xotin eriga xiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirs;
3. xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasa;
4. er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo'lsa.

Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqei undagi munosabatlarda muhim o'rin tutishini asoslab bergan. Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "Ishq va uning odatlari zikrida"gi, "Xotin olmoq zikrida"gi qismlarida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdan paydo bo'lur. Har narsaki ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, ul beshak latif bo'lur". Bu yerda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo'lsa, uning ko'ngli, sifat va fazilatlari ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo'lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo'lsang shundoq kishiga bo'lgilki, ul ma'shuqalikka loyiq bo'lsin". Bunda bo'lg'usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko'rib-bilib, sinab ma'shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro'zg'or ishlarini o'rniga qo'yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo'lishi nazarda tutiladi.

Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o'z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo'lsa ham xotin va farzandingdan darig' tutma. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo'lingdadir. Bu o'rinda xotinga xos munosabatda bo'lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan.

Agar sen xotiningga rashkchilik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo'lur. U senga ota-onang va farzandlaringdin ham mushfiqroq bo'lur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayroq (rashk, qizg'anish) ko'rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo'lur va begona dushmandin hazar qilsa bo'lur, lekin undin hazar qilib bo'lmas. Bunda er-xotinning o'zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg'u bilig" (baxt saodatga yo'llovchi bilim)da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining meyorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan". Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin.

Yuzi chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'lu-atvori yaxshi bo'lsa, u to'kis bo'ladi. Fe'lu-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi.

Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali-aqllisini ista, ey dono, andishali, aqlli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi. "Sen xotinni qadrli tut, nima so'rasa muhayyo et".

Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idrokli, zukko bo'lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o'rnatuvchi), uni

kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to'kisligini ta'minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to'g'ri so'z bo'lishi uning farovonligi va barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya'ni "Qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmush bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlarini haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37 fasli "Uylanganlik va xotinlar to'g'risida" ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi; "Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganing (erning) tinchligi undan.

Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'ldir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jafa yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi.

Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuqi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi".


#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Islomda oilaviy munosabatlar masalalarini izohlang?
2. Oila va nikoh tushunchalarining allomalar va taniqli olimlar izlanishlarida qanday ifoda etilgan?
3. Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an'analar qachondan boshlab kuzatila boshladi?

4. Zardushtiylikning qadimiy kitobi — «Avesto» da oila haqidagi tushunchani keltiring?
5. Islom dinining muqaddas manbalarida oilaning mustahkamligi uchun hadislarda kimlarga ko'proq e'tibor qaratilgan?
6. Abu Rayhon Beruniy qanday tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan?
7. Ibn Sinoning qanday asarlari tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi?

**Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar:**

*1-topshiriq*



- Javobi:**
1. Abu Nasr Forobiy;
  2. Abu Rayxon Beruniy;
  3. Alisher Navoiy;
  4. Abu Ali ibn Sino.

## 2-topshiriq

### ARALASHMA USUL

QUYIDA BERILGAN FIKRLAR KIMNING QALAMIGA MANSUB?

Farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q.

UNSUR-UL-MAONIY  
KAYKOVUS

Erning mol-mulkini saqlash – bu o'zining, bolalarining mol-mulkini saqlash demak-dir. Uyda er mulkini tejamaydigan, saq-lashni bilmaydigan xotin

YUSUF XOS HOJIB

Bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega.

YUSUF TOVASLIY

Har bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-onaga mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay.

ABDULLAAVLONIY

- Javobi: 1. Yusuf Xos Hojib;  
2. Yusuf Tovasliy;  
3. Abdulla Avloniy;  
4. Unsur-ul-Maoniy Kaykovus

## III BOB. OILANING IJTIMOIIY VAZIFALARI. IJTIMOIIY ROLLAR

### Reja:

1. Zamonaviy oila turlari
2. Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o‘zaro aloqadorligi
3. Oilada rollar taqsimoti va oilaning rolli tuzilishi

*Tayanch tushunchalar: Oila klassifikatsiyasi, monogam oila, nuklear oila, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, iqtisodiy vazifasi, jismoniy-psixologik, reproduktiv vazifasi, ustanovkalar, hissiy madaniyat.*

### 3.1. Zamonaviy oila turlari

Oilani turlarga bo‘lganda, turli olimlar turlicha yondashadilar. Masalan, Sank-Piterburglik olim *S.I. Golod* faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollari nuqtai nazaridan oilani toifalarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtai nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, *Golod* o‘z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o‘ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi.

*Patriarxal monogam oila* – bu o‘z mohiyatiga ko‘ra oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi. Bunday oilada o‘g‘il bolalar otaning oilasini sira tark etmaydi, aksincha, uylangan taqdirda ham turmush o‘rtog‘ini shu xonadonga olib keladi, qizlar esa kimga turmushga chiqsa, uning familiyasiga o‘tib, o‘z ota-onasining uyini tark etadi. Bunday oilada urug‘ning atalashi (familiya), shajara va mulkka egalik otaning yo‘lidan amalga oshiriladi, oilaviy rollar esa erkaklarniki yoki xotinlarniki tarzida aniq tafovutlanadi. Erkaklar oilaning moddiy boyliklari, resurslari, ta‘minoti bilan shug‘ullansalar, ayollar asosan uy ishlari bilan band bo‘ladilar.

## Yangi davr oilasi: tipologiyasi

**Patriarxal monogam oila** – bu o‘z mohiyatiga ko‘ra oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi.

**Ambivalent detotsentrik** oiladagi bola ko‘proq ota-onaning hissiy-emotsional g‘amxo‘rligi ta‘sirida bo‘ladi.

**Er-xotin oilasi** XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi.

**Nikohdan tashqari oila** 90-yillarda ko‘paygan oila turi, unda asosan yolg‘iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi.

**Aralash oilalar** yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu – yetimlarni boqib olish hisobiga paydo bo‘ladigan, otalikka olish, o‘gay ota yoki ona bilan vashavdiganlar oilasidir.

**Qo‘shxotinlilik** ham alternativ nikoh turlaridan biri bo‘lib, bunda bir erkak ko‘pincha hufyona o‘z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shar‘iy nikohda yashaydi.

**Monogam oila** – bola manfaatiga yo‘nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan hodisadir.

**Kvaziavtonom detotsentrik oilada** bola huquqlari kattalarniki bilan tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o‘z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo‘ladi.

**Turmush o‘rtog‘ining vafoti munosabati** bilan noto‘liq bo‘lgan oila ham ko‘proq onaning farzandi bilan yolg‘iz qolishidir.

**Alternativ oila turlari** – kam uchraydigan oila turlari bo‘lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va o‘z navbatida toifalarga bo‘linadi.

**Godvin-nikohlar**, uning asoschisi bo‘lgan ingliz sotsial-monarxi *U. Godvin* (1756-1836) nomi bilan bog‘liq. Bunday nikohlarda jinsiy yaqinlik ko‘zda tutilmaganligi sababli, o‘zaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga mo‘ljallangan bo‘ladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat ma‘naviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos.

Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro'si otaning, erning, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa – farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko'p hollarda oilaning, turmush o'rtog'ining ijtimoiy maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, farxandlar ko'z o'ngida otaning avtoriterti pastlaganday bo'ladi, ayrim holatlarda erning oila ta'minotidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta'minotiga bevosita aralashishiga sabab bo'ladi.

**Monogam oila** – bola manfaatiga yo'nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo'lgan hodisadir. U xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda gap ko'proq oilada farzandlar soni haqida emas, balki oilada umuman bola borligining qadrlanishi to'g'risida boradi. Ota-onalar bunday sharoitda ko'proq bolaning kelajakda kim bo'lishi, u egallashi lozim bo'lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg'uradigan, shu bois ham oila byudjetining asosiy qismi uni ta'minlash, unga zarur ta'lim va tarbiyani berish, g'amxo'rlik qilishga sarflanadi. Bolalar bilan bog'liq ehtiyojlarning o'sib borishi oqibatida mamlakatda ham bolalar ta'minoti, ularning ozuqasi, kiyim-kechagi, o'yinchoqlar, bolalarning madaniy-ma'rifiy maskanlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari ko'payadi, rivojlanadi. Bolalar va yoshlarning turli ma'rifiy o'choqlarining kengayishi, yangi texnika va texnologiyalarning asosan bolalar manfaatiga bevosita bog'lanishi, yoshlarning kasb ta'limini takomillashtirish ishlari, ular o'qishi va bilim olishi muddatlarining uzaytirilishi ularning mehnat sohasiga kechroq kirib borishiga olib keladi. Ya'ni, ilgarigiga nisbatan bolalar kechroq mustaqil hayotga kirishadi. Buning oqibatida nikoh yoshi ham tobora kattalashib boradi. Kattalar tomonidan bolaga e'tiborning, shu bilan bir qatorda tashvishlarning ortishi, o'z navbatida bolalarning tug'ilish soni kamayishiga olib keladi. Bolalar erka bo'lib, ular erkinligi ortib boradi, ota-onaning butun diqqat-e'tibori ularga qaratiladi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba'zan ona faqat bolani o'ylash, unga e'tibor qilishni afzal bilganidan, eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatiladi.

Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri **avtoritar tip**dir. Bunda bola soni bittami yoki ikkitami ota-onaning cheksiz

g'amxo'rliqi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-ona bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib yetishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi.

*Ambivalent detotsentrik* oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emotsional g'amxo'rliqi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisinining doimiy erkalashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak, degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

*Kvaziavtonom detotsentrik oilada* bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albatta, ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

*Er-xotin oilasi* XX asrning 60-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro munosabatlar asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiy, iliqqligiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'rtog'iga suyuqli, erka va zarur yor rolini o'ynaydi. *Golod* er-xotinning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihatini farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik.

*Monogam bo'lmagan oila* toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi. Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud:

*Ajrimlar tufayli paydo bo'lgan noto'liq oila* – XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. *Golodning* ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi.

Afsuski, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDYO orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim bo'lgan oilalarning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala yetim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

*Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'ining vafoti munosabati bilan* noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir. Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan.

*Nikohdan tashqari oila* 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Fransiyada – 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar – 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Rossiyada ota-onalardan bittasigina bo'lgan oilalarda 1989 yilda 4,5 mln. bola yashagan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1994 yilda 5 millonga yetdi (*A.G.Volkov, YE.L.Soroko*, 1999). O'zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulotda holatlar sifatida qaraladi, chunki ayrim udumlar va milliy qadriyatlarimiz farzandning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi, Shunday bo'lsa-da, turli sabablar va otag'onalarning vaziyatlar qurboni bo'lishi natijasida mamlkataimizda otalikni belgilash holatlari ortib bormoqdaki, unda ham ko'pincha rasman oila nikohsiz oiladay tasavvur etiladi. Sha'riy nikoh o'qilgani bilan rasmiy ravishda nikohning o'z

vaqtida qayd etilmasligi mentalitetimizga zid bo'lgan shu toifa oilalarning rasmiylashtirilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

*Alternativ oila turlari* – kam uchraydigan oila turlari bo'lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va o'z navbatida toifalarga bo'linadi. Masalan, ulardan biri – fuqarolik nikohi deb atalib, unda erkak va ayol o'z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd emay, yashayveradi. Ba'zan bunday qarorga ular kutilmagan homiladorlik paydo bo'lganda ham kelishlari mumkin. Bunday nikoh bizning sharoitimizga, musulmonchilikka sira ham to'g'ri kelmaydi. Alternativ nikohlar ko'proq g'arb mamlakatlariga xosdir. Lekin *Golodning* ta'kidlashicha, hozirda Rossiyada mavjud oilalarning 7% shunday nikoh asosida tashkil topgan. Oilaning muqaddasligini tinimsiz targ'ib etishimiz azaliy qadriyatlarni ardoqlab kelayotgan yurtimizda bunday salbiy holatlarning bo'lmasligiga xizmat qiladi.

Alternativ nikohning yana bir ko'rinishi *qayta nikohlardir*. Odatda bunday nikoh turi beva yoki tul qolgan shaxslarda uchraydi. Aslida ham birinchi qayta nikohlar XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan. Hozirda esa bunday nikohlar odatda beva qolganlar yoki ajrashib ketganlar o'rtasida qayd etilishi mumkin. Bunday oila turi ham ajrimlar ko'payishiga mos tarzda ortib bormoqda.

*Aralash oilalar* yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu – yetimlarni boqib olish hisobiga paydo bo'ladigan, otalikka olish, o'gay ota yoki ona bilan yashaydiganlar oilasidir. Ming afsuski, turli hayotiy vaziyatlar tufayli shunday oila ham bor, ular nisbatan ko'p bo'lmasa-da, O'zbekistonda ham mavjud.

*Godvin – nikohlar*, uning asoschisi bo'lgan ingliz sotsial-monarxi *U. Godvin* (1756-1836) nomi bilan bog'liq. U bunday oilani ideal deb hisoblagan, chunki bunday oilalar, asosan, ota-onaning xohish-irodasiga ko'ra paydo bo'ladi, yoshlarning istaklari bunda inobatga olinmaydi. Bunday nikohlarda jinsiy yaqinlik ko'zda tutilmaganligi sababli, o'zaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga mo'ljallangan bo'ladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat ma'naviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos. To'g'ri, bir qarashda bunday nikoh bizdagi sovchilik yo'li bilan quriladigan oilaga o'hshab ketadi, lekin bizda zurriyod qoldirish, birga yashash talab etiladi. Shuning uchun yigit va qiz bir-birlarini sevmagan bo'lsalar-

da, nikoh o'qilayotganda ularning rizochiliklari so'raladi, javob ijobiy bo'lgach, ular chimildiqqa kiritiladi. *Godvin* tipidagi nikohlar ko'pincha O'zbekistonda keksalar o'rtasida rasmiylashtiriladi. Masalan, kampiridan uning qazosi tufayli juda bo'lgan otaxon o'zaro kelishuv natijasida o'zga bir beva ayolga uylanadi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro samimiyat, hurmat, qo'llab-quvvatlov, keksalikni bezashga yo'naltirilgan. Lekin bu oila o'zidan zurriyod qoldirish kabi haqiqiy oilaga xos funksiyalarning barchasini bajarmaydi. Bunday oila Islom dini arkonlariga ham mos bo'lib, bu ikki keksa odamning bir-birlari umrlarini cho'zishga qaratilgan samimiy munosabatlari majmuidir.

*Qo'shxotinlilik* ham alternativ nikoh turlaridan biri bo'lib, bunda bir erkak ko'pincha hufyona o'z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shar'iy nikohda yashaydi. Qo'shxotinlilik ko'proq Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos deb hisoblansa-da, hozirda bunday oilalar hattoki, Rossiyada ham kuzatilmoqda. Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan.

Hozirgi zamon oilasi «Monogam oila»lardan iboratdir. Biroq hozirgi zamon monogam oilasi ham o'z navbatida bir-biridan tuzilishi, tarkibi, mohiyati va boshqa xususiyatlariga ko'ra yana bir qator turlarga bo'linadi. Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligini va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

1. To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.
2. Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avlod oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.
3. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar.
4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.
5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga ega bo'lgan

qayliqlardan tashkil topgan oila.

6. Oilaning — yoshiga” ko’ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo’lgan oilalar), o’rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila
7. Qayliqlarning ota-ona oilasi (ota-onasi)ning moddiy ta’ minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo’yicha bir-biriga mos va mos bo’lmagan oilalar.
8. Regional jihatlariga ko’ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.
9. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko’ra, ajralish saviyasida nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo’lgan oila, o’rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.
10. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko’ra: er yetakchi bo’lgan oila, xotin yetakchi bo’lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.
11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko’ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.
12. Er-xotinlarning millatiga ko’ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o’z navbatida ikkiga bo’lish mumkin:
  - ✓ dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o’zbek-tojik, o’zbek-qozoq, o’zbek-turkman, rus-ukrain, o’zbek-tatar va boshqalar;
  - ✓ dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o’zbek-rus, o’zbek-ukrain, o’zbek-eston, o’zbek-nemis va boshqalar.
13. Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko’ra: sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda sinashayapti), rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko’ra rasmiylashtirish kechiktirilayapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi). Nikohdan tashqari oilalarning ayrimlari pinhona bo’lsa, ko’pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi va qarindoshlari bilishadi.

### 3.2. Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Agar oila borasidagi uchta eng umumiy yondashuvlarga asoslansak, qolaversa oilani ijtimoiy institut, kichik guruh va o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqsak – oila haqidagi tasavvurlar jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, so‘zsiz qabul qilingan, qat’iy talablardan kelib chiqadi va oila o‘zining ichki qadriyatlar tizimi, funksiyalari va ijtimoiy rollari bilan bir-biridan farqlanib turuvchi kichik guruh sifatida namoyon bo‘ladi deb aytish mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, oila muammolarini o‘rganish davomida er-xotinlar uchun zarur bo‘ladigan ehtiyojlar bilan ham to‘qnash kelish mumkin. Oilaviy hayot davomida oila a‘zolarining bir qancha ehtiyojlari qondirilib boriladi va bu - *oilaning vazifalari* deyiladi.

Oilavazifalarini tahlil qilishda N.Y.Solovevning fikrini inobatga olish zarur, ya’ni “oilada qanchalik ko‘p barqaror va takrorlanuvchan shaklda qondirib boriladigan ehtiyojlar bo‘lsa, shunchalik ko‘p oilaning vazifalari ham bordir”. Aynan mana shu jihat oiladagi ehtiyojlar va oilavazifalarini boshqalardan ajratishga imkon beradi.

G. Navaytisning fikricha, oilaviy ehtiyojlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- oilaning moddiy ehtiyojlarini yaratish va qo‘llab – quvvatlash;
- onalik mehri bilan bog‘liq muhabbatga va g‘amxo‘rlik qilishga bo‘lgan ehtiyoj;
- psixologik va jismoniy yaqinlikka bo‘lgan ehtiyoj;
- oilaviy muloqotga bo‘lgan ehtiyoj.

Bunday klassifikatsiyadan oilaviy ta’sir doirasini ajratib olish mumkin: turmush, farzandlar, intim munosabat va oilaviy muloqot.

Bu ehtiyojlar oiladan tashqari holda ham amalga oshirilishi mumkin, lekin faqat oiladagina bu ehtiyojlarni bir butun holda birlashtirilishi va qondirilishi mumkin. (G.Navaytis). Bunday nuqtai nazar oilani kichik guruh sifatida tushunishga ko‘proq imkon beradi.

Olimlar oilaning vazifalarini turlicha nomlaydilar, lekin nomlari turlicha bo'lishiga qaramay ularning ma'nosi deyarli o'xshash.

I.V.Grebennikov oilaning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi:

- reproduktiv;
- iqtisodiy;
- tarbiyaviy;
- kommunikativ;
- bo'sh vaqt va dam olishni tashkillashtirish.

E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiylar esa oilaning vazifalarini quyidagi turlarga ajratadilar:

- tarbiyaviy va xo'jalik turmush vazifasi;
- hissiy;
- ma'naviy muloqot;
- birlamchi ijtimoiy nazorat;
- jinsiy munosabat

Ayrim olimlar (A.I.Xarchev, A.I.Antonov) oila vazifalarini 2 toifaga ajratadilar:

1) Maxsus – oila mohiyatidan kelib chiqadigan va uning o'ziga xosliklarini ijtimoiy voqelik sifatida aks ettiradigan vazifalar;

2) Umumiy – ma'lum bir tarixiy sharoitlarda oila bajarishga majbur bo'lgan yoki moslashtirilgan vazifalari.

**Maxsus vazifalar qatoriga quyidagilar kiradi:**

- tug'ilish (reproduktiv vazifa);
- ta'minlash (ekzistensial vazifa);
- farzandlarni tarbiyalash (ijtimoiylashuv vazifasi);

**Umumiy vazifalarga:**

- meros yig'ish va avlodlarga qoldirish;
- ijtimoiy maqom;
- ishlab chiqarish va iste'molni tashkillashtirish;

- uy xo'jaligi;
- dam olish va ta'til;
- sog'liq haqida qayg'urish va oila a'zolarining xotirjamligi;
- mikroiklim yaratish;
- har bir "Men"ni o'z-o'zini saqlashi va ta'sirchanlikni yo'qotish.

Bu vazifalar oilaviy turmushning tarixiy o'tkinchi manzarasini ochib beradi.

O'zaro ta'sir jarayonida oilaviy vazifalar muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun oila a'zolari oilada ma'lum bir rollarni bajarishlari kerak.

Ilmiy adabiyotlarda oila vazifalari tushunchasi oilaviy rollar va oila strukturasi tushunchalari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Ye.K.Vasileva, A.G.Xarchev, M.S.Matskovskiy va boshqalar oila vazifalarini oiladagi ijtimoiy rollarning yig'indisi sifatida baholaydilar. Ko'pgina tadqiqotchilar oilaviy rollarni oiladagi vazifalar asosida ajratadilar.

Agar oilaning vazifalari to'liqligicha oiladagi rollar tizimining mohiyatini ochib bersa, u holda rollar strukturasi esa eng avvalo oila a'zolarining har biri orasidagi rollar taqsimoti, ya'ni kim qanday vazifani bajarashi va aynan mana shu rollarning o'zaro munosabati qanday tamoyil asosiga quriganligini tavsiflaydi.

Oilaning rolli strukturasi tasvirlashdagi eng muhim muammo bu – rollar taqsimoti hisoblanadi. Tadqiqotchilar xo'jalik va tarbiyaviy funksiyalar bilan bog'liq bo'lgan rollarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bu rollar – turmush tashkilotchisi, farzand tarbiyalovchi, moddiy ta'minlovchi yoki boquvchi rollaridir.

Shunday qilib, oila vazifalarining mohiyatini ochib beruvchi yagona ta'rif yo'qligini ta'kidlab o'tish mumkin. Odatda turli tadqiqotchilar o'zlarining nazariy konseptual modellariga asoslanib oilaning u yoki bu vazifalari va tushunchalarni fanga tadbiq etadilar. Bu sanab o'tilganlar unchalik muhim bo'lmasligi mumkin, lekin gap aynan oila muhitida qondirilishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarning asosiy guruhlariga ketayotganligiga e'tibor qaratish zarur. Ko'plab olimlar shularga bog'liq bo'lgan oila vazifalaridan iborat quyidagi ro'yhatni sanab o'tadilar:

- bolalarni dunyoga keltirish va tarbiyalash vazifasi;
- ota-onalarni ma'naviy kamolga yetkazish vazifasi;

- hissiy qo'llab-quvvatlash va psixologik himoya vazifasi.

Ingliz olimi Xeves bu qatorga yana ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy maqomni qo'lga kiritish, o'z fikrini ifodalay olish va jinsiy munosabatlarga mazmun berish vazifalarini qo'shishni taklif etadi. Tadqiqotchilarni ta'kidlashicha, Amerika va G'arbiy Yevropa olimlari oilaning ma'naviy muloqot vazifasiga ko'proq e'tibor bersalar, Sharqiy Yevropa adabiyotlarida turmush bilan bog'liq oilaning vazifalari kengroq ochib beriladi.

Tadqiqotchilar oilaning vazifalari turli xil tarixiy bosqichlardagi oilaviy o'zgarishlar dinamikasida oila va jamiyat o'rtasidagi tarixiy xarakterda o'z aksini topadi, degan fikrga to'liq qo'shiladilar. O'tmishdagi – ishlab chiqaruvchi, qo'riqlovchi va ta'limiy kabi ko'p vazifalar hozirgi zamon oilasida o'z kuchini yo'qotgan.

Lekin ba'zi oila vazifalari o'zgarishlarga chidamli bo'lib ularni an'anaviy vazifalar deb atash mumkin. Ularga quyidagi vazifalar kiradi:

**1. Xo'jalik - iqtisodiy vazifa.** Bu vazifa oilani boqish, mol-mulkka egalik qilish va saqlash, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlash, uyning saranjom sarishtaligi, oilaviy hayotni tashkillashtirish, oilaviy byudjetni shakllantirish va sarf etish bilan bog'liq. "Uy ishlari" doirasiga xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ichki oilaviy munosabatlar kiradi. Bunday sharoitda har bir oila a'zosining motivatsion va irodaviy sifatlari yuzaga chiqadi, oila jipsligini rivojlantiruvchi zarur shart-sharoitlar yaratiladi, o'zaro munosabatlar doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va ulardan qochishning qulay usullari aniqlanadi.

Iqtisodiy islohot yillarida oilaning iqtisodiy vazifasi kengaydi: turli xil ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi doiralarda oilaviy korxonalar tashkil topdi va ko'payib bormoqda.

**2. Reproduktiv vazifa.** nasl davomiyligini ta'minlovchi jinsiy ehtiyoj va oliy tuyg'u hisoblangan sevgining yaxlitligi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Er-xotin o'rtasidagi muhabbat jinsiy ehtiyojlarning qondirilishi, er-xotinning farzand va farzandlar tug'ilishiga bo'lgan munosabatlariga bog'liq. Har bir oilada farzand tug'ilishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda bu muammo hal qilib

bo'lmaydigan ziddiyatlardan biriga aylangan. Bir tomondan bu – farzand oilani mustahkamlovchi omil, ikkinchi tomondan – yechilishi qiyin muammolar yig'indisi: bolaning ta'lim-tarbiyasi, voyaga yetishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berila olmasligi keyinchalik er-xotin munosabatlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ko'p farzandlilikni hamda tug'ilishning kamayishi, egoizmning yaqqol belgisi bo'lib, yolg'iz farzand tarbiyasi oila va jamiyat uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi va oiladagi jinsiy aloqa vazifasiining ahamiyatini susaytiradi hamda farzandlar tug'ilishini kamayishiga olib keladi.

**3. Regenerativ vazifa** (lotincha regeneration – yangilanish degan ma'noni anglatadi). Bu vazifa mavqe, nasl-nasab, mol-mulk va ijtimoiy maqomning nasldan – naslga o'tishi bilan bog'liq. Bunga avlodan-avlodga o'tib kelayotgan moddiy-ma'naviy merosining barchasini kiritish mumkin.

**4. Ta'limiy-tarbiyaviy (ijtimoiylashuv) vazifa.** Tarbiyaviy vazifa bola bilan aloqa o'rnatish, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish va bolaga o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga yoram berish bilan bog'liq holda otalik va onalik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. "Oila va jamiyat tarbiyasi o'zaro bog'liq bo'lib ular bir-birini to'ldiradi va ba'zi holatlarda bir-birining o'rnini bosishi mumkin, lekin qanday sharoit bo'lmasin yaxlit holda bir-biriga mos kelmaydi. Oilaviy tarbiya ko'proq hissiy xarakterga ega, ota-onaning farzandiga bo'lgan mehri va unga javoban farzandning ota-onaga bo'lgan mehri ushbu tarbiyaning "yo'l boshlovchisi"dir.

**5. Rekreativ vazifa** (lotincha recreation – qayta tiklanish degan ma'noni anglatadi) Bu vazifa hordiq chiqarish, bo'sh vaqtni tashkillashtirish, oila a'zolarining sog'lig'i va xotirjamligi haqida qayg'urish bilan bog'liq.

Zamonaviy oilalarning an'anaviy vazifalardan tashqari boshqa vazifalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin. An'anaviy vazifalar keskin sustlashib qoldi, lekin yangi va ilgari ma'lum bo'lmagan vazifa - **psixoterapevtik vazifa** paydo bo'ldi. Psixoterapevtik vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatishadi:

A) silliqlovchi – er-xotinlarning har biri turmush o‘rtog‘i tomonidan g‘amxo‘rlikni, psixologik qo‘llab-quvvatlashni va mehr-muhabbatni his etishga muhtoj bo‘ladi.

B) hosil qiluvchi, yaratuvchi – turmush o‘rtog‘ini ruhlantira olish qobiliyati, muammolarni aql bilan hal qila olishga tayyorlik, u yoki bu muammoli vaziyatlarda bir-birini qo‘llab – quvvatlash, shaxs sifatida shakllanishiga ko‘mak berishi kabilar kiradi. Nikohning omadli yoki omadsiz ekanligi shu vazifani qay darajada amalga oshirilayotganligiga bog‘liq bo‘lib, bu vazifa ayni vaqtdagi o‘zaro yaqin hissiy munosabatlarning qay darajada shakllanganligi va barqarorligini ko‘rsatib beradi.

A.I.Zaxarovaning fikricha, oilada oila a‘zolarini bir-biriga o‘zaro hurmat, sodiqlik, yoqtirish, muhabbat hislari bog‘lab turadi. Aynan shu tuyg‘ular yaqinlik, oilaviy munosabatlardagi ishonch va oilaning mustahkamligiga imkon tug‘diradi.

### **3.3. Oilada rollar taqsimoti va oilaning rolli tuzilishi**

Hozirgi zamon oilasining muhim xarakteristikalaridan biri – uning rolli tuzilishi, unda er-xotinning turli oilaviy funksiyalarni bajarishga munosabati hisoblanadi. Oilaning rolli tizimi er-xotinlarning har biri oilada qanday vazifa, majburiyatni bajarishini, ular qay darajada er va xotinning xohish-irodasiga mos kelishi hamda qaysilari – an‘analari va boshqa omillar ta‘siri bilan belgilanishi kabilarni aks ettiradi.

Tabiatan va ijtimoiy jihatdan har bir erkak er, ota bo‘lish uchun, ayollar esa xotin va ona bo‘lish uchun tayyorlanadilar.

Umuman olib qaraganda, oiladagi ayol va erkak o‘rtasidagi jamiyatning iqtisodiy qurilishini belgilab beradi. Matriarxat o‘zining iqtisodiy asoslariga, patriarxat esa o‘zining iqtisodiy asoslariga ega edi. Har ikki holda ham oila avtoritar holda bo‘lgan. Bir jinsning ikkinchi jins ustidan hukmronligi butun bir oilaviy hayotni bezab turgan. Oilaning paydo bo‘lishi bilan boshqaruvning otalik va onalikdan iborat ikki darajasi amalga oshirilib, barcha muammolar birgalikda o‘zaro hal qilinadigan bo‘ldi.

Jamiyat rivojlanishining har bir yangi bosqichida qadriyatning qayta baholanishi sodir bo'lib, oila qurish va shakllantirish muammosiga bo'lgan qiziqish o'sib boradi.

Zamonaviy oila turli xildagi ilm tarmoqlarining jiddiy e'tibori qaratilgan obekt hisoblanadi. Oilani o'rganishdagi ko'p muammolar ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy jihatlarga to'qnashgan qismda yotadi. Shunday oilaviy hayotning tomonlaridan biri oilaviy rollar hisoblanadi.

Oilaviy rol tushunchasi ijtimoiy harakterga ega bo'lib, er, xotin, ona, ota, farzand kabi ijtimoiy rollarda aniq namoyon bo'ladi. Shunga tayangan holda ijtimoiy psixologlar oilaviy rollarni yaqqol tasvirlaydigan "shaxsiy bo'yoq"ni tadqiq qilishlari mumkin.

Rus adabiyotlarida oilaviy rollar tushunchasini ta'riflashda olimlarning oilaviy rol borasidagi tasavvurlariga tayaniladi. Ijtimoiy rol avvalambor ijtimoiy tizim vazifasi sifatida tushuniladi, ya'ni "obektiv yoki shaxslararo munosabatlar tizimida shaxsga obektiv berilgan ijtimoiy pozitsiyasining xulq-atvor modeli"<sup>1</sup>dir.

Rol – bu "shaxsning ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lib, shaxslararo munosabatlar tizimida qabul qilingan meyorlarga to'liq mos keluvchi, odamlarning jamiyatda tutgan o'rni yoki maqomiga bog'liq holda amalga oshiriluvchi xulq-atvor usuli hisoblanadi"<sup>2</sup>.

Nikoh-oila munosabatlarining qayta qurilishi – oiladagi rolli munosabatlar transformatsiyasining muhim tomoni hisoblanadi. Hozirgi vaqtda nikoh-oila, shu jumladan ijtimoiy rollarni tartibga soluvchi meyorlarning noaniqligi zamonaviy oilada bir qator ijtimoiy- psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oiladagi rolli xulq- atvorga nisbatan oila a'zolari munosabatlarining shakllanishi va har bir oilaning rolli o'zaro ta'sir usulidagi "tanlov" eng muhim muammo hisoblanadi.

Oilada rolli tuzilmaning paydo bo'lish jarayoni - ijtimoiy va psixologik umumiylik, er-xotinlarning bir-biriga moslashishi hamda oilaviy hayot uslubini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Rolli xulq-atvorning turli xil qoidalari va

---

Краткий словарь по социологии / Под ред. Д.М.Гвишиани, Н.И.Лапин. М., 1989  
Психология: Словарь / Под ред. А.В.Петровский, М.Г.Ярошевский. М., 1991

namunalari mavjud bo'lgan sharoitda oilada rollar tuzilmasining paydo bo'lish jarayoni er-xotinlarning shaxslararo munosabatlari va ularning ijtimoiy ustanovkalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayni vaqtda er-xotin orasidagi shaxslararo munosabatlarining sifati avvalambor ularning o'zlari buni qanday qabul qilishlari, uni qanchalik muvafaqqiyatli va maqbul deb hisoblashlariga bog'liq. Lekin hozirgi vaqtda yoshlarning o'z nikohlarini qanday qabul qilishlari va unda rolli munosabatlarining qanday o'rin egallashi kam o'rganilgan masala bo'lib qolmoqda.

Aytish mumkinki, er-xotin juftligining birgalikdagi harakatlari shaxs xususiyatlari va xulq-atvorlarida o'ziga xos tarzda uyg'unlashadi va bu o'ziga xos uyg'unlikni emotsional munosabatlarni keng tadqiq etgan, "qo'zg'atuvchi-qadriyatrol" nazariyasining muallifi B.Mursteyn rolli mutanosiblik deb atagan. YA'ni er-xotinning bir-birlari oldidagi mas'uliyatning to'g'ri kelishi, boshqa insonlar, ijtimoiy tizim yoki predmetlar olami bilan o'zaro hamkorlikdagi ta'sir uchun shaxslar orasidagi rollarning yakdilligi va umumiy manbaning birligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu yerda umumiy manba deganda mualliflar shaxs xususiyatlaridagi o'zaro uyg'unlikni nazarda tutadilar, jumladan, agar oila a'zolarining birida, xususan erda boshqaruvchanlik ehtiyoji ustunlik qilsa, shunga mos ravishda ayolda tobe bo'lish ehtiyojining ustunlik qilishi ko'zda tutilmoqda.

Xorij psixologiyasida oilaviy rollar tushunchasi negizida jinsiy rollar, jinsiy-rolli tizim, jinsiy-rolli differentsiya tushunchalari tahlil qilinadi. Ko'pgina mualliflar jinsiy rollar deganda jinsga oid bo'lgan shaxs xususiyatlar va ijtimoiy xulq-atvor usullari bilan aniqlanadigan madaniy qoidalar tizimini tushunadilar. Ba'zan bu tizim jinsiy-rolli tizim deb ham yuritiladi.

Jinsiy-rolli tizim – bu ayol va erkaklarga mos keluvchi, ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy rollarga tegishli bo'lgan madaniy kutuvdir. G'arb madaniyatida ayol va erkak rollarining differentsiyasidagi asosiy chiziq – "uy-ish" chizig'i hisoblanadi. Odatda erkaklardan birinchi navbatda mahoratli bo'lishi, doimiy va yaxshi haq to'lanadigan faoliyat bilan band bo'lishi talab etiladi. Ularning nazarida oila ishga nisbatan ikkinchi darajali hodisa sifatida qaraladi. Ayollarga uy-ro'zg'or, oila,

farzandlar mas'uliyati yuklanadi, kasbiy faoliyat ikkinchi darajali bo'lib, agar bu ularning asosiy faoliyatlariga xalaqit bermasagina ruxsat beriladi. Ayol va erkaklarning rollarini bunday differentsiatsiyasi jinsiy-rolli differentsiatsiya deb ham yuritiladi. Ayol va erkaklar ijtimoiy rollarining bo'linishi oilada rollar taqsimotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Erkaklarga oilani moddiy jihatdan ta'minlash vazifasi yuklansa, ayollarga bolalar tarbiyasi va xo'jalik yuritish mas'uliyati yuklanadi. Bunday rolli modelni ko'plab xorij tadqiqotchilari qo'llab- quvvatlaydilar.

F.I.Nay, J.Plek, J.Skansoni kabi mualliflar rollar taqsimotiga oiladagi rolli-jinsli differentsiatsiyaning o'zagi sifatida qaraydilar. Bu tushunchani o'rganish juda muhim bo'lib, jumladan, oilaviy rollar fanda yetarli darajada o'rganilmagan muammolardan hisoblanadi.

Lekin so'nggi yillarda xorij tadqiqotchilarining asarlarida asosiy e'tibor rollar taqsimoti bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan vaziyatlarning sabab va oqibatlariga qaratilmoqda:

–Birinchidan, ayollarni oila boquvchisi sifatida qabul qilish;

–Ikkinchidan, erkaklarning xo'jalik yuritish ishlari va bola tarbiyasida ishtirok etishi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilalarda u yoki bu rollarning o'zaro munosabati ana'naviylik va rolli ustanovkalarning "tanlanish"iga ta'sir etuvchi qator omilarga bog'liq ekanligi ajratib ko'rsatilgan. Masalan, ijtimoiy-demografik omillar, ijtimoiy qatlamga mansublik, oila siklining bosqichlari, ayollarning ishlashi va boshqalar (L.V.Xoffman, F.I.Nay, A.Tornton va boshqalar.).

Tadqiq etilgan omillarning mantiqiy davomi sifatida xorij tadqiqotchilarining oiladagi rolli munosabatlarga ta'sir etuvchi namunaviy munosabatlar "oqibatida" tanlab olinishini ko'rib chiqishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayol va erkaklar uchun ana'naviy modellarning salbiy oqibatlari ko'rsatib berilgan (N.Goldberg, Dj.Skansoni, G.L.Foks va boshqalar), rollar taqsimotining egalitar namunasini qabul qilishdagi oilaviy munosabatlarda uchraydigan qiyinchiliklar namoyish etilgan (R.Rappoport, M.Berger), er-xotinlarning oilaviy hayotdan qoniqqanlik darajalari aniqlangan. Ma'lum bo'lishicha, er-xotinlar uchun u yoki bu

rolli modelning ahamiyati ijtimoiy rollarning o‘zaro ta’siri, ideallari va kutuvlari bilan mos keladi (G.L.Bouen, D.K.Otner).

Zamonaviy oila rollarini ijtimoiy-psixologik tahlil qilishda mahalliy va xorij tadqiqotchilarining hozirda nikoh-oila munosabatlarini, shuningdek, rollarini va munosabatlarini nazorat qiluvchi noaniq qoidalar haqidagi xulosalari birlamchi o‘rinda turadi. Bu holat oilalar oldiga bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni qo‘yadi. Oila a‘zolarining har biri mavjud rollar orasidan birini “tanlash”iga to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy oilalarda ota ko‘pincha o‘ziga bolalarga g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyatini olgan holda, bola tarbiyasida onaga hamkor sifatida qatnashadi. Bundan tashqari, otalik roli deganda oilaning qattiqqo‘l va shavqatsiz a‘zosi, mukofot va jazo beruvchi, amaliyotda onaning hukmini ijro etuvchi “jallod” roli tasavvur qilinadi (“hali shoshmay tur otang kelsin...”). Progressiv tendensiya shundan iboratki, otalik roli oilaning boshlig‘i sifatida ayolining va bolalarining bosiq, turg‘un, kuchli do‘sti roliga almashinadi: ya‘ni shunday hislarning borligi va bu hislarni oshkora etmaslik holati kutiladi. Bolalarni tarbiya qilishdagi otalarning hissasi oilaviy hayotni rejalashtirish, ijobiy va salbiy voqealarni hamda hamkorlik o‘yinlarini haqqoniy va adolatli baholashda namoyon bo‘luvchi ekspert roldan iborat. Bu bilan birga oilada onaning roli ham o‘zgarib bormoqda, endilikda ular farzandlari va erining ustidan hukmronlik qilishga harakat qilmoqdalar. Qadimdan ma‘lumki, farzand tarbiyasidagi onalarning hissasi – bolalarni parvarish qilish, ularga g‘amxo‘rlik qilish bilan bir qatorda bolalarni, hattoki erni o‘z vaqtida va to‘liq emotsional qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Ota va onalarning farzand tarbiyasidagi ulushi “ko‘p yoki kam” deb o‘lchanmaydi, balki bu oilaviy muhitga, ya‘ni oila a‘zolarining bir-biriga va farzandga bo‘lgan munosabatlarining tizimiga bog‘liq holdir. Oilada onalar bolalarni “qanday?”, ota esa “nima?” ga, otalar “kimdir” bo‘lishga, onalar esa “kimgadir kimdir” bo‘lishga o‘rgatadilar.

Rus va xorij tadqiqotchilarining fikricha, oiladagi rolli munosabat va rolli xulq-atvor shaxslararo munosabatlar va oila a'zolarining muloqoti bilan chambarchas bog'liq ravishda oilaning hayot faoliyati jarayonida o'rganiladi.

Y.Ye.Aleshina oiladagi asosiy rollarni quyidagicha tasniflagan:

1. Oilani moddiy jihatdan ta'minlashga mas'ullik.
2. Xo'jayin – uy bekasi.
3. Go'daklar parvarishida mas'ullik roli.
4. Tarbiyachilik roli.
5. Jinsiy hamkorlik roli.
6. Dam olishni tashkillashtiruvchilik roli.
7. Oila submadaniyatini tashkillashtiruvchilik roli.
8. Qarindoshlik aloqalarini saqlab turishga mas'ullik roli.
9. "Psixoterapevt" roli.

Oilalarning psixologik rollari haqida gap ketganda, shuni e'tiborga olish kerakki, bir rol boshqa bir rol bilan o'zaro ta'sirda bo'lgandagina mavjud bo'la oladi. Masalan, ota yoki ona rolini bajarish uchun kimdir o'g'il yoki qiz rolini bajarishi lozim. Oilaviy rollar ziddiyatga yaqin va psixologik ehtiyojlarni qondirish tizimini yaratishi lozim. Shuni aytish kerakki, oilaviy rollarning bunday qiyin tizimi bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin emas. Oilaviy rollarning qarama-qarshiligi vayronkor ta'sirga ega bo'lib, qaysidir darajada oilaning o'zi uni nazorat qilib turadi. Muhimi shundaki, oila a'zolarining o'z rollari haqidagi fikrlari boshqalarning fikri bilan mos keladi. Oila vazifalarining buzilishiga turli sabablar olib kelishi mumkin. Bunday buzilishlarga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin: oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlari, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, oilaviy hayotning ma'lum shart-sharoilari.

Oilalar an'anaviy va egalitar oilalarga farqlanadi. An'anaviy oila bu shunday oilaki, unda er-xotinlarga ularning jinsidan kelib chiqqan holda ma'lum bir rollar birlashtirib qo'yilgan. Masalan xotin ona, uy bekasi rolini bajaradi, er asosan oilaning moddiy ta'minotiga javobgar shaxs hisoblanadi.

Egalitar oilalarda esa deyarli barcha rollar er va xotin o'rtasida teng taqsimlangan bo'ladi. Oilalarning an'anaviy va egalitar shakllari o'rtasida o'ziga xos oilaviy rollar tizimiga ega bo'lgan qator oraliq shakllari mavjud. Masalan, er-xotin nikohida xotin avvalo onalik va uy bekalik rolini bajaradi va shu bilan birga eri uchun do'st ya'ni psixoterapevtik rollni ham bajarishga e'tibor beradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, "egalitar" oilalar yaxshi, "an'anaviy" oilalar "yomon" deb bir yoqlama yondashish mumkin emas.

Chunki oilaviy munosabatlarning bunday tiplarining har biri ma'lum bir jamiyat uchun, ko'rilayotgan u yoki bu ijtimoiy guruh uchun xarakterlidir. O'rtacha ma'lumot darajasining ortishi bilan birga egalitar oilalar nisbati ham ortib boraveradi. Ma'lumot darajasining yuqoriligi ko'proq ziyolilar, nisbatan yuqori ma'lumot darajasiga ega bo'lgan kishilar uchun er-xotin munosabatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi kuchli omillardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda hamkorlik shaklidagi nikohlar asosan yetarlicha yuqori mansabga ega bo'lgan rahbarlar, katta ijtimoiy mavqeaga ega bo'lgan kishilarga xosdir.

E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiylarning fikricha, oilada faqatgina oila funksiyalarigina emas, balki oilaviy funksiyalarni qanday amalga oshirilishi muhimdir: ya'ni oila a'zolarining qaysi biri boshqaruvchi, qaysi bir ijrochi va ular orasida majburiyat va burchlar qanday taqsimlanganiga e'tibor qaratish zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila strukturasi boshqaruv mutlaq bir kishining qo'lida bo'lgan avtoritar tizimga asoslangan oilalar ham mavjud.

Oiladagi rollar tizimi doimiy emas, oila rivojlanishi sikllarida er-xotin o'rtasida rollar taqsimoti an'anaviylik va egalitarlik xususiyatiga qarab o'zgarib boradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oila rivojlanish siklining ayrim bosqichlarida an'anaviy oila munosabatlari tomonga siljish oilada er-xotinning nikohdan qoniqqanligining oshishiga (ko'tarilishiga) olib kelsa(masalan oilada farzand tug'ilganidan keyingi davrda), boshqa davrda esa nikohdan qoniqqanlikning ortishida er-xotin munosabatlarida egalitarlikning ko'payishi kuzatiladi. Shuningdek, oilaning roli tuzilishidagi tabiiy o'zgarishlar oila a'zolari hayotida ro'y bergan har qanday boshqa o'zgarishlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Masalan,

yangi yashash joyiga qo‘chib o‘tish, er-xotinlardan birining boshqa ishga o‘tishi va x.k. Biroq, bu o‘zgarishlar ko‘pincha unchalik ahamiyatli bo‘lmagan va bosqichma-bosqich kechadigan o‘zgarishlardir.

Oilaning roli tuzilishini o‘rganishdagi jiddiy muammolaridan yana biri - bu shu rollarni farqlab olishdir. Chunki ular turli asoslarga ko‘ra belgilanishi mumkin, ya‘ni instrumental ekspressiv rollar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Masalan, uy bekalik xo‘jalik roli. Shuningdek, xususiy oilaviy funksiyalar asosida, masalan, ovqat tayyorlash yoki magazindan mahsulotlarni xarid qilish kabi vazifalar ham ajratiladi. Oilaviy rollarni qanday farqlash lozimligi to‘g‘risida qat‘iy bir qoida yoki nazariya mavjud emas. Faqatgina quyidagi oilaviy rollarni ajratib ko‘rsatuvchi ma‘lum bir qarashlar keng tarqalgan: oilani moddiy ta‘minlash, uy bekasi (xo‘jain), kichkina bolalarni parvarish qilish, kattaroq yoshdagi bolalarni tarbiyalash, dam olish va bo‘sh vaqtni tashkil qilish, oiladagi ijtimoiy psixologik iqlimni yaxshilash, qarindosh-urug‘chilik aloqalarini tashkil qilish. Keltirilgan taqsimotni to‘liq deb bo‘lmaydi, masalan, yuqoridagilar qatoriga oilaviy submadaniyatni tashkil qilish rolini ham qo‘shish o‘rinli bo‘ladi. Quyida oiladagi asosiy rollarning nisbatan batafsilroq bayonini keltirib o‘tamiz:

**Oilaning moddiy ta‘minlanganligiga mas‘ullik.** Bu rol o‘ziga dastavval, pul ishlab topish oila farovonligi uchun adekvat bo‘lgan moddiy darajani ta‘minlash kabilarni bog‘liq bo‘lgan turli ishlar va majburiyatlarni o‘ziga birlashtiradi. Turli mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda bu rolning mazkur nomidan tashqari ko‘pincha, boquvchi tushunchasi foydalaniladi. Chet el va MDH mamlakatlari mualliflari tomonidan olingan ko‘plab ma‘lumotlarning guvohlik berishicha bu rol - erkak kishining roli sifatida idrok etiladi. Uni amalga oshirish ko‘p darajada erning zimmasida bo‘ladi.

**Xo‘jayin - uy bekasi.** An‘anaviy ravishda bu rol o‘ziga oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish va ovqat tayyorlashni, kiyim-kechaklarga qarash, uyda qulaylikni, tartib va ozodalikni ta‘minlash kabilarni o‘z ichiga oladi. Ko‘pchilik millat vakillari orasida bu rol ayol (ona)ga birlashtirilgan, hozirgi zamon oilasida esa

bu borada sezilarli o'zgarishlar mavjud. Masalan, I.Nay ma'lumotlariga ko'ra, 38 % erkaklar, bu rol erkak va ayol o'rtasida teng taqsimlanishi kerak, - deb hisoblaydilar.

**Chaqaloqni parvarish qilishga mas'ullik roli**-bolalarni jismoniy, fiziologik va psixologik jihatdan rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish (tozalik, ovqat, issiq, xavf xatardan ehtiyot qilish va shu kabilar)ni ta'minlashdan va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashdan iborat. Hozirgi zamonning egalitar meyorlari bu e'tiqodni yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lsa-da, an'anaviy meyorlarga ko'ra bu rolni bajarish asosan onaning vazifasi deb hisoblanadi.

**Tarbiyachilik roli**-bu komponent, bolada axloqiy va ijtimoiylashgan shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni ro'yobga chiqarishni o'z ichiga oladi. Ota-onalar tomomnidan bolaga nima yaxshi yu, nima yomonligi o'rgatiladi va bolada ijtimoiy meyorlarga nisbatan ma'suliyat xissi shakllantiriladi, ozodalik, boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarida o'zini yaxshi tutish singdiriladi, ta'lim olishida yordam beriladi. Bu rolni amalga oshirish umuman bir necha o'ziga xos omillar bilan bog'liq. Birinchidan, ota-onalarning bu rolga qay darajada kirishishi ularning ma'lumot darajasiga bog'liq bo'ladi. Ota- onalarning ma'lumot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, oilada farzandlar soni shuncha kam bo'ladi va ota-ona o'z farzandi tarbiyasiga shuncha ko'p e'tibor beradi.

Ko'plab ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, er va xotinning bola tarbiyasidagi ishtiroki darajasi bolalarning jinsiga ham bog'liq. Agar farzand o'g'il bo'lsa, unda tarbiyachilik funksiyasi er va xotin o'rtasida teng taqsimlanadi. Oilada qiz o'sayotgan bo'lsa, uning tarbiyasi bilan ko'proq ona shug'ullanadi.

**Jinsiy rollar.** Bu rol o'ziga jinsiy xulq doirasida turli darajadagi faollikni namoyon qilishni o'zida mujassamlantiradi. An'anaviy yondashuvga ko'ra, jinsiy munosabatlarning kechishi ko'pincha er tomonidan belgilanadi. (I.Nayaning ma'lumotlari bo'yicha 80 % erkak va ayollar bu borada urning faolligini ta'kidlaydilar). Shunga qaramay, o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari erkaklar ayollarning jinsiy sherik sifatida faolroq bo'lishini xohlashlarini ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tish joizki, yosh oilalarda xotin, keksa oilalarga qaraganda ko'proq intim munosabatlar tashabbuskori bo'ladi.

**Dam olish, hordiq chiqarishni tashkil qilish roli.** Bu rolni alohida ajratib ko'rsatishning o'zi jamiyatda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlarni aks ettiradi, chunki bundan 60 yillar oldin dam olishni tashkil etish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Bu rol o'ziga dam olish, xordiq chiqarish, shuningdek, oilaning mehmondorchilik, kino teatrlarga borishni tashkil etish, ta'tilni rejalashtirish va shu kabilar bilan bog'liq faolliklarni o'zida mujassamlashtiradi.

I.Nayaning tadqiqotlarida ko'pchilik sinaluvchilar, bu rolni kimning imkoniyatlari ko'p bo'lsa shu bajarishi kerak deb hisoblashadi, ya'ni bu rol oilaning biror-bir a'zosiga qat'iy biriktirib qo'yilgan. Real, hayotiy xulqning tahlili esa bu rolni ko'pincha erkak kishi bajarishini ko'rsatadi.

**Oila madaniyatini tashkilotchiligi.** Bu rolning yuzaga kelishi, xuddi yuqoridagi dam olish, xordiqni tashkil qiluvchilik roli kabi jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarni, ayniqsa, aholining keng qatlamini madaniy darajasining o'sganligini, odamlarning ilm-fan, san'at, kinoteatr, muzeylarga borishga qiziqishlarining ortganligini aks ettiradi. Bu rolni ro'yobga chiqishi orqali oila a'zolarida ma'lum bir qadriyatlar, qiziqish va ishtiyoqlarning yetarlicha xilma-xil ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qarindosh-urug'chilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlashga mas'ullik** roli oilaviy marosimlar, an'analar, tantanalarda ishtirok etish, qarindosh-urug'lar bilan muloqotda bo'lishni tashkil etish, moddiy ta'minlanganlikka hissa qo'shish, oila a'zolarining ijtimoiy o'zini tuta olish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu rolni ro'yobga chiqarishda ko'proq xotin kishining bir oz faolroq bo'lishi talab etilsa ham ushbu rolning bajarilishi er-xotinlarning ikkalasi orasida teng taqsimlanadi. Aytib o'tish joizki, so'nggi vaqtlarda, butun dunyo miqyosida qarindosh-urug'chilik aloqalarining ahamiyati sezilarli darajada pasayganligi kuzatilmoqda. Bu o'rinda yoshlar qarindosh-urug'chilik munosabatlari miqdoridan deyarli qoniqsalar-da, katta yoshdagilar qarindosh-urug'chilik munosabatlari keyingi vaqtlarda juda kamayib ketamoqda, - deb hisoblaydilar.

**Psixoterapevtlik roli** – hozirgi zamon oilasidagi eng muhim rollardan biri hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, bu rolning yuzaga kelishini o'z ziyof oila

funksiyalarining tub o'zgarishi bilan bog'liq. Chunki hozirgi vaqtda oila funksiyalari orasida eng muhimlaridan biri – oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashga, emotsional daldaga, himoyaga, shaxsiy qulaylikka bo'lgan ehtiyojini qondirilishi bo'lib qolmoqda. Bu rolni ro'yobga chiqarish turmush o'rtog'ini shaxsiy muammolarini yechishga, qaror qabul qilishda yordam berishga, jufti xalolini tinglashga, er-xotinning bir-birini emotsional qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan faolligi bilan bog'liq.

Bu rolni oila a'zolari tomonidan bajarilishi dakrajasi er xotinlarni o'z nikohidan qoniqqanlik darajasi bilan uzviy bog'liqligi, bu rolni hozirgi zamon oilasi uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ayrim tadqiqotlarning natijalari oiladagi psixoterapevtik rolni ayollar erkaklarga qaraganda yaxshiroq bajarishini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni xulosa qilishimiz mumkin, ya'ni avvallari oilaviy rollar, vazifalarning taqsimlanishi jins xususiyatlariga, ya'ni ayol va erkaklarning xususiyatlariga hamda ijtimoiy meyorlar, streotiplarga bog'liq bo'lgan. Hozirgi kunda esa ijtimoiy rollar va vazifalarning taqsimlanishi bevosita ijtimoiy stereotiplarga emas balki, er xotinning qiziqishlari va manfaatlariga bog'liq bo'lmoqda.

E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiylarning fikricha, oilaning muhim tavsifi uning faqat vazifalari bilangina emas, balki tuzilishi bilan ham belgilanadi, ya'ni oila a'zolari o'rtasida majburiyat va huquqlar qanday taqsimlangan?, kim boshqaruvchi va kim bajaruvchi vazifasini bajaradi?- degan savollarni ham o'z ichiga oladi. Oila tizimi nuqtai nazaridan shunday oilalarni ajratib ko'rsatish mumkinki, bunda oila a'zolaridan birida boshqarish va tashkillashtirish rollari mujassamlashgan bo'ladi (avtoritar va zulmkor ona). Majburiyatlar taqsimotiga ko'ra oila tizimlarining turlicha xillari ajratib ko'rsatiladi: oila a'zolaridan biriga ko'p majburiyatlar yuklangan yoki majburiyatlar teng taqsimlangan oilalar.

“Oila strukturasi buzilishi – oila vazifalarini bajarishni qiyinlashtiradigan yoki unga halaqit beradigan tuzilishning xususiyatidir. Shu sababdan ham oiladagi munosabatlar tuzilishining buzilishida oilaning turli vazifalarini bajarishiga halaqit

beruvchi oilaviy nizolar uchrab turadi". Er-xotinlarning ajralishi natijasida oiladagi emotsional funktsiya buzilishi mumkin, masalan, bola o'z otasidan hissiy qo'llab-quvvatlashni olmasligi yoki olsa ham bu yetarli bo'lmasligi mumkin. Shunday qilib, nikohning omadli davom etishi uchun oilaviy munosabatlarda funktsional-rolli tuzilmaning ahamiyati katta. Hozirgi paytda an'anaviy funktsional-rolli munosabatlar o'rini zamonaviy munosabatlar egallamoqda.

Zamonaviy qoidalar oilada funktsional-rolli munosabatlarni yo'lga qo'yishda butun bir jamiyat uchun umumiy bo'lmay, turli oilalar uchun differensial xususiyatga ega bo'lmoqda, ya'ni avvaldan taqsimlangan oila a'zolarining vazifalarini qat'iy belgilab qo'yish emas, balki bu oilaviy mas'uliyatlarni erkin taqsimlashga e'tibor kuchaymoqda. Oiladagi rolli va funktsional munosabatlar asosan quyidagi "orttirilgan" belgilar asosida shakllanadi:

- shaxsiy layoqat;
- qobiliyatlar;
- tajriba;
- xohish;
- o'z xohishi bilan rozilik;
- ishlab chiqarish sohasidagi bandlik darajasi.

Oila — jamiyatning bir bo'lagi, uning asosiy yacheykasidir. Shuning uchun oilaning o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi. Shunday ekan, jamiyatni sog'lomlashtirish uchun eng avvalo oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy muammolarni ham hal qilishga hissa qo'shishini ta'minlash lozim.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Oilalarining turlarini ayting?
2. Oilani xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra nimalarga farqlanadi?
3. Oilaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering?
4. Oilaning rekreativ vazifasi nima?

### Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. **Bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh bu...?**
  - a) Monogam oila
  - b) Egzogam oila
  - c) Guruhiy oila
  - d) Poligam oila
2. **Bo'g'inlar soniga ko'ra oila qanday turlarga bo'linadi?**
  - a) nuklear va ko'p bo'g'inli
  - b) To'liq va nuklear
  - c) Bir millatli va baynalminal
  - d) Ko'p bo'g'inli va ko'p tabaqali
3. **Monogam oila – bu....**
  - a) qadimgi grek so'zaridan olingan: “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi
  - b) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi
  - c) qadimgi grek so'zlaridan olingan: “monos” – ko'p; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi
  - d) fransuzcha so'zdan olingan: “monos” – ko'p turli; “gamos” – tabaqa, bo'g'in ma'nosini bildiradi
4. **Qanday oilalarni baynalminal oila deyiladi?**
  - a) Turli millat vakillari o'rtasida tuzilgan oila
  - b) Oliy ma'lumotlilar o'rtasida tuzilgan oilaga
  - c) Ishchilar o'rtasida tuzilgan oila
  - d) Bir millat vakillari o'rtasida tuzilgan oila
5. **Jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash oilaning qaysi vazifasiga kiradi?**
  - a) reproduktiv vazifasi
  - b) ijtimoiy vazifasi
  - c) tarbiyaviy vazifasi
  - d) kommunikativ vazifasi
6. **Oiladagi o'zaro munosabatlarni boshqarish oilaning qaysi vazifasiga kiradi?**
  - a) regulyativ vazifa
  - b) kommunikativ vazifa
  - c) iqtisodiy vazifa
  - d) reproduktiv vazifasi

## IV BOB. YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

### Reja:

1. Oilaviy hayotga tayyorlik jihatlari
2. Psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi
3. Nikohga kirish ustanovkasining shakllanishi
4. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi omil sifatida

*Tayanch tushunchalar: nikoh, oila, oilaviy hayot, yetuklik, nikohga tayyorlik, huquqiy yetuklik, psixologik yetuklik, ustanovka, tasavvur, rol.*

### 4.1. Oilaviy hayotga tayyorlik jihatlari

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Kelajak avlodlarning taqdiri ko'p jihatdan yoshlarni oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanliklariga bog'liq. Lekin aksariyat hollarda ahloqiy va psixologik muhitning keskinlashuvi, turli kasalliklarning ko'payishi, oilalarda psixologik muhitning yomonlashuvi, nizoli, noto'liq oilalarning ortishi, jinsiy tarbiyaning yo'lga qo'yilmaganligi kabi bir qator sabablar mavjudki, ular bo'lajak oila quruvchi shaxsini shakllantirish jarayonini qiyinlashtiradi, er-xotinlik, ota-onalik majburiyatlarini bajarishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning ongiga bo'lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni singdirish har qachongidan ham muhimroq bo'lib qolmoqda. Chunki nikoh oila munosabatlarining mustahkamligi ko'p jihatdan oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanliklariga va ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka qay darajada mutanosib ekanligiga bog'liq. Shuning uchun hozirgi vaqtda nikoh-oila munosabatlarini mustahkamlash, oilaviy hayot zamirida yuzaga keladigan noxush hodisalarni oldini olish, oilalar buzilishi va noto'liq oilalar miqdori kamaytirish, komil insonlarni voyaga yetkazish borasida amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligi oila qurayotgan yoshlarning oilaviy

hayotlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishga qay darajada tayyor ekanliklariga bog'liq.

Insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari insonlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar ayniqsa oilaviy munosabatlar ham takomillashib, murakkablik kasb etib bormoqda. Chunki hozirgi zamon fan-texnika hamda ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyoti, xalq xo'jaligining barcha sohalarida yangi texnologiyalarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning ishtirokchisi bo'lgan inson shaxsiga ham o'ziga xos talablar qo'yimokda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga va inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmoqda. Bu esa shubhasiz, ularning oilaviy hayoti xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy oila inson shaxsiga hamda oila a'zolariga ko'plab talablar qo'yadi. Oila ularga tayyor yaxshilangan ko'rinishda berilmaydi, balki masala shaklida taqdim etiladi. Oilaviy masalalarni yechishda katta avlod vakillari yordamga keladi. Ular oiladagi qaynona, qaynota, buva-buvilar bo'lishi mumkin.

Ko'pincha yoshlar oila qurishga tayyorlanishdan ko'ra o'zlariga yoqqan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni ma'qul ko'radilar. Masalan, oliy o'quv yurtiga kirish uchun qancha qiyinchilik bilan bo'lsa ham tayyorlanadilar va natijada muvaffaqiyatga yetishadilar, lekin oila qurishga tayyorlanish uchun bunday mas'uliyat bilan yondashmaydilar, oila qurishga yuzaki qaraydilar. Shunga ko'ra oilaviy hayotda turli tushunmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Hozirda oila qurayotgan aksariyat yoshlar oila mas'uliyatini chuqur his qilmasdan, javobgarlikni o'z bo'yniga olmagan holda, hattoki bo'lajak turmush o'rtog'i bilan muomala qilish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan oila qurishmoqda. Turmush qurish bo'sag'asida turgan ayrim yoshlar yuzaki havaslarga berilib, tashqi omillarga ko'proq e'tibor beradilar. Masalan, qanday nikoh uzugi sotib olishga, turli saropolar, kiyimlar harid

qilishga, to'ya qanday libos kiyishga va boshqa ikkilamchi hoyi havaslarga beriladilar. Buning natijasida ularning kutuvlari oilaviy hayotda o'z samarasini bermaydi. Agar yosh er-xotinlar bir-biriga nisbatan maftunkorlikni vaqtinchalik ekanligini anglab yetsalar ularning nikohlari omadli bo'ladi. Kamdan kam yoshlarga oilaviy hayotning dastlabki bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli o'zgarishlar, qiyinchilik va stresslarga tayyor bo'ladilar.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy negizi ularga yoshligidan beriladigan tarbiyaga borib taqaladi. Ota-onalar o'z farzandlariga namuna bo'la olishlari zarur. Shundagina yoshlar baxtli oila qura olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, shaxslararo munosabatlarning keskinlashuvi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlashning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ko'plab psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki oila psixologiyasining asosiy maqsadi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda ularga baxtli oila qurish omillarini o'rgatishdan iborat bo'lishi lozim.

O'sib kelayotgan yoshlar katta avlod vakillaridan bir qancha bilimlarni ya'ni qarama-qarshi jins vakillari bilan munosabat, nikoh, oila, xulq-atvor normalari haqidagi bilimlarni egallaydi. Buning natijasida ularda do'stlikka, or-nomus, qadr-qimmat, hurmat kabi bir qancha hislar rivojlana boradi. Bu hislar sevgi, insoniy munosabatlar, nikoh va oila haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga hamda nikoh-oila munosabatlariga mas'uliyatni yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bularning hammasi albatta juda qadrli, lekin hozirgi vaqtda bunday bilimlarning berishning tabiiy mexanizmi kamlik qiladi. Shuning uchun asosiy e'tiborni yosh avlod uchun tarbiya maskani bo'lgan maktab va oilada ularni bo'lajak oilaviy hayotga tayyorlash ishlarini to'g'ri tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Oilaviy hayot yoshlarni shaxs sifatida shakllanishiga, kasbiy muvafaqqiyatiga sabab bo'ladi va baxtga erishish yo'llarini ochadi va shu bilan bir qatorda ularga ko'plab talablar qo'yadi. Ba'zi tadqiqotlarning ko'rsatishicha oilaviy hayoti bir maromda kechayotgan oilalarning a'zolari boshidan oilaviy hayotga tayyorgarlik masalasiga jiddiy e'tibor berganlar. Shaxslardagi ijtimoiy-psixologik ustanovkalar

ularning hayotga hamda nikohga bo'lgan emotsional-psixologik munosabatini belgilaydi.

Kundalik hayotda va ilmiy adabiyotlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tushunchasi keng qo'llaniladi. Shu bilan birga bu tushuncha haligacha o'zining to'liq talqinini topgan emas. Ko'pchilik mualliflar bu muammoga bir tomonlama yondashib ayrim jihatlarigagina urg'u beradilar.

Ko'pincha yoshlarni oilaviy hayotga tayyorligi atamasi bilan birga unga sinonim bo'lgan "yetuklik" tushunchasi ishlatiladi. Oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, xuquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin.

Shaxsning jinsiy yetukligi unda balog'atga yetish alomatlarining kuzatilishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning keskin darajada namoyon bo'lishi bilan, ichki sekretsiya bezlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi. Shaxsning psixologik yetukligi esa, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishida namoyon bo'ladi. Bu jihatni biz shaxsning o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan maqsadlarni qo'ya olishi, o'z hayotini va hayotini unumli qilish vositalarini to'g'ri belgilay olishi, o'z hissiyoti masalalarida bilimdon bo'la olishi, boshqalar bilan erkin va mantiqli munosabat o'rnatishida kuzatamiz. Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

**Fuqarolik, huquqiy yetuklik** - bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu 18 yosh deb ko'rsatilgan. Bu vaqtda u Konstitusiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalana oladigan bo'ladi. 18 yoshni shaxsning huquqiy yetuklik yoshi deb hisoblash mumkin.

**Kasb-hunar yetukligi** - bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qandaydir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Biroq odam u yoki bu bilim yurtini (kollej, litsey, texnikum, institutni) bitirganidan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha bir necha yil

ishlab ko'rish kerak bo'ladi va shundan keyingina uning kasb-hunar yetukligi haqida gapirish mumkin.

Shaxsni yetukligining yana bir jihati ijtimoiy-iqtisodiy yetuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay olishi nazarda tutiladi. Yoshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega.

L.B.Shneyder "nikohga yetuklik"ning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatadi.

1. *Shaxsda ma'lum bir ma'naviy majmuaning hosil bo'lishi.*<sup>1</sup> Bu shaxsning turmush o'rtog'i va bo'lajak farzandlariga nisbatan yangi majburiyatlarni qabul qilishi. Bu jihatning kelib chiqishi turmush o'rtoqlar o'rtasidagi rollarning taqsimlanishi bilan bog'liq.
2. *Shaxslararo munosabatlarga va hamkorlikka tayyorgarlik.* Oila kichik guruh bo'lib, uni normal kechishi uchun er-xotin o'rtasidagi kelishuv talab etiladi.
3. *Juftiga nisbatan fidoyilik.* Er-xotinlarda bir-biriga nisbatan alturistik xarakterning namoyon bo'lishi.
4. *Insonning ichki dunyosini tushuna olish bilan bog'liq sifatlarning mavjudligi – empatiya kompleksi.* Bu jihatning muhimligi shundaki nikoh o'zining xarakteri bilan inson shaxsini tarbiyalaydi va nikohning psixoterapevtik funksiyasi bajariladi. Bu juftining ichki emotsional dunyosini bilishni, xis tuyg'ulari, o'y-xayollari, kechinmalarini anglashni taqozo etadi.
5. *Yuqori estetik madaniyat hissi va shaxsning xulq-atvori.*
6. *Nizolarni bartaraf etishning konstruktiv usullarini bilish, o'z –o'zini, hulq-atvorini va hatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati.* Shaxslararo nizolarni konstruktiv hal qila olish, ulardan turmush o'rtoqlarning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishda foydalanilish turmush quruvchilarning bir – biriga moslashish jarayonida hal qiluvchi hisoblanadi<sup>2</sup>.

V.A.Sisenko "nikohga yetuklik"ning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) *Sherigining emotsional dunyosiga "kira olish" - hamdardlik, birgalikda qayg'ura olish qobiliyati, uning xursandchiligi va qayg'usini, tashvish va omadsizliklarini tushuna olish, boshqa odam bilan ma'naviy birlikni topa olish;*

- 2) *Hamkorlikka, shaxslararo muloqotga qobiliyatlilik* - mehnatning ko'pgina turlarini amalga oshira olish ko'nikma va malakasi, uy-ro'zg'or iste'molini tashkil qilish va taqsimlash;
- 3) *Yuqori axloqiy madaniyat* – sabrli va yon bosuvchi bo'la olish, oliyanoblik va mehribonlik, boshqa odamni barcha kamchiliklari va nuqsonlari bilan qabul qilish, o'z hissiyotlarini boshqara olish.

**Oila qurishga tayyorlik mezonlari qanday?** Oila-nikoh munosabatlariga kirishishdan oldin va nikohdan o'tuvchilar oilaviy hayotga qay darajada tayyorligi ma'lum mezonlar orqali aniqlashga harakat qilinadi. Ushbu mezonlar quyidagilardan iborat:

- yoshlarning muayyan kasb-hunarga ega bo'lishi va shu asosda oilani moddiy jihatdan ta'minlay olishlari;
- salomat bo'lish va sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirish imkoniyatiga egalik;
- oila byudjetini oqilona sarflash, olib borish malakalariga ega bo'lish;
- oilada maishiy-xo'jalik ishlarini olib borish malakalarining shakllanganligi;
- oilada katta-kichiklar bilan bo'ladigan muloqot madaniyatining mavjudligi;
- oilada psixoterapevtik funksiyani bajarishga tayyorlik;
- sog'lom turmush tarziga amal qilish, zararli odatlar (ichish, chekish, giyohvandlik)ning yo'qligi yoki ularga chek qo'yilganligi;
- yoshlarda sabr-chidamlilik, vazminlik, o'ylab gapirish, mulohazalilik, xushmuomalalik, samimiylik kabi xislatlarning yetarli darajada ifodalanganligi;
- qizlarda uyni, oshxonani toza, ozoda tutish, did bilan dasturxon yozish, samimiylik bilan mehmon kutish, o'z ozodaligiga e'tibor berish va did bilan kiyinish malakalarining shakllanganligi;
- yigitlarda yosh oila iqtisodini mustaqil olib borish, ota-onaga boqimanda bo'lmaslik, maqsadga intiluvchanlik, irodani ko'zlangan niyat uchun to'liq safarbar qilish, hayot dasturiga ega bo'lish, qat'iyatlilik, taqdir sinovlariga

bardosh berish, qiyinchiliklardan cho'chimaslik, mehnatsevarlik, ayollarni hurmat qilish, farzandlarga mehribon ota bo'lish, hissiyotini tafakkur «yugani»da ushlay bilish ko'nikmalarining tarkib topganligi;

- jinsiy hayot masalalarida yetarli bilimga ega bo'lish, amaliyotni faqatgina oila doirasida ko'rish, sodiqlik. Yigitlar yosh xotinlariga bu borada tegishli ma'lumotlarni berishga tayyorligi. Oiladan tashqari jinsiy munosabatlarga shart-sharoit yaratmaslik, unga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirmaslik choralarini ko'rish malakalariga ega bo'lish.

#### **4.2. Psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi**

V.A.Sisenkoning fikricha shaxsning nikohga ma'naviy psixologik tayyorligi uning oilaviy hayotni boshqarib turadigan butun bir kompleks talabalar, vazifalar va xulqning ijtimoiy standartlarini qanday idrok qilishini bildiradi. Bularga: turmush o'rtog'iga va bo'lajak farzandlariga nisbatan qator yangi majburiyatlar tizimini ularning xulqiga javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, oilaning boshqa a'zolarining xuquq va qadriyatlarini hurmat qilish, ularning o'zaro munosabatlarida tenglik tamoyilini tan olish, shaxslararo muloqotga va hamkorlikka tayyorlik, boshqa bir shaxsning xarakter xislatlariga moslashib keta olish va uning ma'naviy dunyosini tushunish.

Psixologlarning fikricha shaxsning nikohga psixologik tayyorgarligi butun bir kompleks talablarni o'z ichiga oladi ya'ni majburiyat va ijtimoiy standartlar xulqi bilan oilaviy hayot boshqariladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- O'ziga yangi tizimdagi majburiyat, mas'uliyatni qabul qiladi ya'ni turmush o'rtog'i, bo'lajak bolalarining xulq-atvoriga nisbatan mas'uliyatning oshishi kuzatiladi;

- oila a'zolarining qadr-qimmatini, haq-huquqlarini tushunish, insoniy munosabatlarda bir-birini kamsitmaslik, bir-birini tan ola bilish ya'ni teng huquqlilik;

- har kunlik muloqot va hamkorlik qilishga intilish, qarama-qarshi jins vakili faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik. Bu o'z navbatida yuqori axloqiy madaniyatni bildiradi;

- juftining odatlari, xulq-atvorini yaxshi bilish, ruhiy holatini tushuna olishlik.

V.S.Toroxtiyning fikricha, yuqoridagi talablar turli oilalarda turli shaklda namoyon bo'ladi. Bu faktlar asosida u nikohga "layoqatlilik"ni quyidagi jihatlarni qo'rsatib o'tadi:

1. o'zga odamga g'amxo'rlik qilish, unga jonbozlik bilan xizmat qilish, mehr-muruvvat ko'rsatish;

2. hamdardlik qilish layoqati ya'ni uning ichki emotsional dunyosiga kirish, uni yaxshi va yomon kunida yonida turish, yutuqlaridan quvonish, ruhiy holatini his qila olish;

3. hamkorlik qilishga bo'lgan layoqat, shaxslararo muloqot, ko'plab mehnat turining malaka va ko'nikmalarini egallash va uni amalga oshirish, oila byudjetini yuritish, uy-ro'zg'or iste'molini tashkil qilish va taqsimlash;

4. yuqori axloqiy va psixologik madaniyat - sabr-toqatli va muruvvatli bo'la olish, bag'ri keng va mehribon, o'zga insonlarni ularning kamchiligi bilan boricha qabul qila olish, o'zining shaxsiy egoizmini yengish.

Yuqoridagi barcha xususiyatlar inson xulqining muhitga qarab tez o'zgaruvchanligidan, sabrliligidan, xulqining barqarorligidan kompromisslik qila olish layoqatida ko'rinadi.

V.S.Toroxtiy fikricha har bir shaxsning nikohga tayyorgarligi nikohning mustahkamligini belgilaydi va nikohning mustahkamligi ko'plab omillarga bog'liq. Oila ikki shaxsning o'zaro hamkorligi asosida vujudga keladi, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun psixologik yetuklik oila mustahkamligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Psixologik yetuklik V.S.Toroxtiyning fikricha oilaviy munosabatlarda bir-birini tushunish, o'z xatolarini anglashga yordam beradi, er-xotin munosabatlarida mukammallikka yetkazadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim elementlari quyidagilardan iborat:

- kommunikativ bilimlar;

- muomalada psixotexnik hamda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;

- psixologik ko'mak;

- nizolarni konstruktiv hal qila olish, xushfe'l bo'lish va kerak paytda chekina olish;

- o'zga odamning kamchiliklariga sabrli bo'lish;

- farzandlarning dunyoga kelishiga tayyor turish, ularga g'amxo'rlik qilish, ta'lim-tarbiyasi bilan hamkorlikda shug'ullanish;

- oila a'zolarining ijtimoiy faolligi va oilaviy muammolarni birovlar oldida muhokama qilmaslik.

Bunga yana kechira olishni ham kiritish mumkin. Bunday yetuklikka birdaniga erishib bo'lmaydi, u ko'plab omillarga bog'liq. Birinchi omil psixologik tayyorgarlik zarurati va er-xotin keyinchalik ota-ona roliga bo'lgan layoqatida ko'rinadi. Har bir ijtimoiy rol ma'lum bir kutuvlar va ularning amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun er-xotin roliga tayyorgarlik bu kutuvlarni va ularning ijobati uchun aniq bilimlarni talab etadi.

Shaxsning psixologik yetukligi deganda dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu esa voqelikni to'g'ri baholay olish shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, qobiliyatlarini yetarlicha obektiv baholay olishida ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yadilar. Natijada muvaffaqiyatsizliklar, asab buzilishlar yuzaga keladi. Psixologik yetuk shaxs esa aksincha, o'z oldiga erishish mumkin bo'lgan, imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yadi, o'z hayot yo'lini va unga erishish vositalari va usullarini to'g'ri belgilaydi. Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila olishi bilan xarakterladi. Psixologik yetuklik boshqalarning xis tuyg'ulari, kechinmalarini tushunish bilan bog'liq. Bu o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga imkon beradi.

Yoshlar oila qurayotganlarida psixologik yetuklik hal qiluvchi bo'lib

hisoblanadi. Albatta bunday qobiliyatlar birdan shakllanib qolmaydi. Ular hayot davomida unga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi. Psixologik yetuklik, shaxs xulqining turli sharoitlarga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, o'zgalarning quvonch va tashvishlariga sherik bo'la olish, yordam berish kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'zida biriktiradi.

### **4.3. Nikohga kirish ustanovkasining shakllanishi**

Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda yoshlarning oila va nikoh munosabatlarini jamiyatda tutgan o'rini to'g'ri anglashi ularning oilaviy ustanovkalarini to'g'ri va chuqur anglashiga, unga mas'uliyat bilan yondoshishga yordam beradi. Nima uchun insonga oila zarur? Ushbu savolga yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra ularning ko'pchiligi, oila avlodlar davomiyligini ta'minlash ya'ni farzand ko'rish uchun zarur degan javoblar olingan.

**Oilaviy munosabatlar uchun.** Oila tushunchasi haqida har kim o'zining shaxsiy fikriga ega. Bola uchun oila-bu uning ona-otasi, aka-ukalari, buva-buvilari va uning tarbiyasiga mas'ul kishilardir. Yoshlar uchun esa oila - bu uning turmush o'rtog'i va farzandlari. Ko'plab oilaviy aspektlar shaxs uchun turli xil ma'nolarga ega. Oila insonga butun bir psixo-fiziologik qulaylik bag'ishlaydi hamda, emotsional panoh vazifasini bajaradi. Inson oilada o'zini kerakliligini hamda qadriligini his etadi. Insoniyatdagi ko'plab fojealar shaxs o'zini keraksiz, qadsiz, yolg'iz his qilishi oqibatida vujudga keladi. Oila har bir insonga uni takrorlanmasligini, kimlargadir kerakli inson ekanligini his qilishi uchun imkon beradigan maskandir. Shuning uchun har bir shaxs oilaviy hayotni qadrlab, unga ko'proq vaqt ajratib mas'uliyat bilan yondoshishi zarur.

Insoniyat borlig'ining takrorlanmas o'zgacha ikki tomoni mavjud bo'lib,

1. "Keraksiz" bo'lib odamlar nazaridan qolishdan qo'rqish.

2. Yolg'izlikdan qochish, qadrli, sevimli, takrorlanmas, kerakli inson bo'lish. Inson kimgadir kerakliligini, qanchalik qadriligini his qilsa shunchalik yolg'izlikni yengishga imkoniyat va kuch topa oladi. Hamma sevimli bo'lishni istaydi. Karl Yungning ta'kidlashicha, jiddiy ichki hissiy ko'ngilsizliklar va kasalliklar psixik energiyaning to'silishi natijasida vujudga keladi. Bu holat inson qiyinchiliklardan qochganda va hayotiy majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Oila a'zolari o'rtasidagi mehr muhabbat esa insonni ana shu yolg'izlikdan halos etadi. Aynan oila insonga o'zini faollashtirish uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi.

Yoshlar noila qurishdan oldin yoki birgalikdagi nikohning ilk yillarida er-xotinlik oreintiatsiyasi muhim vazifani bajaradi. Vaqt o'tishi bilan ertami kechmi farzand ko'rish va ota-ona bo'lishga zarurat ularda yanada ortadi. Bu zarurat ota-ona bo'lish asnosida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari oila farovonligi uchun oila a'zolari (avval er-xotinlar keyin farzandlar ko'magi) birgalikda xo'jalik ishlarini yuritishlari zarur. Masalan, bozor-o'char, ovqat tayyorlash, oilaviy rollarni va vazifalarni bajarishda ular o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilsa, ularning oilaviy hayoti yanada totuv kechadi, bir-biriga yaqinlik, jipslik, hamfikrlilik hislari, farzandlarida esa mehnat ko'nikmalari shakllanadi.

### **Oila nima uchun kerak?**

- Reproduktiv vazifani bajarish uchun;
- oilada o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun;
- jamiyatga barkamol shaxslarni yetishtirish uchun;
- kimgadir suyanish uchun va suyanchiq bo'lish uchun;
- kimdir yonida bo'lishi, hamda unga qadrli bo'lish uchun;
- hayotning turli og'ir vaziyatlarida birga bo'lish uchun;
- kim uchundir eng yaxshisi bo'lish uchun;
- yonidagi inson bilan qadrli narsalarni bo'lishish uchun;
- omadsizlik va omadni kim bilandir birgalikda baham ko'rish uchun;
- qiyin daqiqalarda bir-birini qo'llab-quvvatlash va himoyalash uchun.

Shulardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki oila insonlar uchun eng ishonchli maskandir.

Psixologik tayyorgarlikdan tashqari oilada erkak va ayol o'rtasidagi rolli munosabatlar muhim hisoblanadi. Bizga ma'lumki yaqin o'tmishda erkaklar jismoniy ishlarni bajarganlar va oilaning farovonligi uchun kurashishgan. Hozirda ayol va erkakning oiladagi rollari ajratilgan va ular o'ziga yarasha majburiyatlarga ega.

Ko'p hollarda uy - ro'zg'or yumushlarining barchasi ayollar tomonidan bajariladi. Buesa yosh oilada ayolda psixologik zo'riqishlarga sabab bo'ladi. Oila barqarorligini ta'minlash uchun oilaviy rollar er-xotin o'rtasida bo'linishi lozim.

Bundan tashqari nikohga kiruvchi yoshlar oilaviy hayot uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Biroq hozirgi zamonaviy yoshlarning ayrimlari uy yumushlarini bajarishni bilmaydilar. Masalan; ovqat pishirish, kir yuvish, uy-ro'zg'or yuritish ko'nikmasiga ega bo'lmaydilar, natijada muammolarga duch keladilar.

O'z o'zidan savol tug'iladi: Oilaviy hayotga tayyorlash kerakmi? Buning imkoni bormi, buni qanday amalga oshiriladi? Va buni qaysi yosh davridan boshlash kerak?

Shunisi muqarrarki oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning roli muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bola ota-ona namunasi orqali oilaviy rollarni, oilaviy munosabatlarni o'zlashtiradi.

Oilaviy hayotga tayyorgarlik hayotning ilk bosqichlaridan boshlanadi. D.N.Isayev va E.V.Kagan ta'kidlaganidek 2 yoshdan boshlab bola oilaviy munosabatlarda ota-onasidan namunalarni o'zlashtira boshlaydi.

2-3 yoshlarda bola o'z jinsini anglaydi, unda o'z „Men“i hamda qarama-qarshi jins haqidagi taassurotlari shakllanadi. Rolli o'yinlarda o'z jinsiga mos ravishda xulq-atvorni namoyon qiladi(mehmon-mehmon o'yini). Bu o'yinlarda oddiy oilaviy ustanovkalar umumiy oilaviy stereotiplarga bog'liq holda shakllanadi bu o'yinlarda o'g'il bolalar uydan tashqaridagi holatlarni namoyon qilishadi. Bularga ovchilik,

urush, ish va boshqalar kiradi. Qizlarda esa bu rol uy ishlari bilan bog'liq holda kuzatiladi.

3-5 yoshlarda bolalar o'yinlarida aynan ota-ona oilasi namunasini ko'rish mumkin. Endi qizaloq qo'g'irchog'ini shunchaki tebratmaydi balki aynan onasiga o'xshatib tebratadi. Bunday rolli o'yinlar oilaviy hayot, er-xotinlik munosabati va ota-onalik rolini shakllanishiga yordam beradi. Bu mexanizmining asosiy shakllanishi identifikatsiya hisoblanadi. Bola o'zini jinsiga qarab identifikatsiya qiladi (o'g'il bolalar otasini, qiz bolalar onasini o'rimga) va uning xulq-atvorini imitatsiya qiladi. Ko'p katta yoshlilar oilalari ota-onasining yo'lidan borishadi. Bunday chuqur anglanilmagan psixologik konfliktni anglab identifikatsiya qilish ustanovkasi Isayev va Kaganning ta'kidlashicha ota-onalar tomonidan nazorat qilinib korreksiya qilinishi lozim.

Identifikatsiya qilish keyinchalik o'z bolalarida takrorlamasligi uchun lozim. Bu yoshdagi ustanovkalar bolaning harakter xususiyatlariga ham bog'liq. Aynan shu 3-5 yoshdagi bolalarda oila a'zolariga nisbatan mehribonlik va g'amxo'rlik kuzatiladi.

Kichik maktab yoshidagi bola oilaviy holatlarni tushuna boshlaydi va ota-onasining pozitsiyasini baholaydi va o'zinikini ishlab chiqadi. Ota-onalar bilan nizoli vaziyatlarda ular aytganidek bo'lish emas o'zi xohlaganidek bo'lish niyati anglanila boshlaydi. Bunday holatlarda bolalar ota-onasidan o'z jinsiga mosi bilan yaqin munosabatda bo'ladi yoki oiladan tashqari boshqa shaxs bilan yaqinlik qiladi. Bu ota-onalar uchun jiddiy ogohlantirish. Ular bolalarga ko'proq vaqt ajratib ularning kelajagi haqida qayg'urishi lozim. Agar bola oiladagi muhitdan emotsional qoniqish olmasa u tashqaridagi begona muhitdan namuna ola boshlaydi. Lekin mana shu tashqaridagi namuna qandayligiga bog'liq. Tashqaridagi begona namuna yomon bo'lsa-chi?

O'smirlilik davri ota-onalarga tarbiya masalasida qiyin vazifalarni qo'yadi. Emansipatsion - tendensiyalar yuqori tanqidchilik o'smirmi ota onasiga nisbatan salbiy munosabatga olib keladi. Ularning ideal tasavvurlari real hayotga mos kelmaydi. Bu nafaqat o'smirlarning balki kattalarning ham muammosidir.

Chunki o'smir bunga tayyormas: Sevilish va uning oilasi bir vaqtning o'zida ham shunchalik yaqin ham bir biridan uzoqdek tuyuladi. "Farzand ko'rish" tushunchasi o'smirlarda homilador bo'lish hamda bolani kolyaskada olib yurishdan iborat, lekin ular unga g'amxo'rlik qilish taraflarini o'ylamaydilar. O'lim hissi ularda kasalxona va ma'rakalar bilan bog'liq, lekin emotsional hissiyot jihatdan yo'qotganlikni tushunmaydilar chunki ular hali hissiy jihatdan yetilmagan bo'ladi.

Kattalar uchun - ular farzandi bilan bo'lgan munosabatda nimadan qo'rqishsa o'shani ko'rishadi. Ota-onalar farzandlarini shu davrda sevib qolib turmush qurushlariga qarshilik qiladilar bu qarshiliklar natijasida ular munosabatlarda nomut'anosiblik ya'ni qarama qarshiliklar kelib chiqadi. Bu holat ota-onalardan ko'p mehnat va e'tiborni talab qiladi. Oilaviy hayotdagi umumiy standartlar va individual ustanovkalar kattalarga qabul qilish oson bo'lmaydi. Muhimi o'smir o'z mustaqil fikrini tarbiyachilarning reaksiyalaridan qo'rqmagan holda ifodalanishi lozim.

Oila tarbiya borasida ko'p imkoniyatlar beradi. Masalan, yoshlarda erkaklik g'ururi, qizlarga hurmat, qizlarda esa g'urur, o'zini tuta bilish kabi hususiyatlarni tarbiyalaydi. Yoshlarda o'zini-o'zi tarbiyalash, o'zini-o'zi nazorat qilish, sabrlik, mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Bolalarga hamma narsani muhayyo qilish barcha ehtiyojlarini qondirish, bolani xudbin xulqning shakllanishiga olib keladi. Ota-onasiga kerakli paytda bola yordam bermaydi. Bunga ota-onaning o'zi aybdor.

Yosh oilalar ota-onalik mas'uliyatini bir-biriga yuklaydi, lekin ularning ikkalasi ham bu ishni eplolmaydi.

#### **4.4. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar**

Oilaviy hayot va uning to'laqonli ijobiy tarzda kechishi ko'p jihatdan oila a'zolarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi. Ushbu tasavvurlarning bir-biriga muvofiq kelishi yoki, aksincha, ular o'rtasida ziddiyatlarning bo'lishi oilaviy hayotning ijtimoiy-psixologik iqlimiga ta'sir qilib, uni iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy farovonligi darajasini belgilab turadi. Mana shu

jihatdan yoshlarda oilaviy hayot haqidagi to'g'ri tasavvurlarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar shaxs ijtimoiy tasavvurlarining bo'lagi sifatida oila bilan bog'liq bo'lgan voqeliklarni va jarayonlarni tasavvur qilishdir. V.M.Karimova oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni «yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlar» - deb e'tirof etib, ularga quyidagi ta'rifni beradi: «Oilaviy ijtimoiy tasavvurlar-shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs «oila» tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va jarayonlarni tushunadi va ularga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantirgan bo'ladi. Ular ijtimoiy bo'lgani uchun ham oilaviy hayotning deyarli barcha sohalarini - o'zaro munosabatlar, oilaviy rollar, reproduktiv xulq-atvor, oila a'zolarining shaxsiy fazilatlari haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi».

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oilaviy hayotning mohiyati va mazmunini tushinishda faqat vositalovchi emas, ushbu tushunchalarni hosil bo'lishidagi bir omil hisoblanadi.. Odatda ana shu tasavvurlarning kemtik bo'lishi oilaviy hayot jarayonida ro'y berayotgan voqealarni to'g'ri tushunish imkonini bermaydi. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oilaviy hayotning mohiyatini tushunish va ularni qabul qilish yoxud inkor qilish uchun muhim psixologik asos bo'lib xizmat qiladi. U yoki bu ijtimoiy hayot va muhit doirasida shakllangan oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar shaxsning oiladagi o'z o'mini va boshqa oila a'zolarining «yurish-turishlarini» to'g'ri yoki noto'g'ri tushunishga olib keladi. Bu hol esa oilaviy hayotning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini vujudga keltiradi.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oilaning mustahkamligiga ta'sir qilishini bir qator tadqiqotlarning natijalaridan ko'rishimiz mumkin. Ularda aniqlanishicha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyor emasliklari, yosh oilada ijtimoiy psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar umumlashmagan va demak, ular oiladagi bo'layotgan jarayonlarni to'g'ri tushunishga imkon bermaydi. Tasavvurlarning umumlashmaganligi esa oiladagi jarayonlarni bir tomonlama talqin qilishga va natijada, oilaviy vaziyatlarga bir tomonlama yondoshishga olib keladi. Bu esa

oilaviy hayot davomida bir qator muammolarni: er va xotinning bir-biriga moslasha olmasligi, oilaviy nizolar kabilarni vujudga keltiradi.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning adekvat bo'lishi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorligining muhim jihati hisoblanadi. Nikohgacha bo'lgan tasavvurlar keyinchalik er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, hamda ularning oilaviy hayotga moslashuvini muvaffaqiyatlilikini ta'minlaydi.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning psixologik tabiatini tadqiqoti bo'yicha adabiyotlarning tahlili, ularning fragmentar xarakterdagi, ya'ni oilaviy hayotning turli jihatlari haqidagi tadqiqotlar ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, N.N.Tolstix tadqiqotlarida ushbu tasavvurlarni «genezisi» o'rganilib, ularni yashab turgan oilalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sharoitlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Ye.A.Borskaya tadqiqotlari esa yoshlar o'zleri rejalashtirgan muddatdan ertaroq oila qurishlari natijasida hayotiy muammolarni hal qilishda ratsional yondoshish yetishmasligiga olib kelishini ko'rsatadi.

Yigit va qizlarning bo'lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari stixiyali ravishda ota-ona oilasida shakllanib, ularning hayotini takrorlashga yoki aksincha, o'z ota-onalarining oilaviy hayotlaridan butunlay boshqacha oila qurishga intilishlari zaminida shakllana boradi. Ko'p hollarda bu tasavvurlar ota-ona uyida nima yetishmayotgan bo'lsa, aynan o'shalarning o'rnini to'ldiradi. Bo'lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning shakllanishida yashash sharoitining ta'siri ham sezilarli bo'ladi.

**Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning yosh va jinsiy xususiyatlari.** Shaxsning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar bo'shliqda yuzaga kelmasdan, balki uning ruhiy-ma'naviy imkoniyatlariga muvofiq holda shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu holat ularni doimo shaxsning ichki psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini bildiradi. Boshqa so'z bilan aytganda, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar doim shaxslilik xususiyatiga ega bo'lib, uning o'zgarishiga binoan o'zgaradi. Jumladan, shaxsning ehtiyoj va qiziqishlari, psixologik jarayonlari (idrok, tafakkur, hayol kabilalar) xulq-atvorning motivlari uning ijtimoiy mavqei va rollariga

muvofoiq tarzda o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlar esa o'z navbatida oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning mohiyati va tabiatiga ta'sir qilib, ularni dinamik-funksional jihatdan o'zgartiradi. Masalan, yosh bilan keksaning, ayol va erkakning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari doim o'zgacha bo'ladi va bunda ularning ijtimoiy muhitda tutgan o'rinlari hamda ichki psixologik imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Shunday qilib, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar yoshi va jinsiga monand holda, o'z ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Oilaviy hayot haqidagi dastlabki tasavvurlar shaxsning o'z oilasida yuzaga keladi va unda tutgan o'rmiga muvofoiq holda mukammallashadi. Ushbu holatlar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning birinchi maqsadi va vazifasi bu, shaxsning oila va oilaviy hayot haqidagi bilimlarini, tasavvurlarini qayerdan olishidir. Tadqiqotchi A.T.Suvorovning mana shu mavzuda o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra, o'quvchilar oilaviy hayot haqidagi axborotni dastlab o'z oilalarida, ikkinchi o'rinda esa ommaviy axborot vositalaridan, uchinchi o'rinda tengdoshlari va nihoyat boshqa odamlar hamda turli hil vaziyatlarni tahlil qilish asosida o'zlashtirishlari ma'lum bo'ldi.

Bir qator tadqiqotlarda qiz va o'g'il bolalarning onalik va otalik rollariga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ularning ota va onalarining shaxsiy namunasi muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tilgan. Biz bunday ma'lumotlarni L.S.Alekseyeva, A.Nevinklena, A.I.Zaxarova, Ye.A.Morshinina, G'B.Shoumarov va Ye.A.Morshinina, A.Hoshimova kabilarning izlanishlarida uchratishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlardan o'g'il bolalar uchun asosan ota, qiz bolalar uchun esa ona muhim rol o'ynar ekan. Ulardan, yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'g'il bolalar o'z onalariga o'xshash bo'lgan xotinni, qiz bolalar esa o'z otalariga o'xshash bo'lgan erni ma'qul ko'rishar ekan.

Oilada uy yumushlarini taqsimlashda ham biz ana shunday diferentsiatsiyani ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, odatda, yoshlar oilaviy yumushlarni va xo'jalik yuritishda muayyan ijtimoiy mavqega ega bo'lishadi. Shuning uchun ham ularning ana shu xildagi tasavvurlarini hosil bo'lishida ularning oiladagi ijtimoiy mavqelari muhim rol o'ynaydi. Ular o'zlarining ana shu mavqelariga muvofoiq holda oila

ishlarida qatnashadilar. Tadqiqotlarda bir tomondan yoshlarning oilaviy ishlarda kam qatnashishlari e'tirof etilsa, ikkinchi tomondan ularga nisbatan ota-onalar tomonidan ortiqcha g'amxo'rlik bo'lishi natijasida ularda salbiy ma'naviy sifatlar shakllanishi mumkinligi aniqlanadi. Bu ikki holatdan xo'jalik ishlarini taqsimoti va ularni amalga oshirish subekti sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi ota-onaning bevosita namunasidan emas, balki ularni oilaviy hayotda ishtirok etishlari hamda ana shu asosda yuzaga keladigan shaxs xususiyatlari bilan vositalangan bo'ladi. Yoshlar oila qurganlaridan so'ng ular o'z ota yoki onalari kabi uy xo'jaligi va yumushlarini to'g'ridan to'g'ri takrorlamasdan, balki o'z oilalarida tarkib topgan shaxsiy sifatlaridan kelib chiqqan holda bajaradilar. Fikrimizcha, ana shunday shaxsiy sifatlarni ishtirok etishi va uy yumushlari hamda xo'jalikni yuritishda individuallik bo'lishi yosh oilaning egalari bo'lgan er-xotinlarda o'ziga xos holda oilaviy (jinsiy, ota-onalik, erlik-xotinlik) identifikatsiyani shakllanishida asos bo'lib hisoblanadi.

Oila va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning shakllanishida oiladagi emotsional - hissiy shaxslararo munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu munosabatlar oila haqidagi tasavvurlarning ijobiy yoki salbiy bo'lishi kabilarni belgilab beradi. Oiladagi emotsional-hissiy shaxslararo munosabatlarga bog'liq holda bir qator tadqiqotlarni ko'rsatishicha, shaxsning emotsional sohasi va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxs sifatleri shakllanar ekan. Oiladagi ota-onaning o'zaro munosabatlari asosida shakllangan ushbu sifatlar uzoq vaqtgacha shaxsda saqlanib qoladi va shaxsning, ayniqsa o'z oilasining boshqa a'zolari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, ota-onalarning o'zaro munosabatlariga tegishli bo'lgan xususiyatlar bolalar tomonidan oila qurganlaridan keyin takrorlanar ekan. E.K.Vasilevaning ko'rsatishicha, to'liq bo'lmagan oilada yoki ota-onasi o'rtasida salbiy munosabatlar xukm surgan oilada voyaga yetgan yigit va qizlarning oilasi ko'p hollarda buzilib ketar ekan.

Mana shu sohaga tegishli bo'lgan bir qator tadqiqotlarda ma'lum bo'lishicha, yoshlar o'zlarining bo'lajak turmush o'rtoqlarini qanday hususiyatlarga ega

bo'lishlari lozimligi haqida muayyan tasavvurga ega ekanliklari, lekin o'zlarini er (yoki xotin) sifatida qanday xususiyatlarga ega bo'lishlari yoki ega bo'lmasliklari haqidagi tasavvurlarni yetishmasligi namoyon bo'ladi. Ular ko'proq er (yoki xotin) oilada uy yumushlarini bajarishda kim nima qilishi haqida tasavvurga ega ekanlar.

Uy yumushlari taqsimotida ham yigit va qizlar turli xil tasavvurga ega ekanliklari bir qator tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilgan. Bunda «erkakning» yoki «ayolning» ishi qabilidagi yo'nalganlik ustunlik qilar ekan. Xuddi shu mazmundagi ma'lumotlarni oilaning ijtimoiy hayotidagi vazifasi haqidagi yigit va qizlarning turlicha fikrlarida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, yigitlar oilaning farzandlarni tarbiyalash vazifasiga ko'proq e'tibor bersalar, qizlar uchun oilada er-xotinning o'zaro hamkorligi masalasi qiziqarli ekan. U yoki bu muammoli vaziyatlarda qanday qaror qabul qilinishi haqida ham biz jinsiy differentsiatsiyani ko'rishimiz mumkin. Ma'lum bo'lishicha, qizlar yigitlardan ko'ra ko'proq oilada demokratik tarzda qaror qabul qilishga moyil bo'lar ekanlar. Yigitlar esa aksincha, qaror qabul qilishni faqat o'z zimmalaridagi vazifa deb hisoblashar ekanlar.

Ushbu ko'rsatkichlar oiladan tashqarida (asosan, bolalar uyida) voyaga yetgan yigit va qizlarda kuzatilmasligini ta'kidlash lozim. B.G.Aristova, A.M.Orixojan va N.N.Tolstix, B.Y.Shapiro, N.G.Markovskaya kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida ana shunday sharoitda o'sgan yigit va qizlarda kelajak oilaviy hayot bilan bog'liq bo'lgan motivlar va qadriyatlarining yo'qligi e'tirof etilib, ularning shu bugungi kun bilan yashashlari ko'rsatib o'tiladi. Qondirilmagan oilaviy hissiy-emotsional munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj esa, ma'lum bo'lishicha, ularda adekvat bo'lmagan oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni paydo qiladi. Jumladan, oilaviy muloqotning yetishmasligi ularda ana shu tarzdagi muloqotni eng asosiy qadriyat sifatida baholashga olib keladi. Ushbu qadriyatning ahamiyatlilikligi ularning oilaviy hayot tajribalarini yetishmasligi bilan qo'shib kuchli tarzda ideallashtirilgan oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday holda ushbu tasavvurlarning o'ta hayajonli ekanligi, lekin bir vaqtning o'zida ularda anchagina tarqoqlik seziladi. Natijada ularning er va xotinlik sifatlari haqidagi tasavvurlari ham noreal tarzda ideallashtirilgan bo'ladi.

V.N.Myasishev, A.I.Zaxarov, V.K.Myacher va boshqalarning ko'plab tadqiqotlarida o'smir ruhiyatidagi kamchiliklar va shu jumladan, ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining kemtikligi asosan oiladagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatdan salbiyligi natijasida vujudga kelar ekan. Jumladan, ana shunday kamchilik va kemtiklikni hosil qiluvchi oilaning ijtimoiy - psixologik strukturasi aniqlangan. Ularga:

1) ota-onalardan birontasini qat'iyat bilan ustunlik qilishga intilishi (ko'p hollarda onalarning);

2) ota va o'smir o'rtasida kommunikativ barerining bo'lishi va otaning oilaviy tarbiya jarayoniga bo'lgan ta'sirini cheklangan bo'lishi;

3) oilaviy nizolarning destruktiv yo'nalishda bo'lishi;

4) ota-onalar tomonidan bolaga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik.

Ushbu ma'lumotlar yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari bevosita o'zlari yashayotgan oilaning ichki ijtimoiy-psixologik strukturasi bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning shakllanishida oilaning psixologik strukturasi muhim hal qiluvchi rol ni o'ynaydi.

Oilaviy hayot haqidagi bilim va tasavvurlar qay darajada mukammal bo'lsa yoshlarda mustahkam oila qurish imkoniyati shu qadar yuqori bo'ladi. Shuning uchun yoshlarimizni mustaqil, yetuk bir shaxs sifatida qabul qilib, ularda oilaviy hayotning past-balandlari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish lozim.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Oilaviy hayotga tayyorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Jinsiy tayyorlik nima?
3. Psixologik tayyorlikning mohiyatini tushuntirib bering.
4. Nikohga yetuklik jihatlarini ayting?
5. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar deganda nimani tushunasiz?

## V BOB. OILANING HAYOTIY SIKLI

### Reja:

1. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi.
2. Oila hayotiy siklining hayotiy bosqichlari
3. Oila rivojlanishining normativ inqirozlari.

*Tayanch iboralar: oila, oilaning hayotiy sikli, inqiroz, oila inqirozi, normativ inqirozlar, oila bosqichlari*

### 5.1. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli, tutumi bilan bogʻliq. Oila dinamikasi - bu uning hayot bosqichlari davomida strukturasi va funksiyasining oʻzgarishidir. Oila muqim tuzilma emas, u yillar davomida oʻzgaradi va taraqqiy etadi.

*E.Dyuval* birinchilardan boʻlib oila taraqqiyoti muammolari boʻyicha ish olib borib, oilaning hayotiy sikli bosqichlarini quyidagicha keltirilgan:

1. Nikohga kirishish. Boʻlajak er-xotinlarning bir-birlarini tanishi, emotsional talpinish.
2. Farzandsiz er-xotin: nikoh munosabatlarini bajarish, yangi qarindoshlarni qabul qilish, moslashish, ota-onalik rolini qabul qilish va ota-onalikka tayyorgarlik va boshqalar.
3. Farzand tugʻilishi, yangi oila aʼzosini paydo boʻlishi, diadadan triadaga oʻtish: bola parvarishi, ota-onalikka moslashish.
4. Bogʻcha yoshidagi farzandlari bor oila: oiladan tashqari tarbiya maskanlariga bolalarni joylashtirish va bolaning bogʻchaga moslashish muammosi, farzand taʼlim- tarbiyasi va boshqalar.
5. Kichik maktab yoshidagi farzandli oila: bolaning maktabga moslashishi, oʻqishda muvaffaqiyatga erishish motivini oʻstirish, yangi tanishlar.
6. Oʻsmir farzandli oila: oʻsmirlikning oʻziga xosligini qabul qilish, mustaqillikni tadqiq qilish; farzandlar kamoloti, ota-onalikka bogʻliq boʻlmagan shaxsiy muammolar-karera, xizmat pillapoyalaridan koʻtarilish istagi, oʻzaro munosabatlar...

7. Farzandlarni oilani tark etishi, bu davr birinchi farzandning mustaqil oilali bo'lishi bilan to'g'ri farzand oilasi bo'lguniga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.
8. Ota-onalarning o'rta yosh davri: farzandlarning oilani tark etishi yoki o'z mustaqil oilasiga ega bo'lishi. Bunda er-xotinlarning yana birga qolishi, munosabatlarni qayta qurish, katta va kichik avlod bilan munosabatlarni ushlab turish muammolari kuzatiladi.
9. Nafaqaga chiqishni qabul qilish, qarilikni tan olish (nafaqaga chiqishdan to'g'ri er-xotindan biring vafotigacha): nafaqaga moslashish, bo'sh vaqtni tashkil etish, yaqinlarni yo'qotish muammosi, avlodlar bilan munosabatni to'g'ri tashkil etish muammolari kuzatiladi.

## 5.2. Oila hayotiy siklining hayotiy bosqichlari

*V.Satir* esa zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutimini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. Shunga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

**1-bosqich.** Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

**2-bosqich.** Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo'lishi. *Satir*ning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea - bu er va xotining yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda.

Masalan, bola tug'ilishi bilan bog'liq suyunchi marosimlari, aqiqa, beshik soldi, sunnat va beshik to'yari kabilar shular jumlasidandir. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, Yevropa xalqlarida oilada farzandning tug'ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

**3-bosqich.** Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar - maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday ahloqiy va ma'naviy o'gitlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi - maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham o'zlarini jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday his qiladilar. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.

**4-bosqich.** Bola o'smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, kerakliligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, o'ziga xos musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib

berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona - bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

**5-bosqich.** Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga yetadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, "Bola - ota-ona" munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat Yevropa xalqlariga xos, balog'at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha xal qila boshlaydilar. Ota-onalar ularning xato qilib qo'yishlaridan xavotir olmay qo'yadi. Bizda, Sharq xalqlarida bu holat biroq boshqacha: ota-ona farzandi kasb-hunarli bo'lib, mustaqil professional yo'ldan ketayotgan bo'lsa ham, ularning kelajagi, oilasi, moliyaviy ahvoli borasida xavotirga tushaveradi, o'g'il uylanishi, qizlarning turmushga chiqishlarida ota-ona va ularning ota-onalari - momolar va buvalar bosh-qosh bo'ladilar. Turmush o'rtog'i tanlash masalasi ham bizda juda kam holatlarda bo'yiga yetgan qiz yoki yigit ixtiyoriga havola etiladi. Ya'ni, birdan notanish qizni "Tanishing, bu mening bo'lg'usi qallig'im, turmush o'rtog'im" deyishlar bizda deyarli uchramaydi, chunki bunga bizning asriy urf-odatlarimiz, oilaviy tarbiya mezonlarimiz yo'l qo'ymaydi.

Ayrim bo'linmagan oilalarda o'g'il uylangandan keyin ham, qiz farzandli bo'lganda ham ota-onalar ularning g'amini yeb, hayotda qoqilmasliklari uchun harakat qilaveradi. Hattoki, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida shunday odatlar borki, ona ko'zi yorigan qizining oziq-ovqati, yemishi uchun to'la o'zini javobgar, deb hisoblaydi. Bunga ikki sabab bor: birinchisi - yangi ko'zi yorigan ayol organizmida shunday yangilanish ro'y beradiki, uni o'ziga keltirish uchun aynan yillar mobaynida o'z oilasida yegan-ichganlari adaptatsiya jarayonlarini tezlashtiradi; ikkinchidan - o'z onasining mehribonlik ko'rsatayotganligi yosh onaning yaqinda boshidan kechirgan qiyinchiliklarini unutish, o'zini chinakam ona sifatida onasiday his qilishini ta'minlaydi. Ushbu psixologik holat o'ta muhim bo'lib, aynan o'zbeklarda bu oila mustahkamligining omillaridan hisoblanadi. Qaynona

ham ona, u ham keliniga achinadi, tugʻruqning azoblarini unutishi uchun qoʻlidan kelganini qiladi, lekin oʻz tuqqan onasining xabar olishi, yonida boʻlishi koʻplab kuzatishlarda yosh onaning onalik roliga tezroq kirib ketishiga, koʻkrak suti bilan bolasini emizib katta qilishida katta rol oʻynaydi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, ayrim hollarda ota-onaning yoshlar hayotiga aralashuvi shu qadar bevosita xarakterli boʻladiki, bu yoshlar bilan ota-onalar oʻrtasidagi nizolarga ham sabab boʻladi, qaynona va kelin, qaynota va kuyov oʻrtasida nizolar ham ana shunday aralashuvning koʻpligidan kelib chiqadi. Yaʼni, ota-onaning farzandi balogʻat yoshiga yetib, mustaqil hayotga qadam qoʻygandagi aralashuvlari, gʻamxoʻrliklari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin.

Farzandlarning mustaqil iqtisodiy maqomga ega boʻlishlari, oʻz oilasiga ega boʻlishi ota va onaga boshqa yana qoʻshimcha rollarni bajarishni taqozo etadi - kelin, kuyov, qaynona, qaynota va boshqalar Bundan tashqari, yangi paydo boʻlgan yosh oilaning qarindosh-urugʻlari oʻrtasidagi munosabatlar, masalan, quda-andachilik munosabatlari ham yosh oila va uning ota-onalari maqomlarining oʻzgarishiga olib keladi. Masalan, “endi qudalikmiz”, “kuyovim bor”, “buvi yoki buva boʻldim” kabi eʼtiroflar shaxs ongida va xulqida jiddiy oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayrim ayollar ayni shu daqiqalardan boshlab, tashqi koʻrinishidan tortib, hayot tarzida ham jiddiy oʻzgarishlarni boshlaydi, masalan, tez-tez alkogol isteʼmol qiladigan ota bu salbiy qiligʻini tashlaydi, chunki kelindan uyaladi; namoz oʻqimaydigan ona quda-andalar oldida uyalaman deb, namoz oʻqishga kirishadi, mahalla-kuyga koʻproq aralashadigan boʻlib qoladi.

*6-bosqich.* Keksalikning dastlabki belgilari - tanada keksalik alomatlari, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy quvvatsizliklar paydo boʻladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashgʻulotidan uzoqlashadi, doʻstlari davrasi torayadi va h-zo. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor boʻlish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bogʻliq. Xalq maʼnaviyati va madaniyati qanchalik yuqori boʻlsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori boʻladi. Masalan, bizning etnik-madaniy muhitimizda keksalik va

qariyalik hamisha e'zozlanib kelingan, masalan, 2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilindi. Mamlakatimizda barcha keksalar bizda qarilik gashtini surish uchun belgilangan tartibda nafaqalar oladi, bayram, to'y-hashamlar va tadbirlarda keksalarni davralarning to'riga o'tqazish, ularga izzat-ehтиrom qilish xalqimizning odatiy an'analaridandir. Shu bois bo'lsa kerak, o'zbekistonliklar keksalikni ham hayotning o'ziga xos davri sifatida mamnuniyat bilan kutib oladigan xalqdir. Ruslardagi "Starost ne radost" iborasining tagida ham o'ziga xos ma'no borki, ayrim Yevropa xalqlarida keksalar nafaqaga chiqqanlaridan keyin o'zlarini hech kimga kerak emasday his eta boshlaydigan, ular uchun umrning oxirgi davrlari keskin salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, farzandlari esa o'z hayot tashvishlari bilan ba'zan ota-onalarni ham unutilib qo'yadilar. Qariyalar uylarining paydo bo'lishi ham ko'p holatlarda aynan shunday o'zaro munosabatlarning oqibatidir.

*7-bosqich.* Oilaviy siklning tugashi odatda turmush o'rtoqlardan birining o'limi bilan boshlanadi. Er-xotinlarning tirik qolgani beva bo'lib qolishi munosabati bilan u ham yangicha rollar tizimiga kiradi. Musulmonchilikda chol yoki kampir beva qolsa, uni ikkinchi nikohga da'vat qilish, taklif etish an'ana, farzandlar uchun farz hisoblanadi. Ayniqsa, erkak kishi beva bo'lib qolganda, farzandlarning biror kampirga yoki o'rta yoshli juvonga uylanishini taklif etishi farz sanaladi. Bu Islom dini qadriyatlariga ham mos keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan oila hayotiy siklining asosiy bosqichlari o'tishi davomida oila a'zolarining har biri xulq-atvorida, dunyoqarashi va odatlarida muayyan o'zgarishlarning kuzatilishiga, yangicha rollar o'zlashtirilishiga olib keladi. Har bir yangi bosqich shaxs ongida muayyan krizislar, ziddiyatlar bilan kechadiki, ularni yengish, qiyinchiliklardan yaxshilik bilan o'tish insondagi yaxshi fazilatlarga, tarbiyalanganlik darajasiga, sabr-qanoatiga bog'liqdir. Har bir bosqichda ota, ona va farzandlar, kuyov-kelinlar bilan o'zgacha munosabatlar tizimi shakllanadi. Masalan, bo'linmagan katta oilada oila boshlig'i - otaning qazo qilishi to'ng'ich farzandlar yelkasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Uning oilaviy o'zaro munosabatlar tizimida o'rni keskin ravishda o'zgaradi.

Agar turli hayot bosqichlarida oilaviy turmush tarzining o'zgarishini

inobatga olsak, oilaviy nizolar yoki ziddiyatlar shu muayyan ma'noda tabiiy bo'lib, uni har bir normal oila boshdan kechiradi. Shu bois ham o'zbekchilikda "ro'zg'or", "turmush" deyilib, momolarimiz "g'or deb qo'yibdi", "mush deb qo'yibdi", deya oilaviy hayotning o'ziga xos murakkabliklari borligiga ishora qiladilar. Bunday ziddiyatlar oilaviy rollar ko'payganda, farzand tug'ilganda, qudalar bilan munosabatlar boshlanganda, ayriliq ro'y bergan bosqichlarda ayniqsa sezilarli bo'ladi. Lekin ahil va mustahkam oilada bu ziddiyatlar deyarli asoratlarsiz, yengillik bilan o'tib ketadi. Muammoli oilalarda esa oilaning kattalari ularni yengish malakasi va tajribasiga ega bo'lmay, boshqalarga sezdirib qo'yadi, ba'zan oilaning ichidagi gap-so'zlar mahallaga, uzoq va yaqin qarindoshlargacha yetib boradi. Tashqaridan bo'lgan aralashuvlar ba'zan oilaning maromini tiklasa, ba'zan, aksincha, uning xalovatini buzadi, muammolar chalkashib ketadi. Bu vertikal ziddiyatlar, ya'ni, oilaviy nizolarga tashqaridan ota-ona va boshqa qarindoshlarning aralashuvi tarzida kechadi. Ba'zan, kattalarning orzu-havaslarini deb, yoshlar o'zlariga ma'qul bo'lmagan hayot tarzini boshdan kechirishga majbur qilinadilar. Masalan, yosh oila alohida uyda mustaqil yashashni xohlaydi, lekin qaynona ularni yonida, uning tazyiqi ostida yashashga majbur qiladi, yoki er-xotin farzandlari bilan birga alohida yashashni istaydi, kattalar esa ularning farzandlaridan birini shaharning boshqa bir chetida yoki boshqa shaharda yashashini talab qiladi. Katta avlod tarbiya tarzidan norozi bo'lgan kelin-kuyov va ularning ota-onalari o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalardan biri nogiron yoki uzoq muddatli xastalikka chalingan paytlarda ham yosh oiladagilarning ayrimlarida surunkali taranglik tufayli ichki va ochiq nizolar paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi mayda-chuyda muammolar har bir oilada bo'ladi, bu tabiiy, ularni yengishga ruhan tayyorlik va oila a'zolarining bir-birlariga muruvvatliliklari oilaning baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

Olim *R.Kappenberg*ning ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulotda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida **shok-ziddiyatlar** paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatlarning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib

qolishlari, oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'liga kirib qolishi, falokatlar va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi, munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunda ham oiladagi kattalarning oqilligi, mahallaning hamjihatligi ijobiy rol o'ynashi mumkin.

### 5.3. Oila rivojlanishining normativ inqirozlari

*Oila krizisi yoki inqirozi* - oilaviy muhitdagi uchrab turadigan holat bo'lib, gomeostatik (tinch, muqim kechayotgan) jarayondagi intizomiy buzilish bilan xarakterlanadi, oilani boshqarishda umidsizlikka tushib qolinadi. Yangi bir og'ir vaziyatni eski qo'llanilgan uslublar bilan hal qilishning iloji bo'lmay qoladi.

Oila inqirozini birinchi bo'lib Ruben Xill ikkinchi jahon urushi oqibatida ajralgan oilalarning tiklanishida stressning ta'sirini tadqiq etish orqali o'rgangan.

Oilaning krizis davrlari bir necha etaplardan iborat bo'lib, psixologlar bu davrlarni turlicha ifodalagan. Jumladan, V.Satir oila taraqqiyoti davrlariga bog'liq holda o'nta inqiroziy nuqtani ko'rsatib o'tgan:

- Birinchi inqiroz - homiladorlik va farzand ko'rish;
- Ikkinchi inqiroz - bolaning tili chiqishi;
- Uchinchi inqiroz - bola atrofdegilar bilan muloqatga kirisha boshlashi va aloqa o'rnatishi, ya'ni maktabga, bog'chaga borishi;
- To'rtinchi inqiroz - bola o'smirlik yoshiga yetishi;
- Beshinchi inqiroz - farzandning ulg'ayib oilani tark etishi;
- Oltinchi inqiroz - farzandning turmush qurishi: uyda kelinning yoki kuyovning paydo bo'lishi;
- Yettinchi inqiroz - ayol hayotida klimaks davrining boshlanishi;
- Sakkizinchi inqiroz - erkaklarda jinsiy faollikning susayishi;
- To'qqizinchi inqiroz - ota-onaning buvi va buvaga aylanishi;
- O'ninchi inqiroz - er-xotindan birining vafot etishi;

Oilaviy krizis davri - har bir oila va er-xotin o'rtasida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatdir. Bu davrda er-xotinda har doim xafagarchilik, notinchlik, ko'z yoshlar,

asabiylik va yana qaytadan murosaga kelish holatlari kuzatiladi. Har bir er-xotin bu davr hamma oilalarda bo'lishini va bu o'tkinchi ekanligini unutmazligi lozim bo'ladi. Bu davrda asosiy vazifa - ushbu inqirozdan eson-omon va talofatlarsiz chiqish hisoblanadi. Afsuski, bu murakkab, aql va sabrni talab etuvchi vazifani barcha juftliklar ham uddalay olmaydi. Oila inqirozlaridan "talofat"larsiz, bir-birini yangicha "kashf etib", mehr-muhabbat va o'zaro hurmatni saqlagan holda o'tgan er-xotinlarni kelajakda tinch va farovon hayot kutadi deyish mumkin.

Oilaning hayot tarziga ta'sir qiluvchi qiyinchiliklarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. *O'tkir (kuchli)*: oila a'zolaridan kimnidir to'satdan, bevaqt o'limi, hiyonat, oila hayotidagi keskin o'zgarish, ijtimoiy statusning o'zgarishi: kimnidir qamalishi, bankrotlik va h.k.
2. *Surunkali*: me'yoridan ortiq darajada psixik yoki jismoniy zo'riqishlar, turar joy muammosi, oila a'zolari o'rtasidagi uzoq vaqt va turg'un kelishmovchiliklar.
3. *Oilaviy hayot tarzining birdan o'zgarishi*: oila hayot siklining bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish jarayonida sodir bo'luvchi qiyinchiliklar: nikohga kirishish, yangi qarindoshlik, homiladorlik, farzand tug'ilishi va h.k.
4. *Qiyinchiliklarning bir-biriga bog'liqligi, yig'indisi*. Bunday qiyinchiliklarni oilaviy hayot siklining bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tishda ko'rish mumkin: farzandning tug'ilishi va talabalik, o'qish yoki ishning o'zgarishi, bola tarbiyasi bilan bog'liq muammolar va h.k.
5. *Oilaviy hayot bosqichlarida uchraydigan qiyinchiliklar*. Bunday qiyinchiliklar barcha oilalarda uchraydi. Moslashish. Bola tarbiyasi yuzasidan kelishmovchiliklar va boshqalar. Bu qiyinchiliklar oilaviy hayot krizislariga olib keladi.
6. *Hayotiy siklning noqulay variantlar bilan shartlashganligi*: er-xotinlarning turli ijtimoiy tabaqa, muhitdan, turli qadriyatli oilalar kelib chiqishi. Oila a'zolaridan birining yo'qligi, buning sababi ajralish, yoki o'lim bo'lgan bo'lishi mumkin va h.k.

7. *Oilaga vaziyatli ta'sir*. Bu qiyinchiklar qisqa muddatli bo'lishi mumkin, ammo bunday qiyinchilikka oila tayyor bo'lmaydi. Masalan, oila a'zolaridan kimnidir kasal bo'lib qolishi, katta moddiy yo'qotish va h.k.<sup>1</sup>

Oilaviy munosabatlar bosqichma-bosqich rivojlanar ekan, mazkur bosqichlarning har biri inqiroz va oilaning barcha a'zosining shaxs sifatidagi taraqqiyot imkoniyatlarini taqozo qiladi. Agar oila tizim sifatida o'z ichiga taraqqiyot masalalarini oladigan bo'lsa unda munosabatlar **konstruktiv** bo'lib, inqiroz oila a'zolari uchun ijobiy oqibatlar bilan yakun topadi. Mabodo oila taraqqiyotdan qochishga intilsa unda munosabatlar **destruktiv** tus olib inqiroz pirovardi salbiy bo'ladi. Biroq har qanday inqiroz ham uzluksiz davom etmaydi. Inqiroz yengil kechayotgan bo'lsa u oila a'zolari o'rtasida yangi munosabatlarni o'rnatib o'zaro tushunishni yangi bosqichga olib chiqadi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. E.Dyuval bo'yicha oila hayotiy sikli bosqichlarini sanab bering
2. V.Satir bo'yicha oila hayotiy sikli bosqichlarini sanab bering.
3. Oila inqirozi deganda nimani tushunasiz?
4. Oilaning hayot tarziga ta'sir qiluvchi qanday turdagi qiyinchiliklar bo'lish mumkin?
5. V.Satir oila taraqqiyoti davrlariga bog'liq holda nechta inqiroziy nuqtani aniqlagan?
6. Oila inqirozini birinchi bo'lib kim o'rgangan?
7. Oilaviy munosabatlarning destruktiv ko'rinishi qanday?

---

<sup>1</sup> Осипова А. А. Общая психокоррекция: Учеб. пособие. М.: СФЕРА, 2002 г. 510 с.

## VI BOB. ER-XOTIN JUFTLIGINING SHAKLLANISHI

### **Reja:**

1. Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari
2. Nikoh motivlari va er xotin munosabatlari
3. Oila qurishdan oldingi davrning o'ziga xosligi
4. Oiladagi emotsonal munosabatlar xarakteri

**Tayanch tushunchalar:** *oila, umr yo'ldosh tanlash nazariyalari, stimul, qadriyat, to'ldiruvchi ehtiyojlar, er-xotin juftligi, motiv, emotsonal munosabat.*

### **6.1. Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari**

Turmush o'rtoq tanlash to'g'risidagi eng mashhur va keng tarqalgan konsepsiyalar sirasiga R.Uinchning to'ldiriluvchi ehtiyojlar nazariyasi, B. Mursteynning "stimul - qadriyat - rol" nazariyasi, R. Senterstning turmush o'rtoq tanlashning instrumental nazariyasi va boshqalar kiradi.

R. Uinchning to'ldiriluvchi ehtiyojlar nazariyasi qarama – qarshi tomonlarning tortilishi haqidagi qadimiy farazga asoslanadi. R.Uinch har bir yigit – qiz turmush o'rtoq tanlashda ehtiyojlarini maksimum tarzda qondira oladigan insonni izlashini qayd etadi. Bunda sherigida o'zida yetishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlantirishga intilish nazarda tutiladi. Ya'ni ular bir – birini psixologik jihatdan to'ldirishi lozim. Masalan, ushbu nazariyaga muvofiq, so'zini o'tkazadigan, dangalchi erkakka - mo'min – qobil ayol, kamsuqum, yuvosh erkakka esa shaddod va g'ayratli ayollar yoqishi mumkin.

R. Senterst tomonidan ishlab chiqilgan turmush o'rtoq tanlashning instrumental nazariyasi ham birinchi navbatda ehtiyojlar qondirilishiga e'tibor qaratadi. R. Senterstga ko'ra, inson kimning ehtiyojlari uning o'z ehtiyojlariga o'xshash bo'lsa yoki ularni to'ldirsa, o'sha insonga moyillik sezadi. Yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar uchun muhim bo'lgan asosiy narsa o'xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o'z munosabatini bildirishga intilishdir.

B. Mursteynning «Stimul – qadriyat – rol» nazariyasi tadqiqotchilar orasida eng mashhur nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaga ko‘ra turmush o‘rtoq tanlovi bir qator ketma – ket bosqichlardan tashkil topgan. Kim har bir bosqich shartlariga mos kelmasa, u “o‘yin”dan chiqib ketadi.

**1- bosqich.** Shaxsiy sifatlarni idrok etish va baholash. B. Mursteyn birinchi bosqichni “stimul” deya nomlaydi.

**2 - bosqich.** Qadriyatlarni qiyoslash. Sheriklar o‘zlarining oilaviy hayot haqidagi qarashlarini muhokama qilishadi.

**3 - bosqich.** Sheriklar birining rolli xulq – atvori boshqasiga mos kelish – kelmasligini tekshirib ko‘rishadi.

**Oilaviy munosabatlar attraksiyasi.** Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o‘rganganlardan biri rus olimi *L.Y. Gozman* hisoblanadi. U bu qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun attraksiya tushunchasini ishlatgan. *Attraksiya* inglizcha *attraction – tortilish, intilish* so‘zlaridan olingan bo‘lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya‘ni, diada – ikki kishi o‘rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraksiya bilan bog‘liqdir.

*Gozmaning* ta‘kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraksiyaga turtki bo‘luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. YA‘ni, bir ko‘rishda yoqtirib qolish, uning xusniga rom bo‘lish kabilar attraksiyaning dastlabki bosqichi bo‘lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid‘atga, ya‘ni chiroyli odam aqli va ahloqli bo‘lishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo‘llanilishi isbotlangan.

Yoqtirib qolishga turtki bo‘luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy maqomi, ma‘lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta‘minlanganligi, millati va diniy e‘tiqodi, qayerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko‘pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo‘lgan insonlar o‘zaro bir-birlarini tezroq yoqib qoladilar, chunki o‘xshash belgilar

yoki ko'ngildagi sifatlarning tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlar tizimi, hayotdagi maqsadlarining mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlilik kabi qator jiddiy sifatlari ham turtki bo'ladi. Shuning uchun talabning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko'rishda "sevib qolishi", safarda birga bo'lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o'rtasida romantik munosabatlarning uyg'unishi ehtimoli ko'proqdir.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabatlarga aylanishini tushuntirish uchun olimlar "*uch filtr nazariyasi*"ni ilgari suradilar.

1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o'ziga qarashi bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko'zga tashlanadigan sifatlari (masalan, qiz bolaning sochi uzun, ko'zi moviy, yigitning bo'yi uzun, alp qomat kabi) asosiy rol o'ynaydi. Bunday munosabatlar ko'pchilikka xos, ya'ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda boshqa bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o'zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o'tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg'un munosabatlar 3-filtrga ham o'tadi. Har bir filtrdan o'tishda sheriklar bir-birlari uchun o'zlarining yangidan yangi qirralarini ochaveradilar. Ya'ni, yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar uchun muhim bo'lgan asosiy narsa o'xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o'z munosabatini bildirishga intilishdir. Boshqa bir yo'nalish – bu sherigida o'zida yetishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlantirishga intilish. Masalan, o'zi o'ta tortinchoq bo'lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko'p kuzatilgan.

Uchinchi yo'nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni, yangi tanishda o'zidagi mavjud

sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemptiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi.

## **6.2. Nikoh motivlari va er xotin munosabatlari**

**Nikoh oldi omillari.** Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizing qurajak oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imo-ratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi. Xo'sh, shu poydevorlar ya'ni nikoh oldi omillari nimalardan iborat?

Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shuni ta'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'p qirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o'zlari qurayotgan oilaviy hayotlariga qay darajada «etilgan»liklarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qay darajada javob bera olishi nazarda tutiladi.

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy xayotga yetukligi: ularning oila qurish motivlari: ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari: ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo'lishi

mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatda yana bir necha turlarga farqlanadi.

Nikoh oldi omillaridan yana biri - shu nikoh qurilishiga asos bo'lgan nikoh motivlaridir, «Motiv» iborasi psixologiyada ma'lum bir xulq, faoliyatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan kuch, turtki, manba, asosni bildiradi. Xo'sh, oilalar qanday motivlar tufayli yuzaga kelishi mumkin? Psixologik adabiyotlarda bir necha o'nlab nikoh motivlari farqlanadi. Lekin ular umumlashtirgan holda uchta klassifikatsiyaga farqlanadi. Bular: sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar oila qurishdan avval bir-birlarini se-vib, ma'lum bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng shu o'zaro sevgining mahsuli sifatida bir-birlarining visoliga to'y qilib, oila qurib yetishadilar.

Motivlarning ikkinchi klassifikatsiyasi moddiy yoki uzga manfaatdorlik tufayli oila qurish. Bunda yoshlar oila qurish ekanlar nimanidir hisobga olgan holda, ma'lum bir maqsadni ko'zlab oila qurishlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda: «Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman» yoki «Shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma'lum bir mansab, mavqega erishaman», - degan fikrlar asosida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qutulish, «yolg'izlikdan qutulish» va boshqalar. Shu kabi hisobga olinadigan narsalarni ko'plab sanab o'tish mumkin.

Nikoh motivlari klassifikatsiyasidan yana biri - stereotip bo'yicha oila qurish deb ataladi. Bu toifa yoshlarda oldingi motivlarning ikkalasi ham kuzatilmasligi mumkin. Ular oila qurish ekanlar, stereotiplarga qaraydilar. Bunday yoshlardan nima uchun oila qurganliklari so'ralsa, odatda «Hamma tengdoshlarim uylanayotgandi, men ham uylandim!» yoki «Hamma dugonalarim turmushga chiqishayotgandi, men ham turmushga chiqdim!» qabilida javob beradilar.

Xo'sh, shu sanab o'tilgan uchala motiv: sevgi, moddiy yoki uzga manfaatdorlik tufayli, stereotip bo'yicha qurilgan oilalarning qay biri mustahkamroq bo'ladi, ya'ni qaysi motiv nikoh oila mustahkamligini kuchliroq ta'minlaydi? Albatta, bu savolga yoshlarning aksariyati, birinchi motivni, ya'ni sevgi motivini tanlab javob berishadi. Chunki ular sevgi tufayli oila qurish nikoh mustahkamligini ta'minlovchi eng ishonchli,

mustahkam poydevor deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, sevgining oila mustahkamligidagi o'rni beqiyosdir. Haqiqatan ham, sevgi - bu o'ta qudratli kuchdir. U tufayli inson nimalarga qodir emas?! Insoniyat o'z taraqqiyotida erishgan eng yuksak cho'qqilar ham sevgi tufaylidir. 3. Freyd ta'kidlaganidek: «Sevgi - bu insoniyatni hayvonot olamidani sug'urib olgan kuchdir!». Inson yaratgan buyuk mo'jizalarning barchasi sevgi tufaylidir.

Albatta, sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati eng baxtli oilaviy hayot kechiradilar. Lekin statistik ma'lumotlarga qaraganda, oilalar ajralishining ko'pchilik qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Xo'sh, nega endi sevishib oila qurgan juftlar oilaviy hayotlarida hamma vaqt ham baxtli bo'lavermaydilar? Nega kechagina bir-birlarini sevib, bir-birlarisiz yashay olmasligiga to'la amin bo'lgan yoshlar bugun nikohlarini bekor qilish haqida sudga ariza berayaptilar? Ularning sevgisiga nima bo'ldi? Sevgi - o'zi nima? U bor narsami yoki yo'qmi? Bu o'rinda hakli ravishda «Sevgi oilaviy hayotning mustahkam bo'lishiga yordam beradimi yoki xalaqit qiladimi?», degan savol tug'iladi. Bu kabi savollar azal-azaldan yoshlarni, umuman insoniyatni qiziqtirib kelgan savollardir. Bu haqda o'tmish mutafakkirlarimiz, olimu shoir, yozuvchilarimizning asarlaridan, xalqimizning dono ma'naviy me'roslarida ba'zan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ko'plab misollarni qo'rishimiz mumkin.

Sevgi, agarda u haqiqiy bo'lsa, sevishganlar bir-birlarini hurmat qilib, tushunib, bir-birlarini e'zozlab, avaylab, kerak bo'lsa biri ikkinchisining baxti, shodligi, quvonchi, manfaati uchun o'z manfaati-dan voz kechib, o'ta nozik bo'lgan tuyg'u sevgini har kuni, har doim parvarish qilib yashasalar, unda sevgi ularning munosabatlarini yanada yaqinlashishiga, ularning oilaviy hayotining mustahkamlanishiga va birgalikdagi hayotlarida eng oliy zavq-shavqlarni his qilishlariga asos bo'lishi mumkin. Bu esa albatta, yoshlardan sabr-toqat, chidam, o'z sevgisini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish uchun tinimsiz izlanish, mehnat qilish, «jafa chekish»ni talab qiladi. Shundagina sevgi o'zining lazzatli mevalarini berishi, o'zining kuch-qudratini ko'rsatishi mumkin. Albatta har bir yigit-qiz o'zaro oila rishtalarini bog'lar ekan, ular o'z hayotlaridagi bu muhim

voqeaga umid, orzu bilan yondashuvi tabiiy.

Agar sevishtanlar oila qurganlaridan keyin «murod-maqsadimga erishdim» deb sevgisini himoya qilishni, uni parvarish qilishni unutsa, uning uchun kurashmasa, qarovsiz qolgan har bir nozik nihol nobud bo'lganidek, eng nozik tuyg'u bo'lgan sevgi ham nobud bo'ladi. Shundan so'ng sevgi nomi bilan qilingan orzu-niyatlar sarobga aylanadi, yoshlarning oila, nikoh, sevgi fonida shakllangan tasavvurlari «noto'g'ri» bo'lib chiqadi. Oqibatda oilaviy hayotdan kutgan narsalari qolib ketib, mutlaqo kutmagan narsalariga duch kelishlari kuzatiladi. Bunday holatda sevgi yoshlarning baxtiga, ularning oilaviy hayoti mustahkamligiga xalaqit berishi mumkin.

Navbatdagi motiv moddiy yoki o'zga manfaat tufayli oila qurishdir. Bu motivning oila mustahkamligiga ta'siri uning keyinchalik qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Oila qurishdan oldin yoshlarning hisobga olgan, ko'zda tutgan narsalarining hammasi ro'yobga chiqaversa, bu motiv ma'lum darajada nikoh mustahkamligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Afsuski, oilaviy hayotda hamma narsa ham yoshlar kutganidek bo'lavermaydi. Bu o'rinda L.N.Tolstoyning: «Badiiy asarlarda, romanlarda, kinolarda syujet, voqealar rivojlanib-rivojlanib borib, oxirida hammasi to'y bilan, yaxshilik bilan tugaydi. Hayotda esa aksincha, hamma narsa to'ydan keyin boshlanadi», - degan fikrini ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Shuning uchun ham oilaviy hayotda kutilgan hisobga olingan narsalarga hamma vaqt ham erishib bo'lavermaydi. Nimanidir hisobga olib oila qurgan yoshlarning oilaviy hayotda ana shu hisobga olganlari amalga oshmay qolgundek bo'lsa, unda ularning oilaviy hayoti g'urbatga, turgan-bitgani azobga, nizo-janjalga aylanadi. Ular uchun bunday oilada yashagandan ko'ra yashamagani afzal ko'rinadi. Bu ham oxir-oqibat oilalarning inqiroziga va «hisob» poydevori ustiga qurilgan imoratning qulashiga olib keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yuridik jihatdan eng mustahkam, turg'un oilalar stereotip bo'yicha oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Bunday oilalarda ajrashishlar miqdori oldingi ikki motiv asosida qurilgan oilalarga qaraganda juda

kam ko'rsatkichni tashkil qiladi. Chunki ular «hamma qatori» oila qurishgan. Qarashsaki «hamma binoyidek yashayapti» - bular ham yashayverishadi. Bu motiv asosida qurilgan oiladagi er-xotinlar o'ta baxtli ham, o'ta baxtsiz ham bo'lmaydilar. Lekin birgalikdagi hayot tufayli er-xotin o'rtasida bir-birlariga moslashish, bir-birini tushunish, bir-biriga nisbatan mehr-oqibat yuzaga ke-lib, ular rivojlanib yuqorida aytganimizdek, sevgi-muhabbat darajasiga o'sib yetishi ham mumkin. Bunday holatlar, shubhasiz, bu toifa oilalarni nafaqat rasmiy, yuridik jihatdan, balki emotsional, psixologik jihatdan ham turg'un bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Endi yuqorida berilgan savolni yana takrorlasak: qanday motiv asosida oila qurgan ma'qul? Sevishibmi? Moddiy yoki o'zga manfaat asosidami? Stereotip bo'yichami? Bu o'rinda yoshlarimiz endi bir oz o'ylanib qolishlari mumkin. Sevgi tufayli deyilsa, uning ham o'ziga yarasha mashaqqatlari bor. Moddiy yoki o'zga manfaat tufayli oila qurishning oqibatlari ma'lum. Stereotip bo'yichami? Unda ehtiros, jo'shqinlik yetishmayaptiku? Yoshlik g'ururi, jo'shqinlik buni qabul qila olmaydi.

Bunday savollarga, bunday o'ylarga javobni bugun yoshlarning maktab, litsey, kollej partalarida o'tirgan vaqtida berishning aybi yo'q. Chunki Sizning oila qurishingizga hali bir necha yil bor. Shu fursatni boy bermasdan yaxshilab o'ylab, fikr-mushohada yuritib olishingiz mumkin. Lekin yodda saqlangki: bu masalalarni oila qurib bo'lgandan keyin o'ylagandan ko'ra hozir yaxshilab o'ylab, eng maqbul bir fikrga kelib olgan ma'qul. Chunki bu masalalar va bu savollarning yechimi maktabda o'tiladigan boshqa fanlar bo'yicha beriladigan topshiriq, vazifa, masalalarning yechimini topishdan ham mazmun, ham mohiyat, ham ko'lam jihatdan keskin farq qiladi. Bu fanlardan berilgan jumboqlarni yechish yoki yecha olmasligingiz Sizning hayotingizda va taqdiringizda unchalik hal qiluvchi rol o'ynamasligi mumkin, lekin o'zingizning bo'lajak oilangizga oid muammolarni hozirdan to'g'ri hal etib borishga o'rganishingiz va ularning eng maqbul javoblari topishingiz kelgusida Sizni o'zingizning va yaqinlaringizning taqdirini hal qilinishida muhim ahamiyatga ega. Bu borada befarqlik, beye'tiborlik, tavakkalchilik bilan yo'l tutishga hech kimning haqqi yo'q. Bu masala nafaqat Siz

uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki jamiyat, davlat, xalq, millat aqamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

### 6.3. Oila qurishdan oldingi davrning o'ziga xosligi

*Nikohgacha tanishish shartlari va muddatlari.* Nikoh oldi omillari klassifikatsiyasida qayd etib o'tilgan omillardan yana biri yoshlarni oila qurgunlariga qadar bir-birlarini qancha vaqt bilganlik-lari, ular qanday sharoitlar va shartlarga ko'ra tanishib oila qurishlaridir. Bu omillar nikoh mustahkamligiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Albatta, oila qurishdan oldin bo'lajak er-xotinlar bir-birlarini ma'lum bir muddat bo'lajak er yoki xotin sifatida bilib yursalar, bir-birlarining shaxsiy xususiyatlari, individual sifatleri, qiziqishlari, dunyoqarashlari, shaxsiy yo'nalganliklari haqida adekvatroq tasavvur va ma'lumotlarga ega bo'lsalar, bu tasavvur va ma'lumotlar ularga birgalikdagi hayotlarida bir-birlarini tushunib, bir-birlariga moslashib ketishlariga yordam berishi mumkin.

Hozirgi yoshlarimizga juda yaxshi ma'lumki, oila kodeksiga binoan nikohdan o'tish uchun ariza berganlaridan so'ng bir oy (aniqrog'i 33 kun) muhlat beriladi. Mabodo, shu fursat mobaynida ular o'z niyatlaridan qaytib qolgudek bo'lsalar, ularning talabi qondirilib, ko'zda tutilgandek, nikoh qayd qilinmaydi. Hech bir yashiradigan joyi yo'qki, respublikamizda isti-qomat qilayotgan yoshlarning hammasi ham nikohdan o'tishga oid mavjud qonun-qoidalardan yetarli darajada xabardor emaslar va ayrim hududlarda hamma vaqt ham bu qoidalarga amal qilinavermaydi. Lekin yoshlarimiz ayniqsa, Siz - o'quvchi yoshlarimizga nikoh-oila munosabatlarining qonuniy jihatlaridan ham xabardor bo'lib qo'yish foydadan holi emas.

Xo'sh, shu fuqarolik holatini qayd etish bo'limlari tomonidan berilgan 33 kun muhlat yoshlarimizning bir-birlarini mumkin qadar bilib olishlari uchun yetarli? Bo'lajak er-xotinlar bir-birlarini to'la bilib olishlari uchun qancha vaqt kerak?

Bu yerda gap biror-bir buyumni, texnika yoki kompyuterni emas, odamni bilish haqida ketayapti. Psixologlarning ta'kidlashicha, odam bu eng murakkab

bilish obektidir. Uni hech qachon va hech kim mutloq va batafsil bila olmaydi. Chunki u xar kuni rivojlanishda, shakllanishda, o'sishda, o'zgarishda bo'lgan murakkab biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy jarayonlar, holatlar, xususiyatlar majmuini o'zida mujassamlashtirgan eng oliy va shu bilan birga eng murakkab mavjudoddir. Uning sir-sinoatlari koinot sir-asrorlaridan ortiq bo'lsa ortiqqi, aslo kam emas. Shuning uchun bir yil, o'n yil birga o'qigan yoki bolalikdan birga o'sgan biron-bir o'rtog'ingizning xulqida, xatti-harakatida kuzatiladigan ayrim holatlar hozirgacha ham sizni hayron qoldirishi yoki odamlar bir umr birga yashab bir-birlarida kutilmagan holatlarni, xulq-atvor ifodalani-shini ko'rishi mumkin.

Bulardan ko'rinib turibdiki, odamni to'la-to'kis bilib bo'lmaydi. Lekin birga turmush qurib, yaxshi yashab ketish uchun lozim bo'lgan minimum bilimlarga ega bo'lish uchun bo'lajak turmush o'rtoqlar bir-birlarini qancha vaqt bilishlari kerak? Ko'pchilikda «qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshida», degan javob xayolga kelishi mumkin. Haqiqatan ham, nikohgacha tanishish muddatining qisqaligi-maqсадga muvofiq emas. Bizning o'tkazgan tadqiqotlarimiz oila qurgunga qadar bir-birlarini bir oy va undan kam vaqt bilgan er-xotinlar miqdori ajrashib ketgan er-xotinlar orasida ko'pchilikni tashkil qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, bir-birlarini oila qurgunga qadar 5-10 yil va undan ko'p vaqg bilishlari ham bo'lajak er-xotinlarga bir-birlariga nisbatan hissiylikning o'tmaslashib qolishiga olib kelishi ham mumkin ekan.

Psixologik adabiyotlarda bo'lajak er-xotin sifatida bir-birlarini yarim yildan bir yilgacha bilish eng maqbul muddat deb ko'rsatiladi. Bu vaqtda yigit-qizlar bir-birlari haqida nisbatan bilish mumkin bo'lgan bilimlar, ma'lumotlar minimumiga ega bo'lishga ulgurishlari mumkin. Albatta bu vaqtni ham ideal vaqt deb hisoblab bo'yamaydi. Bu yerda muhimi yoshlar bir-birlarini qanday jadallikda, qanday maqsadda, qanday vosita, usullar yordamida va qanday «ko'z» bilan o'rganishligidadir.

Ma'lumki sevishganlar nafaqat bir-birlariga, hatto olamga ham «rangin ko'zgu» orqali qaraydilar. Seviklisining hatto kamchiliklari, nuqsonlarini ham

fazilat deb qabul qiladilar. To‘ydan keyin esa hatto ayrim fazilatlar ham kamchilikdek ko‘rinadi. Shuning uchun yoshlarimiz bir-birlariga (ayniqsa, kamchiliklariga) to‘ydan oldin ikkala ko‘zlari bilan, to‘ydan keyin esa yarimta ko‘z bilan qarashlari lozim. YA’ni to‘ydan oldin bir-birlarini yaxshilab, sinchiklab o‘rganishga va to‘ydan keyin ayrim kamchiliklariga ham e‘tibor bermaslikka odatlanishlari lozim.

Bo‘lajak er-xotinlarning tanishish shartlari. Nikoh oldi omillarining xarakterlilaridan yana biri yoshlarning tanishish shartlaridir. Ular ham o‘z navbatida turli-tumanlikka ega. Kimdir o‘qish, ish joyida, kimdir o‘zi, kimdir biror-bir o‘rtog‘i, dugonasi, qarindoshi, kimdir sovchilar yordamida, kimdir ko‘chada, jamoatchilik joylarida, transportda, turli marosimlar, to‘ylar, kechalar, o‘tirishlar va hokazo shart-sharoitlarga ko‘ra tanishishlari mumkin. Albatta bularning hammasida shu yoshlarning individual xususiyatlari, ma‘naviy-axloqiy jihatlari, madaniyati, tarbiyasi, shu yoshlar yashagan hudud, undagi milliy urf-odatlar, an‘analalar, etnik xususiyatlar muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh oilaning yuzaga kelish shartlari orasida keng tarqalganlaridan biri sovchilik tufayli oilalarning yuzaga kelishidir. Chunki bizda deyarli barcha oilalarning yuzaga kelishi yigit tomonidan kelinnikiga sovchilar borishi bilan boshlanadi. Bunda yoshlar bir-birlarini oldindan bilishlari, sevishlari, shunchaki uchrashib qolishi yoki sovchilar orqali qidirib kelin topishidan qat’iy nazar albatta, kelinnikiga sovchilar borishi nikohning yuzaga kelishidagi etnik shart, rasm-rusum, urf-odatlardan biri hisoblanadi. Bularning barchasini nikoh mustahkam-ligida o‘ziga xos o‘rni bor.

Agar yoshlar o‘zlari sovchilar yordamisiz bir-birlari bilan tanishgan, bir-birlarini topishgan bo‘lsa-lar, bunda ular birinchi navbatda, tanlagan odamining o‘zlarining ko‘ngliga, didiga, idealiga mos kelishi yoki kelmasligiga e‘tibor beradilar. Bu albatta, kelgusi hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar hisoblanadi. Lekin bu o‘rinda hamma yoshlarimiz ham o‘zlariga va bo‘lajak turmush o‘rtog‘iga adekvat baho bera olmasliklari, o‘z «tengi»ni topishda ada-shishlari, bu borada ularning «yoshligi» hayotiy tajribalarining yetishmasligi kabilar ularga xalaqit berishi ham

mumkin. Agar ular sog'lom fikrlay oladi-gan, yuqorida aytib o'tganimizdek, oilaviy hayotga psixologik yetuk bo'lsalar, ularning xatoga yo'l qo'yishi, adashishi ehtimollari kam bo'ladi. Agar shoshma-shosharlik qilsalar, «etti o'lchab bir kesmasalar» shak-shubhasiz omadsizlikka uchrashlari mumkin.

Umuman o'zlariga juft tanlashda psixologik yetuklikka asoslangan holda, yetuk nigoh bilan va mas'uliyat bilan yondoshib o'zlari mustaqil ravishda juft tanlashi yoshlarda keyinchalik o'z qarorlari uchun mas'uliyatlilikni his qilish, o'z oilasi mustahkamligi uchun kurashish, xatti-harakat qilishni, uning muvaffaqiyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni ta'minlaydi. Yoshlarimizni qarorlarining yetukligi, qat'iyligi ulardagi oilaviy hayot uchun, o'z oilasi uchun mas'uliyatlilik, javobgarlikning yuqori bo'lishi hissi ham oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim omildir.

#### **6.4. Oiladagi emotsonal munosabatlar xarakteri**

Qaysi mutafakkir yoki olim, shoir yoki yozuvchining asrlarini olib ko'rmang, ularning hech qaysisi o'z ijodiy faoliyatida inson hissiyotlarining eng kuchli va sirlisi, serjilo va sexrlisi hisoblangan muhabbatni chetlab o'ta olmagan. Insoniyat bor ekan, muhabbat odamni sirli tuyalar olamiga yetaklagan, uni yengib bo'lmas olovlardan o'tishga va cho'qqilarni zabt etishga undagan, uni rag'batlantirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa etgan. Hatto o'lim to'shagida yotgan odam ham umid bag'ishlab, nashasini suydirdigan, oddiy kunlariga kamalak jilolarini armug'on etgan, uning atrof-muhitni hamda o'zligini idrok qilishi uchun turtki bo'lgan. Shaxs ruhiyستida hatto o'ziga ham noma'lum bo'lgan qudratni kashf etgan. Ko'hna va hamisha navqiron hisoblangan bu insoniy tuyg'u hammaga barobar aziz va muqaddasdir.

Muhabbat ontogeneziya nazar tashlaganda sevgi hissining ilk kurtaklarini bog'cha yoshidagi bolalarda ham ko'rish va buni har bir tarbiyachidan so'rab, ishonch hosil qilish mumkin. Lekin tabiiyki, bu hali to'laqonli muhabbat bo'la olmaydi. Bolalikdagi sevgi hislarida fiziologik komponent, ya'ni jinsiy intilish deyarli bo'lmaydi. Ulardagi hissiyotning aksariyat qismi ruxiy komponentdan iborat. Maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi muhabbat hislari esa bir

muncha farq qiladi. O'spirinlik yoshidagi qiz bolalarda ruxiy komponent jinsiy komponentdan ustunlik qilsa, o'g'il bolalarda hissiyot divergensiyasi-bo'lishi kuzatiladi. Ya'ni ular muhabbat hislarini bitta qizga nisbatan boshidan kechirsalar, jinsiy intilishni katta yoshli ayolga nisbatan his etadilar, ulardagi hissiyot ikki ob'ektga bo'linadi. Bu faqat o'g'il bolalarga hos bo'lib, qizlarda bunday hol kuzatilmaydi. O'spirinlik yoshidagi o'g'il bolalarda giperseksuallik natijasida ularning hissiyotida jinsiy intilish ustunlik qiladi yoki uning ahamiyati keskin ortadi. Qiz bolalarda esa ruhiy komponentning ustunligi saqlanib turadi. 17-25 yoshlardagi yigit-qizlarda o'z juftini topishga intilish va hirs keskin ortadi. Sevish va sevilishga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida yoshlar yorini tezroq qidirib topishadi va oila qurishadi, ba'zan bunday yoshlar qisqa vaqt ichida ajralishiga ham ulgurishadi. 25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari ancha kamayib boradi. Unda bo'lgusi kuyovga nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi. Endi unda hislarga berilish kamayib, uning o'miga bo'lg'usi yoriga butunlay boshqacha qaray boshlaydi. Bunday ruhiy o'zgarishlar yigitlarda ham kuzatiladi, ammo qizlarda farqli ravishda ularning oila qurish, uylanish imkoniyatlari kamaymaydi, aksincha birmuncha ortadi. Chunki bu yoshda ularning ko'pchiligi bitirib, ma'lum bir ixtirosni egallagan, mehnat faoliyatini boshlagan bo'ladilar. Ya'ni oilani mustaqil tebratish imkoniga ega bo'ladilar.

To'laqonli sevgi-muhabbatni his etgan ha bir inson muhabbatning boshlang'ich, alangalangan va o'zaro hurmat bosqichlari ni bosib o'tadi. Boshlang'ich haqiqiy, istiqboliporloq, bir umirlik sof muhabbatning boshlanish yoki aksincha shunchaki havas qilishi yoki umri qisqa sevgining biror bir ko'rinishi bo'lishi mumkin. Mazkur bosqich muhabbatning "agape" turining boshlanishi yoki "yudus" turining o'zginasi bo'lishi mumkin. Alangalangan bosqichda muhabbat ob'ekti ideallashgan tarzda idrok etiladi.

Muhabbatning belgilari:

1. "*Birlik effekti*" bunday kollarda muhabbat hislarini boshdan kechirayotgan shaxsning ongida, tasarrufida hayolida doimo sevikli yori gavdalanib turadi. Nima

ish qilmasin va qayerda bo'lmasin, hatto yoridan juda uzoq masofada bo'lsada, hayolan u bilan gaplashadi, yashaydi.

2. *Idrokning ideallashtirishi* Bunday hollada sevilgan inson ideallashtirilgan holda idrok etiladi. Takorlanmas darajadagi shaxs sifatida, har tomonlama mukammal shakklarga, nihoyatda chiroyli, aqlli, odobli va o'zga ijobiy hislarni o'zida mujassamlashtirgan yigit yoki qiz sifatida namoyon bo'ladi. Fel-atvoridagi salbiy tomonlar yoki biror jismoniy nuqsonlar kamchilik sifatida emas, balki betakror, noyob fazilat sifatida qabul qilinadi. Sevgilisi va u bilan bog'liq barcha narsalar (uning qarama qarshi jinsdagi tengdoshlaridan tashqari) va yaqin kishilari ham faqat ijobiy jihatdan idrok etiladi.

3. *Altruizimning keskin ifodalanganligi.* Bu bosqichda altruizimning doirlik markazi muhabbat timsoli bo'lgan qiz yoki yigitga yo'nalgan bo'ladi. Altruizm nihoyatda kuchli bo'lganda inson sevgan kishisi uchun hamma narsaga tayyor bo'ladi. U sevgan kishisining manfaatini o'zining manfaatidan ustun qo'yadi va buni birinchi darajali zarurat hisoblaydi.

4. *Muhabbat kuchiga cheksiz ishonish.* Bunday holatda muhabbat hislarini boshdan kechirayotgan shaxs o'z sevgilisi bilan birga bo'lishni, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishni, tezroq u bilan oila qurishni va umrining oxigacha birga bo'lishni ozu qiladi, shunga intiladi, u ko'pincha bu rejasini amalga oshiradi. Bunday oliy baxtga erishish yo'lida turli to'siqlar uchashi muqarrardir.

5. *Sevgilisida boshqalar ko'rmagan jihatlarni ko'rish, o'zgalar ahamiyat bermagan hislarni sezish,* hali yaqqol ifodalanmagan qobiliyatni aniqlash, uning qanday mutaxasis bo'lib yetishni oldindan ko'ra bilishining barchasi muhabbat ziyrakligining namoyon bo'lishidir. Bu albatta, sevgan odamning qanday ko'z bilan qarashga bog'liq. Bu qarashning o'ziga hos ruhiy tomoni shundaki, u basharti ijobiy tomonlarini bo'rttirib ko'rsatsa, salbiy tomonlarga e'tibor bermaydi. Shular tufayli ko'pincha sevgilisining ota-onasi ham ko'ra bilmagan istiqbolini aytib bera oladi.

6. *Sevgan odamda hayotga nisbatan muhabbat kuchayadi.* Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: ularda ruhiy jihatdan keskin o'zgarish sodir bo'ladi, dunyoni o'zga qacha tasavvur qilishadi, hayotni chuqurroq idrok eta boshlaydilar, o'zgalarni

qalbdan tushunish, ularga hamdardlik bildirish kuchayadi, ilgari yaqqol ifodalanmagan rahmdillik hislari paydo bo'ladi va ortadi. O'zgalarga yordam qo'lini cho'zish, tevarak-atrofdagi go'zallikni ko'ra olish-estetik idrok qilish kuchaydi.

*Romantik sevgi* - ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Olimlarning fikricha, romantik sevgi - eng kam anglanadigan, odamning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq munosabatlardir. Bunday munosabatlarning eng muhim jihati shundaki, ikkala tomon ham bir-birlaridan o'zlari ko'rishni xohlagan sifatlarni qidiradi va ko'radi. Shu bois ham ko'pincha romantik his-tuyg'ularga asoslangan munosabatlarning umri qisqa bo'ladi, chunki real xulq-atvor bilan ideal tasavvurlar o'rtasida ziddiyat, nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin. Ayni shu munosabatlarning salbiy oqibatlari odamni qiynaydi, hayotdan umidsizlikni, boshdan kechirgan hissiyotlari yolg'onligini anglash unda juda qattiq aziyatlarni keltirib chiqaradi. Lekin bir yomonning bir yaxshisi bo'ladi, deganlariday, boshdan kechirilgan azoblar odamni shaxs sifatida takomillashuviga, ichki hissiyotlarning ko'p qirrali bo'lishiga olib keladi. Masalan, tashqi ko'rinishiga bee'tibor bo'lgan qiz bir yigit bilan romantik hissiyotlarga berilib qolib, toshoyna oldidan ketmaydigan, toza, orasta yurishga odatlanadigan, kiyimlarni ham hamisha bejirim kiyishga o'rganib boradi. Sevgilisiga yoqishni astoydil xohlagan yigit esa ayrim zararli odatlaridan, masalan, dangasalik, ko'p uxlash, tamaki chekish kabilardan voz kechib, yangidan turmush tarzini boshlashga azmu-qaror qilishi tabiiy. Yoki institutda o'qishni o'ziga ep ko'rmagan yigit talaba qizni sevib qolib, u o'qiydigan oliygo'ha ne-ne mashaqqatlar bilan kirib o'qigani bilan bog'liq misollar ham hayotda talaygina uchraydi.

*L.Kameron-Benjlerning* fikricha, romantik sevgi hissi rivojlanishining 7 bosqichi bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

1. *O'ziga jalb etish* - yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildirish. Bu davrda sheriklar dilidagi istak va xohishlarini yangi tanishgan odamida mavjudligini tahlil etadi. Bunga odatda asosan odamdagi aql-zakovat, samimiyat, qo'li ochiqlik, yumor hissi, ishonchlilik, dadillik, qizlardagi ibo kabi sifatlar sababchi bo'ladi. Bu

- sifatlar hammaga yoqadigan sifatlar bo'lgani uchun ham yangi tanishlar o'zlarida aynan sherigiga yoqadigan shu sifatlarni namoyon etishga intiladilar.
2. ***Mashg'ullik yoki rom bo'lib qolish***. Bu bosqichda tanishib ulgurgan yoshlar davomli uchrashuvlar natijasida bir-birlaridagi ijobiy sifatlarini anglab, bir-birlariga ko'nika boshlaydi. Faqat e'tibor ijobiy, yaxshi sifatlariga qaratilgani bois sheriklar adashishlari ham mumkin, qolaversa, yangi tanishlar o'zlarini biroz sun'iy tutib, asl qiyofalarini ataylab niqoblashga ham uringanliklari uchun mabodo salbiy sifatlar ham namoyon bo'lib qolgan taqdirda ayrimlar ajrashib ketadilar, ayrimlar esa uchrashuvlarni davom ettiraveradilar.
  3. ***Ko'nikish*** - munosabatlardagi o'ziga xos yangilikning kamayib borishidir. Endi boshida o'zgacha joziba kasb etgan tashqi ko'rinish, xusn, qaddiqomat kabilar odatiydek idrok etilib, hissiyotlar tobora kamayib boradi.
  4. ***Kutish*** - munosabatlarning muayyan bosqichida xayol-fantaziyadagi ideal obraz bilan real, kundalik hayotda tobora namoyon bo'lib borayotgan asl nusxa o'rtasida ayrim ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko'zga tashlanishi bilan boshlanadi. Endi tobora kutishlar tizimida ko'ngil qolish, afsuslanish kabi holatlar ham paydo bo'lib, ong sherikdagi ayrim salbiy, yoqimsiz sifatlarini ham idrok qila boshlaydi. Bunga ayni shu davr ichida boshqalar bilan tanishish tajribasi ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, talaba yigitning boshqa bir shaharga olimpiadaga yoki xizmat safariga borishi, u yerda o'zgacha nafosatli bir qiz bilan tanishib qolishi unda solishtirish imkoniyatini yaratadi, va qaytib kelgach, uchrashib yurgan qizidan ayni o'sha sifatlarini kutadi, lekin topolmasa, undan ranjli boshlaydi.
  5. ***Ko'ngil qolish*** - bu shunday bosqichki, unda xayajonli ishq-muhabbat hislari o'rini alam, g'azab, aldanganlikni anglash egallay boshlaydi, sherik to'g'risidagi ijobiy obraz salbiy obraz bilan almashib boradi. Ko'pchilik yoshlar ayni shu bosqichda bir-birlaridan ajralib qoladilar.
  6. ***Haddan oshish yoki munosabatlar chegarasining darz ketishi*** - bosqichida sheriklardan biri (ba'zan ikkalasi bir vaqtda) munosabatlarga chek-chegara

qo'yish vaqti kelganligini anglab qoladi. Shu fikr paydo bo'lgan ondan boshlab, ular yana bir karra qabul qilingan qarorning nechog'li to'g'ri ekanligini o'ylab ko'rishadi. Odatda bu noo'rin talablarni bir-biriga qo'yish orqali hissiyotlarni tekshirish orqali ro'y beradi. Masalan, "bu va yana bu takliflarimga ko'nsang, senga uylanaman, bo'lmasa, oramiz ochiq" qabilida.


7. **Munosabatlarning tugashi** - bir-birlari bilan boshqa sira yuz ko'rishmaslik bilan bog'liq qaror chiqarishdan boshlanadi. Ayrimlar sherigining aybdor emasligini bilib tursa-da, munosabatlarni tugatgisi kelaveradi, ayrimlar esa bir-biridan ko'ngilsiz bo'lib qolgan bo'lsalarda, birga yashayveradi. Bundaylar o'zaro muomalani keskin kamaytirib, deyarli gaplashmay ham yashayveradi, bunday arazlashlar ko'pincha u yoki bu tomonning depressiv holatini, asabbuzarlikni keltirib chiqaradi. Chunki odatda bunday holatda qolgan shaxs boshqa sevgilisi yo'qligidan yoki yangi tanishlar ham shunday aldab ketishidan, bolasi taqdirini ijobiy xal qila olmasligidan juda qayg'uradi va hatto kasalga ham chalinib qoladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Nikohga yetuklik xususiyatlarini izohlang?
2. Nikoh yoshi xususiyatlarini gapirib bering?
3. Nikoh oldi omillari deyilganda nimani tushunasiz?
4. Nikohga, oilaviy hayotga yetuklik nima? Uni qanday jihatlari farqlanadi?
5. Nikoh yoshi nima? U qanday belgilanadi?
6. Nikoh motivlari nima? Uning qanday turlari farqlanadi?
7. Nikohgacha tanishish shartlari va muddatining nikoh mustahkamligiga qanday ta'siri bor?
8. Bo'lajak er-xotinning tanishish shartlari va ularning nikoh mustahkamligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
9. Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari nikoh mustahkamligiga qanday ta'sir qiladi?

**Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar:**

*Klaster texnologiyasidan foydalangan holda nikoh oldi omillarini aniqlang.*



## 7-BOB. YOSH OILALARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

### Reja:

1. *Yosh oila psixologik izlanishlarning obekti sifatida*
2. *Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari*
3. *Oiladagi rollar*
4. *Oila integratsiyasining ijtimoiy funksional mexanizmlari*

**Tayanch iboralar:** *oila, yosh oila, muammo, ideallashtirish, adaptatsiya, integratsiya, oilaviy rollar*

### 7.1. Yosh oila psixologik izlanishlarning obekti sifatida

Oilaviy munosabatlarni tadqiq etgan ko'pchilik psixologlar oila rivojining boshlang'ich davriga alohida urg'u beradilar (Matskovskiy M. S, Xarchev A. G., Sisenko V. A., Dementeva I. F., Trapeznikova T. M., Richardson R., Grebennikov I. F. va boshqalar). «Barcha tiriklik shakllari singari oila ham vujudga kelgan chog'larida har qachongidan ko'ra zaif bo'ladi» (Yurkevich N. G.).

Rossiya psixologiyasida odatda, V. A. Sisenko tomonidan taqdim etilgan oila rivojining davrlaridan foydalaniladi. Bu davrlashtirishga muvofiq, "yosh oila" termini yetarlicha keng talqin etiladi: unga ko'ra oila qurilgandan 4 yilgacha turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar - «eng yosh oilalar», 5 yildan 9 yilgacha turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar - «yosh oilalar» deb yuritiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar oila rivojining birinchi davri sifatida dastlabki ikki yillik birgalikdagi turmushni ko'rsatishadi. Hayot siklining bu qismi qanchalik ahamiyatga egaligini aynan mana shu davrda barcha oilalarning uchdan bir qismidan 20% turli sabablarga ko'ra buzilib ketishi ham isbotlaydi (Trapeznikova T. M., Sisenko V. A.). Balki, yosh oila muammolarini chuqurroq tushunish uchun undagi munosabatlarning birinchi farzand tug'ilishidan oldingi va keyingi holatini ko'rib chiqish darkordir, chunki oilada farzand tug'ilishi bu munosabatlarni, oilaning qancha vaqtdan buyon mavjud bo'lishiga qaramasdan yangi

bosqichga olib chiqadi. Karter va Mak Goldring oila hayot siklining ikkinchi va uchinchi bosqichini yangi turmush qurganlar va kichkina bolali oilalar deb atashgan (Levi D., 1993). Shunday qilib, oilaviy hayot bosqichi birinchi farzand dunyoga kelishidan oldin va keyin turlicha bo'ladi, bunda er-xotin turmush qurganlariga bir yil bo'ladimi, bir yildan kammi, farqi yo'q. Farzand tug'ilishi oilaviy hayot tarzini tubdan o'zgartiradi, turli muammolar yuzaga keladi.

Bu qanday muammolar? Avvalo, yosh oila hayotning dastlabki yillaridayoq, *farzand tug'ilishi va uni tarbiyalash* bilan bog'liq qator masalalarni mustaqil hal qilishga qiynaladi.

Ishchilar oilasini tadqiq etgan O. A. Dobrinaning ta'kidlashicha, oilaviy hayotdagi eng "qiyin" davr "eng yosh oilalar" (0-4 yil) va "yetuk oilalar" (20 yildan ortiq) guruhiga kiruvchi er-xotinlar orasida kuzatiladi. Yosh oilalarda bo'lg'usi oilaviy munosabatlar modeli - boshqaruv va majburiyatlarning taqsimlanishi, er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'matilishi, ularning har ikkisini qoniqtiradigan munosabat turini izlash, umumiy oilaviy qadriyatlarining paydo bo'lishi kabilari shakllanadi. Yosh er-xotinlarda psixologik va maishiy adaptatsiya bilan bog'liq muammolar: liderlik, empatiya, uy-ro'zg'or vazifalarini taqsimlash kabilarni hal qilish masalasi aktuallashadi. Yosh oilalarda «tan olinish» va o'zaro bir-birini tushunishga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'lishi, biroq, psixologik qo'llab-quvvatlashning yetuk oilalarga qaraganda sust bo'lishi kuzatilgan.

**Juftini ideallashtirish.** Turmushning birinchi yilida (ayniqsa oila qurishdan oldingi tanishuv muddati qisqa bo'lgan bo'lsa) juftini ideallashtirish oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Sherigini ideallashtirish nikohdan oldingi munosabatlardagi idrokning buzilishi natijasidir. M. A. Abalakinaning ta'kidlashicha *juftini ideallashtirish muammosiga uch nuqtai-nazardan qarash mumkin:*

1. Ideallashtirish asossiz ravishda sherigi va u bilan munosabatlarga nisbatan bo'ladigan kutishlar darajasini oshiradi. Real odamning ideal obrazga mos kelmasligini anglash destruktiv rol o'ynaydi, sherigidan, o'zidan va umuman munosabatlardan chuqur qoniqmaslik hissini keltirib chiqaradi. Kelajakda bularning barchasi, endilikda ancha real va yangi bo'lib ko'rinayotgan juftini

qabul qila olmaslik yoki qabul qilishni xohlamaslik natijasida oilaning buzilib ketishiga olib keladi.

2. Nikoh oldi munosabatlarida ideallashtirishning roli haqidagi keyingi nuqtai-nazarni konstruktiv deb atash mumkin. Bunga ko'ra, juftini ideallashtirish uning shaxsini rivojlanishi uchun stimuly bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, turmush o'rtog'i uchun "rivojlanishning yaqin zonasi" — kelajakda kim bo'lishi mumkinligini belgilab beradi.
3. Uchinchi nuqtai nazar — gumanistik psixologiya doirasida bo'lib, A. Maslouning ishlarida aniq ifodalangan. Uning fikricha, o'zini aktuallashtirgan shaxslarda, ya'ni rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga erishganlarda tabiiylik va spontanlik yorqin ifodalangan bo'ladi. O'zini aktuallashtirgan odamlar uchun ideallashtirish umuman xos emas. Shak shubhasiz, shaxsiy xususiyatlar ideallashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

## 7.2. Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari

Nikohning boshlang'ich davri oilaviy adaptatsiya va integratsiya bilan tavsiflanadi. I. V. Grebennikov ta'бири bilan aytganda, adaptatsiya - bu er-xotinning bir-biriga va oiladagi sharoitga moslashishidir.

Er-xotinni o'zaro adaptatsiyasining psixologik mohiyati ularning bir-biriga o'xshab qetishi va tuyg'ulari, xulq-atvori, fikrlarining bir joydan chiqishidir. Adaptatsiya oilaviy hayotning barcha tarmoqlarida amalga oshadi.

*Moddiy - maishiy adaptatsiya* - er-xotinning uy ishlarini bajarishda va ularning ikkisini ham qoniqtiradigan oilaviy byudjetni rejalashtirish modelini shakllantirishda xuquq va majburiyatlarini kelishib olishlari bilan belgilanadi.

*Axloqiy-psixologik adaptatsiya* – er - xotinning dunyoqarashi, ideallari, qiziqishlari, ustanovkalari, shuningdek, ularning shaxs va xarakter xususiyatlarining moslashishi.

*Shaxsiy-intim adaptatsiya* - er-xotinning jinsiy munosabatlarda moslikka erishishi.

Ba'zi tadqiqotchilar oilaviy hayotning birinchi ikki davri: eng yosh oila va shunchaki yosh oila davriga mos ravishda birlamchi va ikkilamchi adaptatsiyani ajratib ko'rsatadilar.

Er-xotinning birlamchi adaptatsiyasi ularni bir-biriga mosligining asosiy ikki ko‘rinishi: roli va shaxslar munosabatlarda amalga oshadi. Rolli munosabatlar uchun baza sifatida turmush qurishning maqsadlari haqidagi tasavvurlar xizmat qiladi, bu maqsadlarda er-xotinning motivatsiyasi namoyon bo‘ladi. Turmush qurishning umumiy motivatsiyasi o‘z ichiga to‘rtta asosiy motivni birlashtiradi: maishiy-xo‘jalik, axloqiy-psixologik, ota-onalik va shaxsiy-intim motivatsiyalar.

- Maishiy-xo‘jalik motivatsiya asosida oila qurgan yoshlar - oilaviy hayotda eng asosiysi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan kundalik turmush va uy yuritish deb hisoblaydilar;
- axloqiy – psixologik motivatsiyaga asosan turmush qurganlar esa asosan oilaviy hayotda ularni tushunadigan do‘st va umr yo‘ldoshini birinchi o‘ringa qo‘yadilar;
- ota-onalik motivatsiyasi ustunlik qiluvchi er-xotinlar - oilaning asosiy vazifasi sifatida bolalarni dunyoga keltirish va ularni tarbiyalashni tushunadilar;
- shaxsiy-intim motivatsiya bilan turmush qurganlar esa – o‘zlari xohlagan va sevgan umr yo‘ldosh bilan yashashni birinchi o‘ringa qo‘yadilar.

O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, turmush o‘rtloqlarning tasavvurlari bir-birlarinikiga qarama-qarshi bo‘lmasligi yoki birining oilaviy rolidagi xatti-harakati ikkinchisining tasavvurlariga zid bo‘lmasligi lozim.

Agar er motivatsiyalardan birini asosiy deb bilsa-yu, xotin uchun boshqasi muhimroq bo‘lsa oilaviy nizolarning kelib chiqishi aniq, ayniqsa inqirozli, qiyin davrlar kelganda, asl ongsiz motivlar ochilib qolganda bunday nizolardan qochib bo‘lmaydi.

### **7.3. Oiladagi rollar**

Tasavvurlarning bunday moslashuvi, ehtimoliy nizolarni oldini olish birlamchi rolli adaptatsiya bosqichida amalga oshadi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, bu jarayon doimo yangi chuqur tasavvurlar bilan boyib boradi. Birlamchi rolli adaptatsiya o‘z ichiga xarakter haqidagi tasavvurlar va oilaviy majburiyatlarni taqsimlashni

birlashtiradi. K. Kirkpatrik bo'yicha er-xotin rollarining uch turi mavjud: an'anaviy, o'rtoqlik va sheriklik rollari.

**An'anaviy rollar** ayoldan quyidagilarni talab qiladi:

- Farzandlarni dunyoga keltirish va ularni tarbiyalash;
- uy – ro'zg'or tutish;
- oilaga xizmat qilish;
- o'z manfaatlaridan erining manfaatlarini ustun qo'yish;
- tobelikka moslashganlik;
- faoliyat maydonining cheklanganligiga ko'nikish.

Er tomonidan quyidagilarni talab qiladi:

- o'z farzandlarining onasiga sadoqat;
- iqtisodiy xavfsizlik va oilani himoya qilish;
- oiladagi xokimlik va nazoratni ushlab turish;
- asosiy qarorlarni qabul qilish;
- ajrashganda bolani aliment bilan ta'minlash.

**O'rtoqlik rollari** xotin tomonidan quyidagilarni talab qiladi:

- tashqi jozibadorlikni saqlash;
- erini ma'naviy qo'llab-quvvatlash va jinsiy qoniqtirish;
- eri uchun foydali bo'lgan ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash;
- eri va mehmonlar bilan jonli va qiziqarli, dildan suhbat qurish;
- hayotning turli-tumanligini ta'minlash va zerikishni bartaraf etish.

Er tomonidan quyidagilarni talab qiladi:

- xotinidan zavqlanish;
- xotiniga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish;
- romantik sevgi va muloyimlik bilan javob qaytarish;
- kiyim – kechak va turli moddiy va ma'naviy ehtiyojlar uchun mablag'

bilan ta'minlash;

- bo'sh vaqtini xotini va oilasi bilan o'tkazish.

**Sheriklik rollari** xotindan ham, erdan ham quyidagilarni talab etadi:

- daromadga mos ravishda oila byudjetiga hissa qo‘shish;
- bolalarga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish;
- uy yumushlari qatnashish;
- huquqiy javobgarlikning taqsimlanishi.

Yuqoridagilardan tashqari xotinga quyidagi qo‘shimcha talablar bor:

- oila statusini saqlashga eri bilan barobar harakat qilish;
- ajrashganda bolalar bo‘lmasa — moddiy yordamdan voz kechishga

tayyorlik;

Er tomonidan esa quyidagilarni talab qiladi:

■ xotining teng statusini qabul qilish va uning murakkab qarorlarni qabul qilishdagi ishtirokini ta‘minlash.

Zamonaviy yoshlar o‘zlarining nikoh oldi kutishlarida ba‘zan, an’anaviy va egalitar oila qirralarini aralashtirib yuboradilar. Oila qurish arafasida turgan yoshlar o‘rtasi(438 juftlik)da o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 17,6% o‘spirinlar oilaning soxta an’anaviy modeliga oriyentatsiyalangan, er oilada ustun bo‘lishi va moliyaviy majburiyatlarni olmasligi kerak degan tasavvurlarni namoyon etgan bo‘lsalar, 28,4% qizlar soxta egalitar modelga mo‘ljallab olib, oilaviy yumushlarda to‘liq tenglikni yoqlagan holda, erga oilani moddiy ta‘minlashdek an’anaviy majburiyatni yuklaganlar (Navaytis G., 1999).

Katta shahardagi yosh oilalarning barqarorligini saqlovchi omillarni tadqiq etgan olim T. A. Gurko, 300 nafar juftliklarni o‘rganib, shunday xulosaga keladi: yosh oilalarda tomonlarning xotin qay darajada o‘zini kasbiy faoliyatga va qay darajada oilaviy majburiyatlarga bag‘ishlashi kerakligi haqida kelishib olishlari oila barqarorlikni saqlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bu masalani hal qilish oilaviy munosabat uslubi - an’anaviy yoki zamonaviy bo‘lishini belgilab beradi. T. A. Gurkoning fikricha erkaklar ayollardan farqli ravishda, an’anaviy qarashlarni qo‘llab - quvvatlaydilar. Bu masala bo‘yicha 74% muvaffaqiyatli oilalarda va bor yo‘g‘i 19% muvaffaqiyatsiz oilalarda fikrlar mosligi kuzatilgan. Bulardan tashqari, 52% oila qurgan er-xotinlarning oilali ayolning ijtimoiy faollik darajasi borasidagi fikrlari turlicha ekanligi aniqlangan.

T. A. Gurkoning fikricha, yosh oilalar barqarorligining saqlanishida - er-xotinning bo'sh vaqtlarini tashkil etishdagi hamfikir ekanliklari muhim hisoblanadi. Erkaklar o'z xotinlarining bo'sh vaqtlarini uydin tashqarida o'tkazishidan norozi bo'lsalar, ayollar erlarining "yopiq" holda hordiq chiqarishiga qarshi bo'lar ekanlar. Statistik ma'lumotlarga tayansak bu masala yuzasidan 52% muvaffaqiyatsiz oilalarda va 6% muvaffaqiyatli oilada er-xotinning fikri bir joydan chiqmas ekan. T. A. Gurko shuningdek, maishiy - xo'jalik vazifalarini taqsimlash va oilada boshchilik roli borasidagi qarashlarni nomuvofiq bo'lishining destruktiv oqibatlarini xususida ham fikr yuritgan.

Nikoh barqarorligida muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan yana biri shaxslararo rollar — odamlar mavqeining guruhviy aloqalardagi o'ziga hos o'mi, fiksatsiyasidir.

Ijtimoiy rollar singari, shaxslararo rollar haqidagi tasavvurlarda ham er-xotin o'rtasida nomuvofiqlik kuzatiladi, bu esa oila barqarorligiga salbiy ta'sir etadi. Masalan, xotin oilada yetakchi bo'lmoqchi, er esa bu fikrga qo'shilmay, unga ko'proq uy bekasi bo'lish mos keladi, - degan fikrda.

Demak, normal adaptatsiyalashgan oilada nafaqat ijtimoiy rollar, balki shaxslararo rollar ham:

- a) nikohga kirishuvchilar tomonidan "qonuniylashtirilgan" bo'lishi;
- b) ma'qullanadigan, qo'llab-quvvatlanadigan va to'ldirib boriladigan (agar er - "oilaviy donishmand" bo'lsa, xotin - "zavqlanib hurmat qiluvchi") bo'lishi kerak.

Turmush o'rtoqlarning shaxslararo adaptatsiyasi uch jihatga bo'linadi:

1. affektiv (munosabatlarning emotsional tarkibi);
2. kognitiv (bir-birini tushunish darajasi);
3. axloqiy (munosabatlardagi bevosita amalga oshadigan xulq-atvor).

Ikkilamchi adaptatsiyaning mohiyati — er-xotinning bir-biriga haddan ortiq moslashib qolishi, ularning sevgini unutib qo'yishlari va oilaviy hayotdagi takrorlanmas xarakterni yo'qotib qo'yishlaridadir. Bir narsani yoddan chiqarmaslik kerak, ikkilamchi (negativ) adaptatsiya ham birlamchi adaptatsiya kabi xavflidir.

Turmush adaptatsiyasi jarayoni oilaviy integratsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Integratsiya - bu ixtiyoriy birlashma, oilaviy hayotning turli jabhalaridagi pozitsiyalarni, tasavvur va fikrlarni kelishib olishdir. Bunga quyidagilar kiradi: o'zaro munosabatlar uslubi, moddiy-maishiy muammolar, oilaviy byudjet, ruhiy hayot va bo'sh vaqt, xordiqni o'tkazish, shuningdek, jinsiy hayot, kutishlar va bolaning tug'ilishi, ota-onalar bilan o'zaro munosabat, er-xotinning kasbiy va ijtimoiy faollikka munosabati, ijtimoiy qadriyatlarga munosabat.

#### **7.4. Oila integratsiyasi mexanizmlari**

Oila integratsiyasining ijtimoiy-funksional mexanizmlari deb E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiylar oila a'zolarini va ularning munosabatlarini qamrab oladigan psixologik jarayonlar majmuini tushuntiradilar. Bu jarayonlar oilaga aloqador motivlar (oilaga ijobiy munosabat bilan shartlashgan, uning a'zosi bo'lib qolish istagi, oilani mustahkamlashga intilish)ning shakllanishi va rivojlanishiga imkon tug'diradi; salbiy, frustratsion kechinmalar – xavotir, stresslarni yechishga yordam beradi, shuningdek, ichki va shaxslararo nizolarni hal qilishda ishtirok etadi.

Bu mexanizmlarning faoliyati u yoki bu oilaning qiyinchilik va frustratsiyaga bildiradigan reaksiyasida namoyon bo'ladi. Agar oiladagi bu mexanizmlar ishlamasa yoki faoliyati izdan chiqqan bo'lsa, qiyinchiliklar oilani barbod qiladigan, uning mustahkamligiga shikast yetkazadigan omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-funksional mexanizmlar samarali ishlasa, qiyinchiliklar oilaning kelajakdagi integratsiyasi manbaiga aylanadi, uni yanada jipslashtiradi. E. G. Eydemiller va V.V.Yustitskiylar oila integratsiyasining ikki mexanizmini ajratib ko'rsatadilar, bular: "umumiy taqdir" va "oiladagi emotsional identifikatsiya" mexanizmlari.

**Ijtimoiy-psixologik mexanizm: «umumiy taqdir».** Bu mexanizmning ishlashi quyidagi munosabatlar orqali ta'minlanadi:

- oila a'zolarida o'z ehtiyojlarini qondirishning oilaviy (individual emas) tasavvurlari, ko'nikma, malakalari shakllanadi. Oila a'zolari ongida oilaviy hayot o'z hayotiy ehtiyojlari - moddiy-maishiy, jinsiy munosabatga, tushunishga, muloqotga

va hurmatga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishning eng qulay, tabiiy usuli sifatida namoyon bo'ladi.

- bunday oila a'zolari oilani mustahkamlashni o'z shaxsiy ehtiyojarini qondirishning qulay yo'li sifatida idrok etadilar. Oila haqida qayg'urish o'zi haqida qayg'urish sifatida anglanadi.

- “oilaviy ishonch”ning shakllanishi. Bu oiladagi qarama-qarshiliklar o'zaro yon berish yoki taraflardan birining ixtiyoriy yon berishi orqali hal qilinishida, yumshatilishida namoyon bo'ladi. Yon berish asosida — o'zini qurbon qilish emas, balki ishonch yotadi. Yon berish darajasi, birinchidan, provard natijada uning o'zi uchun ham foydali; ikkinchidan, boshqa vaqtda shunga o'xshash vaziyatda oilaning boshqa a'zolari ham shunday yo'l tutishadi (unga yon berishadi); uchinchidan, uning yon berishini suiste'mol qilishmaydi, aksincha minnatdorlik bilan qabul qilishadi.

Bunday oiladagi munosabatlar qaysidir ma'noda olis safarga chiqqan kema ekipajining o'zaro munosabatini eslatadi. Kema va ekipaj uchun qayg'urib, o'zi uchun qayg'urayotganini har bir a'zo tushunadi. Bunday oila a'zolarining o'zlari ham ahil, totuv oilada o'sganlar.

- o'zaro empatiyaning yuqori darajasi. Bir-birining ichki dunyosini yaxshi tasavvur qilish yuqori darajada rivojlangan. Odatda, oila a'zolari turli vaziyatlarda bir-birlarining hatti – harakatlarini bashorat qila oladilar.

Yuqorida tavsiflangan integratsiya mexanizmi rivojlanmagan yoki izdan chiqqan oilalar (*o'zaro mustaqil munosabatli oilalar*) quyidagi tavsiflar bilan ajralib turadi:

1. Ehtiyojlarning keng doirasini oiladan tashqarida, undan mustaqil holda qondirish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday oila iloji boricha xo'jalik yuritmaslikka harakat qiladi, oilaning har bir a'zosi o'zi alohida, o'z do'stlari bilan hordiq chiqarishga odatlangan. Oila byudjetidan har bir a'zo o'zi bilganча foydalanadi.
2. Oila a'zolari umumiy rejalar tuzish va ularni amalga oshirishda juda extiyotkor bo'ladilar (bunday oilalar farzand ko'rishga intilmaydi).
3. O'zaro mustaqil munosabatli oilalarda “kredit”ga asoslangan o'zaro ishonch yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni qarama-qarshilik yuzaga kelganda ularda umr

yo'ldoshiga yordam berib, o'zigi yordam berayotganligi haqidagi tuyg'u bo'lmaydi. "Umumiy taqdir" mexanizmi rivojlanmagan oilalarni har doim ham beqaror deb bo'lmaydi, shunchaki barqarorlikka boshqa yo'llar bilan erishiladi. Ushbu mexanizm rivojlanmay qolishining man'balari turli tuman - birinchi navbatda umumoilaviy: oiladagi uzoq davom etgan jiddiy nizo. Shuningdek boshqa oiladan yoki tug'ilib o'sgan oilasidan ko'chirilgan salbiy tajriba ham yomon ta'sir etishi mumkin. "Umumiy taqdir" bilan tavsiflanadigan mustahkam oilaviy munosabatga kirishish oldidagi "oila fobiyasi" vujudga keladi, odamlar iloji boricha oiladan mustaqillikni saqlab qolishga intiladilar. Oila psixoterapiyasi nuqtai nazaridan oila integratsiyasi mexanizmi yaxshi rivojlanmagan oilalar turli buzilishlarga nisbatan immuniteti past bo'ladi. Bunday turdagi oilalar hayot sharoitiga nisbatan juda sezgir bo'ladilar. Undagi munosabatlar "hammasi yaxshi bo'lib tursa, yaxshi" bo'ladi.

#### **Ijtimoiy – psixologik mexanizm: «Oiladagi emotsional identifikatsiyalar».**

Bu mexanizmning ishlashida oila a'zolari o'rtasidagi emotsional munosabatlar, simpatiya muhim rol o'ynaydi.

Simpatiyaga asoslangan munosabatlar oila hayotida muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, ular oila a'zolarining eng muhim hisoblangan emotsional muloqot va simpatiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Ikkinchidan, bunday munosabatlar oilaga aloqador motivlarni kuchaytirib, oilaga zid motivlarni zararsizlantiradi. Simpatiyaga asoslangan munosabatlar shaxslararo munosabatlarda, jumladan oilada vujudga keladigan frustratsiya holatini zararsizlantiradi. Odam o'zida simpatiya uyg'otgan va ayniqsa sevimli bo'lgan odamining ko'p xatolarini kechiradi. Xarakterdagi frustratsiyaga beriluvchanlik xususiyatiga qarshi immunitet shakllanadi. "Frustratsiyaning erishi" effekti yuzaga keladi.

Shunday qilib, simpatiyaga asoslangan munosabatlar oilada ko'p obrazli integratsiyalovchi vazifani bajaradi: frustratsion holatlarni yechadi va yumshatadi, oila a'zolarining o'zaro agressivligini kamaytiradi, shaxslararo nizolarni hal qilish uchun qulay sharoit yaratadi, oiladagi a'zolarining o'zaro tushunish ko'nikmasini shakllantiradi.

**Birinchi farzandning tug‘ilishi.** Yosh oila hayotidagi o‘ziga xos davr birinchi farzand tug‘ilganda boshlanadi. Farzandning paydo bo‘lishini oila hayotidagi jiddiy o‘zgarishlarga olib keluvchi omil deb atash mumkin. Bu hodisa er-xotinda shakllangan qiziqish va odatlar, oila hayot uslubining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, chunki endilikda er-xotin zimmasiga yangi ijtimoiy rol hisoblangan - ota-onalik vazifasi tushadi.

Farzandning dunyoga kelishi bilan er-xotinning uyquasi buzilishi, moddiy harajatlarning ortishi, vazifalarning taqsimlanishida kelib chiqadigan zo‘riqish va nizolar bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy va emotsional zo‘riqishlari ortib ketadi (Krayg G., 2002). Ona holdan toygan, ota o‘zini xo‘rlangan his qiladi va ikkalasi ham erkining cheklanganligini his qiladilar. Ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, yangi oila a’zosining paydo bo‘lishi er va xotin o‘rtasidagi aloqa va muloqotni kuchsizlantiradi, chaqaloq ota – onaning biri yoki ikkalasining ham diqqat markazini butkul egallaydi.

Y. Ye. Aleshina o‘z tadqiqotlarida qiziqarli xulosalarga kelgan. Oilada bola tug‘ilishi bilan uning parvarishi va himoyasi ona zimmasiga tushadi. Bu esa er-xotinning oiladagi rollari jinsga qarab taqsimlana boshlashiga olib keladi. Er esa o‘z navbatida, oiladan tashqarida sodir bo‘layotgan hodisalarga yo‘nalib qoladi, xotin esa, o‘zining an’anaviy rolini bajarar ekan, uy ichida sodir bo‘layotgan barcha hodisalarga javobgar bo‘ladi. Shunday qilib, birinchi farzand dunyoga kelganidan so‘ng jinsiy-rolli differentsiatsiyaning kuchayishi sodir bo‘ladi.

Bola dunyoga kelganda er-xotinning nafaqat ijtimoiy ehtiyojlar strukturasi o‘zgaradi, balki, kasbiy ehtiyojlarining qayta oriyentatsiyalashuvi ham ro‘y beradi. I. F. Dementevaning ta’kidlashicha, ishlaydigan ayolning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji onalik ehtiyoji tomonidan siqib chiqariladi va ikkinchi o‘ringa tushib qoladi. Bolaning tug‘ilishi bilan otaning kasbiy ehtiyojlar strukturasi ham ma’lum darajada sifat o‘zgarishlari kuzatiladi. Birinchi navbatda bu kasbiy-statusli ehtiyojlarga taalluqli: ko‘proq maosh olish ilinjida ish malakasini oshirishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shuningdek, bolaning tug‘ilishi yosh otaning kasbiy rejalarning o‘zgarishiga ham bilvosita ta’sir etishi mumkin.

Bunday tub o‘zgarishlar ko‘pincha amerikalik oilalarda kuzatilgan. Odatda, ayollar bola tug‘ilgach, ota-onalik va oilaviy rollarni birinchi o‘ringa qo‘yib, o‘z hayot

tarzlarini o'zgartirishgan. Erkaklarning ko'pchiligi esa oilasini yaxshiroq ta'minlash uchun ko'proq ishlay boshlaganlar (Krayg G., 2002). Bolaning paydo bo'lishi yangi stress va qiyinchiliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi, chunki, Rossining fikricha, rollar o'zgarishi ancha tez sodir bo'ladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. "Yosh oila" tushunchasining mazmunini izohlang.
2. Yosh oilada qanday muammolar yuzaga keladi?
3. Ideallashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Yosh oila muammolari kimlar tomonidan o'rganilgan?
5. Adaptatsiya haqida ma'lumot bering?
6. T.A.Gurkoning yosh oilalar barqarorligining saqlash borasidagi qarashlarini izohlang.
7. K. Kirkpatrik er-xotin rollarining qanday turlarini ajratib ko'rsatgan?
8. Integratsiya tushunchasini izohlang?
9. Y. YE. Aleshinaning oilada bola tug'ilishi bilan bog'liq tadqiqotlari haqida ayting.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. **Yosh oila deb qanday oilaga aytiladi?**
  - e) er-xotin ikkalasi ham 20 yoshdan oshmagan hamda oilaviy turmush tajribasi 10 yildan oshmagan oila
  - f) er-xotin ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan hamda oilaviy turmush tajribasi 20 yildan oshmagan oila
  - g) er-xotin ikkalasi ham 20 yoshdan oshmagan hamda oilaviy turmush tajribasi 3 yildan oshmagan oila
  - h) er-xotin ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan hamda oilaviy turmush tajribasi 10 yildan oshmagan oila
2. **Er-xotinni o'zaro adaptatsiyasining psixologik mohiyati ularning bir-biriga o'xshab qetishi va tuyg'ulari, xulq-atvori, fikrlarining bir joydan chiqishidir". Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan.**

- a) V.A.Sisenko
- b) L.B.Shneyder
- s) G.M. Andreyeva
- d) S.V.Kovalev

**3. Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?**

- a) er-xotinning hissiy to'yinishi
- b) kasbiy faoliyat borasidagi inqirozlar
- c) oilani boshqarish borasidagi kelishmovchiliklar

d) oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning yetishmasligi, yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi

**4. Adaptatsiya — bu er-xotinning bir-biriga va oiladagi sharoitga moslashishidir. Ushbu fikr kimga tegishli?**

- a) M. A. Abalakina
- b) O. A.Dobrinina
- c) I.S.Kon
- d) I.V.Grebennikov

**5. Moddiy - maishiy adaptatsiya – bu...**

a) er-xotinning dunyoqarashi, ideallari, qiziqishlari, ustanovkalari, shuningdek, ularning shaxs va xarakter xususiyatlarining moslashishi

b) er-xotinning jinsiy munosabatlarda moslikka erishishi.

c) er-xotinning kasbiy faoliyatda moslikka erishishi.

d) er-xotinning uy ishlarini bajarishda va ularning ikkisini ham qoniqtiradigan oilaviy byudjetni rejalashtirish modelini shakllantirishda xuquq va majburiyatlarini kelishib olishlari bilan belgilanadi.

**6. Ikkilamchi adaptatsiyaning mohiyati —**

- a) haqiqiy, tasodifiy, aralash, noto'g'ri talqin etilgan, yashirin va soxta nizolarning yuzaga kelishi

- b) er-xotinning dunyoqarashi, ideallari, qiziqishlari, ustanovkalari, shuningdek, ularning shaxs va xarakter xususiyatlarining moslashishi
- c) bu er-xotinning bir-biriga va oiladagi sharoitga moslashishi
- d) er-xotinning bir-biriga haddan ortiq moslashib qolishi, ularning sevgini unutib qo'yishlari va oilaviy hayotdagi takrorlanmas xarakterni yo'qotib qo'yishlaridadir.

7. **K. Kirkpatrik er-xotin rollarining qanday turlarini ajratib ko'rsatadi?**

- a) An'anaviy, noan'anaviy, do'stona rollar
- b) Ijtimoiy va shaxslararo rollar
- c) er-xotinlik, ota-onalik rollari
- d) an'anaviy, o'rtoqlik va sheriklik rollari

8. **Integratsiya - bu...**

a) er-xotinning dunyoqarashi, ideallari, qiziqishlari, ustanovkalari, shuningdek, ularning shaxs va xarakter xususiyatlarining moslashishi

b) oilaviy, kasbiy faoliyat sohalarida bir-birini qo'llab quvvatlash

c) er-xotinning turli masalalarda maslakdosh ekanligi

d) ixtiyoriy birlashma, oilaviy hayotning turli jabhalaridagi pozitsiyalarni, tasavvur va fikrlarni kelishib olishdir

9. **Qaysi olimlar "Oila integratsiyasining ijtimoiy-funksional mexanizmlari - oila a'zolarini va ularning munosabatlarini qamrab oladigan psixologik jarayonlar majmui" deb tushuntiradilar?**

- a) I.S. Kon va S.V.Kovalev
- b) V.V.Yustitskiy va V.A.Sisenko
- c) L.B.Shneyder va T. A. Gurko
- d) E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiy

## VIII BOB. OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

### Reja:

1. Oilada muloqot
2. Oilaviy munosabatlar farovonligiga ta'sir etuvchi omillar
3. Er-xotin munosabatlarining rivojlanishi
4. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari

*Tayanch tushunchalar: Oila, muloqot, er-xotin, munosabat, nikoh modellari, ota-ona oilasi modeli, inqirozlar*

### 8.1. Oilada muloqot

Odamlar o'rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokati va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatdir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og'rig'i, nevroz, insult, infarct va boshqa turli kasalliklar, shuningdek, ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qoyish, hatto o'z joniga qasd qilish kabilari ham shu muloqotning natijasidir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o'z xo'jayinining "Menga avval dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so'ng aksincha, eng bemaza, yaramas taomni keltir" – deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrli bo'lishi yoki aksincha, eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotning tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruhiy zo'riqish va ta'sirchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishini taqozo etadi.

**Muloqot madaniyati.** Muloqot madaniyati birinchidan, o'z-o'zini bilish va bosh odamlarni tushuna olish qobilyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri haholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatna mos

(adekvat) munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi. Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobilyatlarni shakillantirib borish kerak bo'ladi.

Muloqat eng avvalo odamni odam tamonidan idrok qilishdan boshlanadi, unda dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakillanadi va shundan so'ng tegishli muloqat shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiriladigan bevosita emotsional munosabatlar muhim ro'l oynaydi.

Muloqatda buyruq ohangining ustunligi, doq-po'pisa bilan keskin shaklda muomalada bo'lishi, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirib turiladigan e'trozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'li bermaslik va tajavuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-boysunuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlik, behurmatlik kabilar oiladagi samumiy muloqotga putur yetkazadi. Agar aksariyat holarda iltimoslardan, masalahlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini xotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, oilada o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixologik muhit yuzaga keladi.

Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq bo'lib, shaxslararo munosabatlar buzilishining sababi hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o'zimizning fikr-oylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko'rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o'rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik holatlarda,

hatto bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo'lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklar yetkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish niyatida yoki o'zlari yovuz odamlar bo'lganliklari uchun emas, balki shunchaki bir-birini tushunmaganliklari "nima qilayotganliklarini bilmaganliklari" uchun sodir etadilar. Shunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlari, muloqotlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

**Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar.** Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlar.

Psixologik to'siq – bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilishi va kalaka qilinishidan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'polik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi o'ziga xos ichki psixik tormozidir.

Vaziyatli to'siqlar – bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondoshishlari bilan bog'liq.

Mazmunli to'siqlar – odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrini ilgari suryapti, nimani nazarda tutyapti, nimaga olib boryapti va shu kabi mulohazalarga bo'rish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar – shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi, yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarning psixologik madaniyatlilik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning yo etishini va yoki tinglashni bilmasligi "teskari aloqaning" yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning yetishmasligi tufayli emas, balki ularning

xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishligi tufayli kutilganidek amalgam oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta "aqli" dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zini, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, oz' gapi bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, suhbatdoshlarning ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishini yodda tutishi lozim.

## **8.2. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi**

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan. Ular munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakl hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotonga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlariga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Umuman, yosh oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip boyichami, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinkilik, hissiy ran-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan visol damlariga nihoyat yetishgan bo'ladilar. Bunday nikohlar boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda

emotsional ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha motivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birlari, o'z nikohlari, bo'lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobiy bo'ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo'lajak turmush o'rtog'im, yangi oilamning a'zolari bilan nizo-janjalga boraman, ular bilan urishaman va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman deb oila qurmaydi. Inson oila qurar ekan, ahil-inoq yashab, murod maqsadga yetishni orzu qiladi, qarindosh-urug'lar, toyga tashrif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o'rtog'i timsolida o'zining shu orzu-istaklariga, muqod-maqsadlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o'z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo'lishga harakat qiladi.

Biroq, hayotda ayniqsa oilaviy hayotda hamma narsa ham odam kutganiday bo'lavermaydi. Oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er-xotinning yangi jtimoiy statusga, mavqeyga er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o'zlari uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayonidir. Yosh oila yuzaga kelganidan so'ng unda er-xotin munosabatlarining "kutilganidek" rivojlanishiga halaqit qiladigan ko'plab ijtimoiy psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar borki, yoshlarimiz bularning barchasi haqida oldindan habardor bo'lishi va ularning salbiy ta'sirlarini yumshatib, ijobiy jihatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari, baxtga qarshi, yaxshidan yomonga qarab rivojlana boshlaydi. Chuni nikohning boshida kuzatiladigan er-xotin ko'tarinki emotsional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ular hissiyotlarining o'tmaslashuvi roy beradi. Bu holatlar albatta har qanday oilada shaxslararo munosabatlar rivojlanishining

o'ziga xos dinamikasini tashkil qiladi. Bu holatdan voqif bo'lish va uning o'zgarishlariga tayyor turish yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim ko'ngilsizliklarning oldini olishga asos bo'ladi.

Er-xotinlarning oiladagi muloqoti shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunish bilan birga, dastavval ishdan tashqari, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Hamkasblar, o'rtoqlar, do'stlar va sevishtanlar hamma vaqt ham birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, qaytanga, o'z muloqotlarini o'zlari xohlagan vaqtlarida bir oz kamaytirib, hatto uzib (to'xtatib) qo'yishlari ham mumkin (uchrashuvga borishi lozimligini «unitib» qo'yish, kutilmaganda «juda band» bo'lib qolishi mumkin va sh.k.). Er-xotinlar esa ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «mahkum» etilgan. Albatta bu gaplar ko'pchilik yoshlarimizda tushunmovchilik, ishonmaslik, e'tiroz tug'dirishi mumkin, chunki ular o'zing uchun aziz, sevimli bo'lgan odam bilan birga bo'lish, uning yonida bo'lish «majburiyati» bu eng orziqib kutilgan orzuning ro'yobga chiqishi-ku, deb hisoblashlari mumkin. Biroq bu «mahkumlik» bilan hisoblashmaslik ham mumkin emas. Turli aholi punktlarida, mahallalarda, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida ko'pincha faqat ayollardan yoki faqat erkaklardan iborat «kompaniyalar» ham behudaga yuzaga kelavermaydi.

Qadimiy afsonaviy Sparta qonunchiligida er-xotinlar ishqiy munosabatlarining sovuqlashib ketishidan saqlash maqsadida ularning muloqotlari imkon qadar chegaralab qo'yilgan. Unga ko'ra erlar xotinlaridan ajratilgan holda, ya'ni er va xotin boshqa-boshqa yashaganlar va ular faqat ovloq joylardagina, «begona ko'zlardan» yashirin tarzda uchrashib turishlari mumkin bo'lgan. Bu tadbir faqat Sparta jangchilari o'zlarining jangovor ruhlarini yo'qotmasligi, o'zlarining yosh xotinlari bilan mashg'ul bo'lib qolmasliklari uchungina emas edi. Bunda «ta'qiqlangan meva» effektidan foydalanilgan. Uchrashishlarning qiyinligi xuddi tuzsiz taomga tuz, ziravorlar maza berganidek, er-xotinlarning bir-birlariga hissiy yaqinligini sezilarli darajada kuchaytiradi, nikoh rishtalarini mustahkamlaydi. Yoki Shekspirning qahramonlari Romeo va Jul'ettalarga ham agar unashtirilganlaridan

so'ng barcha qulayliklari bilan alohida «koshona» berilganda edi, ular o'zlarini boshqacha tutgan bo'lishardi.

Doimiy muloqot bir xillik ko'rinishini yuzaga keltiradi, tabiiyki, bundan hayotdagi kundalik ikir-chikirlar ko'payadi, ayni vaqtda chuqur hissiyotlar o'z ob'ektining yaqinligi tufayli kundalik odatlar shaklini oladi. Odamlar bir-birlaridan bir oz muddat ayri yashashsa hammasi joyiga tushadi: muhim to'siqlardek tuyulgan narsalar arzimagan mayda chuydalarga aylanib qoladi, qisqa muddatli hijron ta'sirida chuqur hissiyotlar kuchayadi va yana o'ziga yarasha kuchga ega bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan er-xotinlarning bir-biri oldidagi «sir-asrorlari tobora ochilib» boraveradi. Afsuski, bu bir-birlari uchun oshkoralashib borish faqat ma'lum bir zaruriy chegaradagina amalga oshadi. Ozoda, muloyim, ehtiyotkor yigit endi o'ziga qaramaydigan, befarosat, qo'pol erga aylanadi. Ozoda, bejirim, did bilan kiyinadigan, kamtarin, nozik qiz, kelin endi beo'xshov kiyingan, o'ziga qaramaydigan, vaysaqi xotinga aylanadi. Uning oldingi jozibasi, go'zalligi go'yoki «yo'qoladi».

Har bir xalqda, har qaysi zamonda go'zallikning o'ziga xos belgilari, etalonlari bo'ladi. Go'zallik va go'zal emaslik haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan so'zsiz o'zgaradi. Biroq umumxalq tomonidan qabul qilingan va e'tirof etilgan go'zallik etalonlari bilan bir qatorda individual, shaxsiy, xususiy etalonlar ham bo'ladi. Aytishlaricha, boyo'g'li qushlarning orasida eng go'zallari uning bolalari ekanligidan maqtanar ekan, chunki «ularning hammasining quloqlari uzun, boshi katta, umuman, o'ta go'zal» ekan. Kim biladi, bu borada kabutar nima degan bo'lar ekan. Aynan shu sababga ko'ra xalq ichida «tipratikon o'z bolasini yumshorim, qo'ng'iz bolasini oppog'im deydi», — degan maqol bor. Shuning uchun ma'lum bir namunaga o'zini urish, o'zini o'shanday bo'lishga majburlash kerak emas. Har joyning ham o'z toshu tarozusi, o'lchami mavjud. Xotinini sevuvchi er uchun uning xotini (yoki erini sevuvchi xotin uchun uning eri) umumiy etalonga mos keladimi yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar, ko'pincha eng go'zal, chiroyli, kelishgan odam deb tasavvur qilinadi. Aynan mana shu go'zallikni o'ziga xos «ziravorlar»: kiyimlar,

soch turmagi, xatti-harakat, imo-ishoralar, qiliqlar, soʻzlar va shu kabilar bilan saqlab qolish kerak boʻladi. Uni nafaqat «xalq ichida» balki uyda ham saqlash kerak.

**Intim munosabatlar** . Bu nafaqat seksual munosabat, nafaqat jinsiy aloqa, balki ancha ochiq, yaqin, maʼnaviy muloqotdir. Intim (fransuz tilida — intime — «yaqin», «qulay», «koʻngildan», lotinchada— intimum — «chuqur», «chin dildan») muloqotlar deyilganda psixologiyada shunday muloqotlar tushuniladiki, unda odam boshqa odam oldida qandaydir bir ijtimoiy rolni (rahbar yoki xodim, sotuvchi yoki vrach va shu kabi) bajaruvchi emas, balki aynan «yagona» shaxs sifatida — nodir, takrorlanmas mavjudod sifatida namoyon boʻladi, bunda u mutloq oshkora, ochiq, hech narsadan qoʻrqmay, oʻzining ichki olami, oʻzining barcha xususiyatlarini uyalmasdan namoyon qila oladi. Bunday muloqotda suhbatdosh odamlar oʻrtasida chuqur va keng oʻzaro oshkoralik (jismoniy, psixologik, shaxsiy, maʼnaviy) amalga oshadi. Bunda suhbatdoshlarning tanasi, fikri, hissiyoti, xarakteri va hayotiy rejaları, qadriyatları, fikrları ochiladi.

Intim munosabatlarga sevgi, doʻstlik, dushmanlik, yolgʻizlik kabilarni kiritish mumkin. Biroq intim muloqotlar nafaqat istalgan muloqotlar sifatida, balki xavfli, «qoʻrqinchliroq» muloqotlar sifatida ham idrok qilinishi mumkin. Bu muloqotlar tushunish va hamdardlikka, oʻzaro qoʻllab-quvvatlash, dalda berish, bir-birini tushunishga boʻlgan ehtiyojlarni qondiradi. Er-xotin oʻrtadagi muloqot jarayonida oʻz hissiyotlarini, ichki kechinmalarini jilovlashga harakat qiladi, uning fosh boʻlib qolishidan, pinhoniyy tuygʻularining ochilib qolishidan hayiqish hissi namoyon boʻladi. Shuning uchun ayrim odamlar muloqotda koʻpchilik tomonidan qabul qilingan muloqotlar darajasida qolishga harakat qiladilar. Buning boisi, avvalo odamning ichki kechinmalarini oshkora qilib qoʻyishdan qoʻrqish yoki jufti oldida oʻzini «fosh» qilib qoʻyishni xohlamaslik, oʻzining pinhoniyy, hatto oʻzi ham oʻzida koʻrishni istamaydigan xislatlarni fosh qilib qoʻyishdan qoʻrqishdir. Odamlarning «tashlab ketilishdan» qoʻrqishlari (borligʻingni oshkora qilib qoʻyganingdan soʻng sen jufting uchun qiziqarli boʻlmay qolasan, u sening barcha xislatlaringni bilib, koʻrib boʻlganidan soʻng, senga qiziqmay qoʻyadi va seni tashlab ketishi mumkin), «jiddiy tanbehlar»dan qochishlari (bunaqa erkin, oshkora, ochiq muloqotda oʻzing

haqingda sheriging yoki biror bir muhimroq masala haqida nojo'ya gapni «gapirib», «laqqillab» qo'yishing mumkin) ham shu bilan bog'liq. Bulardan tashqari, muloqotlarning intimligidan (yaqin bo'lishidan) ko'pincha o'zining ajratuvchi (destruktiv), buzuvchi impulsaridan qo'rqish ham ushlab qolishi mumkin. Intim muloqotlarda biz xulqning ijtimoiy me'yorlari, ijtimoiy ta'qiqlariga eng kam darajada bog'liq bo'lamiz va shuning uchun o'zimizga eng yaqin odamga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizda biz o'zimizni shunday tutishimiz mumkinki, boshqa hech bir odamga nisbatan o'zimizni bunaqa tuta olmaymiz. Nihoyat, muloqotlarning intim bo'lishidan ayrim odamlarning boshqa odam individualligiga haddan tashqari ortiqcha kirishib, qo'shilib ketishi, boshqa odamga «aralashib», singib ketishi tufayli o'zining individualligini yo'qotib qo'yishdan qo'rqishi ham ushlab turadi. Shuning uchun «birlashishdan oldin dastlab chegarani, aloqalarni yaxshilab belgilab, aniqlab olish» o'z individualligi va shaxsini mustahkamlab olish lozim.

Oiladagi er-xotin muloqotining muhim xususiyatlaridan biri shuki, u ma'lum darajada kundalik, maishiy prozaik fonda amalga oshadi. Boshqa odamlar, boshqa erkaklar va ayollar bilan bo'lgan muloqotda biz ko'tarinkilikni, uyda esa uning oshxonasini ko'ramiz. Bular esa bir-birlaridan juda uzoq va odamlarga turlicha talablarni qo'yadigan tushunchalardir.

Psixologlar muloqotning o'ziga xos uch xil kommunikativ pozitsiyasini farqlaydilar. Bular: «ota yoki ona», «katta», «bola». Ularning hammasi bir odamda mujassam bo'lishi mumkin.

«Ota yoki ona» pozitsiyasida bo'lish — bu o'zining boshqalardan ustunligini anglash, rag'batlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish demakdir. «Ota yoki ona»ning murojaati odatda pand-nasihatli, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, uzil-kesil bo'ladi, uning o'zi buni doimo namoyon qilavermasa-da, o'ziga hurmatni talab qiladi. U tartibni nazorat qilishni va odamlarni boshqarishni, «otalarcha» («onalarcha») homiylik qilib, xuddi zaifroq odamga yondoshgandek yondoshishni yoqtiradi.

«Katta» pozitsiyasi odamning atrofida bilan teng darajada muloqotda bo'la olishini bildiradi. Atrofdagilarga o'z hukmronligini ham o'tkazmaydi yoki o'ziga nisbatan «ma'qullovchi» munosabatni ham kutmaydi.

«Bola» pozitsiyasida odam xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, oson ishonuvchanlik, o'yinqaroqlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panohtutishni va shu kabilarni namoyon qiladi.

Agar shu pozitsiyalar o'zaro muvofiq kelsa va o'zaro mos bo'lsa, masalan, kimdir juftiga nisbatan bo'lgan munosabatda «otalik» yoki «onalik» pozitsiyasini tutsa-yu, ikkinchi tomon esa bajonidil «bolalik»ni namoyish etsa — bu yaxshi, agar ikkita «katta» pozitsiyasi o'zaro to'qnash kelsa, bu ham yaxshi, biroq oilada ikkita «ota» («ona») duch kelib qolsa, unda ularning muloqotida zo'riqish, nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar.

Nizoli vaziyatlar odatda uzoq vaqtlar davomida yetiladi, shuning uchun oqil va tajribali odamlar ularning dastlabki alomatlarini o'z vaqtida payqab, ularga lozim darajada munosabat bildirib, ularni bartaraf qilishi yoki mumkin qadar zaiflashtirishi mumkin.

### **8.3. Er-xotinlik munosabatlari rivojlanishi**

Er bilan xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi shundaki, u:

- uzoq muddatga mo'ljallangan doimiy muloqot sirasiga kiradi;
- bu munosabatlarning aksariyati diada shaklida ro'y beradi;
- muomala va muloqotdan qoniqish bevosita nikohdan qoniqish uchun omil hisoblanadi.

Rus olimi *A.I. Antonovning* ta'kidlashicha, eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida tobora takomillashib, sayqal topib, ularda o'zaro mehrga, bir-biriga yordam berishga ishtiyoq ortib boraveradi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha olimlarning ta'kidlashlaricha, er-xotinlik aloqalari yetuk inson uchun eng ahamiyatli va hayotiy zarur bo'lgan munosabatlardir.

Olimlarni qiziqtirgan muhim masala — mustahkam, baxtli nikohni tashkil etuvchi vosita nima ekanligini aniqlashdir. Shunisi xarakterliki, har bir inson o'z

oldiga oila qurish, nikohga kirishni maqsad qilib qo'yar ekan, u avvalo, oila va nikoh borasida xalq orasida shakllangan tasavvurlarga tayanadi. Nikohga kirgan juftlik doimo nikoh tushunchasiga aloqador bo'lgan qat'iy doiralarda va normalar dunyosida yashaydi, lekin har bir juftlikning hayoti o'zlarigagina aloqador bo'lgan o'ziga xos xufiyona, sirli olamdir. Zero, ikki individuallikning birlashuviga sabab bo'lgan his-tuyg'ular bir qarashda o'sha "xufiyonalik" sababli zarar ko'rayotganga o'hshaydi, ba'zan er va xotin bir-biriga nafaqat xarakter nuqtai nazaridan, balki tashqi ko'rinish bo'yicha ham o'xshab ketadi, deyishadi. Ikkinchidan, ayni shu birlik, o'xshashlik, "kirib ketishlik" erni ham ayolni ham jamiyatda o'ziga xos bir avtonomiyaga, jozibadorlikka erishib borayotganligining namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi. Shu bois bo'lsa kerak, ijobiy hislar tufayli tashkil bo'lgan oilada sevish-sevilishning nafrat-agressiyaga almashinib ketishi ham oson kechadi. Arzimagan narsalar ham ba'zan ikkalasini urishtir qo'yishi mumkin. Bunday polyar, bir-biriga zid hissiyotlarning namoyon bo'lishi ayrim davrlarda unisi yoki bunisining kuchayib ketishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, ayol farzand ko'rgan vaqtida, ko'proq chaqaloq bilan ovora bo'lib, eriga befarq qoladi, o'z navbatida unda ham ayoliga nisbatan befarqlik (hattoki, rashk, nafrat) hissi uyg'onishi, aksincha, muayan davrlarda esa ikkalasi Layli-Majnun bo'lishib, faqat bir-birining ishqida yonib yashashi ham kuzatilgan.

*E. Shostrom* (1994) er bilan xotin o'rtasidagi "ishqiy" pozitiv munosabatlarning quyidagi ko'rinishlarini bayon etadi:

- *bir-biriga bog'lanib qolish* yoki *o'zaro g'amxo'rlik qilish hissi*. Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi. Natijada ba'zan o'g'lini qizg'angan qaynona kelini bilan turli narsalarni bahona qilib, nizo chiqaraveradi.
- *do'stlik* – er va xotinning bir-birlarida eng nodir sifatlarni, jumladan, o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutadigan hissiyot;
- *eros* – sevgining romantik ko'rinishi bo'lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan xissiy-jinsiy mayllarining kuchini belgilaydi;
- *empatiya* esa, erning yoki xotinning o'z turmush o'rtog'iga doimiy

g'amxo'rliqi, uni tushunishi va kerak bo'lsa, altruistik fidoiyligini baholovchi hisdir;

- *o'zligini sevish, qadrlash* – bir tomondan er-xotinning har qanday sharoitda o'zida eng afzal jihatlarni anglay olish va boshqa tomondan, kerak bo'lsa, yori tufayli o'z xohish-istaklarini jilovlay olish, fidoiyligni namoyon qilishga imkon beruvchi hissiyot.

*E.Shostromning fikricha*, “er va xotin vaqti-vaqti bilan bir-birlariga zug‘um qilish, xafa qilishga ma‘nan haqlidirlar”, lekin bunday munosabatlarning yakuni yaxshilik bilan tugashi, shu bahona bir-birlarini yanada yaxshi va yaqindan bilishlariga turtki bo‘lishi kerak.

Er va xotin o‘rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo‘luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritadilar:

- *achchiqlanish* – oilaviy hayotda ko‘p uchraydi, chunki u o‘zaro g‘amxo‘rlik va bog‘liqlik kamaygan sharoitlarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi; F. Perlzning yozishicha, “Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o‘zaro muomalaga bo‘lgan intiqlikdir”.
- *aybdorlik* – o‘zining qilmishi uchun o‘ch olishday gap, ko‘pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi;
- *arazlash* – turmush o‘rtog‘idan o‘ch olish maqsadida namoyon etiladigan hissiyot;
- *nafrat* – turmush o‘rtog‘iga go‘yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish va bu yo‘lda ba‘zan uzoq vaqt gaplashmay qo‘yish yoki ataylab o‘zini yomonday ko‘rsatishdir. Afsuski, bu hissiyot oilaviy hayotda tez-tez bo‘lib turadi. Lekin u odamni ichidan zil ketishiga, ich-etini yeb qo‘yishiga olib keladi;
- *tanqid qilish* – qo‘rqoqlikka o‘xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, Shostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga o‘tgani ma‘qul;
- *turmush o‘rtog‘idan yiroqlashish, ketib qolish* – bu ham ma‘lum ma‘noda bir-

birini nazoratda ushlab bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

- *befarqlik* – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi. Shu kabi munosabatlar mohiyatan shaxslararo munosabatlarning ko'rinishlarini ifoda etadi.

#### 8.4. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari

*Y.Gozman, K.Xorni* va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi. *Y.Dubrovning* (2004) ta'kidlashicha, "Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi".

**Nikoh modeli.** Oila va nikoh bo'yicha ko'plab mutaxassislar *Z.Freyd* va *A.Adler*ning g'oyalarini ma'qullagan holda shuni ta'kidlaydilar, oila qurayotgan yosh kelin-kuyovlar o'zlari anglamagan ravishda o'zlari tarbiya topgan oilalarining modelini yangi oilaga tadbir etib boshlaydilar.

**Ota-ona oilasi** *Z.Freyd*ning psixanalitik nazariyasi mos keladi. Unga muvofiq, bola o'zi katta bo'lgan oilasidagi o'z jinsiga mos ota yoki ona obraziga o'zini identifikatsiya qilib, hayoti mobaynida ko'rgan-kechirganlarini xatti-harakatlarida takrorlaydi, qarama-qarshi jins vakili bo'lmish ota-onaning obrazi esa turmush o'rtog'ini tanlashni belgilaydi. Agar ushbu obraz ijobiy bo'lgan bo'lsa, masalan, qiz bola uchun otasi ideal, namunali tuyulsa, kelajakda shu qiz o'z turmush o'rtog'i bilan kelishib yashashga moyil bo'ladi. Mobodo obraz salbiy bo'lsa (ota ichuvchi yoki bevafoqlik qilib tashlab ketgan), unga o'xshamagan insonni qidiradiyu, aslida topgan taqdirda ham u bilan kelishib yashashga o'zi ham ishonmaydi, ruhiy iztirobda bo'ladi, ko'p ikkilanadi. Agar o'zi o'sib ulg'aygan oila kichik bo'lsa,

istiqbolda u ham aynan detotsentrik, kichik oila qurishga intiladi.

Opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modeli *A.Adler* g'oyalari ta'sirida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, er-xotin aloqalari mustahkam va barqaror bo'lishi uchun ikkasi o'z munosabatlari jarayonida akalari yoki opa-singillari bilan bo'ladigan hamkorlik, liderlik, hukmronlik, mas'uliyat, g'amxo'rlik, tobelik kabi qator munosabatlarini ro'yobga chiqarishlari lozim (sibling yondashuv). Bu aloqalarning bir ko'rinishi shundayki, unda er va xotin bir-biriga akaday, singilday u yoki bu munosabatlardagi kemptikliklarni to'ldirib borishlari mumkin (komplementar nikoh). Bu bizdagi munosabatlarga ham xos bo'lib, ko'pgina o'zbek oilalarida xotin erini "aka" deb atasa, er birinchi farzand tug'ilgach, xotiniga to'ng'ich farzandning ismini aytib murojaat qiladi. Bu holat ayniqsa, er o'z oilasida singillarining akasi bo'lgan bo'lsa, yoki xotin ham o'z navbatida ota-onasining uyida akalarning singlisi bo'lgan bo'lsa komplementar tarzda uyg'unlik kashf etadi, ular oilaviy munosabatlarda kim ustun, kim tobe kabi muammolarga duch kelmaydilar. Agar xotin o'z oilasida biriga singil, biriga opa bo'lib katta bo'lgan bo'lsa, u yoki bu tajriba eri bo'lgan munosabatlarda qisman komplementar vazifani bajaradi. Nihoyat, agar er o'z oilasida to'ng'ich farzand va xotin ham o'z oilasida to'ng'ich bo'lgan bo'lsa, unda er-xotin munosabatlari nokomplementar nikohga to'g'ri keladi, ya'ni, ular teng mavqeli bo'lgani uchun odatda o'zaro munosabatlarida liderlik va o'zaro adaptatsiya holatlari muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan kechadi, tez-tez bir-biriga nimalarnidir da'vo qiladigan, o'z fikrini uqtirish va amalga oshirishga moyillik kuzatiladi. Odatda bunday nikoh ikki ziyoli inson o'rtasida tuzilgan bo'lsa, ular baxtli bo'lishlari mumkin, ayniqsa, hozirgi davrda, lekin o'zaro til topishib, ko'nikib ketishlariga anchagina vaqt, sabr-toqat kerak bo'ladi.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. Ushbu omilning ta'sirini batafsil o'rgangan olimlardan biri *N. Pezeshkian* (1993) bo'lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi:

- *turli stresslarga nisbatan munosabat;*

- *hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat meyorlari;*
- *oilaviy munosabatlar.*

*Pezechkian* ota-ona oilasida ko'rgan-kechirganlari ta'sirida turlicha stresslarga hozirjavoblikning to'rt xil tipik usullarini, yo'llarini ajratadi: Avvalo, bu – tana reaksiyalari yoki vujud bilan javob berish bo'lib, u turli psixosomatik kasalliklar yoki holatlarga nisbatan inson vujudining javobi (masalan, uyqu, kayf bo'lish, ochlik yoki to'qlik kabi) sifatida namoyon bo'ladi. Bunda masalan, ota-ona oilasida urf bo'lgan xazil-xuzul, aytishuvlar orqali u yoki bu zarar yetkazuvchi tangliklarning oldini olish tajribasi nazarda tutiladi.

Faoliyat ham stressning oldini olish vositasi sifatida muallif tomonidan ikki yo'nalishda bo'lishi mumkinligi qayd etiladi. Masalan, birinchisi – ishga muvaffaqiyatli ketish orqali stressni yechish bo'lsa, ikkinchisi – u yoki bu sohadagi yutuqlar va qo'lga kiritilgan natijalar orqali o'zini-o'zi tinchlantirish, tangliklardan “qochish”ni anglatadi.

Muloqot yoki bevosita muomala shaklida odam ko'proq turli suhbatdoshlarni topib, ular bilan kirishib ketish orqali yoki aksincha, o'zini yolg'izlikka mahkum etish orqali stressni yengillatish usuli bo'lsa, oxirgi yo'l – xayolga berilish, ya'ni, real harakatlarni ramziy taassurotdagi obrazlar bilan almashtirish hisobiga tangliklardan uzoqlashishdir.

Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-harakat normalariga muvofiqlashtirish – bu ko'rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalari to'g'risidagi tasavvurlar. *Pezechkian* bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o'zgalarga e'tiborli bo'lish, o'zgalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka, opalar, uka-singillar bilan o'zini identifikatsiya qilish, o'zini ular bilan solishtirish, o'xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko'rsatishga o'rganadi. Oila muhitida boshdan kechirgan hissiyotlar oqibati bo'lmish xatti-harakatlar normalariga esa bir so'zlilik, saranjom-sarishtalik,

ozodalik, samimiyat, adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. *Pezechkian*, ayni emotsional sohalarda er-xotin o'zaro munosabatlarining o'xshamasligini er-xotin nizolarida asosiy nizo keltirib chiqaruvchi sabab, deb hisoblaydi. Xatti-harakat normalaridagi kelishmovchiliklar ham muhim, lekin ular psixoterapevtik amaliyotda biroz yumshoqroq hisoblanadi.

**Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar.** Bola tajribasining asoslaridan biri undagi ota-ona oilasi ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya'ni, o'zaro ishonch, o'zini-o'zi baholash, Men-konsepsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta'sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o'zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik – xotirjamlikda, o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o'zaro muomala holatlarida o'zini qanday tutishga o'rganadi, hayotning ma'nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta'sirida ro'y beradi.

Er-xotin munosabatlari avvalo adaptatsiya, ya'ni bir-biriga asta-sekin ko'nikib, moslashib borish jarayonidan boshlanadi, zero, ularning har biri yangi muhitga, yangi ro'zg'orga o'z oilasida orttirgan shaxsiy tajribasi, oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan kirib keladi. Natijada ota-onasi oilasida olgan tajribaning bir qismidan voz kechgani holda, yangi munosabatlar uchun yangi fazilatlarini o'zida tarbiyalay boshlaydi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. Muloqot madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qanday to'siqlarni bilasiz?
3. Muloqotning qanday kommunikativ pozitsiyalari farqlanadi?
4. Muloqotning “ota yoki ona”, “katta”, “bola” pozitsiyalari
5. Er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi qonuniyatlar
6. Nikoh modeli: Opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modeli
7. Nikoh modeli: Ota-ona oilasi modeli
8. Er va xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi

**Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. **Muloqotning qanday kommunikativ pozitsiyalari farlanadi?**
  - a) "ota yoki ona", "katta", "bola"
  - b) "ota", "ona", "bola"
  - c) "katta", "kichik", "teng"
  - d) "ota", "ona", "katta"
  
2. **«Ota yoki ona» pozitsiyasida bo'lish - bu ... jumlaning davom ettiring**
  - a) o'zining boshqalardan ustunligini anglash, rag'batlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish;
  - b) odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda bo'la olishi;
  - c) xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, oson ishonuvchanlik, boshqalardan mehr olishni istash, kuchliroq odam tomonidan panoh tutishni va h.k. namoyon qilish;
  - d) boshqalardan mehr olishni istash, jazolash usuliga egalikni his qilish;
  
3. **"Katta" pozitsiyasida bo'lish deganda nimani tushunasiz?**
  - a) odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda bo'la olishi
  - b) o'zining boshqalardan ustunligini anglash, rag'batlantirish
  - c) xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, boshqalardan mehr olishi
  - d) oson ishonuvchanlik, o'zining boshqalardan ustunligi
  
4. **Xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoh tutishni va shu kabilarni namoyon qilish - bu..**
  - a) "bola" pozitsiyasi
  - b) "katta" pozitsiyasi
  - c) "ota yoki ona" pozitsiyasi
  - d) "o'zaro hamkorlik" pozitsiyasi

## IX BOB. OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING TURLARI

### Reja:

1. Nizo va uning psixologik xususiyatlari
2. Oilaviy nizolar va ularning turlari
3. Er – xotin nizolarining asosiy sabablari
4. Oilada muloqotning buzilishi
5. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari

*Tayanch tushunchalar: nizo, ziddiyat, oilaviy nizo, ajratuvchi nizo, biriktiruvchi nizo, xaqiqiy nizo, yashirin nizo, soxta nizo, chegaralanmagan nizo.*

### 9.1. Nizo va uning psixologik xususiyatlari

Nizolar inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uni to'xtatib ham undan qochib ham bo'lmaydi, shuning uchun unga inson hayotining tabiiy bir qismi sifatida qarash lozim. Ikki tomon o'zaro munosabatga kirishar ekan, ular o'rtasida nizolarning vujudga kelish ehtimoli doimo mavjud bo'ladi, bir–biridan farqlanuvchi fikrlarga, maqsad va unga erishish yo'llari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lgan odamlar mavjud joyda shubhasiz nizoli vaziyatlar vujudga keladi.

Nizo - muloqot ishtirokchilarning har biri uchun muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir. Har qanday nizoning asosida maqsad va manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik yotadi.

N.V. Grishinaning ta'rifiga ko'ra, *nizo* – tomonlarning qarama – qarshiligi bo'lib, u o'zini tomonlar faolligida namoyon qiladi. Bu tomonlar qarama – qarshilikni yengishga qaratilgan bo'lib, ular faol subektlar tarzida namoyon bo'ladi. Nizoning bo'lishi muqarrar hisoblanadi. Chunki, nizo insoniyat hayotining ajralmas qismi deb qaralishi lozim. Nizo normal insoniy munosabat shakllaridan biri deb qabul qilinishi kerak. U har doim va hamma yerda ham vayronkorlikka olib kelmaydi, u bir butunni saqlab qolishga hizmat qiluvchi asosiy jarayonlardan biri hamdir.

Nizo – bu ikki yoki undan ortiq insonlarning o‘zaro qarama-qarshi ehtiyojlari, maqsadlari, xulq-atvori, munosabatlari, hayotdagi qadriyatlari bir-birlariga zid, o‘zlarining barcha yuqoridagi fazilatlarini boshqa insondan ustun qo‘yuvchilarning kuchli qarama-qarshiligidir. Nizolarning qimmati shundaki, ular tizimni qotib qolishdan asraydilar, innovatsiyalar uchun yo‘l ochib beradi. *Nizo – bu o‘zgarishlarga bo‘lgan stimul, ijodiy reaksiyani talab etuvchi chaqiriqdir.* Shubhasiz nizo tufayli munosabatlar buzilishining xavfi bo‘ladi. Ammo aynan nizo tufayli munosabatlarning yangi darajasiga chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, inqirozni konstruktiv yengib o‘tish va yangi hayotiy imkoniyatlarga ega bo‘lish ham aynan nizolar tufayli bo‘ladi.

S.V.Kovalev fikricha, baxtli oilalar nizolarning umuman bo‘lmasligi bilan emas, balki ularning chuqurlashib ketmasligi yoki salbiy oqibatlarining oldi olinishi bilan ajralib turadilar.

## **9.2. Oilaviy nizolar va ularning turlari**

Oilaviy nizolar - oila a‘zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bo‘lib, uning asosida dunyoqarash, qiziqish va ehtiyojlarning mos kelmasligi yoki bir-biriga zidligi yotadi. Demak nizo - oila a‘zolaridan biri uchun muhim bo‘lgan muammoni hal qilish vaqtida ular o‘rtasida vujudga keladigan qarama – qarshilik va kurashning kuchayib ketish jarayonidir.

Oila qanday motiv asosida qurilishidan qat‘iy nazar u ro‘y berishi mumkin bo‘lgan nizolardan holi bo‘la olmaydi. Oilaviy nizolarda ishtirok etuvchilar qarama-qarshi tomonlar bo‘lmay, ular maqsadlarini aniq tushunmay, o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini anglamagan tarzda va o‘zlariga noto‘g‘ri baho berish natijasida vaziyat qurboni bo‘ladilar.

Nizoning asosi oila a‘zolaridan biri ikkinchisining o‘z ehtiyojlarini qondirish, maqsadiga yetish jarayoniga to‘sqinlik qila boshlashi tufayli yuzaga keladi. Biroq bu hali nizo emas, nizoli vaziyat hisoblanadi. Oila a‘zolari ushbu nizoli vaziyatda vujudga kelgan to‘siqni bartaraf etish uchun amalga oshiruvchi xarakatlari nizoni yuzaga keldiradi.

Nizoli vaziyatlar har qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar nizolardan mutlaqo holi bo'la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo'lmaydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi.

Nizo dinamikasi uch bosqichdan iborat: yetilish, ro'yobga chiqish, so'nish. Birinchi bosqichda nizoni yuzaga kelishini oldini olish mumkin. Ikkinchi ro'yobga chiqish bosqichiga o'tgach, nizolarning oldini olib bo'lmaydi, so'nish bosqichini kelishini kutish kerak bo'ladi.

Psixologik adabiyotlarda nizolar shartli ravishda «konstruktiv» («biriktiruvchi») va «destruktiv» («ajratuvchi») nizolarga farqlanadi. Ular, nizoning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo, bu muammoning hal etilishi, kechishi, ishtirokchilari, oqibati va boshqalarning xarakteriga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi.

Psixolog olimi G.M. Andreyeva “konstruktiv” (biriktiruvchi) nizolarga ta'rif berar ekan: “Ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda bir-birlarining xatti-xarakatlari va qarashlari borasida to'g'ri xulosa chiqarib olishlariga, bunday xarakatni boshqa qaytarmaslikka, xushyorlikka undaydi”, - deb yozadi. Masalan, ayolga turmush o'rtog'i tomonidan berilgan tanbeh yoqmasligi tayin, lekin shu tanbehdan, ya'ni ushbu ziddiyatli vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarsa, u ertangi kun o'sha xatoga yo'l qo'ymay, eri aytganday ish tutsa, u nafaqat ziddiyatli vaziyatga barham beradi, balki erining unga nisbatan hurmati oshadi. YA'ni ba'zan tanbehga, tanqidga asoslangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashiga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Bunday nizolar oqibatiga ko'ra konstruktiv nizolar deb ataladi, ya'ni u ikkala tomonga manfaat, foyda keltirishi mumkin.

Demak, *biriktiruvchi(konstruktiv) nizolarning* yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo va uning hal etilishi ham erning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimni topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib, intizom, ozodalik, oila byudjetini yuritish, saranjomlik,

tejamkorlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo‘la oladi.

Bunday nizolarning muvaffaqiyatli hal etilishi er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib, tushunib olish, bir-birlarining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o‘rganib borish, bir-birlariga moslashish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustahkamligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi.

**Ajratuvchi (destruktiv) nizolarda** - nizoning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo‘ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko‘pincha, ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Masalan, erni yoki xotinni shaxsan o‘zi uchun biron nima xarid qilishi, erning yoki xotinning ishi tufayli, o‘zbek oilasi uchun xarakterli bo‘lgan nizolardan bo‘lmish er yoki xotinning qarindosh urug‘lari bilan bo‘ladigan munosabatlar tufayli yuzaga keladigan nizolar shular jumlasiga kiradi. Bunday nizolarning hal qilinishi, ya‘ni bir tomon manfaatlarining qondirilishi ko‘pchilik holatlarda ikkinchi tomon manfaatlarining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Bunday vaziyatlarda manfaati boy berilgan tomonda norozilik, e‘tiroz saqlanib qoladi va bu keyinchalik yana kuchayib navbatdagi nizoni yuzaga kelishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ajratuvchi nizolarda, nizo hal etilgani bilan, nizoli vaziyat saqlanib qolaveradi.

Ajratuvchi (destruktiv) nizoning oqibati esa ko‘pincha salbiy bo‘lib, u shaxslararo nizolarni keltirib chiqaradi, nizolashuvchi tomonlar bir-birlaridan bezib, ular o‘rtasida adovat paydo bo‘ladi, oqibatda ikkala tomonning asablari charchab, sog‘lig‘iga putur yetishi ham mumkin.

Ajratuvchi nizolarda janjaldan qolgan dog‘lar izsiz yo‘qolmaydi. Nizolashuvchi er-xotinlarda o‘zaro alam yuki to‘planib boraveradi. Turmush o‘rtoqlarning har biri ixtiyorsiz tarzda eshitgan ayblovlariga qarshi qo‘yadigan dalillar qidiradi, ixtiyorsiz tarzda ushbu dalillardan foydalanish mumkin bo‘lgan vaziyatlarni yaqinlashtirishadi, ya‘ni navbatdagi janjal yaqinlashib kelaveradi. Nizo yetilib boraveradi va oddiy uchqundan yirik, murosasiz nizoga aylanadi. Yaqinlar

bir – birlarining xatolarini qidirishadi, eng katta qoniqish “raqib”ga u “ahmoq” ekanligini aytishdan olinadi. Nihoyat haqiqatni turmush o’rtog’i va uning barcha qarindoshlariga e’lon qilish ehtiyojga aylanadi. Turmush o’rtoqlarning har biri bir – biriga u qanchalik ishyoqmas, ma’suliyatsiz, e’tiborsiz, xudbin, bag’ritosh ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Qanchalik paradoksal bo’lmasin, yaqin insonlar bir – biridan yaxshi jihatlarni topish, bir - birini yaxshiroq tushunish va baholash o’rniga bir – birining salbiy jihatlarni qidiradilar. Bunda faqatgina bir maqsad ko’zlanadi: o’zning haqligini, o’zining aqliy, axloqiy yoki turmush tajribasi borasida ustunligini isbotlash, buning oqibatida har kuni yo’q yerdan janjal va shikoyatlar, o’zaro ta’na – yu xafagarchiliklar uchun alohida sabablar paydo bo’laveradi.

Bunday holat ko’pincha psixologik nomuvofiqlik (oddiy qilib, xarakterlarimiz mos kelmasi) deya nomlanadi. Ushbu xarakter mos kelmasligi ostida ko’pincha boshqa insonni tushunishni istamaslik, bunday tushunish ko’nikmalari yo’qligi yashiriladi. Ushbu ko’nikmalar maxsus aqliy qobiliyatlar – refleksivlik, o’ziga boshqa tomondan qaray olish ko’nikmasi bo’lishini talab etadi.

Ajratuvchi nizolar, aksariyat hollarda «chegaralanmagan» nizolar bo’lib, o’z xakteri, ishtirokchilari, hal etilishi va oqibatiga ko’ra er-xotin munosabatlari doirasidan chetga chiqadi. Bunday er-xotin nizolariga oilaning boshqa a’zolari: qaynona, qaynsingil, ovsinlar va boshqalar ham aralashadi. Buning natijasida unga jalb etilgan ishtirokchilar soni ortib borgan sari kengayib boraveradi.

Er yoki xotin bir-birlari bilan urishib qolganlaridan so’ng bu haqda boshqa odamga gapiradigan bo’lsa, imkon qadar shu nizoda o’zini aybsiz, qilib ko’rsatishga, shu uchinchi odamni uning manfaatlarini himoya qilishiga og’dirib olish maqsadida bir yoqlama gapiradi. Bunda subekt foydalanadigan gap-so’zlar, ohang, imo-ishora, mimika, urg’u va boshqalar deyarli barcha verbal va noverbal vositalar ro’i berib o’tgan hodisa (nizo-janjal)ning asl holatiga qaraganda bo’rttiribroq idrok etilishini ta’minlaydi. Nizo haqida qanchalik ko’p odamga gapirib berilgan sayin u ayanchli tus olgan holda avj olib boraveradi va oqibatda fojeali natijalarga ham olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham, yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yoshlarimiz oilaviy hayotda ro'y beradigan biriktiruvchi nizolarga tayyor bo'lishlari, ularni biriktiruvchilik, er-xotinni bir - birlariga moslashuvlariga, ularning o'zaro munosabatlarining rivojlanishini ta'minlovchi, ularning har ikkalovining ham, ya'ni «biz»ning manfaatiga qaratilgan nizolarning biriktiruvchanlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ularni salbiy oqibatlarga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o'rganishlari lozim. Albatta ajratuvchi, «men» xarakteridagi, «chegaranmagan» nizolarni oldini olish, uning oqibatlaridan voqif bo'lishlari ham maqsadga muvofiq.

Ajratuvchi nizolarda yuqorida aytib o'tganimizdek, bir nizoning hal etilishi (ya'ni er-xotinlardan birining manfaatining qondirilishi) navbatdagi nizoning yuzaga kelishiga asos yaratar ekan, o'z navbatida bunday «men» xarakteridagi, «chegaranmagan» nizolar tufayli er-xotin munosabatlarida nizolar «eskolatsiyasi» shakllanib qoladi va oilaviy hayot er-xotin uchun «uzluksiz jang maydoni»ga aylanib qoladi. Bunday nizoli muhit nafaqat shu oiladagi er-xotinning ruhiy olamiga, ularning asabi, sog'lig'i, ijtimoiy holatigagina emas, balki shu oilalarda dunyoga kelib shunday muhitda tarbiyalanayotgan farzandlarning ruhiy olamiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday oilalarda hukm surgan nizoli vaziyat, doimiy janjallar mehr-oqibatsizlik, o'z asoratini faqat shu oilalarning o'zidagina qoldirmay, balki shu oila farzandlari tomonidan tuzilajak keyingi avlod oilalariga ham olib o'tishi mumkin.

Amerikalik psixolog M. Doych oilaviy nizolarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. *Haqiqiy, asl nizo* – obektiv ravishda bir xil vaziyatda yuzaga keladigan va bir xil qabul qilinadigan haqiqiy nizo (masalan xotin bo'sh turgan xonadan omborxonada sifatida, er esa aynan shu xonadan suratxonada uchun laboratoriya tariqasida foydalanishni xohlaydi);

2. *Tasodifiy yoki shartli ravishda yuzaga kelib osonlik bilan tez hal qilinadigan nizolar*. Bunday nizolar nizo ishtirokchilari tomonidan anglamayotgan

bo'ladi (masalan er-xotin yuqorida zikr etilgan o'sha laboratoriya yoki omborxonani tashkil etish uchun joy yetarlimi yoki yo'qmi ekanligini o'zlari ham tushunib yetmagan bo'ladilar).

3. *Aralash nizolar.* Bunday nizolar zaminida boshqa qandaydir sabab yashiringan bo'ladi (masalan bo'sh xona tufayli bahslashayotgan er – xotin aslida xotinning oiladagi roli haqidagi qarashlari tufayli nizolashayotgan bo'ladilar).

4. *Noto'g'ri talqin etilgan nizolar.* Bunday nizoda, masalan, er-xotinini qandaydir ishi uchun koyiy boshlaydi, vaholanki bunday topshiriqni uning o'zi bergan bo'lib, allaqachon esidan chiqib ketgan bo'ladi.

5. *Yashirin nizolar.* Er – xotin o'rtasida u yoki bu xildagi turli sabablar tufayli kelib chiqqan kelishmovchiliklar.

6. *Soxta nizolar.* Bunday nizolar er-xotinning ma'lum bir vaziyatni noto'g'ri idrok qilishlaridan kelib chiqadi va hech qanday asosiy sabablarsiz yuzaga keladi.

Haqiqiy nizoni har xil psixologik holatlar tufayli aniqlash qiyin. Birinchidan, har bir nizoda hissiyotlar ortiga yashiringan aniq sabab bor. Ikkinchidan, nizoning haqiqiy sabablari chuqur ong ostiga berkitilgan va psixologik himoyalangan bo'lib, faqatgina "Men" konsepsiyasining ishontirish motivi ko'rinishi sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Uchinchidan, er-xotinlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari oilaviy munosabatlarning "ko'pqirrali sabablar aylanasi" deb nomlangan qonun tufayli aniqlanmasligi mumkin.

Shaxslararo munosabatlarning uchta jihati mavjud:

- **Kognitiv** (biz ularni qanday ko'rishimiz va tushunishimiz);
- **Affektiv** (bizni ularga nisbatan qanday munosabatdaligimiz);
- **Xulq-atvor** (biz unda qanday hatti xarakatlar qilishimiz)

"Ko'pqirrali sabablar aylanasi"ning qonuniga binoan har qanday "bilim, hissiyot, xulq - atvor kabilarning yopiq qismi nizoning boshlang'ich holatini tashkil etishi mumkin va uning natijasidan kelib chiqqan qarama- qarshi fikrlar darajasi hamda ularning sabablarini aniqlash oson emas. Chunki yuqorida keltirilgan shaxslararo munosabatlarning hamma ko'rinishlari kelishuvga intiladi. Masalan, er-xotinlarning o'zaro munosabatlariga to'ng'ich farzandining tug'ilishi ta'sir

ko'rsatishi va bunga bog'liq holda tashqi qiyinchiliklarga duch kelishi natijasida vujudga kelgan ziddiyatlar. Agar bu qiyinchiliklar o'z bosqichida uzoq vaqt davom etsa, nizo o'zaro munosabatlarning keyingi bosqichlariga ham o'tadi. Er-xotin o'zaro munosabatlardan charchashlari, asabiylashishlari oqibatida paydo bo'lgan qiyin vaziyatda ma'suliyatdan qochish uchun bir - birlarining ayblarini oshkor eta boshlaydilar.

Ko'pgina mualliflar oilaning muvaffaqiyatli va nizoli bo'lishini ota-onaning oiladagi xulq-atvor modeli bilan bog'laydilar. S. Kratoxvilning fikricha, har bir individ erkak yoki ayol rolini deyarli o'z ota-onasidan o'rganadi va o'zi anglamagan holda unga yoqadimi yoki yo'qmi o'z oilasida ota onasining xulq - atvor modelini takrorlaydi.

G. Navaytis ta'kidlashicha yosh oilalarning inqiroziga (krizis) buzuvchi omillarning bog'lanishi sabab bo'ladi. Maishiy qiyinchiliklar, yaqin qarindoshlar bilan kelishmovchiliklar, intim munosabatdagi qoniqmaslik hissi va boshqa sabablar alohida namoyon bo'lsa hal etish mumkin bo'ladi. Ammo, ular ketma - ket kelsa er - xotirlarda yuzaga keladigan stresslarni oldini olish imkoniyati kamayadi. Shuning uchun bu kabi munosabatlarni boshqarishdan ko'ra, paydo bo'lgan ruhiy zo'riqishga qarshi tura olish, hamda oilaviy dam olishni tashkil etish, ijobiy hislarni namoyon etish kerak.

Yosh oilalardagi nizolar, juftlarning o'z ota-onasi oilasidan olib kelgan turli xil qoidalar tizimi bilan bog'liqdir. Ba'zi bir oilalarda nizolar yechimi oson hal etilsa, boshqalarida to'g'ridan-to'g'ri sovuqqonlik bilan chetlanish va tinchlanish bilan hal etiladi. Natijada insonlar nizoni yechishning turlicha usullarini o'rganib boradilar hamda ikkinchi tomon norozi bo'lsa ham, o'zlarini haq bilgan holda nizolar yechimini hal etadilar, er - xotinlarning biri ikkinchisini ayblaydi. Bular toifasiga uy-ro'zg'orni tutish, moliyaviy harajatlar (pul yig'ish yoki tez sarflash), farzandlar tarbiyasi va ko'pgina maishiy mayda-chuydalar ham kiradi. Shu bilan birga uy-ro'zg'or ishlaridagi tartiblilik (saramjon - sarishtalik, taom tayyorlash odobi) yoki farzand tarbiyasi, ularni o'qitish, ular bilan shug'ullanish ham kiradi. Ko'pgina mualliflar oilalardagi barqarorlikni turmush o'rtoqlar o'rtasida oilaviy rollarning

teng taqsimlanishi, oilaning qadr-qimmati va majburiyatlarining bir butunlikda joylashganligi bilan izohlaydilar.

Oilaviy nizolar o'zbek olimlari tomonidan ham o'rganilgan. X.Karimov tadqiqot natijalariga asoslanib er-xotin o'rtasidagi yuz beradigan nizoli holatlarning klassifikatsiyasini ishlab chiqqan. Nizolar klassifikatsiyasini asoslashda nizo sabablari, ishtirokchilari soni, ifodalanish darajalari, nizo o'chog'i, yo'nalganlik xarakteri, bosqichlari va boshqalar asos qilib olingan. Shu bilan bir qatorda muallif oilaviy nizolarning oldini olish yo'llari, bartaraf etish choralari, o'zaro munosabatlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni ham ilgari suradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, eng tajribali psixologlarga ham nizoning kelib chiqish sababi va uning bosqichini aniqlashi qiyin kechadi. Buni aniqlashda o'zini va turmush o'rtog'ini xatti – harakatlarini diqqat bilan haqqoniy ravishda uzoq muddat kuzatish lozim. Buning uchun er-xotin o'rtasidagi nizolarning asosiy sabablarini bilish zarur.

### **9.3. Er- xotin nizolarining sabablari**

Er-xotinlar nizolarini tahlil qilishda eng keng tarqalgan yondashuvlardan biri turmush o'ртоqlar orasidagi nizo ulardan birining yoki har ikkalasining muayyan ehtiyojlari qoniqtirilmaligi sababli paydo bo'ladi deya hisoblanadigan yondashuvdir.

Bunday yondashuv tarafdorlaridan biri rossiyalik tadqiqotchi V. A. Sisenko: "Oila nihoyatda xilma - xil hayotiy ehtiyojlarning o'zaro (birgalikda, bir – biriga ta'sir qilgan holda) qondirilishidan iborat. Turmush o'ртоqlardan birining yoki har ikkalasining u yoki bu ehtiyojining qisman yoki to'liq qondirilmasligi oila barqarorligini buzgan holda dastlab tortishuvlarga, so'ngra surunkali janjallarga olib keladi", - deya ta'kidlaydi.

V.A. Sisenko qondirilmagan ehtiyojlar asosida yuzaga keladigan nizolarning quyidagi sabablarini ajratib ko'rsatadi:

1. Er-xotinlardan birining izzat-nafsi, qadri va obro‘-e‘tibori boshqasi tomonidan poymol etilishi, uning bepisandligi, iltifotsiz munosabati, hurmatsizligi asosida yuzaga keladigan nizolar.

2. Er-xotinlardan birining yoki har ikkisinining jinsiy ehtiyojlari qondirilmasligi oqibatida yuzaga keladigan nizolar. Ular turli sabablarga ega bo‘lishi mumkin: turmush o‘rtoqlarning jinsiy hayot psixogigiyenasi borasida bilimsizligi, erkaklarda impotentlik yoki ayol frigidligi, er-xotinlardan birining kasalligi, ularning ruhiy zo‘riqishi va hokazo.

3. Turmush o‘rtoqlardan birining yoki har ikkisinining ijobiy emotsiyalarga nisbatan ehtiyojining qoldirilmasligi, erkalash, g‘amxo‘rlik, mehr, e‘tibor va tushunishning yetishmasligi natijasida yuzaga keluvchi nizolar.

4. Er-xotinlarning birining yoki ikkalasining spirtli ichimliklar, azartli o‘yinlari istagi va boshqa ehtiyojlarga berilib ketishi natijasida, oilaviy mablag‘larni tejamasdan, samarasiz va keraksiz sarf-harajatlar qilishi sababli yuzaga keladigan nizolar.

5. Turmush o‘rtoqlardan birining ehtiyojlarini haddan ortib ketishi natijasida vujudga keluvchi moliyaviy kelishmovchiliklar. Oila byudjeti, oilani boqish, er-xotinlarning oila moddiy ta‘minotiga qo‘shadigan hissasi masalalari borasidagi yuzaga keladigan nizolar.

6. Er-xotinlarning oilaning moddiy ta‘minotini yaxshilash (kiyinish, ovqatlanish) va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish negizida kelib chiqadigan nizolar.

7. Oiladagi mehnatni taqsimlanishi, uy-ro‘zg‘orni yuritish va farzandlarni parvarish qilishda o‘zaro yordamga, hamkorlikka muhtojlik natijasida yuzaga kelgan nizolar.

8. Er - xotinlarning dam olish va bo‘sh vaqtni tashkil etish borasidagi qiziqishlar va ehtiyojlarining o‘zaro mos kelmasligi sababli yuzaga kelgan nizolar.<sup>1</sup>

V.A. Sisenko barcha er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarning sabablarini o‘rganar ekan ularni uchta katta kategoriyalarga ajratadi:

---

<sup>1</sup> Шнейдер Л.Б. Семейная психология. Учебная пособия для вузов. –Изд 4-е. – М.: Академический Проект, Триеста, 2008. – С: 325- 326.

- mehnatning adolatsiz taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan nizolar (haq – huquq va majburiyatlarni turlicha qabul qilinishi).

- qandaydir ehtiyojlarning qondirilmaslgi natijasida yuzaga kelgan nizolar.
- tarbiyadagi kamchiliklar sabab yuzaga kelgan ziddiyatlar.

Birinchi sabab bo'yicha shuni ta'kidlash lozimki oilaviy majburiyatlarni taqsimlashda ularning o'zaro kelishuvi asosiy hisoblanadi, shu bilan birga oila modeli an'anaviy bo'ladimi, egalitarmi, bundan qat'iy nazar er-xotinlarning ikkalasini qoniqtirsagina oila farovonligini ta'minlaydi. Bu kelishuvni yo'lga qo'yishda nizolarga yo'liqish mumkin. Er va xotin oilaviy hayotdan o'z shaxsiy tasavvurlariga tayangan holda, turlicha narsalarni kutishlari mumkin. Bunda tasavvurlarining bir - biriga mos kelmasligi, oila mustahkamligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Agar oila a'zolari oilaviy rollar haqida turlicha tushunchaga ega bo'lsalar va bu ular kutgan talablar bilan mos kelmasa, oilada nizoli vaziyat yuzaga keladi. Agar er-xotinlardan biri o'z shaxsiy xulq-atvori, o'zining oila haqidagi individual tasavvurlarini eng to'g'ri deb qabul qilinsa-yu ammo, ikkinchisining xulq - atvori bu tasavvurlarga mos kelmasa, nizolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Agar tasavvurlar mos kelmasa, u holda, ehtiyojlar ham o'zaro mos kelmaydi: biz boshqalar xohlagan ehtiyojni emas balki, o'z ehtiyojlarni qondirmoqchi bo'lamiz va shu bilan birga o'z ehtiyojlarimizni boshqalar (ikkinchi tomon ularni umuman qondirmoqchi emas) tomonidan qondirilishini kutamiz. Bunday mos kelmaslik avval yopiq ko'rinishda, so'ngra ochiq ko'rinishli xulq - atvor nizosiga aylanadi, ya'ni, turmush o'rtoqlardan biri ikkinchisining qiziqish va istaklarini qondirilishiga o'zining xohish – ehtiyojlari bilan xalaqit beradi. Ma'lumki, erkak va ayolning oila – nikoh ehtiyojlari tubdan farq qiladi.

O'zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitiga xos bo'lgan nikoh oldi omillarining xususiyatlari, ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-

onalarga tayanish, oiladagi o‘zaro munosabatlar qo‘pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko‘rsatib o‘tiladi.<sup>1</sup>

Oila-nikoh ehtiyojlarining yosh bilan bog‘liq jihatlarini ham aniqlangan: agar yoshlik davrida (20-30 yosh) ayollar uchun asosan hissiy, jinsiy va ko‘ngliga yaqin munosabatlar (muloqotda samimiylik, ochiqlik) muhim bo‘lsa, 30-40 va 40-50 yoshlarda esa kommunikativ jihat: erining o‘zini butkul oilaga bag‘ishlashi, 50-yoshdan keyin esa – er tomonidan moliyaviy qo‘llab - quvvatlanish va erining uy yumushlarida beminnat yordam berishi muhim hisoblanadi.

#### **9.4. Oilada muloqotning buzilishi**

Oiladagi nizolarga oila haqidagi bir-biriga mos kelmagan, noadekvat, noto‘g‘ri tasavvurlar va kutuvlar ham sabab bo‘ladi. Psixologik adabiyotlarda yoshlarning oila haqidagi tasavvurlarning mos kelmasligini uchta asosiy sababi ajratib ko‘rsatiladi. Ulardan biri shu bilan bog‘liqlik, bizning oila haqidagi tasavvurlarimiz qanchalik mavhum bo‘lsa, ular haqidagi batafsil, to‘liq bilish va aniqlashga bo‘lgan ehtiyoj shunchalik kuchayadi.

Ikkinchi sabab shundan iboratki, oila haqidagi tasavvurlar hozirgi kunda idealdan ancha yiroq. Yoshlar o‘rtasidagi eng ko‘p mos kelmagan tasavvurlar bu – “..qanday qilib oilada yaxshi munosabatlarni saqlab qolish mumkin” - degan savol bilan bog‘liq. Xotinga eri tomonidan ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ruhiy va emotsional qo‘llab – quvvatlashni unutgan holda kuchli jins egalari o‘zlarining asosiy vazifalari deb moddiy ta‘minotni belgilaydilar. Ulardan farqli ravishda ayollar aynan ruhiy va emotsional qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar.

Uchinchi sabab shundaki, yosh er-xotinlarning bir-birlari haqida kam bilishlari ular o‘rtasidagi nizoning yuzaga kelishi va chuqurlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday bo‘lishiga birinchidan, ular nikohgacha bo‘lgan munosabatlarida oilaviy munosabatlar mavzusini muhokama qilmaganliklari, ikkinchidan bir-birlari haqida

---

<sup>1</sup> Karimov X.K. O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis... psixologiya fanlari nomzodi. - T.: 1994. - 142 b.

to'liq, adekvat tasavvurga ega bo'lishlari uchun nikohgacha bo'lgan davrning qisqaligi halaqit beradi.

Er-xotinlarning bir-birlari bilan munosabatlarida ularning o'zaro muloqoti – muomala madaniyati va malakasining roli juda katta (Kovalev S.V.,1998). Muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli to'siqlar ham nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ko'plab oilaviy nizolarning mexanizmini ajratib ko'rsatish mumkin – bulardan biri - “o'tmishga yopishish” deya nomlanuvchi mexanizm.

Uning mohiyati quyidagicha: er-xotinlardan biri boshqasi shaxsiga agressiv hamla qiladi. U turmush o'rtog'i va o'z – o'zidan o'z ma'suliyatini maskirovka qilish uchun janjal boshidan turmush o'rtog'i oldiga manzarani shunday namoyon qiladiki, bu bugungi dushmanona hujumni faqat o'tmishda bo'lganga nisbatan majburiy va qonuniy javob reaksiyasi sifatida baholanishini ta'minlaydi.

Uning turmush o'rtog'i ham qaysidir nojo'ya harakatni boshqa jihatdan eslashni boshlaydi, agar u o'tmishda nojo'ya harakat qilgan bo'lsa, unda bu raqibning qandaydir yomon harakatiga nisbatan majburiy reaksiya bo'lganligini ma'lum qiladi.

Ko'pincha bunday janjallar – jiddiy nizolarning boshlanishi bo'ladi. Odatda ko'pincha odamlarga ular janjallashishga majbur bo'layotganliklari yoqmaydi, ular buni bas qilish lozimligini tushunishadi, ammo ko'pincha oilada janjallar to'xtashi uchun nimadan boshlash va nima qilishni bilishmaydi.

Turmush o'ртоqlar janjallari yakunlanishi mumkin, agar:

- a) nizo ishtirokchilari o'z aybini tushunib, tan olsa;
- b) turmush o'rtog'i ham o'zini aybdor deya tan olsa.

Ammo uchinchi, kamroq tarqalgan variant – “Ikkovimiz ham aybdormiz”ning ehtimoli yo'q emas. Janjaldan chiqish uchun qutqaruv formulasi quyidagicha: “Biz janjallashayapmiz – demak, biz nohaqmiz!”. Bunda egoizm uchun xos bo'lgan o'z ma'suliyatini boshqa bo'yniga yuklash bo'lmaydi. Bunda butun ma'suliyatni o'z bo'yniga olib, o'zini alturistlaracha fido qilish ham kuzatilmaydi.

Albatta, har doim ham, ayniqsa, dastlabki kezlarda “Biz nohaqmiz” formulasi maqsadga erishishga yordam bermaydi. Hamma odamlar ham yaqqol dushmanlik xurujidan so‘ng tezda hamkorlikka tayyorlik holatiga “kirisha olishmaydi”. An’anaviy “men – sen” ziddiyati xalaqit beradi. Ikki tomon ham nohaqligini tan olishi haqidagi taklifni eshitib, faqatgina “yoki - yoki” tipidagi yechimlar amaliyotiga o‘rgangan nizoning boshqa bir ishtirokchisi boshidan faol qarshilik qilishi mumkin. U o‘zini nohaq deya hisoblamasligini, chunki janjalni boshlamaganligi va bahsdan chetda ekanligi, chunki “judayam xafaligi”, “judayam qiynalgani”, “hammasi yaxshi bo‘lishini juda xohlashi”ni va h.k.larni uqtirishni davom ettirishi mumkin.

Ziddiyatlarni hal qilishning yangi usuliga o‘ta olish juda qiyin. Eng avvalo o‘z emotsional holatini nazorat qilishni, bu bilan turmush o‘rtog‘iga yordam berishni o‘rganish zarur.

*Emotsional holat* – har bir insonda uning psixik faoliyatiga nisbatan reaksiya sifatida paydo bo‘lib, go‘yo uning hayoti hodisalari ro‘y beradigan fon yaratuvchi fon. Holat ma‘lum bir vaqtda barcha kechinmalarni biror rangga bo‘yaydi. Turmush o‘rtoqlar doimo turli xil emotsional holatda bo‘lishadi. Bu jahl, norozilik, charchash, tushkunlik yoki aksincha, baxt, quvonch holati bo‘lishi mumkin. Emotsional holat ko‘pincha bajarilgan ishga, amalga oshirilgan harakatga, o‘zini his qilishga, eshutilgan musiqaga, o‘qilgan kitobga bog‘liq bo‘ladi. Emotsional holatlarda inson individualligi yorqin namoyon bo‘ladi. Eng uzoq va barqaror emotsional holat kayfiyatga aylanishi mumkin.

O‘z emotsional holatini nazorat qilish, emotsiyalarni boshqarish imkoni mavjud. Pul, yashash uchun joy bo‘lmaganda, sog‘liq yomonlashganda, ish yurishmaganda noxush sharoitlarga qarshi tarzda o‘zida yaxshi kayfiyat yaratishni o‘rganish ham mumkin. Har bir insonning o‘z usuli mavjud.

Turmush o‘rtoqlar tortishuvlari uchun amaliyotchi psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan *tortishuv kodeksini* qo‘llash mumkin. Ushbu kodeksning birinchi qoidasi – faqatgina kelishmovchilikning o‘zi haqida, faqatgina bahs predmeti haqida gapirish, ya‘ni tortishuv maydonini minimumgacha qisqartirishdir. Tortishuv olovida

ko'pincha sabab yo'q bo'lib ketadi. Ayblashga berilib ketgan insonlar ko'pincha nima uchun janjallashayotganliklarini unutilib qo'yishadi va mashmasha boshlanadi. Ikkinchi qoida – o'ziga turmush o'tog'ining oldingi xatolarini eslashga (“Sen har doim shunday qilasan”), tanbehga qarshi hujum qilishga (“Sen o'zing shunaqasan”) yo'l bermaslik. Uchinchi qoida – hech qachon bir – biriga ranjitadigan so'zlar aytmaslik, lan'atlamaslik. Tushunish lozim, qo'pol gap doim qo'pol javobga sabab bo'ladi, so'zlaring ta'sir qilishini xohlasang, xafa qilmasdan, xushmuomalalik bilan gapir.

Er va xotin orasida tushunmovchilik bareri boshqa bir muhim psixologik qoida buzilganda paydo bo'ladi. Bu qoida tortishuvda muayyan sababga ko'ra shaxsni umumiy baholash va tavsiflashga o'tmaslikni nazarda tutadi.

Bunday turdagi “diskussiyalar” nafaqat zararli, balki bema'ni hamdir. Salbiy umumiy tavsiflar (hatto ular to'g'ri bo'lsa ham) har doim haqorat sifatida qabul qilinadi. Yaxshisi, mavjud aniq bir harakat haqida “odamni burchakka haydamasdan”, unga keyingi gal o'zini yaxshi tomondan ko'rsata olishiga ishonishingizni tushunishiga imkon bergan ma'qul.

Janjallar, nizolar vujudga kelish mexanizmini yaxshiroq tushunish uchun uch turdagi tasavvurlar tizimini farqlash mumkin:

1. “Egotsentrik tasavvurlar tizimi”. Bu tizim markazida “men o'zim”, “mening xohishim”, “mening maqsadlarim” turadi. Boshqa barcha predmetlar, shu jumladan insonlar ham shaxsiy istaklarni qondirish uchun foydali qurol yoki zararli to'siqlar tizimi sifatida tasavvur qilinadi. Bunda insonning o'z – o'ziga munosabati nuqtai nazaridan egosentrik reaksiya o'z – o'zi bilan haddan ortiq bir xillashish, vaziyatga hardan ortiq berilishni bildiradi.

2. “Alterotsentrik tasavvurlar tizimi”. Bunda markazda boshqa tasavvurlari tizimi turadi. Inson boshqa bilan birga yashaydi, o'zini boshqa bilan bir xillashtiradi.

U uning istaklari yoki azoblari va qo'rquvlarini xuddi o'zinkidek qabul qiladi. Atrofdagi predmetlar, shu jumladan “men o'zim” ham tasavvurlar tizimi markazida bo'lgan o'sha muayyan inson ehtiyojlarini qondirish uchun foydali qurollar yoki zararli to'siqlar sifatida baholanadi.

Bunday tasavvurlar tizimi odatda hamdardlik paytida paydo bo'ladi va beqaror bo'ladi; u faqatgina fidokorona alturistik muhabbat (sevgilisiga, bolaga, kumiriga) holatidagina uzoq muddat mavjud bo'lishi mumkin.

3. "Sotsiotsentrik tasavvurlar tizimi". Oldingi monomarkazli (yagona markazli) tizimlardan farqli tarzda bu tizim polimarkazli (ko'pmarkazli) tizimdir. Egotsentriзм boshqalar manfaatini butunlay unutishga (yoki ularni atayin inkor qilishga) olib keladi. Alterosentriзм shaxsiy manfaatlarni (yoki sevimli insonga nisbatan uchinchi shaxs manfaatlarini) unutishga olib keladi. "Sotsiotsentrik tizim" bir vaqtning o'zida ham o'z shaxsiy, ham boshqa insonlar manfaa'tlarini hisobga olish va demakki, ularni har tomon uchun maqbul tarzda qondirishning real usullarini izlash imkonini beradi. Olam haqidagi sotsiotsentrik fikrlarning psixologik egasi "men", "sen" emas, balki "biz" bo'ladi.

Asosiy mazmun quyidagi qonuniyatni tushunishdadir: bitta inson boshida turli xil vaqtda uch tizimdan xoxlagan bittasi ustunlik qilishi mumkin. Bu egosentrik qaysidir vaqtda sotsiosentrik yoki alterosentrik, sotsiosentrik – egosentik bo'lishini va h.k.ni bildiradi. Ammo juda ko'p hollarda (ayniqsa uy sharoitida) hamma insonlar egosentriklik bog'langan bo'lishadi.

Ushbu yondashuvga muvofiq, agar biz hammamiz egosentrik bo'lsak, unda o'z baho, o'ziga hurmatlar to'qnashuvi shubhasizdir. Turmush o'rtoqlar orasida doimo qandaydir ichki kurash boradi – kim aslida kim? Umumpsixologik bilimsizlik hayratlanarli dajarada. Turmush o'rtoqlar hamma vaqt qiyoslashga urinishadi. Boshqa bironi o'z o'milariga qo'yib olib da'volar qilishadi, talab qilishadi, jahl qilishadi, nafratlanishadi. Deyishadiki: "Men sening o'ringda hech qachon ..... qilmagan bo'lardim". Ammo yonlarida butunlay boshqacha insoniy tizim, boshqacha muhabbat mikrokosmi ekanligini esdan chiqarishadi. Ushbu tizimni bo'ysundirish emas, o'rganish, qarshilik qilish emas, moslashish zarur. Bu mehribon insonlarning azaliy huquqi va hisoblashni bas qilish zarur! Bundan tortishuv paydo bo'ladi, o'z navbatida undan nizo vujudga kelishi mumkin. Axir hayot hisobini yana qancha hisoblash mumkin – men uning uchun qancha ish qilib qo'ydim, men unga:

yoshligimni, o'z hayotimni uyimni, bolalarimni - qancha narsa berdim! Qachon biz beribgina olish mumkinligini tushunamiz? Va quvonch ham mana shu berishda.

Ko'rib o'tganimizdek, tortishuvlarni boshqarishni o'rganish uchun shaxsiy emotsional holatni boshqarishni o'rganish zarur.

Juftlik hayotidagi nizoli vaziyatlarni qanday qabul qilish har bir juftning shaxsiy hususiyatlariga bog'liq. Turmushga chiqqan ishlaydigan ayollarda farzandlarning oilaviy sharoitida oddiy erkaliklariga yoki erining doimiy shug'ullanadigan ishiga nisbatan noadekvat munosabat paydo bo'lishi mumkin. Ko'pgina nizolar surunkali bo'lishi mumkin. Odatda, surunkali nizolar shaxsning butun umri mobaynida yig'ilib borgan ijtimoiy psixologik ustanovkalariga bog'liq. Bu er yoki xotinning xulqida ma'qullanmagan qandaydir hayotning asosiy, alohida bir obrazi bo'lishi mumkin. Surunkali nizolar ortida qondirilmagan ehtiyojlar va mos kelmagan xarakterlar, ijtimoiy psixologik ustanovkalar, qarashlar, hayotiy pozitsiyalar turadi. Surunkali nizolar nikoh uchun xavfli hisoblanadi hamda ularni yechimini topish qiyin. Surunkali nizolar yuzaga kelganda oilaviy maslahatchi yoki psixoterapevtga murojaat qilgan ma'qul.

Nizolarning u yoki bu tarzda rivojlanishi oqibatida shartli ravishda to'rt xil oilalar shakllanib boradi. Bular:

1. o'zaro munosabatlari mustahkamlangan oilalar;
2. munosabatlari vaqtincha mustahkamlangan oilalar;
3. yangi nizolar yuzaga kelib va takrorlanib turadigan (nizoli) oilalar;
4. munosabatlar uzil-kesil buzilib ajralishib ketgan oilalar.

Agar bo'lib o'tgan nizolardan so'ng er-xotinlar o'z vaqtida to'g'ri xulosa chiqarib, o'z xatolarini vaqtida anglab yetib, bir-birlarini tushunishga harakat qilsalar, ularda ham o'zaro hamkorlik yuzaga kelishi mumkin. Agarda qulay shart-sharoitlar yuzaga kelmasa, er-xotinlar o'z xatolarini tushunib yetish va ularni tuzatish borasida yetarlicha bilim, tajribaga ega bo'lmasalar, yoki bu xatolarni bartaraf qilishni xohlamasalar, shuningdek ularning katta yoshdagi qarindosh-urug'lari, yaqinlari o'zlarining boy hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, yoshlarga umumiy yo'l-yo'riqlar, maslahatlar bermasalar, va aksincha yosh oila

hayotiga noo‘rin aralashgudek bo‘lsalar yana yangi nizolarning yuzaga kelishi mumkin.

Ayrim oilalar er-xotin munosabatlari yomonligi, nizolar chuqurlashuvi, zo‘riqishlar keskinlashuvi tufayli buzilib ketishi mumkin. Albatta ajralish hodisasi bu nikoh oila munosabatlari uchun ayanchli. Ayniqsa, bunday hollarda oilada farzandlar bo‘lsa, ular otasiz yoki onasiz qolishadi. Ajralishdan so‘ng har ikki tomonning ijtimoiy ahvoli keskinlashadi. Lekin birinchi marotaba oilasi buzilgan odam kelgusi safar o‘z xatolarini tuzatishi, balkim keyinchalik «o‘z tengini topib» baxtli hayot kechirib ketishi ham mumkindir.

O‘zbek etnosi uchun xarakterli yana bir jihati shuki, o‘zbeklarda, shuningdek, tojik, qirg‘iz, qozoqlarda ham oilalarning buzilib ketish hollariga boshqa, yevropa xalqlarida bo‘lganiga nisbatan salbiy munosabatlarda bo‘lish an‘analari kuchli. YA‘ni ajralish jamoatchilik fikriga ko‘ra qoralanadi. Buning ustiga o‘zbek oilalarida qarindosh - urug‘chilik nikohlari boshqa qardosh millatlar oilalariga qaraganda ko‘proq uchraydi. Mabodo bunday oilalarda er-xotin munosabatlari kutilgan tarzda rivojlanmasa, ya‘ni ular nizo-janjalli, bir-birlarini tushummaydigan, bir-birlariga mos tushmaydigan, psixologik qovusha olmaydigan bo‘lsalar ham «oila buzilmasin», «qarindosh-urug‘chilik uzilmasin» qabilida ish tutib, qanday qilib bo‘lmasin oilalarni saqlab qolishga xarakat qilinadi.

Buning oqibatida nikoh-oila munosabatlari zaminida yuzaga keladigan noxush hodisalar, har xil asab buzilishlar, kasalliklarning kelib chiqishi, har xil jinoyatlar, qotilliklar, o‘z joniga qasd qilish, hiyonat, bolalar tarbiyasining buzilishi va shu kabi qator ko‘ngilsizliklarning yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham nafaqat yoshlarimiz balki faoliyati bevosita nikoh - oila muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan mutasaddi xodimlar, mahalla, hokimiyat vakillari, katta yoshdagilar ham hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy nizolar psixologiyasi haqida tegishli ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlarimiz esa oilaviy nizolarini jiddiy, ayanchli oqibatlarga olib keluvchi: ajratuvchi, «men» xarakteridagi, «chegaralanmagan» turlaridan ogoh

bo'lishi, o'z hayotlarida shu toifa nizolarning oldini olish va bartaraf etish borasida zarur bo'lgan bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim.

### **9.5. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari**

Ko'pincha inson norozilik, asabiylik holatida bo'lganda nizolar yuzaga keladi. Bundan kelib chiqadiki, nizo yuzaga kelish vaziyatini samarali boshqarish va nizoning oldini olish uchun inson o'z emotsiyalarini, noroziligini boshqara olishga o'rganishi zarur.

V.A.Sisenko er-xotin nizolarini yechimi haqida gapirganda, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

- er-xotinning shaxsiy imkoniyatlarini his etgan holda qo'llab quvvatlash;
- doimiy ravishda o'zaro hurmat va e'tiborni namoyish etish;
- turmush o'rtog'ini ko'nglini ko'tarish, o'zidagi g'azabni, asabiylashish oqibatida paydo bo'lgan jaholatni bosa olish va bartaraf etish;
- turmush o'rtog'ining xatolarini va ayblarini yuziga solmaslik;
- o'tmishdagi ayblari uchun umuman ayblamaslik;
- zo'rayib borayotgan psixik zo'riqishni hazil yoki shunga o'xshash yo'llar bilan bartaraf etish;
- turmush o'rtog'ini nizoli mavzulardan chalg'itish orqali boshqa mavzuga o'tish;
- o'zini va turmush o'rtog'ini shubhalar ostida hiyonatda, bevafoqlikda qiynalmaslik hamda paydo bo'lgan shubha – gumonlarni o'chirib tashlash, haddan ziyod rashk qilmaslik;
- shuni unutmaslik kerakki, oilaviy birgalikdagi hayotda sabr-qanoat, murosa, rahmdillik, e'tiborlilik, bag'rikenglik va shunga o'xshash ijobiy hislatlarni albatta namoyon etish lozim.

Oilaviy nizolarda nizolarni yecha oladigan va shaxslar munosabatlar treninglarini o'tkaza oladigan mutaxassislarning maslahatlariga rioya etish foydadan xoli emas. Destruktiv yo'llardan (taqib etish, turmush o'rtog'ining shaxsini yerga

urish, xudbinlik) qochib, pozitiv yo'llarni qo'llash lozim. Masalan, shaxslararo munosabatlarda turmush o'rtog'ining diqqat bilan tinglash kabi faol eshitishdan foydalanish va buning natijasida juftning o'z fikrlarini bildira olishi va aytilganlarni (aytilmaganlarni ham) tushunib, idrok etishini faollashtirish mumkin. Oilaviy munosabatlarda turmush o'rtog'ining ham o'z o'rmi borligini bildirish (turmush o'rtog'iga undan minnatdor ekanligini, uni qadrlashini, hurmat qilishini, undan faxrlanishini aytish), ko'p narsalarda (fikrlari, gaplarining bir joydan chiqishi, umumiy dunyoqarash) bir-birlari bilan mos kelishlarini alohida ta'kidlash oila mustahkamligini ta'minlashda juda muhim hisoblanadi.

Amerikalik oilaviy psixoterapevt Din Delis nizolarni yechishning qiziq bir yo'lini namoyish etadi. Uning fikricha, "obektiv shart-sharoitlar mutanosibliigi" dan kelib chiqib nizolarni yechish juda oson. Bu termin ostida D.Delis stressli vaziyatlarda qolgan oilalarda paydo bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarni keng ma'noda tushunadi. Bunga u ko'chib o'tish, farzand tug'ilishi, to'y, kasbiy statusning o'zgarishi, falokat, o'smirlar inqirozi va shunga o'xshash boshqa holatlar ro'y bergan turlicha o'zgarishlarni kirgizadi. Obektiv shart-sharoitlar mutanosibliгинi yechish yo'lida muallif quyidagilarni ko'rsatadi: nizoli vaziyatlarda birinchidan, bir-birini emas balki, vaziyatni ayblash darkor (munosabatlarni o'zgartirgan qonuniyatlarni anglash lozim); ikkinchidan, turmush o'rtog'iga hamdard bo'lish kerak (uni o'miga o'zini qo'yib, qiyinchiliklari his etish); uchinchidan, aniqlanmagan haqiqatdan ko'ra, muvozanatni tiklashga kelishishning afzalligi va hokazo.

**Nizolarsiz o'zaro munosabatlarni yuzaga keltirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:**

1. Arzimagan mayda – chuydalarga iloji boricha e'tibor bermaslik, vaysaqilik qilmaslik, chunki doimiy ming'ir – ming'irlar er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga zarar keltirishi mumkin.
2. Turmush o'rtog'ini "qayta tarbiyalashga" urinmaslik, chunki har qanday odam bunday holatda o'z mustaqilligini himoya qilish huquqiga ega.

3. Tanqid qilishga berilib ketmaslik, chunki odam hamma vaqt o'z shaniga aytiladigan yomon so'zlardan butun kuchi bilan himoyalanişga harakat qiladi.
4. Boshqalarning qadr-qimmatini hurmat qilish, odamlarga samimiy munosabatda bo'lish.
5. Turmush o'rtog'i va atrofdagi odamlarga e'tiborli bo'lish, ularga doimiy ravishda g'amxo'rlik qilishga intilish.
6. Odamlarga nisbatan iltifotli bo'lish.<sup>1</sup>

Hayotimizda odat bo'lib qolgan "aybdomi aniqlash va jazolash" o'rniga "muammoni qanday bartaraf etish mumkin" degan masalani hal qilish, o'zaro munosabatlarda samimiylik, hazil mutoyibadan foydalanish afzalroqdir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. "Nizo" tugunchasining mazmunini izohlang.
2. Qanday nizo turlarini bilasiz?
3. Er-xotin munosabatlarida nizolar qanday rivojlanadi?
4. Biriktiruvchi nizo va ajratuvchi nizo turlari haqida ma'lumot bering.
5. Sisenko nizoning qanday turlarini ajratib ko'rsatgan?
6. Amerikalik psixolog M. Doych oilaviy nizolarni qanday turlarga ajratadi?
7. G.M. Andreyeva oilaviy nizolar borasida qarashlarini izohlang.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. «Nizo—tomonlarning qarama—qarshiligi bo'lib, u o'zini tomon-larning faolligida namoyon qiladi». Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan.
  - a) V.A.Sisenko
  - b) S.V.Kovalev

---

<sup>1</sup> Fayziyeva M., Jabbarov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. T.: Yangi asr avlodi. 2007. - 28 – 29 betlar.

c) G.M. Andreyeva

d) N.V.Grishina

2. «Ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda bir - birlarining xatti-xarakatlari va qarashlari borasida to'g'ri xulosa chiqarib olishlariga, bunday xarakterni boshqa qaytarmaslikka, xushyorlikka undaydi». Psixolog olim G.M. Andreyeva yuqoridagi ta'rif bilan qanday nizolarni ta'riflagan?

a) Destruktiv (ajratuvchi) nizolarga;

b) yashirin nizolarga;

c) soxta nizolarga

d) konstruktiv (biriktiruvchi) nizolarga

3. «Baxtli oilalar nizolarning umuman bo'lmashligi bilan emas, balki ularning chuqurlashib ketmasligi yoki salbiy oqibatlarining oldi olinishi bilan ajralib turadilar». Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

a) S.V.Kovalev;

b) V.A.Sisenko;

c) L.B.Shneyder;

d) G.M. Andreyeva

4. Qaysi olim er-xotin nizolarining sabablarini 3 ta katta kategoriyaga ajratib o'rgangan?

a) I.S. Kon

b) S.V.Kovalev

c) V.V.Yustitskiy

d) V.A.Sisenko

e) L.B.Shneyder

5. Oilaviy nizolarni o'rgangan o'zbek olimlarni aniqlang?

a) N.Sog'inov, X.Karimov

b) E.G'oziyev, V. Karimova

c) F.Xaydarov, N.Kamilova


d) Z.Nishonova, N.Safayev

6. Amerikalik psixolog M. Doych oilaviy nizolarni qanday turlarga ajratadi?

- a) haqiqiy, tasodifiy, aralash, noto'g'ri talqin etilgan, yashirin va soxta nizolar
- b) biriktiruvchi va ajratuvchi nizolar
- c) qisqa muddatli va uzoq davom etadigan nizolar
- d) obektiv va subektiv nizolar

### “Nima uchun?” texnologiyasi

**Ushbu texnologiya texnologiyadan foydalanigan holda er-xotin nizolarining kelib chiqish sabablarini aniqlang**



## X BOB. OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI: OILA INQIROZI VA NIKOH AJRIMLARI

### Reja:

1. Oilaviy munosabatlarning buzilishi
2. Ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar
3. Ajralish bosqichlari
4. Ajralish oqibatlari

*Tayanch iboralar: nikoh, oilaviy munosaban, nizo, oiladagi inqiroz, ajralish,, xiyonat, ajrim bosqichi, bosh ko'tarish bosqichi, tushkunlikka tushish bosqichi, bo'yinga olish bosqichi, depressiya, tajovuzkorlik*

### 10.1. Oilaviy munosabatlarning buzilishi

Nikoh-oila munosabatlarida ajralish muammosi hozirgi zamonning eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu masalaga butun dunyoda, jumladan bizning respublikamizda ham ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Ajralish muammolarini huquqshunolar, demograflar, sotsiologlar, iqtisodchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari tomonidan o'rganilmoqda. Ular ajralishga sabab bo'luvchi omillarini o'rganishga, ularni bartaraf etish va salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosa-batlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Afsuski, hozirgi davrga kelib oila-nikoh munosabatlarining zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko'pchilik mamlakatlarida, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq buyi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbek oilalari hayotida oila-

nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlarga qaraganda ancha kam bo'lsada, afsuski bor. Ajralishning asoratlari oila a'zolari va qarindosh-urug'lar o'rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmokda. Demak, oilaning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli asoratlar ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya fanining tadqiqot predmeti sifatida keng o'rganishni taqozo etadi. Ajralish er-xotin munosabatlarining yuridik, iqtisodiy va ruhiy nuqtai nazardan inqirozi bo'lib, oilaviy munosabatlarni buzilishiga olib keladi. Mazkur vaziyatning inqiroz xarakteri (hatto ikki tomon ajralishga rozi bo'lgan taqdirda ham) oila a'zolarining uzoq muddatli og'ir hissiyotlari bilan bog'liq bo'lib, hatto ajralishdan uzoq muddat o'tgandan so'ng ham uning ruhiy asoratlarini saqlanib qoladi.

## **10.2. Ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar**

Bunda ajralishning asosiy motivi sifatida nikohda juftlarning bir birining yoki biri ikkinchisining ehtiyoj va talablarini qondira olmasligidir. Ajralishga olib keladigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- er-xotinlarning yoki ulardan birining ota - onasini ajralishi yoki munozara va janjalli hayot kechirishi;
- nikohga kiruvchilar yoshining erta yoki kechligi;
- oilada er - xotinlarning munosabatlarining noaniqligi natijasida uchinchi avlodning ularning munosabatlariga aralashuvi;
- juftidan ko'ngli qolishi;
- er - xotinning ikkisi yoki ulardan birining janjal va nizolarga moyilligi;
- er-xotinlarning ma'lumoti va ijtimoiy kelib chiqishidagi tengsizlik;
- ayolning kasbiy faoliyat bilan o'ta bandligi, shu jumladan "kareraga" mukkasidan ketganligi;
- er - xotinlarning majburiy alohida yashashi (xizmat safari, ko'chishlar, "ma'lum masofada" yashashi);
- turmush o'rtoqlardan birining bepushtligi, farzand ko'rishning imkoni

bo'lmaganligi;

- nikohdan oldingi homiladorlik;
- er-xotinlarning ota-ona bo'lishga tayyor bo'lmay turib farzand ko'rishi;
- er-xotindan birining ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yishi;
- juftliklarning jinsiy nomutanosibligi (xiyonat, nikohda jinsiy qoniqishning yo'qligi).

Ko'pincha ajrashayotganlardan ajralish sababini so'ralsa, ular qandaydir hamma uchun standart bo'lib qolgan sabablarni ko'rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o'zga shaxsning aralashuvi», «qo'pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noo'rin aralashuvi» va h. k. Agar tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, vaziyatga qarab, bunday ko'rsatkichlar ba'zilar sabab, ba'zilar uchun esa bahona vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Yoshlar (er-xotin) o'rtasidagi munosabat qanchalik noxush bo'lsa bu bahonalar shunchalik kuchli va salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu holatlar ajralishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin.

O'zbek oilalarida: «turмуsh o'rtog'ining qo'polligi», «turмуsh o'rtog'iga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish», «turмуsh o'rtog'ining ota-onasi va boshqa qarindoshlarining aralashuvi», «turмуsh o'rtog'lardan birining oilani umumiy masalalariga befarq qarashi» kabilar ko'proq sabab bo'lsa, Yevropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, er-xotin xiyonati, xarakterlarning mos kelmasligi kabilar qayd etiladi.

Ajralishlarning sabablarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'zbek oilalarida ajralishlarning motivlari sifatida ko'rsatilgan ta'sirlardan asosiylari, yuqorida qayd etilganidek, «turмуsh o'rtog'ining qo'polligi», «ota-onalar va boshqa qarindoshlarning aralashuvi», «bir-biriga nisbatan befarqlik», «er-xotindan birining oilaviy masalalarga nisbatan befarqligi» kabilar ko'rsatilgan.

Ajralishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning ahvoli kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbekva qishloq oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi.

Ajralish muammosini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ajralish omillari, sabablari, oqibatlari o'rganib chiqilib, ajralishning oldini olish borasida turli tadbirlar ishlab chiqilgan. Biroq, bu erishilgan yutuqlardan o'zbek oilalaridagi ajralishlar muammolarini hal etish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Chunki o'zbek oilasi o'zining etnopsixologik xususiyatlariga ko'ra boshqa millatlar oilalaridan farq qilgani kabi undagi ajralish muammolari ham o'ziga xos etnik xususiyatlariga ega.

Quyida ajralish muammosi bo'yicha o'zbek olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zbek oilasida ajralishning etnik xususiyatlari borasida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to'g'ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko'p. Shu bilan birga, «ajralish madaniyati»ni quyi saviyada ekanligi va o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o'zbek oilalarida ko'proq salbiy oqibatlariga olib keladi. Shunga ko'ra ajralishlarning salbiy asoratlari o'zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

N.A.Sog'inov o'z tadqiqot ishlarida o'zbek oilalarida kuzatiladigan ajralishlarning etnopsixologik xususiyatlari, ajralishiga olib keluvchi muhim omillar, uning motivlari va sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Muallif, hozirgi davrda oila buzilishining umumiy sabablariga to'xtalar ekan, o'zbek milliy-

madaniy muhitida ana shu sabablarning qaysi birlari kuchliroq ta'sirga ega ekanligini o'zbek qishloq va shahar oilalari misolida hamda erkak va ayollarda qanday kechish holatini aniqlashga erishgan.

M.A.Sog'inovning ta'kidlashicha, o'zbek oilalarida er-xotinlarni yoki ulardan birini ajralishga undovchi muhim sabablar sirasiga turmush o'rtog'ining qo'polligi, o'zaro hurmatning yo'qligi, yosh oila hayotiga ota-onalarning noo'rin aralashuvi, turmush o'rtog'ining oilaning umumiy masalalariga befarqligi va boshqalar kiradi.

Muallifning e'tirof etishicha, o'zbek oilasidagi ajralish sabablari, motivlari va ularning qanday holatlarda "sabab" va qanday holatlarda "bahona" rolini o'ynashi, ana shunday holatlarda ularning oldini olish choralari haqida to'xtalib, mutasaddi xodimlarni yordamga chaqirish, yoshlarga esa zarur maslahatlar berish lozim.

F.R.Ro'ziqulov o'zining ilmiy izlanishlarida o'zbek oilalarda ajralishning ijtimoiy-psixologik asoslarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Muallif muayyan darajada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida oila-nikoh munosabatlari, uning barqarorligini ta'minlashning ba'zi omillari to'g'risidagi shior qarashlarni va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatidagi tadbirlarni tahlil qilarkan, oila-nikoh munosabatlarining jiddiy jihatlaridan biri sifatida xali ham oilalarning buzilishi - ajralishlar borligini alohida ta'kidlab o'tadi. F.Ro'ziqulov ajralish miqdori haqida gapirar ekan, «Ajralish respublikamiz xududida istiqomat qilayotgan oilalarda Fransiya, Angliya, Germaniya, AQSH, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlaridagiga qaraganda, bir necha marotaba kam bo'lsa-da, biroq o'zbek oilalarida ajralish asoratlari nihoyatda ayanchli, noxush holatlar, kechinmalar, hodisalar keltirib chiqarishni hisobga olsak, uning miqdoriy ko'rsatkichlari quyi ekanligi xotirjamlikka asos bo'la olmaydi», - deb ko'rsatib o'tadi.

Muallifning tadqiqot xulosalariga ko'ra, ajralish va uning asoratlari o'zbek oilalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ko'p bolalilik, uning murakkab tuzilmaligi, qarindosh-urug'chilik aloqalarining kuchliligi, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko'proq saqlanib kelganligi, o'zbek oilasida ajralish boshqa xalqlarnikiga nisbatan qoralanishi, er-xotinlarning turmush darajasi,

bilim saviyasi, muloqot madaniyati va shu kabilar bilan asoslanadi. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra aksariyat holda ajralish qurboni ayollar bo'ladi, ya'ni ajralish erkaklarga nisbatan ayollarni kelgusi oilaviy baxtiga, bolalarning tarbiyasiga, oila byudjetiga, ayolning salomatligiga, o'z ota-onasi bilan bo'lgan ota-ona va farzand munosabatlariga, ajralishgan ayolning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ayol uchun katta hayotiy muammolari qayta oila qurish va yolg'izlik muammosini keltirib chiqaradi. Bu qishloq va shahar ayollarida deyarli bir xil ifodalanadi. Ammo shaharlik ayollar shahar turmush tarzida jinsiy xulq jihatdan bir muncha erkin bo'lganlari hamda o'z kasb faoliyatlari bilan faol shug'ullanganlari tufayli qishloq ayollariga nisbatan yolg'izlikdan kamroq jabr ko'radilar.

Shuningdek, o'zbek oilalaridagi ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda, shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida muammoli va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, er-xotin va ularning yaqinlari orasida nizolar hamda ziddiyatli holatlarning keskinlashuvi saqlanib qolishi, ajralish tufayli yuzaga kelgan, noto'liq oilalar bolalari shaxsiga, ularning ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'siri ilmiy asoslangan.

### **10.3. Ajralish bosqichlari**

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtai nazardan beriladi. Ajralish, odatda, birdan yuzaga keladigan jarayon bo'lmay, uning bir qancha bosqichlari mavjud. A.Maslou er - xotin munosabatlarining inqirozini yetti bosqichini ajratib ko'rsatadi:

- 1. Emotsional ajralish* - oilaviy munosabatlar inqirozi, hissiyotlarning qoniqtirilmaslighi, turmush o'rtoqlarning bir - biridan uzoqlashishi, qo'rquv va umidsizlik, bahs va munozaralar, muammolardan o'zini olib qochish.
- 2. Ajralishdan avvalgi o'ylar va umidsizlik* - og'ir dard, qo'rquv, jahldorlik, xatti-harakatlar qarama-qarshiligi, shok vaziyatlar, bo'shliq va betartib hissiyotlar bilan kuzatiladi. Munosabatlarni tiklashga intilib, do'st va yaqinlardan yordam kutadilar.
- 3. Yuridik ajralish* - rishtalar uzilishi xuquqiy jihatdan rasmiylashtiriladi. Bu bosqich sud jarayoni bilangina emas, balki oilaviy munosabatlarda yanada

ko'p insonlarning aralashuvi bilan kuzatiladi. Ajralish jarayonida jabirdiyda tomon qonuniy munozalarda o'ziga rahm - shafqat talab etib, o'zini oqib sezadi, umidsizlik va badjahllik kabi hissiyotlarga beriladi.

4. *Iqtisodiy ajralish* - birgalikda xo'jalik va oilaviy byudjet yuritishni to'xtatish bilan kuzatiladi

5. *Ota-onalar vasiylik borasida majburiyat va huquqlarini belgilab olishlari* - farzandlari bilan bo'ladigan munosabatlariga aniqlik kiritib, unga nisbatan burch va majburiyatlarini taqsimlashdan iborat. Mazkur bosqichdagi eng muhim vazifalarga farzandlar bilan yangi munosabatlarni o'rnatish va ularda o'ziga nisbatan hurmat va mustaqillik shakllantirish muhim kasb etadi.

6. *Ajralishdan so'ng o'zini tahlil etish va muvozanatga qaytish vaqti*- mazkur bosqichda asosiy muammolar - yolg'izlik va ambivalent hissiyotlarning mavjudligidir: ishonchsizlik, o'kinch, g'amginlik, hayajon, sog'inch kabilar bilan kuzatiladi. Yangi do'stlarni, faollikni qidirish, hayotdagi yangi o'rni, oilaning barcha a'zolari uchun yangi burch va majburiyatlarning taqsimlanishi bilan kuzatiladi.

7. *Psixologik ajralish* - emotsional jarayonda munosabatlarning parchalanishini tan olish, hissiy holatni muvozanatga keltirishdir. Kognitiv-xulq atvorda harakatga intilish, o'ziga ishonch, baho berish, mustaqillik va avtonomiya, muhabbat uchun yangi obektlarni qidirish, yangi munosabatlar uchun tayyorlanish bilan kuzatiladi. (R.Kochyunas. Psixologik konsultatsiya).

S.Kraxotvil esa ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi:

- *Bosh ko'tarish bosqichi*: norozi ayol o'z faolligini oshirib, ajrim sodir bo'lmasligining oldini olish uchun muayyan say'i-harakatlarni amalga oshiradi. Lekin barcha ishlarni xavotir va hayajon bilan amalga oshirgani sababli noma'qul ishlar ham qilishi mumkin;
- *Tushkunlikka tushish bosqichi*: ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi va o'zini ayblay boshlaydi;
- *Bo'yinga olish bosqichi*: ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holatni

qabul qilib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmagani ma'qul degan fikriga keladi.

Ajralish bosqichlari hissiyotlarini ta'riflash uchun yo'qotish modelini modifikatsiyasidan foydalanish mumkin (E.Kyubler-Ross bo'yicha).

1. **Inkor etish bosqichi.** Boshlanish bosqichida barcha bo'lib o'tayotgan voqelik inkor etiladi. Odatda inson shaxsiy munosabatlariga juda ko'p vaqt va hissiyotlarni sarf etadi, shuning uchun ajralishni tan olishga ko'nikish juda qattiq zarba hisoblanadi. Mazkur bosqichda himoya mexanizmlari faollashadi: ratsionalizatsiya ("nihoyat ozodlikka erishdim", "erta yoki kech bu baribir amalga oshar edi"), qadrsizlanish ("amalda nikoh dahshatli edi", "erim nihoyatda jirkanch inson"), inkor etish ("hech narsa bo'lgani yo'q", "hamma narsa yaxshi") va b.q.

2. **G'azablanish bosqichi.** Mazkur bosqichda juftiga nisbatan g'azab hissiyoti uyg'onadi. Tashlab ketilgan tomon frustratsiya holatiga tushib, kelajak orzularini inqirozini boshdan kechiradi. Bu aksariyat hollarda farzandlarini ruhiy iztiroblariga sherik qilish bilan kuzatiladi.

3. **Munozaralar bosqichi.** Bu bosqich nikohni tiklashga urinish bilan kuzatiladi. Er - xotinlar bir birlariga nisbatan turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladilar. Aksariyat hollarda turmush o'rtog'iga atrofdagilar orqali ta'sir o'tkazishga harakat qilinadi.

4. **Depressiya bosqichi.** Inkor etish, tajovuzkorlik va muzokaralar hech qanday natija bermagandan so'ng, parokandalik hissiyoti yuzaga keladi. Inson o'zini omadsiz, o'ziga nisbatan past baho beradigan bo'lib qoladi, insonlarga nisbatan ishonchi pasayadi.

5. **Qabul qilish bosqichi.** Bu bosqichda inson ajralish haqiqatini tan oladi va hayotining yangi shartlarini qabul qiladi. Bu holatlarda, oiladagi farzandlar ham yangi voqelikka o'rganishi uchun yordamga muhtoj bo'ladi.

Dj.Li o'zaro munosabatlarning parchalanishini quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatadi:

- Qoniqmaslikni anglash

- Qoniqmaslikni namoyon etish;
- Muzokaralar;
- Qaror qabul qilish;
- Munosabatlarni o'zgartirish.

Dj.Li taklif etgan ushbu bosqichlar ketma - ketligi majburiy emas. Mazkur bosqichlardan o'tish har bir juftlik uchun individual tarzda kechadi. Parchalanish jarayoni munosabatlarni to'xtatishga emas, balki ularni o'zgartirishga qaratilgan. Mazkur nuqtai nazar muallifi munosabatlarni o'tish bosqichini umr davomida takrorlanishi mumkin deb hisoblaydi.

Ajrashmoqchi bo'lganlar o'z turmush tarzi va dunyoqarashlarida jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechiradilar. Pol Boennen ajralishni amalga oshiruvchi quyidagi 6 bosqichni ajratib ko'rsatadi:

1. Janjalli ajralish - bunda sheriklar o'rtasidagi sovuq munosabatlar keskin oshib, odatda nikohning buzilishiga olib keladi.
2. Ochiq ajralish - bunda nikohni bekor qilish uchun zarur asoslar mavjud bo'ladi.
3. Iqtisodiy muammo sababli ajralish - mol-mulkning bo'linishi bilan bog'liq ajralishdir.
4. Ota-onalar ajralishi - bolalarga vosiylik qilish va ulardan xabar olib turish huquqi bilan bog'liq ajralish.
5. Kommunikativ ajralish - ajralganlarning do'stona va boshqa ijtimoiy aloqalarining o'zgarishi.
6. Ruhiiy ajralish - individ hissiy bog'langanlikni uzil- kesil uzadi va mustaqil hayot zaruratini sezadi.

Bularning hammasi qiyinchiliklar tug'diradi, ajrashganlarga, ularning farzandlariga, qarindoshlariga va tanishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir-birlariga kuchli bog'liqlikni his etgan er-xotinlar ajralish jarayonida nisbatan qiyinchiliklar bilan to'qnashishi mumkin. Yaqin munosabatlarni parchalanishi yangi munosabatlarni tuzishga harakat qilish imkoniyatini beradi. Biroq tugallanmagan munosabatlarning mavjudligi, avvalgi turmush o'rtog'iga nisbatan o'z intiqomini

topmagan hissiyotlar, yangi munosabatlarning poydevoriga putur yetkazadi. Ajralishgacha bo'lgan munosabatning rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

- Ajralishning o'ziga xos xususiyatlari (uning shakli, chuqurligi, davomiyligi, unga aralashgan ishtirokchilarning soni);
- unga nisbatan er - xotinlarning munosabati;
- mavjud manbalar (moddiy va uy joy bilan ta'minlanganligi, sog'lig'i, emotsional holat, bolalarning muammolari, juftlarning yoshi).

Ajralish vaziyatida eng keng tarqalgan strategiyaga quyidagilar kiradi:

1. Tajovuzkorlik - bunda albatta juftining hayotini buzishga harakat qilish, unga ozor yetkazish, juftidan o'ch olishga intilish
2. Manipulyatsiya - bunda nikohdagi juftini turli yo'llar bilan saqlab qolishga urinish, hatto o'z hurmatini yo'qotgan taqdirda ham.
3. Adekvat voqelikni tan olib, avvalgi jufti bilan munosabatlarini, birga o'tgan yillar qadrini yo'qotmagan holda, farzandlari uchun salbiy tasimi kamaytirish.

#### **10.4. Ajralish oqibatlari**

Er-xotinlik munosabatlarining tugashi - bu insonning nafaqat oilaviy holatining o'zgarishiga, balki o'z navbatida umumiy hayot tarzini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tubdan o'zgarishiga olib keladi. Bu hattoki har kungi odatiy narsalar hisoblangan uyqu va ovqatlanishda ham namoyon bo'lib, ajralish bilan bog'liq bo'lgan yuridik jarayonlar mulkni bo'lish va boshqalar qo'shimcha ravishda holatni yanada qiyinlashtiradi.

Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa ajralish otasiz o'sayotgan qiz bolaning his-tuyg'ulariga, otasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolaning bolalik davrida balki kelgusida o'zi mustaqil oila qurganda ham o'z asoratini ko'rsatishi mumkin. Ko'p tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha hamda F.Ro'ziqulov tadqiqotlarida ilmiy jihatdan o'z

tasdig'ini topganligi asosida o'z otasiga mexr va hurmati etarli ravishda shakllanmagan qiz kelajakda oila qurganda turmush o'rtog'iga ham hurmatini yetarli ravishda ifodalay olmaydi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra ajralish oiladagi otasiz o'sayotgan o'g'il bolaning o'qishiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi kuchli bo'lar ekan.

Ajralishdan so'ng vaziyat yanada murakkablashadi, ajralishga nisbatan bo'lgan munosabat liberallashtirilgan bo'lsa ham, eski stereotiplar saqlanib qolgan. Unga asosan ajralgan ayol turmush qurgan ayolga nisbatan past ijtimoiy tabaqada turadi. Shu sababli, ular ajralgandan so'ng boshdan kechirganlarini unutganida, atrofidagilarning salbiy munosabati yanada kuchli zarba bo'ladi. Bu holat ayniqsa o'zbek oilalarida yaqqol kuzatiladi. O'zbek oilalarida ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi.

Ajralishning ijtimoiy asoratlari tanglik va avvalgi munosabatlarni uzilishi bilan kuzatiladi. Ajralish jarayonida avvalgi umumiy tanishlar, kengaygan oila a'zolari bilan bo'lgan munosabat keskinlashadi. Boshida sidqidildan hamdard va ko'nglini ko'targan yaqinlar keyinchalik masofa saqlashadi. Ijtimoiy munosabatlarni yo'qotish yoki cheklanishi insonni yolg'izlik, depressiya holatiga, mehnatga layoqatini yo'qotishga olib keladi va psixosomatik kasalliklarga moyilligi ortadi. Bu jarayon aksariyat hollarda insonlarga nisbatan bo'lgan ishonchni yo'qotish, umidlari puchga chiqishi bilan kuzatiladi. Ajrashgan er - xotinlar avvalgi og'ir tajribalarini takrorlanishidan cho'chib, yangi oila qurishga qo'rqadilar.

**Ajralish** - bu inqiroz bo'lib, u nafaqat oilaviy munosabatlarning buzilishi, balki farzandlar uchun ham og'ir sinov hisoblanadi. Bolalarning ota-onalarining ajralishiga bo'lgan munosabati yoshiga qarab belgilanadi. Eng og'ir kechadigan yosh davri bu maktabgacha va o'spirinlik yoshida bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Bolalar 3, 5, 6 yoshgacha bo'lgan davrda atrofdagi voqelikni to'la tushuna olmay, ota - onasining ajralishida o'zini aybdor his qiladi. O'spirinlik yoshida ota - onalarining ajralishi shaxs sifatida shakllanayotgan inson uchun yoshiga nisbatan qarorlarni qabul qilish, jamiyatda o'z o'rmini topish, ikkilamchi yolg'izlik va separatsiyani murakkablashtiradi. Shu paytda o'spirin uchun jamiyatda o'zining

ijtimoiy o'rmini topib, uni anglashi uchun ikkala ota - onasining, ayniqsa otasining madadi katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarning ruhiy kechinmalari to'liq depressiyadan, keskin salbiy munosabat hamda ota onasining fikri bilan hisoblashmaslikka olib keladi.

Vaziyatning murakkabligi nafaqat ota - onaning ajralishi, oilasining parchalanishi bilan, balki bu barcha keltirilgan sabablar bolaning tanlovi emasligi bilan yanada og'irlashadi. Oilaning buzilishi bola uchun uning dunyosini parchalanishi bo'lib, qat'iy norozilik, fobik va depressiv reaksiyani keltirib chiqaradi. Bolalarning o'tkir hissiyotlariga bir necha omillar ham ta'sir o'tkazadi:

- ichki oilaviy munosabatlar va oilaviy muammolarning yechimida bolaning aralashuvi qay darajada bo'lgani;
- ajralish jarayonini kechish xususiyatlari;
- farzand qaysi ota-ona bilan qolishi, qolayotgan otasi yoki onasiga bo'lgan munosabati;
- Ajrashgan er-xotinlarning ajralgandan keyingi munosabatlari.

Ba'zida farzand bilan qolayotgan ota yoki ona farzandiga ajralgandan so'ng, ikkinchi tomonga nisbatan salbiy fikr va munosabatlarini namoyon etadi. Sobiq er-xotinlar tomonidan bir-birlarini qoralovchi fikr-mulohazalar ko'proq bildiriladi. Ba'zi hollarda har ikkala tomon ham o'zini oqlab, bolani o'zi tomonga og'dirib olishga harakat qiladi. Ota-onaning bu harakati tufayli bora nazarida ota-onaning ustuvor o'rni yemirilib borib, bolaning shaxsiy "men"ida ularga o'rin qolmaydi.

Ajralish natijasida noto'liq oila paydo bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, er-xotinlar ajralishidan qat'iy nazar ular farzandi uchun ota-ona bo'lib qoladi. Shu bilan birga ajralish kelin-kuyovlarning, ota-onalarining ruhiyatiga, salomatligiga, qudalar orasidagi munosabatiga, qarindoshlar va jamoa orasidagi obro'si va oila byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Aksariyat hollarda ajralishdan so'ng oilaning moddiy darajasi pasayadi. Shu sababli farzandi bilan qolgan ota yoki ona daromadli ish yoki qo'shimcha ish qidirishi zarur bo'ladi. Ba'zi hollarda ota yoki ona o'ziga yuklangan qo'shimcha vazifalarni ko'tara olmay, qisman o'z vazifa va majburiyatlarini farzandlariga

yuklaydi. Bunday farzandlarga kichkina ukalariga qarash, oiladagi ba'zi uy yumushlarini bajarish yuklanadi. Bunda eng murakkab narsa bu murg'ak bolaning zimmasiga yuklatilgan majburiyat uning yoshi va hayotiy tajribasiga to'g'ri kelmay, uni noaniq vaziyatlarga duchor etadi.

Insonni ajralishdan keyingi depressiya holati, turmush o'rtog'ining o'limidan keyingi holatga nisbatan og'irroq va uzoqroq bo'lishi mumkin. Qarindosh va do'stlari ajralgan insonga o'z hamdardlik va ko'maklarini boshqa holatlarga nisbatan kamroq ko'rsatishadi. Agar turmush o'rtog'i olamdan o'tgan insonga kamida bir xaftalik ta'til berilsa, ajralgan holatda esa u ishdan, kerakli xujjatlarni rasmiylashtirish uchun, bir necha soatgagina javob so'rashi mumkin. Ayrim psixologlar alohida, ajralish tadbirlarini (tantanalarini) o'tkazishni va unda ajralgan er-xotinlar biri birlariga do'stona aloqalarni saqlab kolish, bolalarga hissiy va iqtisodiy yordam qilish to'g'risida va'da berishni tavsiya etadilar.

Lekin bunday tadbirlarni ko'z oldiga keltirish juda qiyin. Chunki, aloqalarni uzish natijasida asosan ayol kishi jabrlanuvchi holatida qolgani uchun bunday aloqalarni uzishni ko'proq «qabihlik»ka tenglashtirishadi. Ayol kishining bolalari bilan, ko'pchilik hollarda yolg'iz qolishi natijasida u ko'pgina iqtisodiy va hissiy muammolarga duch keladi.

Ajralgan insonga ajralishning o'zi ham og'ir xafagarchilik bo'lib, u ajralgandan so'ng yangi turmush qurishga qo'rqib qoladi. Ajralgan insonga qarindosh va do'stlarining yordami juda ham katta ahamiyatga ega.

Ajralish natijasida kuyidagi oqibatlar yuzaga keladi:

- tug'ilish mikdorining pasayishi;
- oilaviy tarbiya berish sharoitlarining yomonlashishi;
- insonning ishchanligining pasayishi;
- sog'liqning yomonlashishi, har-xil kasalliklar va o'limning ko'payishi;
- ichkilikbozlikning oshishi;
- iztiroblar girdobida qolish natijasida salbiy oqibatlarning ko'payishi;
- ruxiy kasalliklarni oshish xavfi.

Ajralish anglangan (qayerda yashash? kim bilan yashasha?) va anglanmagan (yaqin munosabatlar uzilgandan keyingi inqirozning qanchalik chuqurlashishi) kabi ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ular ajralishning sabablarini anglab yetishlari, kerakli xulosalarini chiqarishlari juda ham zarurdir.

Er-xotin o'z munosabatlarini nima uchun va qanday uzganliklaridan qat'iy nazar, ularning ikkoviga ham o'zgargan turmush tarziga moslashishlari zarur bo'ladi. Ajralgan erkaklarga uydagi maishiy qiyinchiliklarni yengish lozim bo'ladi. Agar ajralgandan so'ng farzandlar ona qaramog'ida qolsa, erkaklar yo'qotish hissiyoti bilan ham qayg'urishadi. Ko'pchilik erkaklar, aliment pullarini to'lash uchun qo'shimcha ish olishga majbur bo'lishadi.

Ajralish jarayonida o'z bolalariga vasiylikni olgan ayollar, ayrim hollarda ularning oldingi erlari o'zlarini bolalarga har qanday mas'uliyatdan ozod deb hisoblashlari mumkinligini tushunib yetmaydilar. Ular o'zlari maishiy muammolar va bolalarga mas'uliyat bilan ko'milib yurgan bir paytda oldingi erlari bemalol, o'zlari xohlaganidek yashayotganligidan g'azablanadilar. Lekin ajralgan erkakning hayoti ham juda yengil emas. Ko'pchilik erkaklar oldingi xotinlariga uy va bolalar qolganligi sababli ularga havas qiladilar. Ular ham alam va dushmanlik hislarini boshlaridan kechirishadi.

Ko'pincha insonlar ajralgandan so'ng o'z muhabbatlarini qaytarishga umid qilmaydilar, ularni boshqa narsa - endi qanday yashash kerak va hech qanday umidlarsiz o'zaro do'stlikka moslashish kabi muammolar ko'proq xavotirga soladi. Bunday inson o'zini hayoti ma'nosini yo'qotganday, hamma narsadan mahrum bo'lgandek va tashlab ketilgandek his qiladi.

Insonlarda sevgan kishisi tomonidan tashlab ketilganlikni his qilinishi, ko'pchilik hollarda hayotini ma'nosini yo'qolishiga, qiziqarsiz, zerikarli va umuman hech kimga kerak emasdek tuyulishi holatlariga olib keladi. Bunday insonlarga hammaning o'z jufti bor, yolg'izlarni esa hech kim yoqtirmaydi, ularni xavfli raqib deb hisoblashadi degan fikr va o'ylar qamrab oladi.

Munosabatlarni uzish va tugallash jarayonlari odatda, insonlarga ishonmaslikning oshib borishi orqali, ko'ngil qolishi bilan kuzatib boriladi.

Ko'pincha tashlab ketilgan inson avvalgi juftligi o'zini qanday yomon tutganligi, munosabatlari davomida salbiy holatlar ko'plab yuz berganligi va natijada u yana icha boshlaganligi, ishda ko'ngilsizliklar ko'plab yuz berayotganligi haqida so'zlaydi.

Ajrashganlarning azob tortishi, boshqa narsalarga qaraganda, ular nimalarni boshidan kechirishga majbur bo'lganligi, ayovsiz kamsitish natijasida ularning ko'ngli qolganligini his qilishadi. Sevgan kishisini ketishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotish va o'kinch hislari, ko'pchilik hollarda insonni hech kimni ko'rgisi kelmasligiga, yolg'izlanishiga olib keladi.

Ajralishdan keyingi bir yil davomida ajrashganlarda turli kasalliklarga chalinish 30 foizga ortadi. Ajrashganlar ko'proq bosh og'rigi, teri kasalliklari va boshqa kasalliklar to'g'risida arz qilishadi. A.Rozenfeld kuzatishlariga ko'ra ular psixiatrlar qabuliga 6 marta ko'proq tashrif buyurishadi.

Ruhii kasalliklar ajrashgan erkaklarda, oilali erkaklarga nisbatan - 5,9 marta, ajrashgan ayollarda, oilasi bilan yashayotgan ayollarga nisbatan - 2,8 marta ko'proq uchraydi.

Ajralishga ko'pincha ayollarni ezilishi, qiynalishi deb qarashadi. Lekin erkaklar ayollarga nisbatan ajralishni og'irroq va qiyinroq o'tkazishadi. Masalan, ajralgan erkaklar, ajrashgan ayollarga nisbatan ruhiy kasalliklar bilan 3,13 marta ko'proq kasallanadi. Ajralishdan so'ng o'z joniga qasd qilgan erkaklar soni ham ayollarnikiga nisbatan bir necha martaga ko'proq.

Ajralishdan keyingi sobiq er-xotinlarga eski do'stlari va aloqalaridan voz kechish oson bo'lmaydi. Eski aloqalari sirasiga albatta, qaynota va qaynona, buvi va buva hamda boshqa qarindoshlar kiradi. Albatta o'tgan davrlar soyasi juda ham yashovchan bo'ladi va ular bilan birga yashashga o'rganish lozimdir.

Agar ota va bola o'rtasida ko'p aniqlanmagan narsalar mavjud bo'lsa, ushbu holat bolada to'liq bo'lmagan qoniqishlarni, har-xil savollarni, rashk va boshqalarni tug'diradi. Ko'pchilik bolalar, yangi otalari bilan muloqot qilmaydilar, chunki ular va ularning yangi oilalari katta bolalarini oilasiga qanday kiritishga tayyor emas va buni qanday amalga oshirishni bilmaydilar ham. Avvalgi xotinga bolalari o'z

otasining yangi oilasiga borishiga ko'nikishi ham juda qiyin bo'ladi, hamda u o'z bolalarini boshqa ayol bilan bo'lishni xohlamaydi.

Agar avvalgi er-xotinlik, ayniqsa onaga, omadsiz bo'lgan bo'lsa, u o'z bolalarini og'riq va xafagarchilik timsoli sifatida qabul qilishi mumkin. Ko'pchilik ota-onalarga, ular ajrashishilari bilan o'z bolalarini kelajakdan mahrum etayotganlaridek tuyuladi.

Ayolni o'z bolalari bilan tushunmovchiligi yuzaga kelsa, u avvalgi qiyin damlarni esga oladi. Agar onaga «bolalar qo'ldan chiqib ketayotgandek» tuyulsa vaziyat yanada og'irlashishi mumkin.

Agar kattalar uchun ajralish - og'riqli, yoqimsiz, og'ir iztirob hisoblansa, bola uchun ota-onasining ajralishi - muhit makonining buzilishidir. Ajralayotganlar butkul depressiya holatidan uzoq muddat kutilgan erkinlikni hayolan his qilishadi. Bolalar esa bo'lib o'tayotgan hodisalarni kattalar reaksiyasiga qarab qabul qilishadi. Agar, ona bo'lib o'tayotgan narsalarni og'ir musibat deb qabul qilsa, o'z navbatida bola ham o'zini shunday his qiladi. Shundan kelib chiqib, psixolog-konsultant Y.YE. Alyoshina fikricha, ota-onalar o'z bolalariga bo'lib o'tayotgan hodisalarni salbiy tomonini ko'rsatmasliklari lozim.

Ajralish sababli kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar bolalarni yoshiga juda ham bog'liq bo'ladi. Agar bolalar hali yosh bo'lsa (2-3 yoshdan katta bo'lmasa) ularga avvalgi hayot, katta bolalarga qaraganda, kuchli ta'sir qilmasligi mumkin. 3,5-6 yoshli bolalar ota onalarini ajrashishini juda ham og'ir qabul qilishadi, ular yuz berayotgan hodisalarning barchasini tushunishga qodir emas va ayrim hollarda bularning hammasida o'zlarini ayblashadi. Ota-onasi ajrashgan 6-10 yoshdagi bola ularga g'azab, agressiya va uzoq muddat o'tib ketmaydigan xafalikni his qilishi mumkin. 10-11 yoshdagi bolalarda ayrim hollarda tashlab ketilganlik hissi va butun dunyoga nisbatan g'azab paydo bo'ladi. Agar bolalar ulg'aygan bo'lsa, ota-onalarining ajrashishi ularga unchalik kuchli ta'sir qilmasligi mumkin.

Bola uni hali ham ikkala ota onasi yaxshi ko'rishiga iqror bo'lishi lozim. Bola o'zini shaxs sifatida his qilishi uchun imkoniyat yaratish hamda o'zaro ishonch va muhabbat rivojlanishi uchun sharoit yaratish lozim.

Shunday qilib, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilalarni ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoat-chilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:**

1. S.Kraxotvil ajrim jarayonining qanday bosqichlarini ajratib ko'rsatadi?
2. Ajralishning asosiy sabablari nimalardan iborat?
3. Erkak va ayollarning ajralish motivlari. Ulardagi o'xshashlik va farqi
4. Xozirgi zamon va ana'anaviy oilalarda ajralishning sabab va oqibatlarida farq bormi?
5. O'zbek oilalarida oilaviy munosabatlarni uzish asosan kimning tashabbusi bilan amalga oshiriladi?
6. Ajralishning yuridik va psixologik shakllari nimalari bilan farqlanadi?

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. «Nizo–tomonlarning qarama–qarshiligi bo'lib, u o'zini tomon-larning faolligida namoyon qiladi». Ushbu fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?
  - a) 2 bosqichga
  - b) 3 bosqichga
  - c) 4 bosqichga
  - d) 5 bosqichga
2. S.Kraxotvil ajrim jarayonini necha bosqichga ajratgan?
  - a) 2 bosqichga
  - b) 3 bosqichga
  - c) 4 bosqichga

- d) 5 bosqichga
3. Ajralishni qaysi boqichida ajralishni xohlamagan tomon mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmaganini maqullash fikriga keladi?
- a) Boyniga olish bosqichida;
  - b) Bosh ko'tarish bosqichida;
  - c) Tushkunlikka tushish bosqichi;
  - d) Bosh ko'tarish, tushkunlikka tushish bosqichi
4. Ajralish boyicha qaysi o'zbek psixologi tadqiqot olib borgan?
- a) Faxriddin Ro'ziqulov;
  - b) Baxriddin Umarov;
  - c) Nurmat.Sog'inov;
  - d) Ergash G'oziyev

#### Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

**“Klaster” texnologiyasidan foydalangan holda ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini aniqlang.**



FSMU texnologiyasi asosida quyidagi fikrni tahlil qiling: nima uchun bugungi kunda nikoh ajrimlari ko'payib bormoqda?

### FSMU TEXNOLOGIYASI

- F – fikringizni bayon eting;  
S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;  
M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring;  
U – fikringizni umumlashtiring.

NIMA UCHUN  
BUGUNGI KUNDA  
NIKOH AJRIMLARI  
KO'PAYIB  
BORMOQDA?

*T-jadval asosida ajralishning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsating.*

<b><i>Salbiy oqibatlari</i></b>	<b><i>Ijobiy jihatlari</i></b>

*Quyidagi fikrni tahlil qiling.*

АЁЛЛАР УЧУН:  
АЖРАЛИШ=  
ОЗОДЛИК + БОЛА+  
АЛИМЕНТ+ УЙ +  
ЁЛГИЗ ОНАЛАРГА  
БЕРИЛАДИГАН  
ИМТИЁЗЛАР+ ЯНГИ  
ОИЛА ҚУРИШ  
МУАММОСИ



ЭРКАКЛАР УЧУН:  
АЖРАЛИШ =  
ОЗОДЛИК+  
БОЛА+АЛИМЕНТ УЙ +  
ЯНГИ ОИЛА ҚУРИШ  
ИМКОНИЯТИ

## XI BOB. OTA-ONA – BOLA MUNOSABATLARI PSIXOLOGIYASI

### *Reja:*

1. “Ota - ona – bola” munosabatlari тизими
2. Reproktiv xulq psixologiyasi
3. Onalik xulq-atvorining shakllanishi
4. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari
5. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

*Tayanch iboralar: nikoh, oila, munosaban, ota – ona, ota-onalik pozitsiyasi, ota-onalik ustanovkasi, tarbiya shakllari, onalik deprivatsiyasi, depressiya.*

### **11.1. “Ota - ona – bola” munosabatlari тизими**

Oila va nikohning paydo bo‘lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug‘ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o‘ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Tarix shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g‘amxo‘rlik ko‘rsatishgacha bo‘lgan munosabatlarga aylangan. Ota-ona - bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo‘ladigan bo‘lsak, ota- onaning bolaga yondoshuv usullari bo‘yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko‘rish mumkin.

Olimlarning tavsiflashicha, antik davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug‘ilsa, unga deyarli befarq qarash, ya'ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo‘lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli bo‘lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o‘zgargan, odam zotida egoizm, o‘ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o‘zidan bo‘lgan zurriyodga nisbatan munosabatlarda ham o‘z aksini topgan.

Mulkchilik shakllarining o‘zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand

kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o'zgarib borgan. Masalan, XIX asrning o'rtalari XX asrlarning boshlariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab- quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bo'lgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g'amxo'rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar (aksariyat Yevropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog'atga etgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balog'atga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-ona farzandlarini tug'ish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni ham bilmagan ota-ona bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolalardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar.

Oilada farzand tug'ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo'lgan. Lekin ayrim G'arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproduktiv huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o'ta dolzarb masaladir. Rus olimi *S.P.Kapitsaning* pessimistik bashoratiga ko'ra, Rossiyada 1995-2025 yillar oralig'ida tug'ilishning kamayishi 2 mln.dan (optimistik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995 yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. Shuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholishunoslik jamg'armalari (jumladan, YuNFPA, YuNISEF) oilada sog'lom bola tug'ilishi siyosati orqali Yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e'tibor berib, konkret tadqiqotlar o'tkazmoqda. Bunday asosiy muammo - onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog'lom zurriyod tug'ilishini kafolatlashdir.

### **11.2. Reproductiv xulq psixologiyasi**

**Reproduktiv xulq** - bu oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq xulqdir. U oila a'zolarini o'z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog'liq bo'lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o'zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo'lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. Shundan *A.Antonov*, ayni davrda odamlar o'z reproduktiv vazifalarini ado etmayaptilar, deb xulosa qiladi. Ko'pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagi faoliyat motivlari ta'sirida so'nib bormoqda, avvalo bu harakat oilada sodir bo'lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishiday tasavvur etiladi va ayolning bola tug'ib berish orqali o'zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o'zgartirish, unga ta'sir (tazyiq) ko'rsatish, ustidan hukmron bo'lish, kimnidir sevish va unga g'amxo'rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. Tadqiqot natijalaridan so'nggi 60 yildan ziyod vaqt oralig'ida ayollarning ertaroq turmush qurishi, reproduktiv funksiyalarning yomon bajarilishi, ya'ni ushbu davrning

qisqarib borayotganligi, onalik davrining ham kamligi, erta yoki o'ta kech ona bo'lish holatlarining kuzatilayotganligi ayon bo'ldi. Demak, reproduktiv xulqning asosiy parametrlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmog'qa.

Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir. Lekin bizda xotin-qizlarning reproduktiv madaniyati va ustanovkalari Yevropa mamlakatlaridagidan farq qiladi.

Reproduktiv madaniyat oshgani sari real va ideal ustanovkalarda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Muhimi - yurtdoshlarimiz bugungi kunga kelib, oilada farzandning borligi uning mustahkamligi omili ekanligini chuqur anglagan holda, sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bola uning baxt-saodati ekanligini to'la anglaydilar. Shu bois ham olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faollashib borayotgan o'rni ularning reproduktiv xulqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Psixologiya fanida ishlatiladigan "perinatal" tushunchasi bilan tibbiyotda ishlatiladigan tushuncha o'rtasida muayyan farq bor. Tibbiyotda perinatal davr o'z ichiga homilaning ona qornidagi 28 haftalik taraqqiyot davri bilan bola tug'ilgandan keyingi 7-10 kunlik davr oralig'ini nazarda tutadi. Perinatal psixologiyada esa homila paydo bo'lgan davrdan toki chaqaloqning ona bilan birgalikda, emotsional bog'liqlikda kechadigan yaxlit davrigacha bo'lgan vaqt nazarda tutiladi. Psixologiya uchun bolaning er va xotin qo'shilishi natijasida qanday konstruktiv yoki destruktiv motivlar asosida paydo bo'lishi ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, ayolning homiladorlik davridagi his-kechinmalari, bolaning qanchalik kutishi kabi psixologik omillar keyinchalik u bilan amalga oshiriladigan psixoterapevtik ishlarda amaliy ahamiyat kasb etadi. *I.V.Dobryakov* homilador ayollarning shu davr mobaynidagi psixologik kechinmalarining shakllarini shunday tafovutlaydi:

- *optimal tip;*
- *gipogestagnozik tip,* ya'ni, turli sabablarga ko'ra, homilador ayol va uni o'rab turganlarning uning holatiga e'tibori kamligi ko'rinishida (masalan, talaba bo'lgan homilador ayol o'qishi tashvishlari bilan

homilasiga yetarli vaqt ajratib e'tibor berolmaydi);

- *eyforik tip*, ya'ni homilador ayolning yangi holatidan o'ta lazzatlanishi, butun vujudi bilan "maza" qilishi holati;
- *xavotirli tip*;
- *depressiv tip*.

Ayolning homiladorlik davrini qanday boshidan kechirishi uning ona bo'lganidan keyingi xulq-atvorini belgilaydi. Tug'ish bilan bog'liq tashvishlar psixoanalitik yo'l bilan *O.Rank* va *S.Grofflar* tomonidan batafsil o'rganilgan. Tug'ruqdan keyingi davr esa yana psixologik jihatdan alohida davr bo'lib, u ikkala tomonning farzand tug'ilishiga bo'lgan hissiy munosabati xarakteridan kelib chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi va qadrlanadi. Lekin masalaning muhim jihati shundaki, nikohga kirishning eng dolzarb motivi farzand ko'rish bo'lgani sababli, aksariyat oilalarda ayolning perenatal davrida unga alohida mehr ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish ham milliy an'analarimizga aylangan.

Ota-onalar pozitsiyasining psixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi - bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrlil munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi.

Bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissan va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo'shilib ketganlik, yaxlitlik) bo'ladi. Bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distansiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi.

Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rlikiga bevosita bog'liq. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday g'amxo'r va mehribon inson unga ona o'mini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rliqi, ya'ni, mehribon insonning - "ob'ekt"ning doimiyliqi bola

rivojlanishi uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to‘lguncha bo‘lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o‘zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo‘ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo‘ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan bog‘liq belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say‘i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Agar ota va ona tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik doimiy va samimiylik kasb etsa, bu *E.Erikson* ta‘biri bilan aytganda, “mutloq ishonch” (bazalnoe doverie)ga asos bo‘ladi. Ya‘ni, haqiqiy, g‘amxo‘r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o‘sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa - ko‘krak suti, peshob qistaganda, to‘sh kabi ishlarni o‘z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o‘z vaqtida mehr ko‘rsatishi ba‘zan intuitiv tarzda kechsa, ba‘zan ona o‘zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya‘ni, o‘zini uning o‘rniga qo‘yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo‘ladi, “vujudi bilan his etadi”. Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to‘g‘ri chiqadi. Lekin ba‘zan pediater yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o‘zining intuitiv qarorlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini anglab qoladi.

Tan-vujud bilan ona va bolaning yaxlitligi o‘ziga xos hissiyot bo‘lib, u ko‘pincha “xolding” (inglizcha “*tutish*”, “*ushlash*” so‘zidan olingan) tajribasidan kelib chiqadi. Ya‘ni, ona o‘z bolasini qo‘lida ushlab, badani badaniga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi o‘zgarishlarni tuyadi, his qiladi. Olim *Vinnikotning* fikricha, “xolding” tajribasi yaxshi bo‘lmagan onalarning shaxsiy muammolari ko‘p bo‘lib, ular bolani qo‘lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik ixtiyoriy psixik funksiyalar rivojida muayyan muammolar bo‘lishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to‘plash, ixtiyor holda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash va shunga o‘xshash.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bog‘liq psixik funksiyalar ko‘pincha

*sinxronizatsiya* jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan ona odatda farzandining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi. Masalan, bolada ba'zan shunday holat bo'ladi, unda onaga bola bilan faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish noqulay bo'ladi, go'dak injiqlik qilib, hech narsaga ko'nmay qoladi, buni sezgan ona bolaga gapiravermay, jimgina toza havoda sayr qildiraversa, ma'lum vaqt o'tgach, farzandidagi charchoq yoki boshqa sababli paydo bo'lgan holat o'tib ketadi, u yana jonlanib, onaga talpinadi, u bilan muloqotni davom ettiradi. Shuni inobatga olmagan holatlarda kommunikativ omadsizlik (*Vinnikott*) sodir bo'ladi, buning oqibatlari psixologiyada yaxshi o'rganilgan.

Boladagi kognitiv rivojlanish, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir etadi. Ingliz olimlarining kuzatishlarida (*U.R.Bion*) onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon bo'ladi. Video tasmlarda shu narsa namoyon bo'lganki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so'zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o'rganadi.

Olamni ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan yana biri - bu hissiy-emotsional bog'langanlikdir. Ingliz psixiatri *Jon Boulbi* tomonidan ishlab chiqilgan, turli hayotiy vaziyatlarda ona-bola munosabatlarida *M.Eynsvort* degan olima tomonidan tekshirilgan emotsional *bog'langanlik nazariyasi* odatda yetti oylikdan keyingi bolaning onaga juda bog'lanib qolishi va shu orqali bola uchun muhim psixologik rivojlanishlar ro'y berishini isbotlagan. Masalan, 12 oylikdan 18 oylikkagacha bo'lgan bolaning onasidan 3 minutga ayirib turib qayd etilgan xulqiga qarab, olimlar hissiy bog'langanlikning 4 xil shaklini ajratishgan:<sup>1</sup>

- *Ishonchli bog'liqlik*. Bola bunday sharoitda onasini ishonch bilan qidiradi,

---

<sup>1</sup> *Калмыкова Е. С., Падун М.А. Ранняя привязанность и ее влияние на устойчивость к психической травме: Постановка проблемы (Сообщ. 1) // Психологический журнал. - Т. 23. - М.: 2002. - № 5. - С.*

atrofni o'rganadi; ketib qolganini seza boshlagach, tushkunlikka tushadi, xafa bo'ladi, onasi qaytgach, uni zo'r xursandchilik bilan kulib kutib oladi, onasiga talpinadi;

- *Chetlashuvchi bog'liqlik.* Onasi ketib qolganligini bilgach, atrofga qaraydi, qidiradi, lekin ona qaytgach, unga talpinishi minimal bo'lib, hattoki, teskari qarab ham oladi, o'yinchoqlarini o'ynashda davom etaveradi;
- *Avbivalent bog'liqlik.* Onasi ketgach, go'yoki qotib qolganday depressiyaga tushadi, o'ynamaydi ham atrofga qaramaydi ham; onasi qaytgach, onasiga talpinmaydi ham, undan qochmaydi ham. Uning xafaligini ham, xursand ekanligini ham anglash qiyin bo'ladi;
- *Tartibsiz bog'liqlik.* Bolada onaga nisbatan bog'liqlikni kuzatish qiyin, go'yoki bolaga barcha narsa befarqday, qiliqlarda mantiqni kuzatish mushkul.

*R.J.Muxamedraximov* o'z tadqiqotlarida "xavfsiz bog'liqlik" atamasini ishlatadi. Bunda ona-bola munosabatlari juda tekis, ravon, bir-biriga monand, samimiy kechadi. Oila muhitida, yaxshi ijobiy munosabatlar doirasida kechgan bog'liklik bilan ota-onasiz o'sgan yetimxonadagi bolalardagi bog'liqlik o'rganilganda, ayni xavfsiz bog'liqlik borasida ular o'rtasida katta tafovut borligi isbotlangan.<sup>1</sup>

Shunday qilib, onaning bolani normal psixik taraqqiyotida roli ulkan. Bu ta'sir bolaning chaqaloqlikdan keyingi davrlarida ham o'z kuchini saqlab qoladi.

### **11.3. Onalik xulq-atvorining shakllanishi**

Qiz bolaning o'z onasi bilan yoshligidan boshidan kechirgan muloqot tajribasini, oilasida onaga va onalikka munosabat xususiyatlarini, o'z oilasida kichkina bolalar bilan muloqot tajribasi borligini inobatga oladi<sup>2</sup>. Bu jarayonda qizchanning ona tomonidan qanday tarbiyalanganligidan tashqari, muayyan madaniy manbalar bilan tanishligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, onasidan qanday ertaklar eshitgani yoki qanday o'yinchoqlar o'ynagani bevosita uning kelajakda

<sup>1</sup>Авдеева Н.Н., Хаймовская Н.А. Зависимость типа привязанности ребенка к взрослому от особенностей их взаимодействия (в семье и в Доме ребенка) // Психологический журнал. - М.: 1999. - Т. 20. - № 1. - С.

<sup>2</sup>Филлипова Г.Г. Материнство: Сравнительно-психологический подход // Психологический журнал. - М.: 1999. - Т. 20. - № 5. - С.

qanday ona bo'lishiga ta'sir etadi. Xususan, yoshligidan mehribon ona haqida eshitganlarini, ertak holida bo'lsa ham yovuz kampirlar, yalmog'iz ayollar, o'gay onalar haqida eshitganlari bilan to'g'ri solishtirish tajribasi bor qiz o'zining istiqboldagi harakatining yo'nalishini belgilab olishi mumkin. Yoki qo'g'irchoqlarni erkalatishi, onasiday g'amxo'rlik qilishi ham ijobiy tajriba, lekin ming afsuski, hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan "Barbi" kabi qo'g'irchoqlar qizchalarda onalikni emas, ko'proq ayollik fazilatlarini, oliftachilikni tarbiyalaydi. Zamonaviy ertaklarning ayrimlarida ham tarbiyaga zid keladigan syujetlar ko'p. O'zbeklar suyib ko'radigan multfilmlar, masalan, "Zumrad va Qimmat" ertaklarini ham agar ona to'g'ri sharhlamasa, bola ongida noto'g'ri tasavvurlar shakllanib qolishi, o'gay onaning albatta johil, otaning hamisha bo'ysunuvchanligi to'g'risidagi chalkash tushunchalar paydo bo'lishi mumkin.

*Onadagi tug'ruqdan keying depressiya* - bu chaqaloq tug'ilgandan keyinoq ayrim onalarda paydo bo'ladigan ruhiy holat. Bu o'ziga xos xastalik bo'lib, uning oldini olish uchun ko'p harakatlar qilinmoqda, chunki bunda ham psixologik omillarning roli katta. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, agar oilada er-xotin munosabatlari yaxshi bo'lmasa, otaning bolaga e'tibori yetarli bo'lmagan vaziyatlarda, onaga amaliy hamda moliyaviy ko'mak berish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, shu kabi qiyinchiliklar onada depressiyani hosil qiladi (*Rodrigues va boshqalar*, 2003).

*Onalik deprivatsiyasi*. Onalik deprivatsiyasi *ochiq* (agar ona o'z onalik burchini bajarmay, boladan ayrilgan bo'lsa) va *yashirin* (boladan yashirin voz kechish, uni yoqtirmaslik yoki biror sabab tufayli bolaga yaqin kela olmaslik holatlarida) bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola taraqqiyoti uchun nihoyatda salbiy, xavfli vaziyat yuzaga keladiki, ayrim hollarda bola hattoki, nobud ham bo'ladi. Masalan, chaqaloq tug'ilgach, xasta bo'lgani uchun uning uzoq vaqt mobaynida kasalxonada qolishi ham onalik deprivatsiyasiga sabab bo'ladi. Bu orada unda onalik mehri uyg'onmaydi, u yangi chaqaloqqa befarq bo'lib qoladi. Buning oqibatlari qanchalik og'ir bo'lishi onaning yoshiga va ayriliqning muddatiga bog'liq. Agar shunga o'xshash holatni boshidan kechigan ona juda yosh bo'lsa, unda

bolaning psixik taraqqiyotida jiddiy asoratlar qoladi, u o'z xulq-atvorini nazorat qila olmaydigan, jizzaki, odamovi, jinoyatga, hattoki, o'z joniga qasd qilishga ham moyilligi yuqori bo'lib voyaga etadi.

Ona bolaning yonida bo'la turib, undan yashirin tarzda voz kechgan holatda ham bolada nevroitik xususiyatlar rivojlanadi, ayniqsa, bola shaxslararo munosabatlarda no'noq, urushqoq bo'lib, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, ijtimoiylashuv jarayoni nihoyatda murakkab kechadi. Ko'rib turganimizdek, onaning bolaga psixologik yaqinligi uning istiqbolini, shakllanajak ijobiy fazilatleri, jamiyatdagi o'rni va nufuzini belgilovchi muhim omildir.

*Otalik psixologiyasi* onalik psixologiyasiga nisbatan kam o'rganilgan soha. Otalar xulqini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular ham g'amxo'rlik va samimiylik jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo'lsa, ulardan ham mehribon bo'lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo'lgani uchun, ular o'rtasidagi farqni chaqaloq deyarli his etmaydi. Bir yoshga to'lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o'zaro munosabatlar triada shakliga o'tadi. Otasi va onasining o'zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil, distansion munosabatlarning ma'nosini tushuna boradi.

*Godfruaning* olgan natijalariga ko'ra, bir yoshlik bola otasi bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni qadrlaydigan, xohlaydigan bo'lib boradi. Onaning munosabatlaridan farqli, ota bolasining jinsiga qarab o'ziga xos munosabatni o'rnatadi; o'g'il bolaga erkaklarcha, qiz bolaga boshqacha. Shu tariqa bolaning o'z jinsini anglashi, gender tafovutlar to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Umuman, oilada otaning bo'lishi bolaning ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Buni bizning kuzatishlarimiz ham tasdiqlagan. Otaning mehri qiz bola uchun ham shu qadar muhimki, u ota-ona munosabatlarini hayoti mobaynida kuzatib borib, kelajakda o'z turmush o'rtog'iga qanday munosabatda bo'lish lozim, degan savolga javob topadi. Ona xulqiga qarab esa, turmush o'rtog'i bilan baxtiyor yashash uchun ayol qanday bo'lishi kerak, degan savolning mag'zini chaqadi. Shuning uchun ham qiz bola uchun ham, o'g'il bola uchun ham oilaning butligi, ota-on

munosabatlarining iliq, samimiy, gumanistik bo'lishi katta hayotiy ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning bolaga bo'lgan emotsional munosabati quyidagi variantlarga bo'linadi:

1. Shartsiz emotsional qabul qilish-hech narsaga qaramay farzandni yaxshi ko'rish;
2. Shartli emotsional qabul qilish- bolani xulq-atvori, yutuqlariga qarab yaxshi ko'rish;
3. Ambivalent emotsional munosabat - bolaga nisbatan ijobiy va salbiy munosabatlarning qo'shilib ketgani. Masalan: muhabbat va nafrat;
4. Indifferent munosabat-befarqlik, sovuqqonlik, masofa saqlash, past empatiya;
5. Emotsional inkor etish.

#### 11.4. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari

Oila, undagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin va ota-ona hamda bolalar munosabatlari ko'plab tadqiqotlarning ob'ekti va predmeti bo'lgan.

Xususan, ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan (*A.E.Lichko? A.A.Bodalev, A.A.Stolin, E.G.Eydemiller, V.V.Yustiskiy*). Ota-onalikning eng muhim sifatlariga avvalo - *proteksiya* yoki farzandlarini tarbiyalash uchun sarflanadigan kuch, vaqt va e'tiborning mezoni, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog'liq talablar darajasi, ta'qiqlovlar yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanksiyalar tizimi kiradi.

*Giperproteksiya* - ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo'ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.

*Giperproteksiya* - ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka

qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda o‘zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo‘q, ko‘pchilikning ichida o‘zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o‘zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo‘lib qoladi. Ayniqsa, bola o‘smirlik yoshiga yetganida, erka, tantiq bo‘lgani uchun do‘stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo‘lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo‘lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o‘z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro‘yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo‘ladi, lekin bola ko‘p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

*G‘amxo‘rlikdan ustun keladigan giperproteksiya* - bunda erkalatishdan ko‘ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e‘tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta‘qiqlar, chegaralashlar (“u mumkin emas”, “bu mumkin emas” qabilida) bisyor bo‘ladi. Bunday sharoitda katta bo‘lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo‘lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko‘p narsalardan norozi holda katta bo‘ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarining hamma yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatib, aytib berishlariga o‘rganib qoladi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko‘chaga chiqmaydigan bo‘ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko‘nikib ketadi.

*O‘ta kuchli axloqiy mas‘uliyat* - bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo‘ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e‘tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o‘ylab, uning yurish-turishi uchun o‘zlarini mas‘ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba‘zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, “sen to‘ng‘ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak”, degan ma‘noda unga oiladagi kichik a‘zolarga yoki kasallikka chalingan oila a‘zosini

parvarish qilish kabi mas'uliyatli va og'ir ishlar ham yuklanadi.

*Emotsional raddiya* - bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqacha bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyuqliroq inson bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'lmaganingda..yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'ringda o'g'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatliqlar tez-tez aytib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emotsional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi, kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

*Qattiqqo'llik* - bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi.

*A.Freyd* nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni

shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim *S.D.Sherris* (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqoʻlliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy taʼsirini oʻrganib, ularning xarakterida roʻy beradigan oʻzgarishlarga toʻxtalib oʻtgan. Jismoniy jihatdan bolaga zugʻum qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni boʻlgan, lekin farzand koʻrgan ayollarning aksariyati achchigʻini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy koʻnikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar taʼsirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yoʻqlar, ish qidirib boshqa yerlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambagʻallar) oʻz ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, tugʻilgan bolasidan oʻch ola boshlaydi.

Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan oʻch olish ehtimoli shuncha yuqori boʻlishini olimlar oʻrganishgan. Shunisi xarakterliki, bolasini tez-tez doʻpposlaydigan ota-ona ayrim holatlarga unga qattiqqoʻlliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, koʻmak berishga chaqiradi. Masalan, topganini oʻzi koʻchada yeb, alkogolga almashtirib kelib, achchigʻini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, ayrim holatlarda 2 yoshdan oʻtgan bolaga nisbatan jazo choralari koʻrilganligini OAVda aks ettirilgan.

**Gipoproteksiya** - shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shugʻullanishga yo vaqti etishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qoʻyadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiriga befarq boʻladi, gʻamxoʻrlik koʻrsatmaydi, bolasining kelajagiga qaygʻurmaydi. Gipoproteksiyaning yashirin shaklida ota-ona bola ustidan nomiga nimalardir qilganday boʻladi. Lekin aslida ularni faqat oʻzlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, oʻzining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Tashlab qoʻyilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar - odatda yoshligidan na

moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to'y maganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo'qligidan turli jinoyat yo'llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehning yo'qligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o'sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo'llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyohvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo'ladi. "Mehr tayanchi" markazi Toshkent shahrida aynan shunday bolalar toifasini to'g'ri hayotga qaytaradigan, gipoproteksiyaning qurbonlarini oilaviy muhiti sharoitini o'rganganidan so'ng ota-onasini chaqirtirib kelib, ular bilan pedagogik- korreksion, psixologik uslublarda ishlaydigan muassasa hisoblanadi. Markazdagi bolalarning barchasi oiladagi noto'g'ri tarbiyaning qurbonlaridir.

*Gipoproteksiyaning ham haddan ziyod shakli* borki, unda bola ota-ona nazoratidan ataylab tashlab qoldirilgani sababli, uning noto'g'ri yo'llarga kirib ketayotganligiga ham kattalar befarq bo'ladilar. *A.E.Lichko, A.A.Vdovichenkolarning* Rossiyada o'tkazgan tadqiqotlarida yomon yo'lga kirib ketgan, voyaga yetmagan jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy xatoliklar aniqlangan. Ular bolasining noto'g'ri xatti-harakatini oqlamoqchi ham bo'ladi, yoki aybni boshqalarga, masalan, ko'cha bolalariga, maktabdagi intizomsizlikka, o'qituvchilarning befarqligiga to'nkamoqchi bo'ladi, faqat o'zlarining aybini sezmaydi yoki tan olmaydi.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli - *ziddiyatli tarbiya*. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini - "hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini *E.Eydemiller, V.Yustiskiy, N.Lengardlar* o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu - bolalikka xos

sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

### 11.5. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

Bolaning kelajagi, uning shaxs bo'lib kamol topishi ko'p jihatdan ota-ona oilasi, u to'g'rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog'liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o'rganilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o'z oilasi to'g'risidagi tasavvurlari ko'pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-ona o'z farzandi uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo'lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo'ladi. Mehribon ota-ona og'ushida ayrim bolalar o'zlarini baribir yolg'iz, kemtik, kamsitilgan his etadi.

*G.T.Xomentskas* oilada ota-ona xulq-atvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko'rinishlarini tahlil qilgan:

- Ota-ona va bola munosabatlari **demokratik** tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o'zi va ota-onasi to'g'risida quyidagicha tasavvur shakllanadi: "Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman". Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o'z-o'zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o'ziga ishonch, xatoliklardan cho'chimaslik, ayb ish qilib qo'yganda ham unchalik qayg'urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko'mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o'rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

- Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (**giperproteksiya**), e'tibor ko'rsatilgan oilada bola "Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi", degan tasavvur mavjud bo'ladi. Bunday oilada bolalar o'zining borligidan, tug'ilganligidan mag'rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday

tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug'ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo'ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo'lib ulg'ayadi, ota-onasining nochorligi to'g'risidagi tasavvur o'zining ko'p narsalarga qodirligi bilan uyg'unlashadi. Tantiq bolada o'zi to'g'risida go'yoki o'ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo'ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko'taradi.

- Yuqoridagi holatning aksi, ya'ni, bolaga nisbatan *e'tiborsizlik*, *mehrsizlik* bo'lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo'ladi: "Meni yoqtirishmaydi, lekin men o'zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak". "Men yaxshi bola emasman", degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi, o'zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko'p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo'yishdan cho'chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o'xshash. Bunday oilada ma'naviy muhit yaxshi bo'lmaganligi sababli bola salga yig'laydigan, "qo'rqan oldin musht ko'taradi", deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo'yib, o'zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo'ladi. Aslida bola o'zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

- Ota-ona *mehriga to'ymagan*, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o'tadi: "Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman". Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo'ladigan muloqotlar og'ir botadigan bo'lib boradi. Qasoskor bola ko'pincha ota-ona talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo'lmaydigan qaysar va ko'pincha jinoyat yo'liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

- Ba'zan ota-ona mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: "Meni sevimmaydi, kerak emasman, meni tinch qo'yinglar", degan ma'noda bola

o'z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og'ir bo'lib, bola o'zini yolg'izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o'smirlar o'rtasida sodir bo'ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib chiqadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari**

1. Reproduktiv xulq nima?
2. I.V.Dobryakov homilador ayollarning psixologik kechinmalarining shakllarini qanday tafovutlaydi?
4. Onalik xulq-atvorining shakllanishi qanday omillarga bog'liq?
5. Onadagi tug'ruqdan keyingi depressiya bilan qanday ishlanadi?
6. Onalik deprivatsiyasining sodir bo'lish sabablari?
7. O'talik psixologiyasining o'ziga xos jihatlari nimada?
8. Ota-onalik ustanovkalariga bog'liq qanday tarbiya shakllari mavjud?

### **Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

**1. I.V.Dobryakov boyicha homilador ayolning yangi holatidan o'ta lazzatlanishi, butun vujudi bilan "maza" qilish holati qaysi tipga kiradi?**

- a) eyforik tip
- b) gipogestagnozik tip
- c) depressiv tip
- d) xavotirli tip

**2. Reproduktiv xulq bu - ...**

- a) oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq xulq
- b) oilada o'zaro bir birini qo'llab quvvatlash bilan bog'liq xulq
- c) oilada farzand tarbiyalash bilan bog'liq xulq
- d) o'zligini anglash bilan bog'liq xulq

**3. Gipogestagnozik tip bu - ...**

- a) homilador ayolni o'rab turganlarning uning holatiga e'tiborining kamligi
- b) homiladorlik davrining normal kechishi

- c) homilador ayolning yangi holatidan o'ta lazzatlanishi, butun vujudi bilan "maza" qilish holati
- d) kasallikning homilaga ta'siri

#### **4. Giperproteksiya ta'rif qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo'ladi
- b) erkatatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi
- c) ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi
- d) to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi

#### **5. Emotsional raddiya deganda nimani tushinasiz?**

- a) ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqachi bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi.
- b) ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi
- c) bunda erkatatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi
- d) ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo'ladi

## XII BOB. OILA DIAGNOSTIKASI VA KONSULTATSIYASI

### *Reja:*

1. Oila diagnostikasi xususiyatlari
2. Oila konsultatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari
3. Oila psixoterapeyasi asoslari

*Tayanch iboralar: oila, psixodiagnostika, oila psixodiagnostikasi, oila sotsiogrammasi, oila rasmi metodikasi, oilaviy tashhis, konsultatsiya, oila, oila inqiroz, oila psixokonsultatsiyasi, psixoanalitik, bixevioristik, tizimli yondashuv.*

### **12.1. Oila diagnostikasi xususiyatlari**

Oilaga psixologik va psixiatrik yordam ko'rsatishga tayyorlanishda oila diagnostikasi muhim o'rin tutadi. Zamonaviy oilalarni rivojlanish dinamikasi ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan bir holatda, mavjud oilalarga psixologik yordam ko'rsatish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qonuniyatlarni izlash maqsadida nikoh va oilani o'rganish shaxs va ijtimoiy psixologiyada nihoyatda dolzarb ehtiyojga aylandi.

Oilani o'rganishning maqsadi, avvalombor, oilaviy tashhis qo'yish ma'lum bir oila hayotidagi uning bir yoki bir necha a'zolarida asab yoki ruhiy kasalliklar keltirib chiqaruvchi holatlar (nosozliklar)ni aniqlash, va ikkinchidan, shu kasalliklar oldini olishga yordam beruvchi oila a'zolarining fazilatlarini o'rganishdir (bu fazilatlarga yarasha oilaviy psixoterapiya usulini tanlash va uni o'tkazish mumkin bo'ladi).

Oilaviy munosabatlarni o'rganish quyidagi omillar sababli mushkuldir:

Birinchidan, oilaning ijtimoiy va psixologik tizim sifatida murakkabligi. Oila o'zida oila a'zolari fazilatlariga bog'liq ko'p sonli, turli xil munosabatlar va o'zaro aloqalarni mujassamlashtirgan bo'lib, ularning shakllanishga oiladagi ijtimoiy muhit, urf-odat, ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlar va hokazolar ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, oila muammolarini, uning mohiyati va tuzilishini o'rganishda yagona nuqtai-nazar yo'qligidir. Hozirgi davrgacha oila muammolarini o'rganishda yagona asos bo'lib oladigan umumiy nazariya ishlab chiqilmagan, buning o'rniga

ba'zan bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan ko'plab maktab, oqim va yo'nalishlar mavjuddir.

Uchinchidan, har bir inson o'z shaxsiy oilaviy tajribasiga ega va oilaviy munosabatlarini ko'pincha shu tajribadan kelib chiqqan holda talqin qilishga harakat qiladi.

Va albatta, oilani o'rganish unda bo'layotgan ko'pchilik voqea va hodisalarning sir tutilishi, o'zgaruvchanligi va aniq konturga ega emasligi bilan murakkablashgan.

Oilaning ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolarini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin, bular:

1) umum oilaviy (er-xotin, farzandlar, er-xotinlarning ota-onalari)

muammolar;

2) er-xotin o'rtasidagi muammolar.

O'z navbatida, ularning har ikkalasi o'ziga xos muammolarga ajraladi, ya'ni: rolli oilaviy munosabatlar (vazifalarning taqsimlanishi, oila byudjetini yuritish, bola tarbiyasi va boshqalar), o'zini tutish, nizolar, o'zaro mos kelish, muloqot uslubi, empatiya, oila qurish va ajrashish (oilaning barbod bo'lishi) sabablari va boshqalar.

Amaliyotchi psixologlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan birini oila (er-xotin, ota-onalar va farzandlar) bilan ishlash tashkil etadi. Mazkur faoliyat samarasiz to'laqonli va ishonchli axborot olishga bog'liq bo'ladi. Psixologiyada er-xotinlar o'rtasidagi munosabatni diagnostika qilish uslublari ota-ona va farzandlar diagnostikasiga nisbatan kengroq tadqiq etilgan.

## **12.2. Oila konsultatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari**

Oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning asosiy sohasi - *psixologik maslahat* ishlari har bir oilaning o'ziga xos muammolaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

An'anaviy tarzda psixologik konsultatsiyaning asosiy metodi intervyu hisoblanadi. U terapevtik suhbat bo'lib, u oilani ijtimoiy psixologik qo'llab quvvatlash va unga yordam berishga qaratilgan bo'ladi. Hozirgi kunda amaliyotda psixologik konsultatsiyaning (oilaviy konsultatsiyada ham) turli xil psixoterapevtik

maktablar ishlab chiqqan metod va usullardan keng foydalanilmoqda. Jumladan, dialogli muloqot, xulq-atvor metodlari, psixodramma va rolli modellashtirish, oila tarixi analizi, genogramma va boshqalar.

**Oilaviy konsultatsiyasining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:**


*Farzand kutayotgan oilaga psixologik yordam ko'rsatish.* Farzand kutayotgan oilaga psixologik yordam ko'rsatish asosiy maqsadni - ota va onada ota-onalik pozitsiyasini shakllantirish hamda farzand tug'ilishi munosabati bilan oila tizimini qayta qurishga tayyorgarlik ko'rishni amalga oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qadriyatli-mazmuniy va motivatsiyali darajada ota-ona pozitsiyasini, jumladan ota-ona mas'uliyatini shakllantirish;
- homilaning bachadondagi rivojlanishi, homiladorlikning kechishi va tug'ruq jarayoni, ularning bola va ona uchun psixologik ahamiyati to'g'risida kognitiv xabardorlik darajasini oshirish;
- chaqaloq va kichik yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi masalalarida psixologik-pedagogik bilimlar darajasini oshirish;
- tug'ruq, bolani parvarishlash jarayonlarida funksional va ruhiy holatlarni mustaqil ravishda tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirish;
- er-xotinlik munosabatlarini optimallashtirish, oilaning hayot uslubini rejalashtirishda, bola tug'ilganidan keyin majburiyatlarni taqsimlashda yordam ko'rsatish;
- homiladorlik davrida bola bilan sub'ektiv-yo'naltirilgan hissiy ochiq muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, bola timsolini yaratishda ko'maklashish .

*Er-xotin munosabatlari va xiyonati masalasidagi maslahatlar.* Oiladagi xiyonat oqibatida yoki oila barbod bo'ladi, yoxud er-xotin bir-birini kechirgan holda munosabatlarni saqlab qolishadi. Ba'zi hollarda esa xiyonat bilan bog'liq vaziyat yillar davomida yechim topmay qolib ketadi. Oila barbod bo'lgan holatlarda mijozga

## Oilaviy konsultatsiyaning maqsadi



ko'rsatiladigan psixologik yordamning vazifasi hayotga yangicha qarashni shakllantirishdan, vaziyatning og'riqli oqibatlarini yengib o'tishga ko'maklashishdan, yo'qotishning o'rini qoplashga yordam berishi mumkin bo'lgan

yangi shaxslararo munosabatlarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Er-xotinlik munosabatlari saqlanib qolganda esa maslahat yordami o'z ichiga quyidagilarni oladi: rashq holatini siqib chiqarish va yengib o'tishga yordam, "kechirish hissini" shakllantirish; o'z xatti- harakatlari va affektiv tuyg'ularini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantirish; xiyonat sabablari va o'z xatolarini tahlil qilish; turmush o'rtog'i bilan yangicha munosabatlarni qaror toptirish.

Xiyonat holatini va umr yo'ldoshini beqadr qilish strategiyasi psixologik nokonstruktiv usul hisoblanadi. Muhim faoliyat - ish, o'qish, bola tarbiyasi, qiziqishlarga chalg'ish - garchi vaqtinchalik muammoni unutish, salbiy tuyg'ularning ta'sirini kamaytirish imkonini bersada, umr yo'ldoshi xiyonatini unutishning, uning salbiy oqibatlarini yengib o'tishning aldamchi usuli hisoblandi.

A.N.Volkova turmush o'rtog'i xiyonati bo'yicha quyidagi psixologik maslahat sxemasini taklif etgan:

1. Xiyonat tasvirini shakllantirish:

- raqib(a)ning psixologik tavsifini tuzish, shu orqali turmush o'rtog'i hiyonatining sabablari to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi;
- rashkiy munosabatning "normativ"larga mosligini aniqlash;
- rashk qilish darajasini va ustuvor rashkiy munosabatni, ularning nisbatan konstruktiv shakllarga o'zgarishini aniqlash;
- munosabatlar intensivligini, ularning turmush faoliyatiga va hiyonat natijasiga ta'sirini aniqlash.

2. Turmush o'rtog'i xiyonati ishtirokchilarining, birinchi galda uning "qurboni"ning shaxsiy o'ziga xosliklarini o'rganish.

3. Mijozga rashkni yengib o'tish va imkoni bo'lgan holatlarda nikoh munosabatlarini tiklash borasida psixologik ta'sir ko'rsatish uslublarini tanlash.

*Oiladagi zo'rvonlik muammosi yuzasidan maslahatlar berish.* Oiladagi zo'rvonlik - vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi, umr yo'ldosh ustidan mutlaq nazorat o'rnatish va uni qo'rqitish maqsadida amalga oshiriladigan ko'plab zo'rvonlik turlarini o'z ichiga olgan nizolardir. Oiladagi zo'rvonlik o'z ichiga

jismoniy, iqtisodiy, psixologik va jinsiy ta'sirlarni, zug'umlarni oladi. Zo'rvonlik davriyligi o'z ichiga bosimning ortishi, boshqarib bo'lmaydigan zo'rvonlikning avj olishi, jumladan jismoniy kaltaklash fazalarini, shuningdek muhabbat, tinchlik, o'zaro mehr nizolar va bosimlarning ortishi, boshqacha aytganda birinchi fazaga o'tish bilan almashadigan "asal oyi" fazasini oladi. Oiladagi zo'rvonlik tajovuzkorlik akti sifatida er va xotin, ota-ona va farzandlar, boshqa qarindoshlar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda jabrlanuvchi ayollar va bolalar bo'ladi. Qayd etish kerakki, ayollar kamdan kam hollarda erlariga nisbatan zo'rvonlik holatlarini sodir etganini ko'rishimiz mumkin. Ko'p hollarda tajovuzkor er (goho qarindoshlar ham) farzandlardan ayolga bosim o'tkazish va uni ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirish yoxud amalga oshirmaslikka majburlash vositasi sifatida foydalanishadi. Oila buzilgandan keyin agar bola otasi bilan qolgan bo'lsa, onaning u bilan ko'rishish huquqini boshqarishga urinish bunga misol bo'la oladi. Ona zo'rvonlik ob'ekti bo'lgan oilalarda, aksariyat hollarda bolalarning boshiga ham shu kun tushadi.

Oilaviy maslahat doirasida oiladagi zo'rvonlikning sabablarini tushuntirib beruvchi uchta modelni keltirib o'tish mumkin:

*Ijtimoiy-madaniy model* oiladagi zo'rvonlikni jamiyatda qaror topgan ijtimoiy an'ana va o'ziga xosliklar bilan bog'laydi. Oiladagi zo'rvonlik, odatda ko'chadagi va jamiyatdagi zo'rvonlikning uzviy davomi sifatida bo'y ko'rsatadi, shu bois totalitar jamiyatlarda oiladagi zo'rvonlik darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Erkak mutlaq hokim, hukm chiqaruvchi va jazoni ijro etuvchi bo'lgan patriarxal oila an'analari zamonaviy oilalarda ham ana shunday turmush qoidalarini qayta tiklash uchun zamin yaratadi. Oiladagi hukmronlikni demokratlashtirish va ayolning jamiyatdagi o'rmini o'zgartirish oiladagi yetakchilikning qayta taqsimlanishiga, ba'zi hollarda esa avvalgi munosabatlar tizimi o'zgarishiga keskin qarshilik ko'rsatilishiga hamda buning oqibatida zo'rvonlikka olib keladi.

*Tizimli model* zo'rvonlikni oila va uning kommunikatsiyalari rolli tuzilmasining samarasizligi natijasi deb tushuntiradi, hamda amalda tajovuzkorlik harakatlarini besamar harakatlarga tenglashtiradi va ularni sodir etganlik uchun

javobgarlikni bu harakatlarning har ikkala ishtirokchisiga birdek yuklaydi.

*Psixoanalitik modelda* erning xotiniga nisbatan tajovuzkorligi bolalik yillarida ota-onasi bilan munosabatlaridagi nuqsonlar, narsissizm, frustratsiya, noadekvat himoya, o'ziga past baho, o'ta vahimaga berilish kabilarning namoyon bo'lishi bilan bog'liq deb baholanadi.

#### Oiladagi zo'ravonlik turlari:

•jismoniy zo'ravonlik — kaltaklash, zarbalar, bo'g'ish, kuydirish, qurbonning tibbiy yordam olish imkoniyatini cheklash, majburlab ushlab turish va boshqalar - oiladagi zo'ravonlikning eng ko'p tarqalgan turi (yordam so'rab murojaat qiladigan ayollarning 95 foizi aynan eri tomonidan o'tkazilgan jismoniy zo'ravonlikdan jabr chekkan bo'ladi);

•jinsiy zo'ravonlik — jinsiy bosim o'tkazish, zo'rlash, yoqmaydigan va ma'qul bo'lmagan shakllardagi yoxud uchinchi shaxslar bilan jinsiy munosabatlarga majburlash, ozor berish va boshqalar;

•psixologik zo'ravonlik — tahdidlar, kamsitishlar, haqoratlar, doimiy ravishda tanqid, shantaj qilish, ma'lum bir xatti-harakatlarni amalga oshirishga yoki amalga oshirmaslikka majbur qiluvchi doimiy qattiq nazorat, ehtiyojlarni qondirishni cheklash, do'stlar, qarindoshlar bilan muloqotni, mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlash, shaxsiyatga tegish, qadrini toptash va boshqalar. Psixologik zo'ravonlik shaxsning rivojlanishi cheklanishiga, depressiya va qo'rquvga, buning oqibatida esa tajovuzkorning o'ziga qarshi qaratilgan javob tajovuzlariga sabab bo'lishi mumkin;

•iqtisodiy zo'ravonlik — moddiy ko'mak berish va farzandlarni ta'minlashdan bosh tortish, oilaning moliyaviy manbalariga mutlaq egalik qilish, xotini va farzandlarining ehtiyojlarini e'tiborga olmaslik va boshqalar.

Ayollarga oiladagi zo'ravonlik masalalarida maslahatlar berish bugungi kunda ixtisoslashgan krizis markazlarida amalga oshiriladi. Psixologik maslahat o'z ichiga quyidagilarni oladi: mijozning ruhiy holatini barqarorlashtirish; muammoni o'rganish, qo'llab-quvvatlash manbalarini topish; vaziyatni o'zgartirish (turmush o'rtog'ini tashlab ketish, vaqtincha yoki doimiy alohida yashash, ajrashish, yoki

nikohni saqlash, zo'rvonlik qilayotgan er bilan muloqot olib borish, vositachilikni qo'llash, himoya so'rab huquq-tartibot organlariga murojaat etish va boshqalar) yuzasidan qaror qabul qilishni tashkil etish va harakatlar rejasini ishlab chiqish. Harakatlar rejasining muhim tarkibiy qismini individual xavfsizlik rejasi tashkil etadi. Bunday rejani ishlab chiqish o'z ichiga quyidagilarni oladi: zo'rvonlik holati sodir etilganda murojaat qilish mumkin bo'lgan shaxslar doirasini aniqlab olish (qo'shnilar, militsiya, guvohlar); yashirinish va hayot kechirish uchun zarur bo'lgan vositalarni olish mumkin bo'lgan joyni aniqlab olish (do'stlar, qarindoshlar, krizis markazlari); zo'rvonlik holati sodir etilganda tezkor evakuatsiya qilish uchun zarur vositalarni safarbar etish (hujjatlar, pul mablag'lari, zarur narsalar, dori-darmonlar, bolalarning o'yinchoqlari); zo'rvonlik tahdidi holatida bolalar er tomonidan shantaj vositasi va tajovuz ob'ekti bo'lmasligi uchun ularni preventiv (oldini oluvchi, ogohlantiruvchi) ajratish rejasini ishlab chiqish. Agar oilada farzandlar bo'lsa, ayolda ularga g'amxo'rlik qilish, ularga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Ushbu masalaning hal etilishi faqatgina bolalarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlab qolmasdan, balki ayolning muammoni hal etishda o'z kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi. Zo'rvonlik natijasida ayolda qo'rquv, himoyasizlik, o'ziga ishonmaslik, tushkunlik hissiyotlari paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda esa qo'rquv va o'zlik yoniga qaramlik hissi ham qo'shiladi - oiladagi zo'rvonlikni boshdan kechirgan ayollar uyat, aybdorlik kabilarni his etib, o'zlariga bo'lgan ishonch va hurmatni yo'qotishadi. Ona farzandlarining salomatligi va to'kisligi, o'z hayoti va salomatligi uchun javobgarlik va mas'uliyatni zimmasiga olishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, shaxsiy "Men"ini mustahkamlaydi hamda muammoni hal etish sari dadil qadam tashlash uchun zamin yaratadi. Oiladagi zo'rvonlik masalasi bo'yicha psixologik maslahat berish oiladagi zo'rvonlik qurbonlariga huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni ta'minlovchi zarur tadbirlar bilan birga olib borilishi kerak.

*Ajrashish muammosi yuzasidan maslahat berish.* Ajrashish muammosi yuzasidan psixologik maslahat berishning vazifalari haqida gap ketganda, faqatgina turmush o'rtoqlar ajrashish haqida bir qarorga kelib bo'lgan vaziyatlarni nazarda

tutish lozim. Bu o'rinda ajrashishning psixologik ta'siri to'g'risida gap yuritish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, oilada farzandlar bo'lsa, uning zarurati yanada ortadi. Ko'p jihatdan bunday maslahat berish ma'lumot taqdim etish funksiyasini bajaradi. Ajrashish holatida maslahat berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tig'iz vaqt rejimida turmush o'rtoqlarning iqtisodiy ajrashishi bilan bog'liq muammolarni - hududiy munozaralar, mol-mulkni bo'lish, moddiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etishda vositachilik;

- vasiylikni o'rnatish, alohida yashovchi ota yo onaning farzand tarbiyasida ishtirokini (uchrashuvlarning davriyligi va davomiyligi, joyi, ularda uchinchi shaxslarning ishtiroki va boshqalar) shartlarini kelishib olish masalalari bo'yicha maslahat berish;
- farzandlarni oila buzilishiga va ota-onadan birining ajratib qo'yilishiga tayyorlash (bolaga ajrashish haqida aytish vaqti va shakli, ota-onaning ajrashish davrida va undan keyingi xatti-harakatlari strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish) masalasi yuzasidan maslahat berish;
- oilaning yangi timsolini shakllantirish, oiladagi rolli tuzilmaning o'zgarishi va ayolning ishga chiqishi (odatda, agar ayol ilgari ishlamagan bo'lsa, ajrashganidan keyin ishga chiqadi yoxud qo'shimcha ish izlaydi) bilan bog'liq muammolarni hal etishni rejalashtirishda yordam ko'rsatish;
- ajrashishni boshdan o'tkazgan bolalarda hissiy-shaxsiy o'zgarishlar bo'lishining oldini olish maqsadida farzandlar - ota-onalar munosabatlarini va oiladagi tarbiya turini optimallashtirish;
- hissiy ajrashishni kuzatib borish, ajrashgan turmush o'rtoqlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil qilish;
- ajrashgan turmush o'rtoqning shaxsiy tengligini qayta tiklash masalasida, depressiya, xadikning ortishi, qo'rquv reaksiyalarning rivojlanishining oldini olishda hamkorlik qilish;
- bolaning hissiy-shaxsiy rivojlanishida, xatti-harakatlarida o'zgarishlar bo'lishining oldini olish maqsadida u bilan ish olib borish;

- ajrashgan er-xotinlar farzandlar tarbiyasi borasida o‘zlarining ota-onalik vazifalarini samarali bajarishlari uchun sharoit yaratish maqsadida munosabatlarni optimallashtirish.

Ajrashishdan keyin farzandlar - ota-onalar munosabatlarini optimallashtirish sohasidagi maslahatlarning muhim yo‘nalishini alohida yashovchi ajrashgan turmush o‘rtoq tomonidan otalik yoxud onalik vazifasini amalga oshirishning aniq shakllarini aniqlab olish yuzasidan ota-ona o‘rtasida kechadigan muzokarada vositachilik qilish tashkil etadi. So‘nggi o‘n yillik ichida otalar tomonidan o‘zlarining tarbiyachilik rollarini saqlab qolishga qaratilgan tashabbus va faollik ko‘rsatish oshgan. Qizig‘i shundaki, maslahat berish jarayonida psixologlar duch keladigan muammolardan biri onalarning ajrashgandan keyin sobiq turmush o‘rtoqlariga farzandlari bilan uchrashishga qarshilik ko‘rsatish va bunga salbiy munosabatda bo‘lish holatlari hisoblanadi. Otalarning farzandlar tarbiyasida ishtiroki borasida kelishib olish jarayonida ota-onalar amal qilishlari kerak bo‘lgan asosiy prinsiplarni bilish zarar qilmaydi. Ular bir nechta, ya‘ni:

1. Bola otasi ham, onasi ham o‘zini yaxshi ko‘rishlariga ishonishi kerak. Otasi ham, onasi ham uni yaxshi ko‘rishlarini, u haqda g‘amxo‘rlik qilishlarini doimiy ravishda singdirib borish zarur. Agar alohida yashayotgan otasi yoki onasi uzoq vaqtdan beri bolani ko‘rgani kelmayotgan bo‘lsa, bolaga bu holatni unda “otam, yoki onam meni yaxshi ko‘rmas ekan” degan tushuncha paydo bo‘lmaydigan tarzda tushuntirish kerak.
2. Otaning ham, onaning ham timsoli ijobiy bo‘lishi zarur. Bolada o‘zining otasi va onasi yaxshi ko‘rishga va hurmat qilishga munosib insonlar ekaniga ishonch bo‘lishi kerak.
3. Ajrashgan turmush o‘rtoqlar ushbu holatni tabiiy qabul qilishlari va bolada ham shunday qarashni shakllantirishlari zarur. Ajrashishdan uyalish, uni nomunosib xatti-harakat sifatida qabul qilish, u haqda uyatli ish-sifatida gapirish yoki umuman gapirmaslik ma‘qul emas. Bolaga to‘laqonli bo‘lmagan oila boshqa oilalardan umuman farq qilmasligini, otasi alohida yashagani bilan uni yaxshi ko‘rishini va u haqda g‘amxo‘rlik qilishini tushuntirish kerak.

4. Turmush o'rtog'lar o'rtasida yaxshi munosabat saqlanib qolishiga harakat qilish, bolani otasi yoki onasidan birini tanlashga majbur etmaslik zarur. Boladan sobiq turmush o'rtog'ining yangi oilasi haqida (agar u yangidan oila qurgan bo'lsa) so'rab-surishtirmaslik, uning xatti-harakatlarini, sovg'alarini, gap-so'zlarini muhokama etmaslik, sobiq turmush o'rtog'i aslida bola uchun muhim va ahamiyatli inson ekanini yodda tutish kerak.
5. Bolaning alohida yashovchi otasi yoki onasi bilan munosabatlari tizimli va doimiy bo'lishini ta'minlash, uzoq vaqtli va kutilmagan ayriliqlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Yuzma yuz ko'rishning imkoni bo'lmagan paytlarda xat, telefon orqali muloqot usullaridan foydalanish mumkin. Bola bilan yashayotgan ona yoki ota u alohida istiqomat qilayotgan otasi yoki onasi bilan munosabatlarini tiklashi va saqlab qolishi uchun harakat qilishi, tashabbus ko'rsatishi nihoyatda muhim. Agar bola bilan doimiy yashovchi ona yoki otani muloqot shakli, mazmuni va joyi qanoatlantirmasa, u o'z variantlarini taklif etishi kerak.
6. Oila tarixi ajrashish bilan tugab qolmasligi, balki u davom etishi kerak. Oilaviy fotosuratlar va videoyozuvlar, oilaviy yodgorliklar va hikoyalar, shu jumladan ota-onasining o'zaro muhabbati haqidagi hikoyalari oilada saqlanib qolishi, ijobiy tasvirga ega bo'lishi, bola uchun oilasi tarixining "eng yaxshi va eng qadrli sahifalari" bo'lib qolishi lozim. Bu narsa kelgusida bolaning bo'lajak oilasida ham nikoh munosabatlari darz ketmasligi uchun juda muhim ahamiyatga ega.
7. Bolaning ota va ona tomondan bobo va momolari bilan munosabatini cheklamaslik kerak. Tabiiyki, bu qoida barcha ajdodlarga taalluqli bo'ladi.
8. Yangi oila qurilishi hech qachon bolaning o'z otasi yoki onasi bilan ko'rishishini cheklashga asos bo'lmasligi kerak. O'gay ota yoki ona bolaning qalbidan tuqqan onasi yoki otasining o'mini egallashga urinmasligi lozim. Oilaning yangi a'zosi bola hayotida do'st, vasiy, homiy, himoyachi, ishonchli inson, boobro' tarbiyachi va hokazo rollarni bajarishi mumkin.

*Oilaviy maslahat quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:*

1. Muammoni oydinlashtirish. ("Nimani xohlaymiz?" -savoliga javob olish kerak);
2. Har bir oila a'zosining pozitsiyasini aniqlashtirish ("Nima bo'lyapti?");
3. O'zgarishlar bilan ishlash;
4. Maqsadni kengaytirish, rejalar tuzish;
5. Rejani vizuallashtirish. Oilaning yorqin kelajagini ko'rsatib berish.

*Psixologik maslahat jarayonida suhbatni olib borish texnologiyasi*

*(Y.E.Aleshina)*

- Dialogda psixolog konsultant nutqining chegaralanganligi
- Konsultant so'zlashuv nutqining mijoz tiliga yaqinlashtirishi
- Mijoz emotsional kechinamalarining so'zlayotgan voqea- hodisalari va harakatlar bilan bog'liqligini analiz qilish

- Suhbat jarayonida mijoz bilan aloqani saqlab ta'minlab turish.

*Konsultativ suhbat jarayoni bosqichlari taxminan quyidagicha:*

- 1 bosqich. Mijoz bilan tanishish va suhbat jarayonini boshlash (5-10 daqiqa)
- 2 bosqich. Mijozni tinglash, muammoni oydinlashtirish (25-35 daqiqa).  
Konsultativ gipotezalarni shakllantirish.

Konsultativ gipotezalarni tekshirish.

- 3 bosqich. Ta'sir ko'rsatish jarayoni (5-10 daqiqa)

Mijoz ustanovkalarini korrektsiya qilish.

Mijoz xulqini korrektsiya qilish.

- 4 bosqich. Konsultativ suhdatni yakunlash (5-10 daqiqa)

### **12.3. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan metod va usullar**

An'anaviy tarzda psixologik konsultatsiyaning asosiy metodi intervyu hisoblanadi. U terapevtik suhbat bo'lib, u oilani ijtimoiy psixologik qo'llab quvvatlash va unga yordam berishga qaratilgan bo'ladi.

Lekin hozirgi kunda konsultatsiyaning amaliyotida (oilaviy konsultatsiyada ham) turli xil psixoterapevtik maktablar ishlab chiqqan metod va usullardan keng foydalanilmoqda.



**Tashqi bosqichda** ishlash uchun uncha chuqur bo'lmagan oilaviy va shaxsiy muammolarni yechish kifoya qiladi. U ko'pincha birinchi uchrashuvda qo'llaniladi. (oila juftliklarining konsultatsiyasida). Bunda **K.Rodjers**, **F.Vasilyuk** va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yordam beruvchi munosabatlarni hosil qiluvchi texnologiyalardan keng foydalaniladi. Buning natijasida vujudga keladigan ishonchli munosabatlar ochiqligi bilan hayratlantiradi. Chunki uning natijasida har bir oila a'zosi uning ongida hamma narsani ochiqchasiga aytib oladi va o'zining haqiqiy hissiyotlarini ko'rsatib oladi. Bu muammoni aniqlashtirishga qaratilgan birinchi qadam bo'lib u ham o'ziga, ham boshqa insonga qaratilgan qadam hisoblanadi. Shuningdek bu bosqichda xulq-atvor psixologiyasida yaratilgan bir qancha texnikalardan ham foydalaniladi. Xususan "kontrakt terapiya"ning bixevioristik modifikatsiyasidan foydalaniladi. Unda er-xotinlar agarda biri ikkinchisi kutayotgan xatti-harakatlarni o'zi bilib amalga oshirsa bir-birlarini rag'batlantirishga so'z beradilar.

Ancha chuqur bosqichda (bog'liqlikni, boshqaruvni qayta taqsimlash) kam anglanilgan jarayonlarga ta'sir qilish kerak bo'lganda psixoanalizda, geshtalterapiyada va psixodrammada ishlab chiqilgan metodlardan foydalaniladi.

Oiladagi o'zaro munosabatlarni *o'rganish* va *psixokorreksiya* qilishda psixologik yordamning amaliy metodlaridan biri bo'lgan arterapiyadan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.



Arterapiya - san'at orqali davolash, san'at terapiyasi ma'nosini anglatadi. Atterapiya dastavval, psixoanalizda Z.Freyd va K.Yungning egodagi himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishi sifatidagi nazariy g'oyalari asosida vujudga kelgan bo'lib (sublimatsiya, proeksiya), davolashning bu usuli hozirgi kunda barcha yo'nalish vakillari tomonidan keng qo'llanilmoqda. Umuman arterapiya usullaridan Z.Freyd, K.Yung, K.Rodgers, A.Maslou va boshqa psixologlar amaliyotida qo'llaganlar. Adrian Xill (1938 y) sihatgohlarda tuberkulez bemorlar bilan ishlash jarayonini tasniflash davomida ushbu termini qo'lladi.

Arterapiya o'zini anglash va o'zini ko'rsata olish, rivojlantirish orqali shaxs taraqqiyotini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Arterapiyada diagnostik va terapevtik jarayonlar bir vaqtning o'zida ketganligi sababli, u ham terapevtik va ham diagnostik metod hisoblanadi. Arterapiya mahsullari ahamiyatli diagnostik material hisoblanib, uni proektiv testlarga yaqinlashtiradi.

Arterapiyaning mahsuldorligi shundaki, birinchidan, nizoli vaziyatlar simvolik shaklda qayta paydo bo'ladi, rasmlar va boshqa vositalar yordamida tashqariga chiqariladi, shu tariqa uni muhokama qilish va qaror qabul qilish mumkin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, ijod jarayonining o'zi shaxsning o'sishiga, o'z-o'zini namoyon qilishga, o'z-o'zini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, hayotiy qiyinchiliklarni yengish uchun ichki kuchlarni topish imkonini beradi.

Arterapiya bolalarda xavfsizlik hissini rivojlantirib, o'zini anglash va o'zini namoyon eta olishni rivojlantirish orqali shaxs taraqqiyotini muvozanatlashtiradi. Kuchli qarshilik bo'lganda ham bola bilan oson aloqa o'rnatish arterapevtik metodning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Psixolog oldiga kelganda bola har doim ham o'z muammosi haqida gapirgisi kelmaydi, lekin nimanidir chizib berish, rasmlardan foydalanib, ertakni tugatish yoki muhokama qilish so'ralganda qarshilik qilmaydi.

Arterapiyaning ta'sir mexanizmi: 1) tasavvurni faollashtirib, ongdagi va ong ostidagi bilimlarni informatsiyalarni muvofiqlashtiradi.

2) Ijod qilish jarayoni hisoblanadi.

Arterapiyada psixokorreksion ta'sirning ikki mexanizmi farqlanadi:

1. Nizoli, muammoli vaziyatni ramziy tarzda, san'at orqali talqin etish imkoniyatini berib, mijozning kreativ qobiliyati orqali muammoni hal etishning turli yo'llari topiladi.
2. Estetik talqinda anglanmagan "azoblardan" holi bo'linadi.

Arterapiya maqsadlari:

1. Mijozdagi agressiya va boshqa salbiy his-tuyg'ularni ijtimoiy maqbul tarzda chiqarish (rasmlar, kartochkalar, haykallar va h.k. bilan ishlash).
2. Davolash jarayonini osonlashtirish.

3. Diagnostika va interpretatsiya uchun material to'plash.
4. Mijozning his-tuyg'ularni va fikrlarini qayta ishlash.
5. Psixolog va mijoz munosabatlarini muvofiqlashtirish.
6. Ichki nazorat tuyg'usini rivojlantirish.
7. E'tiborni sezgi va his-tuyg'ularga qaratish.
8. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va mijozning o'z-o'ziga bahosini oshirish. Ijodiy faoliyat xarakteriga ko'ra, artterapiyaning rasmlı terapiya, biblioterapiya, musiqaterapiya, xoreoterapiya va boshqa usullari mavjud.

Artterapiyadan individual va guruhıy psixokorreksiya jarayonida, asosiy yoki yordamchi metod sifatida foydalanish mumkin.

Oilada o'zaro munosabatlarini o'rganish va psixokorreksiya qilishda artterapiyaning proektiv rasmlar, hikoya tuzish, ertak terapiya, qo'g'irchoq terapiya usullaridan foydalanish samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ertak terapiya - ertaklardan foydalanish orqali shaxsga ta'sir o'tkazish bo'lib, u orqali bolaning his-tuyg'usi va psixik jarayonlar, holati o'rganiladi.

Ertak bilan ishlashning asosiy jihatlari:

1. Ertak tahlili. Maqsad - anglash, har bir ertak voqealarini interpretatsiyasi, syujetni, ertak qahramonlarini tahlil qilish. Masalan, bolalar uchun tanish ertak tahlilida bolalarga quyidagi savollar bilan murojat qilish mumkin: "Nima deb o'ylaysiz, bu ertak nima haqida?", "Qaysi qahramon sizga ko'proq yoqadi va nimaga?", "Nima uchun sizningcha, ertak qahramoni o'zini bunday tutdi?" va hokozo.
2. Ertakni aytib berish. Bolalarga ertakni boshqa kishi tomonidan aytib berish taklif qilinadi. Bu usul bolalarda tasavvurni, fantaziyani, ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi.
3. Ertakni qayta yozish. Bunda mijozga ertak voqealarini boshqacha talqında ifodalash haqida ko'rsatma beriladi. Ertakni bola qay talqında tugatganligiga va voqealar rivojiga e'tibor qaratiladi.
4. Ertakni qo'g'irchoqlar orqali sahnalashtirish. Qo'g'irchoqlar bilan ishlash orqali

bola o'z xulq-atvori jihatlarini qo'g'irchoqda aks etishini ko'radi. Bu o'z hatti-harakatlarini "yuqoridan" ko'rishiga va tuzatishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim sabablarga ko'ra ifodalay olmagan emotsiyalarini bola qo'g'irchoq orqali ifodalashi mumkin bo'ladi.

5. Ertak to'qish. Har bir ertakda voqealar rivojining o'ziga xos qonuniyatlari mavjud bo'lib, qahramonning hayoti ifodalanadi. Bola to'qiyotgan ertakda ham u ko'proq o'z his-tuyg'ularini, o'z muammolarini turli qahramon, hayvon yoki boshqa buyumlarga ko'chirib ifodalaydi.

Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishda birgalikdagi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda farzandlarga birgalikda buyumlar yasash, rasm chizish, ertak yoki hikoya to'qishni taklif qilish yoki ertak qahramonlari qo'g'irchoqlarini tayyorlatish (keyin shu qo'g'irchoqlar bilan ertakni birgalikda sahnalashtirish mumkin) kabi mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin. Ota-onalarga birgalikda chizilgan rasm yoki buyumni bolalar xonasiga yoki mehmonxonaga bezak sifatida qo'yib qo'yish lozimligi uqtiriladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari**

1. Oilaviy munosabatlarni o'rganish mushkulligi nimada?
2. Ota-ona va farzandlar muammosini diagnostika qilish metodlariga qaysi metodlar kiradi?
3. A.Y.Varga, V.V.Stolin tomonidan tuzilgan test-so'rovnomasi orqali nimani o'rganish mumkin?
4. Oilaviy munosabatlarni o'rganuvchi qanday metodikalarni bilasiz?
5. Oilaviy munosabatlarni o'rganuvchi qanday proyektiv metodikalarni bilasiz?
6. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan qanday metod va usullarni bilasiz?
7. Oilaviy konsultatsiyaning maqsadi nimadan iborat?
8. Oilaviy psixokonsultatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
9. Oilaviy konsultatsiyaning asosiy tamoyillar va qoidalarini ayting.

## Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

**VENN DIAGRAMMASI** asosida oila konsultatsiyasi va oila psixoterapeyasining umumiy va farqli jihatlarini toping



**“Tushunchalar tahlili ” jadvalini to‘ldiring.**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Konsultatsiya	
Oila terapiyasi	
Individual psixologik konsultatsiya	
Oila muammolari	
Psixologik diagnostika	

## XIII BOB. O‘ZBEKISTONDA OILA SIYOSATINING SHAKLLANISHI

### Reja

1. Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uni asosiy tamoyillari
2. O‘zbekistonda oilalarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar

### 12.1. Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uni asosiy tamoyillari

Mustaqillik yillarida jonajon yurtimiz O‘zbekistonda oial, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi sifatida e‘tibor etildi. Mamlakatimiz Kostitusiyasining 65-moddasida e‘tirof etilganidek, bizda “Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza etiladi”. Shuninggdek, Bosh qomusimizning 64-moddasida “ davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi”.

Demak, O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat tomonidan kafolatlanadi. Shu o‘rinda oila borasida davlat siyosatining shu tarzda qonunan kafolatlangan, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda olib borilishi zarurati nimalarga asoslanadi, degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi.

Davlat tomonidan oila siyosati, uning bazasini mustahkamlash siyosatining olib borilmasligi ushbu noyob ijtimoiy institutning boshqa ijtimoiy instittular qatoridan munosib o‘rin ololmasligiga olib kelishi va buning oqibatisifatida oila va nikoh munosabatlari bo‘hronga uchrashi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga zarba berilish, turli muammolar ko‘payib, yosh avlod tarbiyasining dastlabki o‘chog‘ida ma‘naviy inqirozlar kuzatilishi mumkin. mumkin. Shuning uchun muttasil taraqqiyot va xalq farovonligiga erishish yo‘lidan sobit qadamlik bilan boradaigan jamiyat va undagi davlat tizimlari oilaning mustahkam va barqaror bo‘lishidan, avlodlararo vorislik yo‘qolib ketmasligidan manfaatdordir.

Shunday qilib, *Oila siyosati* – bu davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat

tashkilotlari, NNT larining shaxs va jamiyat manfaatiga mos keladigan oila deb atalmish er-xotin va ularning ikki va undan ortiq farzandlaridan iborat ijtimoiy tuzilmani har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir. Bu oilaviy turmush tarzini barqarorlashtirish, har bir insonning o'z oilasi va shajarasi bo'lishi istagini ro'yobga chiqarish uchun aholini qo'llab-quvvatlash siyosatidir. Uning tom ma'nosi shundaki, davlat va jamiyat to'liq oilalarning imkon darajasida ko'p bo'lishidan, unda avlodalraro vorislik, shajaralarning bardavomligi, yoshlarning oila va nikohni qadriyat sifatida e'tirof etishidan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi ta'minlanishiga ishonchini bildiradi.

E'tirof etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda oila institutini amalda mustahkamlash borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998 yilda qabul qilingan "Oila Kodeksi"da ushbu munosabatlarning barcha jabhalari reglamentatsiya qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan boshqa qator Kodeks va qonunlarda ham bevosita oila a'zolarining, jumladan, xotin-qizlar va bolalarning manfaatlari himoya qilingan. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida oila a'zolarining mulkiy munosabatlari, ularning ulushlari, merosxo'rlik, vorislik huquqlari;
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida farzandi bor ayollarga tadbiq etiladigan imtiyozlar, fuqaro sifatida barcha oila a'zolarining mehnat qilish huquqlari;
- O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida mulk sifatida uy-joyga ega bo'lish huquqlari;
- "Fuqarolarning davlat nafaqa ta'minoti to'g'risida"gi qonunda oilaning kattalari hamda mehnat yoki salomatligi tufayli nafaqaxo'r bo'lganlarning ijtimoiy himoyasi;
- "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunda ko'p bolali, nogiron

bolasi bor bo'lgan oilalarga beriladigan imtiyozlar, kvotalarni taqdim etish tartiblari va h-zo;

- “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi Qonunda oilada xotin-qizlarning salomatligi, jumladan, reproduktiv salomatlikning davlat tomonidan muhofaza etilishi tartiblari;

- “Xotin-qizlarga beriladigan qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida”gi Qonunda farzandi bor hamda og'ir mehnat sharoitida ishlaydigan ayollarga beriladigan imtiyoz va qo'shimcha imkoniyatlar borasidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Qonunlarning amaldagi ijrosi mustaqillik yillarida qabul qilingan va amaliyotga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'nlab qarorlari asosida ta'minlanadi, ularda aynan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, kam ta'minlangan oilalar sonining oila a'zolari bandligini ta'minlash, mehnat huquqlarining kafolatlanishi orqali kamaytirish choralari belgilangan. 1994 yildan buyon qabul qilinayotgan va amalda muvaffaqiyat bilan ijrosi ta'minlanayotgan Davlat dasturlarida ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza etilishi o'z aksini topmoqda. Bularning eng muhimlari:

- Prezidentimizning “O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining Farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 299-chi sonli qarori;

- “Fuqarolarga xizmat ko'rsatish uchun birvaqtlik yordam pullari to'g'risida” Vazirlar Mahkamasining qarori (2002 yil);

- “Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun umumta'lim kreditlarini taqdim etish to'g'risida” Vazirlar Mahkamasining qarori (2001 yil);

- “Bolalik oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” Vazirlar Mahkamasining qarori (1996 yil);

- “Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni tashkil qilish masalalari

haqida” Vazirlar Mahkamasining qarori (1994 yil);

- “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2007 yil 18 maydagi Farmoni va boshqa o‘nlab Farmon, normativ hujjatlar va qarorlarni keltirish mumkin.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o‘ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralashmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko‘ra, oilada ba’zi qiyinchiliklar paydo bo‘lgan bo‘lsa, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, mahalla qo‘mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilib orqali fuqarolar o‘z manqaatlarini himoya qilishlari va davlatning madadiga erishishlari mumkin.

Ikkinchi tomondan, oila ikki oilaning, unda tarbiyalanayotgan ikki yoshning ixtiyoriy kelishuvi, tanlovidan hosil bo‘lgan ittifoq bo‘lgani uchun ham ushbu jarayonlarga ham aralashmaydi, chunki bu shaxsiy muammo. Lekin davlat fuqarolarning “erkin nikohlari”ga, xohlagan paytda xohlagan inson bilan o‘zi bilganicha nikohga kirib yoki kirmay yashashiga befarq bo‘la olmaydi. Chunki bu jamiyatning ahloqiy tomirlarini kesishi mumkin. Shuning uchun turli xil oilani qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalar borki, ular oila-nikoh borasidagi nohaqliklar bo‘lgan sharoitda, oilada bir yoki bir necha a‘zoning insoniy manfaatlari tahqirlangan sharoitda, farzandlar ota-onasining nojo‘ya harakatlari tufayli ko‘chada qolib xavfi paydo bo‘lganda o‘zining jamoatchilik tashkilotlar, jumladan, xotin-qizlar komissiyalari, yarashtirish komissiyalari, “Oila” markazlari, oqsoqollar orqali bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘radi, kerak bo‘lsa, ularni xukumat dasturlari yoki qarorlari asosida mustahkamlaydi.

Oilaning musathkam va barqaror bo‘lishi uning a‘zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy

ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitilayotgan "Oila psixologiyasi" kurslarining uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA KODEKSINING TUZILISHI VA QABUL QILINISHI

O'zbekiston Respublikasining yangi Oila kodeksi Oliy Majlisning 1998- yil 30- apreldagi Qarori bilan qabul qilindi va 1998-yil 1-sentabrdan amalega kiritildi.

### Oila kodeksining tuzilishi

#### I-Bo'lim.

Umumiy qoidalar  
I – II boblar,  
1 – 12 moddalar

#### II- Bo'lim.

Umumiy qoidalar.  
III-VIII boblar,  
13-56 moddalar

#### III- Bo'lim.

Qon – qarindoshlik va  
bolalarning  
nasl – nasabini belgilash.

#### IV- Bo'lim.

Ota-ona hamda voyaga  
etmagan bolalarning huquqva  
majburiyatlari.  
XI-XI boblar. 65-95

#### V- Bo'lim.

Oilaa'zolarning va boshqa  
shaxslar – ning alimant  
majburiyatlari.  
XIV – XVIII boblar. 96 – 147

#### VI-Bo'lim.

Ota – ona qaramog'idan mahrum  
bo'lgan bolalarni joylashtirish  
shakllari.  
XIX-XXII boblar. 148-200

#### VII- Bo'lim.

Fuqarolik holati  
dalolatnomalarini qayd etish.  
XXIII – XXX boblar,  
201 – 233 moddalar

#### VIII-Bo'lim.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi  
bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi  
oilaviy munosabatlarni tartibga  
solish.

### 13.2. O'zbekistonda oilalarning mustahkamligiga qaratilgan ijtimoiy-demografik tadqiqotlar

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning yana bir muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir. O'zbekistonda nikohdan o'tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajada. Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada mavjud oilalar soni bugungi kunda 5 milliondan ziyod bo'lib, ularning aksariyati bo'linmagan, ko'p avlodli, turli avlod vakillari birga yashaydigan va birga xo'jalik yuritadigan xonadonlardir. Oilaning bunday o'zimizga xos bo'lgan shakli bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, an'analardan bahramand qilish, shu bilan birga milliy an'analarimizning saqlanishi, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratdi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni, tug'ilib o'sgan yurti, qishlog'i, shahri, yaxlit Vatanini sevishni o'rganadilar.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy istiqboliga bevosita aloqador ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan ko'zlangan *asosiy maqsad* – O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida jamiyatning negizi hisoblangan oilalar borasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, yo'nalishlari va tamoyillarini belgilash orqali oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, iqtisodiy faoliyatning dasturini va oila institutini milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvofiqligida mustaqhklashning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Respublikamizda 90-chi yillardayoq oilalarning ko'p bolalik shaklidan o'rtacha bolalik shakliga o'tish ro'y berayotganligi bashorat qilingan edi. Chunki 1998-1999 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda shahar oilalarining 75-76, qishloq oilalarining 53-54 foizi oilada farzand tug'ilishini rejalashtirayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lingan edi. Lekin muhtaram Prezidentimizning "Sog'lom avlod yili" davlat dasturi asosida "Sog'lom ona – sog'lom bola" ijtimoiy harakatini

takomillashtirishga qaratilgan Davlat dasturidagi chora-tadbirlarning belgilanganligi tufayli, ayni paytda oila va salomatlik sifatleri sog'lom tug'ilgan bola va uni dunyoga keltirgan onaning holatiga bog'liq ekanligini aholi tobora teranroq tushunib bormoqda va bu tushuncha aholining farzand ko'rishga nisbatan reproduktiv ustanovkalarida aks etmoqda.

Oilalar miqdorining ortib borishi oxirgi yillarda asosan yosh oilalar va nuklear tipli, ya'ni, er-xotin va ularning farzandlari alohida yashaydigan oilalar hisobiga sodir bo'lmoqda. Mavjud oilalarning salkam 50 foizi – bu nuklear oilalar, bir xonadonda bir necha alohida oilalar istiqomat qiladigan patriarxal oilalar jami oilalarning salkam 23,5 foizini tashkil etadi. Nuklear, yosh oilalarning aksariyati 9 yildan kam bo'lgan turmush tajribasiga ega bo'lganlar bo'lib, sodir bo'layotgan nikohning barbod bo'lishi holatlari aynan shu kabi oilalarga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, ilmiy izlanishlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 70 foizdan ortiq nikoh ajrimlari yosh oilaga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, oila borasidagi yangi holat shuki, agar 90-chi yillarda migrantlar orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular asosan turmushga chiqish oqibatida turar manzilini o'zgartirgan bo'lsa (jami migrantlarning 53%), oxirgi yillarda aksincha erkaklarning mehnat migratsiyasi ko'lami ortib bormoqda va bu ham oilaning holati va sifatiga kuchli ta'sir etmoqda. Ushbu holat ham jiddiy tadqiqotlarni talab etadi.

Ya'ni, O'zbekiston aholisi katta demografik salohiyatga va qulay tarkibga ega. O'tgan o'n yilliklarda tug'ilish darajasi nisbatan kamaydi, ammo mavjud ko'rsatkichlar ham bu salohiyat va tarkib muayyan davr oralig'idagina saqlanib qolishini ko'rsatadi. O'zbekiston aholisining 37 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi, aholining umumiy tarkibida mehnatga yaroqli aholi ulushining nisbatan pastligi va O'zbekistondagi demografik vaziyatning boshqa xususiyatlari bozor munosabatlariga o'tish davrida aholini faol ijtimoiy muhofaza qilishni taqozo etadi. Shu bois, aholining ijtimoiy muhofazasi O'zbekiston siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir va bu tizim izchil takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining muhim jabhalaridan biri aholi

nufuzi, sifati masalasidir. Aholi sifati deganda, asosan aholi salomatligi darajasi, bolalar va onalar salomatligi darajasi, o'rtacha umr ko'rish darajasi, reproductiv ustanovkalari, aholi ma'lumoti va ish bilan bandligi darajasi, milliy qadriyatlar va an'analar saqlanganligi kabi qator tavsiflar tushuniladi. YA'ni, ta'kidlash joizki. mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishshini jadallashtirishning muhim sharti aholi sifatini oshirishdir. Bunga erishish uchun davlatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, lekin ularning samaradorligini oshirish ilmiy asoslangan milliy siyosat asosidagina ta'minlanishi mumkin. Bunda aniq ilmiy ma'lumotlar, jumladan, aholining tarkibi, stratifikatsion xususiyatlari, milliy tarkib albatta inobatga olinishi lozim.

O'zbekiston aholisining milliy tarkibi aholi o'rtasida amalga oshiriladigan siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, davlatimizdagi demografik vaziyatni ilmiy – asosli baholash va uning monitoringini olib borishga asoslanadi.

Oilaga doir bunday muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish o'ta dolzarb xisoblanadi. Ayniqsa, muammolar yechimini topishda yurtimizdagi demografik vaziyat bilan bog'liq holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki mustaqillik yillaridagi mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarida oila taraqqiyotining barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda va o'z-o'zidan yangicha demografik vaziyat yuzaga kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek “Respublikadagi alohida demografik vaziyat o'z ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish zarurligini belgilab beruvchi g'oyat muhim xususiyatlardan biridir”.

Oila siyosatining uzoqni ko'zlagan, istiqbolli yo'nalishi jamiyatda oila institutini mustahkamlashga qaratilgandir. Bunday siyosatning fuqarolar tomonidan anglanishi ularda oila-nikoh munosabatlariga nisbatan cheksiz mas'uliyat hissini, o'zi qurgan oilaga nisbatan g'urur va uni qadrlash psixologiyasini shakllantiradi, albatta.

### **Oilaga yo'naltirilgan siyosat dasturi: XXI asr oilasi konsepsiyasi**

XXI asr konsepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy kadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olgan oila va uning ijtimoiy muhofazasiga aloqador

tashkilot va jamoatchilik muassasalari uchun, oila borasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga mas'ul bo'lgan ta'lim va tarbiya masakanlari, ota-onalar uchun o'zbek mentaliteti, xalqimizning o'lmas madaniy meroslari, milliy qadriyatlarni inobatga olgan va uning ertasini belgilovchi metodologik hamda nazariy-amaliy qarashlar majmuini yaratishdan iboratdir. Bu ish Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazida "Ona va bola yili" davlat dasturi doirasida ishlab chiqildi.

XXI asr oilasi konsepsiyasini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasining asriy an'analari, oilaviy urf-odatlari, milliy qadriyatlarini tarixiy-etnografik asosda o'rgangan holda O'zbekiston oilalarining istiqbolini belgilovchi ustivor vazifalarni va faoliyat strategiyalarini belgilashdan iboratdir.

O'zbekiston oilalariga xos bo'lgan ustivor xususiyatlar, milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy udumlar, rasm-rusmlar va an'analarning shaxsga tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatuvchi jihatlari ilmiy jihatlarni ochishga yo'naltirilgan ushbu hujjat Respublikamizda istiqloq yillarida oilani ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ota-onalarga berilgan imtiyozlar va bola tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularning komil inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarini inbatga olgan holda mavjud bo'lgan muammolar doirasida oilaning istiqboli, rivojlanish tendensiyalarini belgilaydi. «XXI asr oilasi» konsepsiyasi asosida oilani kompleks o'rganish dasturi taklif etilgan.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan oila siyosatining tom ma'nosi XXI asr oilasining istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotining kafolatlari to'g'risidagi ezgu g'oyalirimizga hamohangdir. Shunga tayangan holda XXI asrda oilalar rivojlanishiga asos bo'luvchi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy omillar va tamoyillar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- **XXI asr oilasi** jamiyatda ustivor bo'lgan demokratik tamoyillarga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning subyektiv xohish-irodasiga qaram bo'lmaydigan, jamiyatni olg'a rivojlanishiga to'siq bo'luvchi illat va

asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan maskan rolini o'ynaydi;

- **Yangi asr oilasi** milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an'analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarni ilg'or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an'analar bilan uyg'unlashtiruvchi tabiiy makondir;
- **XXI asr oilasi** insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma'noda jamiyatda ustivor bo'lishi va har bir jamiyat a'zosi bo'lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma'rifat maktabini o'ynaydi;
- **XXI asr oilasi** umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanishi uchun ma'naviy qo'rg'on rolini o'ynaydigan ijtimoiy institutdir;
- **XXI asr oilasi** "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan tamoyillarni o'z a'zolari ongiga singdirish uchun qulay bo'lgan mafkuraviy muhitdir;
- **XXI asr oilasi** xalqimizning ma'naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradigan va shu asnda har tomonlama barkamol sog'lom avlodni tarbiyalovchi maskandir;
- **XXI asr oilasi** har bir fuqaroning kuch va iqtidorini o'z halol va safarbar mehnati orqali ro'zg'orning iqtisodiy takomilini ta'minlash, shu orqali jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligi va qudratini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar makonidir. Oila iqtisodini barqarorlashtirishda oilaviy tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanadi va oila byudjetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan, maishiy xizmat shahobchalari xizmatidan unumli va o'rindi foydalanadi;
- **XXI asr oilasi** o'z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali insonlarga berilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatini ta'minlovchi, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma'nomohiyatini yetkazuvchi ijtimoiy institutdir;

- **XXI asr oilasi** o'zining intellektual salohiyati, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovatsion kashfiyotlar va yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo'naltiruvchi, sog'lom ijodiy muhitni ta'minlovchi makondir.

Ma'lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e'tiqodlilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan fazilatlar o'smiring eng avvalo oilaviy munosabatlar tizimida tutgan o'rmidan, ota va ona, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqelari va roli mazmunidan kelib chiqadi. Zero, mafkuraviy tasavvurlar hamda ular asosida shakllanuvchi insoniy fazilatlar shaxsning yaxlit strukturasiidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy g'oyani va istiqloq mafkurasini singdirishni ta'minlovchi psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir.

Xalq psixologiyasida mafkuraviy ta'sirchan omillar mohiyatini bilish, yangicha rasm-rusmlar marosimlarning ahamiyatli tomonlarini kundalik turmush tarziga aylantirish yoshlar e'tiqodiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik texnologiyalarga kiradi.

Ta'kidlash joizki, **oila** ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir **oilaning** muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. YA'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining

aslosidir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda ayrim G'arb mamlakatlarida bir yilda o'nta nikohdan yettitasi buzilar ekan. Shuning o'z yoq ma'naviy hayot, ahloq-odob masalasiga beparvolik va loqaydlik, erkinlikni o'zboshimchalik deb tushunish qanday og'ir va ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, asrlar davomida o'zbek oilasi mustahkam va baxtli bo'lishi uchun o'zida yaxshi ma'nodagi paternalizm tamoyilini asrab kelmoqda. *Paternalizm* (lot. *Pater* – ota, *paternus* – otalarcha,) – kishilar ongiga “otalarcha g'amxo'rlik” va “ijtimoiy sheriklik” g'oyasini singdirishga qaratilgan qarash va faoliyat majmui. Oila muhitidagi paternalizm – otaning obro'-e'tiboriligi, farzandlar tarbiyasi va oila farovonligidagi o'z o'rni va mas'uliyatini anglashi va buning oila a'zolari tomonidan ongli e'tirof etilishidir. Bundan tashqari, ushbu tushuncha oiladagi keksalar, qariyalar, yoshlar, yordamga muhtojlar yoki iqtidorlilarga hamisha ko'maklashish, ular uchun yetarli hayot sharoitini yaratishni ham nazarda tutadi. Paternalizm g'oyasi o'zida insonparvarlik, hamkorlik g'oyalarini ifodalab, xalqning umumiy qiziqish va intilishlarini aks ettirgani uchun ko'p hollarda jamiyatni birlashtirib, uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan omil hisoblanadi, bu tom ma'noda mohiyatan o'zbek oilalarida o'z ifodasini saqlab qolgan. Bu qadriyat “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “fidoyilik”, “vatanparvarlik”, “oilaviy qadriyatlarga sadoqat”, “kattalarga hurmat”, “kichikka g'amxo'rlik” kabi tushunchalarga asoslanadi.

## GLOSSARIY

**Oila** – bu jamiyatning yacheykasi (kichik ijtimoiy guruh), er-xotinlik hamda otanonalik munosabatlarini tiklash orqali shaxsiy turmush tarzini tashkil etishning muayyan ko‘rinishi.

**Oila** - er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik asoslariga, umimiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib avlodlar davomiyligini saqlovchi eng kichik ijtimoiy guruh.

**Nikoh** - er-xotin va boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy institut.

**Patriarxal oila** – bir erkak kishining bir yoki bi nechta ayol o‘rtasidagi nikohiga asoslangan bo‘lib, bunda erkakning huquqlari xotinnikidan ko‘proq bo‘lgan, nikohning bus shakli ayni xususiy mulkchilik

**Monogam oila** – bir erkak va bir ayol juftligi o‘rtasidagi nikoh. (qadimgi grek so‘zlaridan olingan: “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma‘nosini bildiradi).

**Oilaning rekreativ funksiyasi** - o‘zaro jismoniy, moddiy, ma‘naviy va psixologik yordam ko‘rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a‘zolari dam olishini tashkil etish.

**Oilaning kommunikativ funksiyasi**- oila a‘zolarining o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi.

**Oilaning reproduktiv funksiyasi** – farzandlarni dunyoga keltirish, vlodlar davomiyligini ta‘minlash.

**Patriarxal monogam oila**—oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi.

**Detotsentrik oila** – bola manfaatiga yo‘nalgan oila

**Oila energetikasi** - oilaning tibbiy-biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, ekologik shart-sharoitlardan boshlab, tiriklikning mezonlari bo‘lmish ovqatlanish hamda har bir oila a‘zosining xatti-harakatlarining namoyon bo‘lishi.

**Oilaviy munosabatlar tizimi** – oila a’zolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda o’zligini namoyon etishi yoki ijrosi emas, balki, bu har bir oilaga xos bo’lgan o’zaro munosabatlar “xaritasi”dir.

**Oilaning funksional xususiyatlari** – bu oila a’zolari o’rtasidagi munosabatlarning sifatiy taraflari.

**Oilaning chegarasi va hududi** – oilaning boshqa sotsio madaniy muhit vakillari bilan aloqasi, ularga bog’liqligi darajasi.

**Oila psixologiyasi** – psixologiya fanining o’ziga xos maxsus tarmog’i bo’lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o’rganiladi.

**Ijtimoiy tasavvurlar** – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

**Kontent-analiz**– tekshirilayotgan matnda so’z, ibora, abzatslarni ma’no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

**Konformizm**- bu real yoki tasavvurlardagi guruhning shaxs e’tiqodi va xulq-atvoriga ta’sirini tushuntiruvchi xodisadir.

**Nizo** – bir-biriga to’g’ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash maqsad, qiziqish, kishilarning o’zaro munosabatlaridagi qarama-qarshi yo’nalishlar bo’yicha to’qnashishlaridan iborat.

**Oilaviy nizolar** - oila a’zolari o’rtasidagi kelishmovchiliklar bo’lib, uning asosida dunyoqarash, qiziqish va ehtiyojlarning mos kelmasligi yoki bir-biriga zidligi yotadi.

**Destruktiv nizo** – nizoning yuzaga kelishiga asos bo’lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo’ladi.

**Konstruktiv nizo** - nizoning yuzaga kelishiga asos bo’lgan muammo va uning hal etilishi ham erning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo’ladi.

**Haqiqiy nizo** – obektiv ravishda bir xil vaziyatda yuzaga keladigan va bir xil qabul qilinadigan nizo

**Tasodifiy nizo** - osonlik bilan tez hal qilinadigan nizo. bunday nizo ishtirokchilari tomonidan anglamaydi

**Aralash nizo** - bunday nizolar zaminida boshqa qandaydir sabab yashiringan bo'ladi.

**Noto'g'ri talqin etilgan nizo** - bunday nizoda, er-xotin o'rtasidagi nizo noto'g'ri talqin etiladi.

**Yashirin nizo** – er- xotin o'rtasida u yoki bu xildagi turli sabablar tufayli kelib chiqqan kelishmovchiliklar.

**Soxta nizo** - bunday nizo er-xotinning ma'lum bir vaziyatni noto'g'ri idrok qilishlaridan kelib chiqadi va hech qanday asosiy sabablarsiz yuzaga keladi.

**Er-xotin munosabatlari** – bu qarama-qarshi jinsdagi, yetuk yoshli, yaqin qarodoshlik rishtalari bilan bog'liq bo'lmagan va birgalikda turmush kechirishni ixtiyor qilgan kishilar munosabatlaridir.

**Krizis-** (grekcha krizis-yeechim, qaytarilishi joyi) – inqiroz, tinch turgan joyda tartibning buzilishi, biror narsada to'satdan kuchli qo'zg'alish, og'ir o'tish davri, biror masalada kuchli qiyinchilikka duch kelish demakdir.

**Maniya-** bir tomonning iklinchi tomon mehri muhabbatiga erishishi uchun hamisha havotir va intiqlik bilan bog'liq bo'lgan talabchang intiq hissiyot.

**Eros** – romantizm va hissiy mayllarga asoslangan asoslangan muhabbat

**Storge** – do'stona mustahkam va samimiy hisga bo'lgan insonlar o'rtasidagi sevgi

**Lyudus** – o'ziga qaratilgan hudbincha muhabbat.Bunda sevgiga erishmoqchi bo'lgan shaxs nima qilib bo'lsa ham sevgiga erishadi.

**Agape** – biror obetga nisbatan intiqlik, sabr-qanoat bilan boshidan kechirayotgan ilohiy sevgidir.

**Matriarxat** – onalik davri ya'ni oila boshlig'i ona bo'lgan davr.

**Patriarxat** – otalik davri bu esa oila boshlig'i ota bo'lgan davr.

**Egzogam nikoh** – urug'lararo va qabilalararo nikoh turi.

**Juft nikoh** – er va xotin ularning bolalaridan tashkil topgan oila

**Egzogamiya** – turli qabila vakillar o'rtasidagi nikoh

**Guruhiy oila** - bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan oila.

**Tabu** – axloqiy meyorlarga ancha jiddiy va qattiq taqiq.

**Sinovdagi oila** – birga yashashadi ammo hali nikohini rasmiylashtirmagan chunki bir-birini norasmiy nikohda sinayotgan oilalar

**Rasmiylashtirish arafasidagi oilalar** – birga yashashadi oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim obektiv sabablarga ko‘ra rasmiylashtirish kechikayotgan oilalar.

**Nikohdagi oila** – birga yashashadi nikohi rasmiylashtirilgan oila.

**Nikohdan tashqari oila** – ayrim erkak kishilarning ikkichi norasmiy nikohi.

**Bir millatli oilalar** – dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasidagi nikohlar.

**Baynalminal oilalar** – dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikoh.

**Oilaning iqtisodiy vazifasi**- oila iqtisodi va byudjeti, oilaning kundalik harajatlariga zarur buyumlarga pul ajratish, oilaning daromatini rejali sarflash.

**Oilaning reproduktiv vazifasi**- oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv vazifasi va uning bajarilishi deyilganda aholi soni qayta tiklanishi uchun har-bir oilada nechtdan farzand bo‘lishi lozimligi nazarda tutiladi.

**Reproduktiv salomatlik** – bu reproduktiv tizim uning faoliyatidagi bog‘liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo‘qligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy mufaqqiyatlar holatidir.

**Reproduktiv huquq** – bu barcha er-xotinlar juftliklar va alohida shaxslarning bolalar soni ularning tug‘ilish vaqti haqida erkin hamda to‘liq ma’sulyat hissi bilan qaror qabul qilish va buning uchun shart bo‘lgan ma’lumot va vositalarga ega bo‘lish borasidagi asosiy huquqlarni tan olinishidir.

**Bexatar onalik** - bu tug‘ruqdan oldin tug‘ruq jarayonida va tug‘ruqdan so‘ng ayollarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy mo‘tadilligini va sog‘lom farzandni dunyoga kelishi uchun barcha shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi.

**Sevgi tufayli oila qurish** – ya’ni yoshlar oila qurishdan avval bir-birlarini sevib, ma’lum muddatga sevib- sevilib yurganlaridan so‘ng shu o‘zaro sevgining mahsuli sifatini bir- birlarining visoliga to‘y qilib oila quradilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
2. Abdullaeva D., Yorqulov R., Atabaeva N. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Tafakkur bo'stoni”, 2015. – 256 b.
3. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. – М.: Класс, 2004.
4. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие – СПб.: Речь, 2004. – 244 с.
5. Андреева Т. В. Психология современной семьи. – СПб.: Речь, 2006. – 328 с.
6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Москва. “Гайдарики” 2005. – 310 с.
7. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. O'quv qo'llanma.-T., 2006.-142 b.
8. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T.: 2008 - 152 b.
9. Karimov X.K. O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis... psixologiya fanlari nomzodi. - T.: 1994. - 142 b.
10. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики, 2005. 320 с.
11. Каппенберг Р.П. Семейные кризисы // Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е / Под ред. Р. Корсини, А. Ауэрбаха. – СПб.: 2003
12. Лутфуллаева Н.Х. Турмуш курган талабаларнинг oilaviy munosabatlariga tayёрлигининг ijtimoiy psixologik xususiyatlari - psixol.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати – Т., 2006 – 24 б.
13. Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. – СПб.: Речь, 2005. – 150 с.
14. Овчарова Р.В. Психология родительства: Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2005. – 368 с.

15. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. T.: Sharq, 2000. - 272 b.
16. Основы психология семи и семейного консультирования: Учебное пособие для студентов вузов. / Под общ. ред. Посисоева Н.Н. - М.: Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004.- 328 с.
17. Психология семейных отношений: конспект лекций сост.С.А. Векилова. - М.: AST; - СПб.: Sova, 2005. - 127 с
18. Рўзикулов Ф.Р. Ўзбек оилаларида ажралишларнинг ижтимоий-психологик асоратлари: Психол.ф.н.дис... автореф. – Т.: ЎЗМУ, 2002. – 20 б.
19. Салаева М.С. Ўзбек оилаларида ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психол.ф.н... дис. – Т.: ЎЗМУ, 2005. – 198 б.
20. Сатир В. Психотерапия семьи. – СПб.: Речь, 2000. – 284 с.
21. Сатир В. М. Как строит себя и свою семью. М.: Педагогика - ПРЕСС. 1992. -191 с.
22. Социология семи: Учебник / Под ред. проф. Антонова А.И. - 2-э изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 640 с. (Классический университетский учебник)
23. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabat-lar psixologiyasi. Toshkent, "Yangi asr", 2007.
24. Шнайдер Л.Б. Семейная психология: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. М.: Академический проект. 2006. - 768 с.
25. Shoumarov G'.B. va b. Oila psixologiyasi. - Т.: "Sharq", 2008 у. - 296 б.
26. Эйдемиллер Э.Г., Добряков И.В., Никольская И.М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. СПб.: Речь, 2003. -336 с.
27. Mallers M.H., Charles S.T., Neupert Sh.D., Almeida D.M. Perceptions of childhood relationships with mother and father: daily emotional and stressor experiences in adulthood//Developmental Psychology. -2010. -№46(6). - P.1651-1661.

28. Van Doorn Marleen M. E., Bodden D., Jansen M., Rapee R.M., Granic I. Linking Mother-Child Discrepancies to Behavioral Observations of Children's Anxiety//Child & Youth Care Forum. – 2018. – №4 (V.47). – P.481-498.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB. OILA PSIXOLOGIYASI FAN SIFATIDA</b>	
1.1. Psixologik bilimlar tizimida oila psixologiyasining tutgan o'mi.....	5
1.2. Oilaviy psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi.....	6
1.3. Oila psixologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari.....	16
1.4. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari.....	18
<b>II BOB. OILA VA NIKOH INSTITUTINING RIVOJLARISH TARIXI</b>	
2.1. Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi.....	23
2.2. Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an'analar.....	27
2.3. Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar.....	31
<b>III BOB. OILANING IJTIMOIIY VAZIFALARI VAZIFALARI. IJTIMOIIY ROLLAR</b>	
3.1. Zamonaviy oila turlari .....	39
3.2. Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o'zaro aloqadorligi.....	47
3.3. Oilada rollar taqsimoti va oilaning rolli tuzilishi.....	52
<b>IV BOB. YOSHLARNI OILAVIIY HAYOTGA TAYYORLASH</b>	
4.1. Oilaviy hayotga tayyorlik jihatlari.....	65
4.2. Psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.....	71
4.3. Nikohga kirish ustanovkasining shakllanishi.....	74
4.4. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi omil sifatida.....	78
<b>V BOB. OILANING HAYOTIIY SIKLI</b>	
5.1. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi.....	85
5.2. Oila hayotiy siklining hayotiy bosqichlari.....	86
5.3. Oila rivojlanishining normativ inqirozlari.....	92
<b>VI BOB. ER-XOTIN JUFTLIGINING SHAKLLANISHI</b>	
6.1. Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari.....	95
6.2. Nikoh motivlari va er xotin munosabatlari.....	98
6.3. Oila qurishdan oldingi davrning o'ziga xosligi.....	103
6.4. Oiladagi emotsional munosabatlar xarakteri.....	106
<b>VII BOB. YOSH OILALARINING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI</b>	
7.1. Yosh oila psixologik izlanishlarning obekti sifatida.....	113
7.2. Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari.....	115
7.3. Oiladagi rollar.....	116
7.4. Oila integratsiyasining ijtimoiy funksional mexanizmlari.....	120

<b>VIII BOB. OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI</b>	
8.1. Oilada muloqot.....	125
8.2. Oilaviy munosabatlarning o`ziga xosligi.....	130
8.3. Er-xotin munosabatlarining rivojlanishi.....	136
8.4. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari.....	139
<b>IX BOB. OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING TURLARI</b>	
9.1. Nizo va uning psixologik xususiyatlari.....	144
9.2. Oilaviy nizolar va ularning turlari.....	145
9.3. Er-xotin nizolarining asosiy sabablari.....	152
9.4. Oilada muloqotning buzilishi.....	155
9.5. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari.....	162
<b>X BOB. OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI: OILA INQIROZI VA NIKOH AJRIMLARI</b>	
10.1. Oilaviy munosabatlarning buzilishi.....	167
10.2. Ajralishlarga sabab bo`luvchi omillar.....	168
10.3. Ajralish bosqichlari.....	172
10.4. Ajralish oqibatlari.....	176
<b>XI BOB. OTA-ONA – BOLA MUNOSABATLARI PSIXOLOGIYASI</b>	
11.1. “Ota - ona – bola” munosabatlari xarakteristikasi.....	186
11.2. Reproduktiv xulq.....	188
11.3. Onalik xulq-atvorining shakllanishi.....	193
11.4. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari.....	196
11.5. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi... ..	201
<b>XII BOB. OILA DIAGNOSTIKASI VA KONSULTATSIYASI</b>	
12.1. Oila diagnostikasi xususiyatlari.....	205
12.2. Oila konsultatsiyasining o`ziga xos xususiyatlari.....	206
12.3. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan metod va usullar.....	216
12.4. Oila psixoterapeyasi asoslari.....	220
<b>XIII BOB. O`ZBEKISTONDA OILA SIYOSATINING SHAKLLANISHI</b>	
13.1. Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uni asosiy tamoyillari.....	223
13.2. O`zbekistonda oilalarni o`rganishga qaratilgan tadqiqotlar.....	228
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>236</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>	<b>240</b>

**Dilbar Abdullayeva**

# **OILA PSIXOLOGIYASI VA PSIXOTERAPIYASI**

*(darslik)*

Bosishga ruxsat etildi. 16.02.2023 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog'i 11.5, Adadi 100. Buyurtma № 18  
Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universitetining bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

